

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

UZBEK STATE WORLD LANGUAGE UNIVERSITY

УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

**“ZAMONAVIY TA‘LIM PEDAGOGIKASI VA
PSIXOLOGIYASI MODERNIZATSIYASI: TAJRIBA
VA TENDENSIYALAR TAHLILI” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**

**Toshkent shahri
2023-yil 15-sentabr**

**Toshkent
“METODIST NASHRIYOTI”
2023**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

UZBEK STATE WORLD LANGUAGE UNIVERSITY

УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

**“ZAMONAVIY TA'LIM PEDAGOGIKASI VA
PSIXOLOGIYASI MODERNIZATSIYASI: TAJRIBA
VA TENDENSIYALAR TAHLILI” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**

**Toshkent shahri
2023-yil 15-sentabr**

**Toshkent
“METODIST NASHRIYOTI”
2023**

UDK:37.013:159.9

KBK:74.0:88

Z11

“Zamonaviy ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi modernizatsiyasi: tajriba va tendensiyalar tahlili. Maqolalar to’plami. – Toshkent: “METHODIST NASHRIYOTI”, 2023, 200 b.

Ushbu to’plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-maydagi 118-son Farmoyishi asosida O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2023 yil 15- sentabr kuni o‘tkazilgan “Zamonaviy ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi modernizatsiyasi: tajriba va tendensiyalar tahlili” mavzusida respublika miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman (onlayn) materiallaridan tashkil topgan. To’plam materiallaridan mutaxassislar, o‘qituvchilar, tadqiqotchilar hamda magistratura va bakalavriat talabalari foydalanishlari mumkin.

Tahrir hay’ati:

1. Isakulova N.J., ped. fan. dok., prof.
2. Shamshetova A.K., psix. Fan. nom., dots.
3. Yo‘ldosheva S.M., ped. fan. nom., dots.
4. Isamova P.Sh., ped. fan. nom., dots.
5. Jumaniyozova M.T., ped. fan. nom., dots.
6. Sharipova S.B., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
7. Miliyeva M.G.

**Maqolalarni to‘plovchi va nashr uchun mas‘ul:
Miliyeva M.G.**

Maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

To’plam maqolalari O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining «Pedagogika va psixologiya» kafedrasida tahrir etilgan va universitet kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-740-44-2

© “METHODIST NASHRIYOTI”, 2023.

KIRISH SO‘ZI

Ta'lim sohasini tubdan takomillashtirishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari har bir sohada keng joriy etilib, jamiyat hayotida transformatsiya jarayonlari jadallashmoqda. Ta'lim sohasida yangi fanlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalari yaratilayapti. Davlatlar o'rtasida "aql egalari" uchun kurash avj olib bormoqda. Shu ma'noda, tobora globallashib borayotgan dunyoda sifatli kadrlar tayyorlash masalasi har bir davlatning kelajagini belgilab beruvchi asosiy omil ekanligi yanada oydinlashdi. Shu maqsadda keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini izchil rivojlantirish borasida aniq, izchil va keng ko'lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinayotganini ta'kidlash lozim. Konferensiyalar tashkil etish ilmiy tadqiqotlarimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 2 maydagi 118-sonli Farmoyishi asosida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2022 yil 15 sentabr kuni – "Zamonaviy ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi modernizatsiyasi: tajriba va tendensiyalar tahlili" mavzusida respublika miqyosida konferensiya tashkil etilishi belgilab berilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2021 yil 19 maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-610-son Qarorlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu konferensiya ilmiy natijalari ma'lum darajada xizmat qiladi. Ushbu respublika ilmiy-amaliy konferensiya aynan zamonaviy ta'limni rivojlantirish masalalariga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Konferensiyani tashkil etish uchun tashkiliy qo'mita shakllantirildi va tashkiliy qo'mitaga taqdim etilgan maqolalar tahrir etilib, to'rtta sho'bag'a ajratilib o'rganib chiqildi.

Ushbu konferensiyaga respublikamizning barcha viloyatlaridagi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan maqolalar taqdim etilgan bo'lib, zamonaviy ta'limning nazariy va amaliy muammolari, pedagogika nazariyasi va ta'limotlar tarixi, ta'limda innovatsiyalar, ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi, pedagogik faoliyatda innovatsion texnologiyalar va ta'limni raqamlashtirish muammolari kabi yirik masalalarni ijobiy hal etishning nazariy jihatlarini ko'rsatib berishi shubhasizdir.

Mazkur konferensiya materiallaridan talabalar, magistrlar, tayanch doktorantlar, doktorantlar hamda professor-o'qituvchilar monografiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlarini tayyorlashda foydalanishlari mumkin.

YOSHLAR TARBIYASIGA INTERNETNING TA'SIRI

Tuxtasinov I.M., O'zDJTU rektori

Internetning ulkan imkoniyatlari, unda axborot oqimining tezkorligi, auditoriyaning cheklanmaganligi, o'z maqsadlarini terroristik yo'l bilan amalga oshirishni odat qilib olgan – yovuz kuchlarning manfaatlariga ham xizmat qiladi. Endilikda Internet tizimida yuzlab terroristik saytlarning manzillari aniqlangan. Terrorizm – Internetda o'ta izchil voqelik: saytlar to'satdan paydo bo'ladi va tez-tez formatini o'zgartirib turadi. Kutilmaganda esa, o'z mundarijasini saqlagan holda, ammo manzilini o'zgartirish yo'li bilan ko'zdan g'oyib bo'ladi. Internetning ta'siri va terroristik saytlar asosan uchta auditoriyaga yo'naltirilgani aniqlandi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Internetning ta'siri va terroristik saytlar

Internetning ta'siri	Terroristik saytlar
a) yot, buzg'unchi g'oyalarning kirib kelishi (diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik, sadizm misolida); b) G'arb yashash tarziga xos, lekin o'zbek mentalitetiga zid g'oyalar, qarashlarning yoshlarga ta'siri (kiyinish, chekish, pirsing, tatuirovkalar va hokazo); c) pornografik axborotlarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri; d) tekshirilmagan axborotlar (bo'xtonlar)	a) avvaldan mavjud va potensial tarafkashlar b) xalqaro jamoatchilik fikri c) muayyan mamlakat jamoatchiligi

Ko'pgina mutaxassislar kiberterrorizmning xavfi haqida bot-bot gapirishsada, terroristlar tomonidan Internetdan shunchaki foydalanishni nazardan chetda qoldirar ekanlar. Zamonaviy terroristik guruhlar Internetdan asosan quyidagi sakkiz usul orqali foydalanadilar:

- psixologik urush;
- reklama va targ'ibot;
- ma'lumotlar to'plash;
- vositalar to'plash;
- qo'lga tushirish va safarbar etish;
- tizimlar tashkil etish;
- axborot ta'minoti;
- rejalashtirish va koordinatsiya.

Aholini (jamiyatimizni) kiberterrorizm va Internetdagi terroristik harakatlardan himoya qilish bilan birga, bir qator antiterroristik harakatlar majmuini ishlab chiqish talab etilmoqda. Internetdagi faoliyatning ijobiy tomonlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- A) dunyoqarashning kengayishi;
- B) obyektiv va negativ axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilish imkoniyati (bunda yosh yigit yo qizning axborotga «to'q bo'lishi» va ularni saralay olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Agar unda axborotga bo'lgan «did» bo'lmasa, u axborot oqimida «cho'kib» ketishi mumkin ya'ni, ta'siriga berilib ketishi);
- C) masofaviy o'qishlarda ishtirok etish imkoniyati;
- D) axborotlarni tanlash imkoniyati borligi [3].

Bugungi yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilishadi. Lekin ularda axborot immuniteti shakllanmagan mish-mishlar dunyosi bo'lmish «Internet» orqali ma'naviyatga salbiy ta'sir vujudga kelishi mumkin. Nega ta'sir qiladi? Balki yoshlar ma'naviyatining yetarli darajada shakllanmaganligi emasmikan? Bugungi kunda yoshlarimiz – turli xil G'arb seriallari ta'sirida, milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o'sayotganligi sababli ma'naviyatga qaytadan chuqur e'tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni

o'tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo'lishlariga qaramasdan, Vatan manfaati yo'lida xizmat qilishlariga, begona g'oyalarga berilmasligiga kafolat ham berolmaymiz. Ularni eng avvalo Vatanga e'tiqodni, urf-odat va qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalasakgina, istalgan buzg'unchi axborotlarga nisbatan o'z axborot immunitetlari shakllanadi. Axborot qurollari sifatida qaraladigan vositalar:

- axborot massivlarini yo'q qilish, buzish va to'g'rilash;
- himoyalash tizimini aylanib o'tish;
- qonuniy foydalanuvchilar imkoniyatlarini cheklash;
- kompyuter tizimining texnik vositalari ishlashini buzib tashlash;
- kompyuter viruslari;
- mantiqiy bombalar;
- test dasturlarini ishdan chiqaruvchi vositalar
- axborot ayriboshlashni yo'q qiluvchi vositalar;
- har xil turdagi xatoliklar [3].

Axborot qurolining universalligi, yashirinligi, dasturiy apparat amalga oshirilishi shakllarning ko'p variantligi, ta'sirlarning radikalligi, vaqt va joy tanlash imkonining yetariligi va nihoyat tejamlilik, uning juda xavfsizligini ko'rsatadi: u osongina himoya tizimiga yashirinishi mumkin, urush e'lon qilmasdan anonim shaklda hujum harakatlarini olib borishi mumkin.

Hozirgi davrda ishlab chiqarish va boshqarish, mudofaa va aloqa, transport va energetika, moliya va fan, ta'lim, OAV – barchasi axborot almashuvi jadalligiga, haqqoniyligiga, to'liqligi va tezligiga bog'liq. Shuning uchun jamiyatning axborot infrastrukturasi – axborot qurolining nishonidir. Rangli inqiloblar davrida axborot huruji bo'ladi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Rangli inqiloblar davrida axborot huruji

№	Rangli inqilob	Rangli inqilob mazmun-mohiyati
1.	Rangli inqilob	qonuniy hukumatlarni noqonuniy yo'llar bilan ag'darib tashlash demakdir (Serbiya, Gruziya, Ukraina)
2.	Rangli inqilob	G'arbning kuchli axborot bosimi asosida amalga oshiriladi
3.	Rangli inqilob	amalga oshirishda zamonaviy va qimmatbaho elektron axborot vositalaridan keng foydalaniladi

Axborot hurujlariga qarshi turish uchun kiberterrorizm va axborot hurujlarining turlarini bilish talab etiladi (3-jadvalga qarang):

3-jadval.

Axborot hurujlariga qarshi turish hamda kiberterrorizm turlari

Axborot hurujlariga qarshi turish	Kiberterrorizm turlari	Axborot hurujlarining turlari
Loqayd bo'lmaslik; O'z qat'iy pozitsiyasiga ega bo'lish; O'z pozitsiyasini argumentlay bilish; Hozirjavoblik (har bir hurujga vaqtida javob qaytarish)	Virus tarqatish; Internetda noqonuniy boylik orttirish; Kiber-manyakchilik; Turli xil kiberjinoyatlar va h.k.; Turli bo'xton va uydirmalar tarqatish orqali biror mamlakatni yoki shaxsni obro'sizlantirish	Yolg'on axborot tarqatish; Ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish; Milliy-ma'naviy qadriyatlarni yemirib tashlash; Yetti yot begona ma'naviy qadriyatlarni singdirish; Xalqning tarixiy xotirasini buzish va o'zgartirish; Kiberterrorizm

Axborot hurujining asosiy qismlari mavjud (4-jadvalga qarang):

4-jadval.

Axborot hurujining asosiy qismlari

№	Axborot hurujining asosiy qismlari	Axborot hurujlari
1.	Psixologik operatsiyalar	axborotdan fuqarolarga ta'sir etishda foydalanish
2.	Elektron huruj	aniq ma'lumotlarni olish imkonini bermaydigan vosita
3.	Dezinformatsiya	dushmanga soxta axborot berish
4.	Fizik buzilish	axborot hurujining qismi sifatida qaralishi mumkin, agarda axborot tizim elementlariga ta'sir etish ko'zda tutilgan bo'lsa
5.	Ochiq axborot hurujlar	axborotni ko'zga ko'rinmaydigan o'zgartirishlarsiz buzish

Axborot hurujlarining maqsadlari o'z axborot funksiyalari va resurslarini himoyalagan holda axborot muhitini nazoratga olish. Axborot hujumlarini olib borish uchun nazorat qilinayotgan axborotlardan foydalanishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Globallashuv nima - globallashuvning ijobiy tomonlari va kamchiliklari va uning oqibatlari. Elektron resurs: Globallashuv - bu zamonaviy dunyo globallashuvining salbiy ifodasi nima? (unistica.com). Murojaat sanasi: 20.02.2022.

2. Globallashuv: tarixi, xususiyatlari, sabablari, oqibatlari. Электрон ресурс: Globallashuv: tarixi, xususiyatlari, sabablari, oqibatlari - Fan - 2022 (warbletoncouncil.org) Мурожаат санаси: 20.02.2022.

3. Globallashuv llashuv jarayoni va axborot xavfsizligi. Elektron resurs: Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi | infoCOM.UZ Murojaat sanasi: 20.02.2022.

GLOBALLASHUV JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**B.Abdullayeva, TDPU,
ilmiy shlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor**

Globallashuv jarayoni qadim zamonlarda boshlangan, Rim imperiyasi O'rta Yer dengizi ustidan hukmronlik qilgan. Ikkita Jahon urushlari to'xtatib turolmasdi va uning yakunlanishi barcha davlatlarni bir butunga birlashtirib turadigan bo'lib, hatto qadimgi yunon mutafakkirlari Diogenes tomonidan ham taxmin qilingan. Ushbu jarayonning manbai iqtisodiyotning rivojlanishi. Har qanday yagona davlat endi yopiq tizim emas: erkin savdo, kapital oqimlari va soliq va majburiy qisqarishlar kuzatiladi. Shu asosda davlatlarning milliy suverenitetini buzadigan yagona tarmoq bozor iqtisodiyoti shakllantiriladi. Natijada, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarni birlashtiradigan mamlakatlarning jahon integratsiyasi mavjud. Globallashuv tushunchasi barcha to'siqlar va chegaralarni bosqichma-bosqich yo'q qilish va yagona jamiyatni yaratish bilan bog'liq.

Bu jarayon avvalo iqtisodiy jihatdan bo'lgani uchun dunyodagi yirik kompaniyalar va global monopoliyalari vakillari birlashtirilgan jamiyat g'oyasi uchun kurashmoqda. Ular mehnat qonunchiligini soddalashtirishni istaydilar, chunki buning uchun ko'proq moslashuvchan mehnat bozori talab qilinadi. Bundan tashqari, ular davlat ustidan nazoratni kamaytirishga va hatto hukumatning o'zlarini nazorat qilishga harakat qilishadi. Globallashuvning mohiyati to'siqsiz umumiy bozorni yaratishdan iborat, dunyodagi yagona totalitar hukumat bu dunyoning qudrati hamma narsani boshqaradigan markazdir.

Ular bozor-kapitalistik munosabatlarni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Evropa savdosi va Yevropa jahon iqtisodiyotining rivojlanishi bilan barqaror iqtisodiy o'sish boshlanadi. Globallashuv jarayoni Amerikani mustamlaka qilish, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan savdo-sotiqning o'sishi va texnologik taraqqiyotning rivojlanishi va Internetning paydo bo'lishi bilan uni davom ettirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, JST, Evropa Ittifoqi singari ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar, bu globallashuv va uning dunyoni qanday o'zgartirganligi. Ushbu tashkilotlarga vakolat berish bilan ularning siyosiy ta'siri sezilarli darajada oshdi.

Insonlarning migratsiyasi va sarmoyaning erkin harakatlari fonida davlatning o'z fuqarolariga berilgan kuchlari kamaydi. Natijada, jahon siyosatining muammolari G-8 turidagi ochiq klublar va yopiq yashirin jamiyatlar - Masonlar va boshqalar tomonidan hal etila boshlandi.

Bu jarayon inson hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatdi. Globallashuvning asosiy omillari:

1. Milliy davlatlarning zayıflaması.
2. NATO, BMT kabi jahon tashkilotlarining paydo bo'lishi va ularning kuchini oshirish.
3. Globallashuv jarayoniga qiziqqan kishilar uchun bu erkin savdo, kapital harakatlari va soliqlarning kamayishi shakllanishidir.
4. Reklama taraqqiyoti.
5. Eksport va import hajmini oshirish.
6. Qimmatli qog'ozlar birjasining aylanmasi.
7. Turli qit'alarda joylashgan korxonalarni birlashtirish.
8. Madaniyatlarni birlashtirish, xalqaro tilning paydo bo'lishi.
9. Xalqaro turizmni rivojlantirish [1].

Butun dunyodagi siyosatchilar va olimlar bu jarayonning odamlarning hayotidagi o'rni haqida bahslashmoqda. Biroq globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlarini inkor eta olmaydi. Ha, u xalqaro raqobatni yuzaga keltirdi va bu kompaniya o'z mahsulotlarining sifatini yaxshilashga, texnik taraqqiyotni tezlashtiradigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga majbur qiladi. Shu bilan birga, transmilliy kompaniyalar davlatni bosim ostiga olib, ularni o'z fuqarolarining manfaatlarini maksimal foyda bilan ta'minlashga majbur qilishmoqda, ammo ularning barchasi oligarxlarning qo'liga topshiriladi va oddiy fuqarolar faqat kambag'al bo'lib qoladilar.

Dunyoni yagona tizimga aylantirishning mahorati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- b) Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni ishlab chiqish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish.
- c) Globallashuvning oqibatlari o'lchov iqtisodiyoti bilan bog'liq. Iqtisodiyotda sakrashlar kamaydi, buning oqibatida narxlar pasayishi bo'ldi.
- d) Bozor munosabatlarining barcha sub'ektlari xalqaro savdoda qiziqish uyg'otadi va bu faqat globallashuv jarayonini tezlashtiradi.
- e) Zamonaviy texnologiyalar joriy etilib, mehnat unumdorligini oshiradi.
- f) Uchinchi dunyo mamlakatlari rivojlangan davlatlarga erishib, iqtisodiy vaziyatni yaxshilash imkoniyatiga ega.

Globallashuvning kamchiliklari. Globallashuvning nima ekanligi haqidagi tushunchani aks ettiradigan universal integratsiya va unifikatsiya qilish kiruvchi oqibatlarga olib keldi, ular orasida:

1. Sanoatning yo'q qilinishi, ishsizlik, qashshoqlik. Buning barchasi globallashuvning tengsiz taqsimlanishi va kuchli kompaniyalar katta foyda keltirishi bilan birga, raqobatbardosh bozorni yo'qotish keraksiz bo'lib qolmoqda.
2. Globallashuvning salbiy ko'rinishi ham tug'ilishni qisqartirishga qaratilgan.
3. Iqtisodiyotni deinstrializatsiya qilish qayta o'qitish zarurligiga olib keladi. Natijada, inson hayoti uchun 5 yoki undan ortiq kasblarni o'zgartirish mumkin.
4. Globallashuvning salbiy oqibatlari atrof-muhitning yomonlashuvida yotadi. Dunyo falokat yoqasida turibdi: noyob jonivorlar o'ladi, iqlim isitadi, havoning tiqilib qolishi va hokazo.
5. Globallashuv va uning oqibatlari mehnat qonunlariga ta'sir ko'rsatdi. Ishchilar soni ortib bormoqda, norasmiy ishlaydi. Ularning huquqlari hech kim tomonidan himoyalangan.
6. Spekulyativ iqtisodiyotning o'sishi, ishlab chiqarishni monopollashtirish.
7. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi farqni oshirish [1].

Bu jarayonda ko'plab mamlakatlar ishtirok etmoqda. Jahon jamiyati hayotining barcha sohalari o'zgarishlarga uchraydi. Globallashuv shakllari odamlar hayotining ustun tomonlari

bilan belgilanadi, ikkinchisi - savdo, iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni kengaytirishdir. Dunyoning deyarli barcha davlatlari moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlarini boshdan kechirdilar. Siyosiy sohada davlatlar va ayrim shaxsiy kuchlar o'rtasida barqaror aloqalar mavjud. Bundan tashqari, turli xalqlarning biznes madaniyatlarini birlashtirish bor (1-jadvlaga qarang):

1-jadval.

Globallashuv turlari

№	Globallashuv turlari	Globallashuvning mazmun-mohiyati
1.	Iqtisodiy globallashuv	Bu dunyo taraqqiyotining asosiy muntazamligi. Dunyo ahvolini hisobga olgan holda, tarmoqlar tuzilishi, ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi, texnologiya va axborotni katta iqtisodiy makonga aylantirish aniqlanadi. Iqtisodiyotning globallashuvi - xalqaro savdoning o'sishi, YaIMning o'sishi. Jahon moliya bozorlari kuniga 24 soat ishlaydi va poytaxtlar bu qadar tez harakat qiladi, bu esa barqaror iqtisodiy tizimlarning vujudga kelishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, bu esa globallashuvdir. Bu jarayon iqtisodiyotning periferiya modelini aniqlaydi
2.	Siyosiy globallashuv	Uning asosiy natijasi - hukumat sub'ektlarining markazlashtirilishi. Milliy davlatlar zaiflashmoqda, ularning suvereniteti o'zgarib, kamayib bormoqda. Siyosatda globallashuv katta transmilliy korporatsiyalarning rolini oshirishga olib keladi va bu bilan mintaqalar davlatning ichki ishlariga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Aniq bir misol Evropa Ittifoqi, mintaqalarning ahamiyatini va ularning Yevropa Ittifoqidagi rolini belgilaydi
3.	Madaniy globallashuv	Bu jarayon ikkinchi darajali, ammo odamlarning milliy urf-odatlaridan qanday qilib asta-sekin tark etayotgani, umuminsoniy qadriyatlarga va madaniy qadriyatlarga o'tishi mumkin emas, bu mumkin emas. Madaniyatning globallashuvi maktabdan o'yin-kulgi va modaga qadar barcha sohalarga ta'sir ko'rsatdi. Butun dunyo bo'ylab ular bo'sh vaqtni o'tkazish va boshqa xalqlarning oshxonalaridan kelgan ovqatlarni sevib qolgani kabi, taxminan xuddi shunday libos kiyishni boshladilar. Kitoblar bir nechta tillarga tarjima qilinib, ko'plab mamlakatlarga ketadi

Couchsurfing juda mashhur bo'ldi. Dunyoni ko'rish, boshqa xalqlarning urf-odatlarini va madaniyatini bilan tanishish uchun odamlar odamlarni uylariga taklif qiladilar, shuningdek sayyoradagi boshqa har qanday nuqtaga butunlay begona odamlarni tashrif buyuradilar. Bu Internet tarmog'i tomonidan targ'ib qilinmoqda, buning natijasida odamlar boshqa millat vakillari bilan muloqot qilish, tajriba va bilimlarni almashish imkoniga ega bo'ldilar.

Ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi shaxslar uni boshqarish mumkin emasligini va tabiiy xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydi, ammo agar pul siyosatini isloh qilish uchun oqilona proteksion siyosatni olib boradigan bo'lsak, salbiy oqibatlarni kamaytirish va o'z qadr-qimmatini oshirish mumkin. Global iqtisodiyotning salbiy ta'siridan himoyalangan milliy yoki mintaqaviy "erkin savdo hududlarini" shakllantirish kerak. Zamonaviy globallashuv dunyodagi muayyan turdagi milliy madaniyatni ommalashtiradi, biroq ekspertlar ba'zi mamlakatlarda milliy qadriyatlar nafaqat yo'qolib qolmay, balki qayta tiklanishiga ham ishonadilar. Hatto

dunyodagi tarqalgan McDonald's tarmog'i ham mahalliy aholi ovqatlanish odatlarini hisobga oladi va mahalliy odatlar va preferentsiyalarga muvofiq ovqatlarni taklif qiladi [1].

Globallashuvning boshlanishi haqida ko'plab nazariyalar mavjud. Iqtisodchi Aldo Ferrer (1927-2016) uchun bu hodisa 1492 yilda Yangi Dunyo kashf etilganda boshlandi, chunki shu paytdan boshlab sayyorani birlashtirgan dengiz tarmog'i tashkil etildi. Boshqa tomondan, faylasuf Marshal Maklyuan (1911-1980) 1960 yillarning boshlarida ommaviy axborot vositalari mamlakatlarni real vaqt rejimida bog'lab turadigan global aloqani o'rnatmoqdalar. Boshqa mualliflarning ta'kidlashicha, globallashuv 1958 yilda odamlarning Oyga kelishi bilan birga chipni ixtiro qilish bilan boshlangan. Ushbu jarayon 1969 yilda insoniyat tarixidagi eng muhim va inqilobiy ixtirolardan biri bo'lgan Internet yaratilishidan boshlangan deb hisoblanadi. Biroq, globallashuvning boshlanishi, Sovet Ittifoqi tarqatib yuborilgan va 1989 yilda Berlin devorining qulashi sodir bo'lgan Sovuq Urushning oxiriga to'g'ri keladi. Ushbu sana Sovet Ittifoqining qulashi deb hisoblangani sababli tanlangan. jamiyatlar yopiq va himoyalangan bozorlar mavjud bo'lgan loyihalarni amalga oshirish xalqlarning imkonsizligini namoyish etdi.

Hozirgi kunda o'zlarini globallashuv targ'ibotchilari deb hisoblaydigan ba'zi xalqaro tashkilotlar mavjud, masalan Jahon Savdo Tashkiloti (JST), Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD) va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVF). Biroq, globallashuv bu siyosiy institutlardan mustaqil ravishda boshqariladigan fuqarolik va tijorat jarayonidir. Shunga qaramay, globallashuv jarayonini qo'llab-quvvatlashdan iborat Jahon iqtisodiy forumi deb nomlangan xususiy tashkilot mavjud [2] (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Globallashuvning xususiyatlari

No	Globallashuv xususiyatlari	Xususiyatlarning mazmun-mohiyati
1.	Bu dinamik jarayon	Globallashuv har bir millat qonunlariga moslashishi shart bo'lmagan dinamik va uzluksiz hodisadir
2.	Yangi bozorlarni yaratish	Globallashuv mamlakatlar o'rtasidagi jismoniy to'siqlarni keskin kamaytirishni nazarda tutadi. Bu bozorni diversifikatsiya qilish va kengaytirish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga imkon berdi. Diversifikatsiya natijasida yangi bozorlar paydo bo'ldi. Globallashuvning ayrim tanqidchilari, bu boy mamlakatlar uchun kambag'al mamlakatlar bilan ishlash imkoniyatlaridan foydalanish uchun ideal maydon yaratganligini ta'kidlamoqdalar, chunki bu mamlakatlardagi ishchi kuchi arzonroq
3.	Telekommunikatsiya bozorini ekspluatatsiya qilish	Globallashuv telekommunikatsiya bozorini doimo oziqlantirib turadi, chunki u millatlar o'rtasida ishtirok etish va ittifoq tarmoqlarini o'rnatishga mas'uldir. Klaus Bodemerning matniga ko'ra, 1995 yilda ushbu bozor bir trillion uch yuz ming million dollarga etdi
4.	Kompyuter jamiyatining kelib chiqishi	Globallashuv hodisasi axborot jamiyatining tug'ilishini vujudga keltirdi, bu erda yaqin kelajakda aholi ikki sinfga bo'linadi: raqamli savodli va aloqa tizimlari yoki texnologik ishtiroki bo'lmaganlar
5.	Erkin savdoni tashkil etish	Globallashuv jarayoni erkin savdoni qo'llab-quvvatlaydi va ko'paytiradi, natijada dunyo mamlakatlari o'rtasida xizmatlar va tovarlar bilan savdo qilinadigan shartnomalar amalga oshiriladi; bu ishlab chiqarishni kengaytirish va iqtisodiyotni ko'paytirish maqsadida

6.	Xalqaro moliya tizimi	Globallashuv paydo bo'lishi bilan moliya tizimi baynalmilallashishi kerak edi, bu esa jahon kapital bozoriga olib keldi. Hozirgi kunda Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon Banki kabi institutlar mavjud bo'lib, ularning javobgarligi global korporatsiyalarni himoya qiladigan moliyaviy siyosatni ishlab chiqishdir
7.	Turli madaniyatlar o'rtasidagi almashinuv	Globallashuv jarayoni dunyo mamlakatlarida qadriyatlar, urf-odatlar va urf-odatlar almashinishini keltirib chiqardi. Aloqa tarmoqlari tufayli odamlar minglab chaqirim uzoqlikda bo'lishiga qaramay, aloqada bo'lishlari mumkin. Biroq, bu ko'proq konservativ bo'lgan jamiyatlarda tortishuvlarni keltirib chiqardi
8.	Xalqaro qoidalar	Globallashgan dunyo har bir mamlakat yoki mintaqaga nisbatan global qoidalarga ustuvor ahamiyat beradi. Bu jinoyatchilik, biznes, intellektual mulk, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat standartlari, sog'liqdan foydalanish, raqobat siyosati va boshqa jihatlar kabi xalqaro qoidalarni ishlab chiqadigan dunyo tashkilotlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro qoidalar, ko'p hollarda, mahalliy qoidalarga qaraganda ko'proq ahamiyatga ega. Globallashuvni yomonlashtiradigan ayrimlarning fikriga ko'ra, bu holat ayrim mamlakatlar uchun zararli bo'lishi mumkin, chunki bu avtonomiyani kamaytirishi mumkin
9.	Suverenitetga tahdid	Globallashuv doirasida xalqaro tashkilotlar, aksariyat hollarda, mamlakatlarning mahalliy qoidalaridan tashqariga chiqadigan qoidalarni ilgari surmoqdalar. Olimlarning ta'kidlashicha, buning natijasida har bir millatning ichki qonunlari past baholanib, savdo, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy kabi turli sohalarda salbiy natijalarga olib keladi
10.	Xalqaro ijtimoiy harakatlar	Globallashuv turli mamlakatlardagi odamlarga o'zaro ta'sir o'tkazishga va shu kabi xavotir va manfaatlarga muvofiq guruhlar tuzishga imkon beradi. Shu tufayli, ijtimoiy harakatlar atrof-muhitni muhofaza qilish, qochqinlarni himoya qilish, kam ta'minlangan odamlarga g'amxo'rlik qilish va boshqa sohalarda sezgir ravishda paydo bo'lishini ko'rish mumkin
11.	Katta bag'rikenglik	Globallashuv turli mintaqalardagi odamlarning umumiy makonda birga yashashiga olib keldi, bu ularni kuzatishga va o'zaro munosabatda bo'lishga undaydi. Globallashuv, shuningdek, boshqa ko'rinishlar qatorida kino, televidenie, adabiyot va san'at orqali turli xil haqiqatlarni bilishga imkon beradi va ularni o'z kontekstidan tushunish uchun joy beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Globallashuv nima - globallashuvning ijobiy tomonlari va kamchiliklari va uning oqibatlari. Elektron resurs: Globallashuv - bu zamonaviy dunyo globallashuvining salbiy ifodasi nima? (unistica.com). Murojaat sanasi: 20.02.2022.

2. Globallashuv: tarixi, xususiyatlari, sabablari, oqibatlari. Электрон ресурс: Globallashuv: tarixi, xususiyatlari, sabablari, oqibatlari - Fan - 2022 (warbletoncouncil.org) Мурожаат санаси: 20.02.2022.

3. Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi. Elektron resurs: Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi | infoCOM.UZ Murojaat sanasi: 20.02.2022.

РОЛЬ И МЕСТО САМООБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ

**Ашуров А. А., первый проректор
Туринаского политехнического университета в г.Ташкенте**

Современные тенденции, складывающиеся в обществе, выявили необходимость модернизации образования. Все более высокая потребность в высококвалифицированных специалистах, способных постоянно совершенствоваться и развивать собственные знания и умения, вызывает необходимость создания новой модели современного выпускника. Это обусловлено быстрым развитием современной инновационной техники, появлением новых методических расчетов вследствие непрерывного развития общества.

Общество ставит перед высшими учебными заведениями цель подготовить высококвалифицированных, грамотных, компетентных, способных постоянно самосовершенствоваться и развиваться в жестких условиях современного экономического развития. Современный ВУЗ не может обеспечить всем набором знаний, необходимых выпускнику при осуществлении своей профессиональной рабочей деятельности. Поэтому особого внимания заслуживают два вопроса: самообразование и саморазвитие, как сегодняшних студентов, так и уже сложившихся специалистов.

В основе самообразования лежит процесс самообучения, позволяющий студентам вуза выработать новые личностные качества, знания и умения. Это предполагает получение навыков самостоятельной подготовки обучающихся еще в стенах ВУЗа.

В связи с этим, перед высшим учебным заведением стоит цель обеспечить процесс формирования готовности студентов к самообучению, что в дальнейшем откроет перспективы профессионального карьерного роста.

Модель современного выпускника должна представлять собой совокупность степени развития личностных качеств и уровня профессиональной компетентности. К составляющим личностной компетенции технических специалистов стоит отнести:

- уровень познаний в профессионально технической деятельности;
- способность на должном уровне получать новые навыки, знания и умения;
- коммуникативность;
- креативность;
- неординарность мышления;
- инженерный склад ума;
- умение учиться и учить других;
- способность быстро принимать решения в нестандартных ситуациях;
- готовность адаптироваться к постоянно развивающимся техническим процессам;
- способность правильно понимать и четко излагать проблему;
- правильно ориентироваться в огромном объеме информации;
- решать обозначенную проблему, как на основе стандартных технических решений, так и с помощью инновационных предложений.

В настоящее время проблеме самообразования уделяется огромное внимание. Не смотря на это, данная проблема для технических специалистов не потеряла свою актуальность, а лишь перешла на новый этап. Специалист XXI века должен разбираться в таких вещах, которые в XX в. казались фантастикой, а сегодня это лишь элементы обыденной жизни.

Следует учесть, что на современном этапе развития общества и техники, важное место занимает приращивание знаний и умений, а также практического опыта не только отечественных, но и зарубежных специалистов. Это вызывает необходимость подготовки кадров, способных самостоятельно разбираться в технических устройствах, разработанных за рубежом. Для этого современному выпускнику необходимо быть

подготовленным с точки зрения знаний языка в области соответствующих его научным техническим интересам.

Специалист должен уметь разбираться с технической документацией устройства, не зависимо, на каком языке она представлена. Это условие подчеркивает значимость преподавания не только технических дисциплин, но и иностранных языков с учетом направленности подготовки будущего специалиста.

Выполненный теоретический анализ самообразовательной деятельности студентов и преподавателей Туринского политехнического университета в городе Ташкенте показал, что педагогический состав должен направить свои силы и старания на процесс развития внутренних мотивов к самообразованию, обозначить цели самообразовательной деятельности.

Студент должен самостоятельно определить наиболее рациональные для себя способы самостоятельной подготовки. В ходе данного процесса преподавателям необходимо постоянно подчеркивать успехи студента и стимулировать его старания, в ходе чего у будущего специалиста появится уверенность в своих силах, увеличится интерес к продолжению научно-исследовательской деятельности, как в ВУЗе, так и за его пределами.

Предлагается проводить стимулирование и формирования способности к самообразованию у студентов технических специальностей в три этапа.

На первом этапе нужно сформировать готовность к копирующей деятельности у обучающихся. У будущих специалистов на данном этапе внешняя мотивация к самообучению выше уровня саморегуляции. Происходит процесс осмысленного подражания профессорско-преподавательскому составу, выраженный в действиях. На втором этапе у студентов нужно сформировать готовность к воспроизводящей деятельности. На данном этапе у будущих специалистов также доминирует внешняя мотивация к самообучению. Студент должен уметь воспроизвести усвоенный им материал, а преподаватель должен содействовать ему в этом. Студент в состоянии совместно с руководителем освоить новый технический прием, и самостоятельно применять его в дальнейшем при аналогичных заданных условиях. На третьем этапе у студентов нужно сформировать готовность к самостоятельной самообразовательной деятельности. На данном уровне у обучающихся преобладает как внутренняя мотивация, так и высокий уровень саморегуляции. Благодаря этому специалисты смогут принимать быстрые мотивированные решения в процессе своей трудовой деятельности даже не в стандартных ситуациях.

Для улучшения качества самообразования студентов технических вузов необходимо учитывать следующие условия:

- наличие четкого мотива к получению знаний, как в процессе обучения, так и самообразования;

- наличие свободного времени для самостоятельного обучения;

- индивидуальные качества и возможности личности к обучению;

- возможность максимального интегрирования личностных качеств в процесс обучения;

- поддержка со стороны преподавательского состава;

- интегрирование в процесс обучения опыта, накопленного в процессе деятельности ВУЗа и каждого преподавателя в частности;

- интерес педагогов технических дисциплин к своей деятельности и умение с «изюминкой» преподнести свой предмет;

- разработка методических пособий и рекомендаций по проведению лабораторных работ каждой дисциплины.

Таким образом, в ходе исследования, учитывая все ранее рассмотренные аспекты, предлагается ряд практических рекомендаций для преподавательского состава технического вуза:

1) процесс самообучения студентов должен осуществляться с применением различных методов и средств;

2) самообразование должно основываться на самостоятельной экспериментальной деятельности;

3) в основе самообразования должно использоваться как ранее накопленные знания и умения, так и вновь полученные в ходе технической деятельности;

4) теория, полученная в процессе самообразования, всегда должна быть закреплена на практике;

5) объем самостоятельной работы студентов не должен быть меньше, предусмотренного учебно-методической программой;

6) в процессе самообразования студентов необходимо учитывать индивидуальные качества будущего специалиста, и осуществлять персональный подход к каждому, учитывая при этом аспект того, что знания учеников находятся на разном уровне, поэтому задания должны представлять разную сложность;

7) преподаватель должен оказывать помощь студентам по возникшим у них вопросам в процессе самостоятельной подготовки;

8) необходимо ясно и внятно обозначать задачу занятия, проводить инструктаж, а также установить конкретные сроки выполнения заданий и т.д.

В ходе теоретического анализа данной проблемы, мы пришли к выводу, что успешное формирование готовности к самообучению на основе индивидуальных качеств студентов технических вузов происходит путем самоопределения и самореализации личности.

Переход студентов на более высокий уровень самоподготовки обусловлен изменением ее самоотношения и углублением степени самостоятельности в обучении, что вызывает развитие всех составляющих индивидуальной личностной активности к самообразованию у студентов технических специальностей как в процессе обучения в ВУЗе, так и за его пределами.

Использованная литература:

1. Анцыферова Л. И. Развитие личности специалиста как субъекта своей профессиональной жизни // Психологические исследования проблемы формирования личности профессионала / под ред. В. А. Бодрова. - М., 1991. - С. 27-43.

2. Арнольд Р., Мюнх И. Вопросы и ответы относительно дуальной системы профессионального обучения. - Бонн, 1998.

3. Тайлаков Н. И., Эштемиров С., Аминов И. Б. О системе непрерывного образования в Узбекистане // Молодой ученый. — 2015. — №9.

PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR DOIRASIDA OTM PROFESSOR-O'QITUVCHILARINI KASBIY SARALASHNING PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKASI XUSUSIYATLARI

Djurayev D.U., O'zDJTU, DSc

Uralov M.D., Webster universiteti magistranti

Zamonaviy jamiyat hayotidagi ilmiy-texnika revolyusiyasi inson hayot faoliyatida o'ziga xos xususiyatlarning yuzaga kelishini taqozo etadi. Moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning barcha sohalarida insonning u bajarayotgan faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadigan natijalar dolzarblashib bormoqda, bu faoliyatni bajarish insonni mas'uliyatni, xavf-xatar va tavakkalni, turli kutilmagan vaziyatlarni, hayot va faoliyatdagi muvaffaqiyatsizliklarni kechirishga majbur qiladi.

Kadrlarni saralash qanday amalga oshirilganligiga qarab, tashkilot yoki korxonaning kelajakdagi faoliyati belgilanadi. Shuning uchun kadrlarni saralash jarayoniga jiddiy e'tibor qaratib, zamonaviy psixologiyada erishilgan tajriba va yutuqlarni hisobga olgan holda mazkur jarayonga yondashish zarur. Mehnatning jadallashuvi, mehnat faoliyatining juda ko'p turlari mazmunining o'zgarishi, yangidan yangi kasblarning yuzaga kelishi personalni saralab olish ahamiyatini oshirdi va ishga kiruvchi nomzodlardan u yoki bu kasbga loyiq bo'lish uchun maxsus talablarni qo'ydi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida alohida shaxs roli ortdi, kasbiy xususiyatlardan ko'ra shaxslilik xususiyatlari ko'proq ahamiyatli bo'lib, insonning tashkilot yoki korxonadagi o'rnini belgilab beradigan bo'ldi. Shuning uchun ham bugungi kunda ilgariga qaraganda kadrlarni tanlash va saralab olish uchun maxsus tadbirlarni olib borish tashkilot faoliyati samaradorligining asosiy mezoniga aylandi. Tashkilotning kadrlar siyosatiga mos holda mehnat resurslarini shakllantirish personalni boshqarishdagi murakkab va ko'p qirrali vazifadir. Bu shakllantirish reja asosida olib boriladi va o'z ichiga kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, faoliyat tahlili, nomzodlarga qo'yiladigan talablarni shakllantirish, bo'lajak xodimlarni ishga jalb etish vositalari va manbalarini tanlash, yangi xodimlarning tashkilotdagi integratsiyasini tashkil etishni oladi. Bunda konkret tashkilotda kadrlarni tanlash va saralash ana shu tashkilot vazifalari va imkoniyatlari, tashkilotdagi ichki va tashqi muhitga mos holda shakllantiriladi. Kadrlarni tanlash va saralash integral jarayon bo'lib, o'z maqsadi, ish metodlari va shakllariga ega bo'lgan holda, mazkur tashkilotdagi personal sifatini ta'minlovchi, qobiliyatli, maxsus tayyorlangan mutaxassislarni talab qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida har yili turli xil maqsadlarda professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyati yuzasidan nomzodlarni saralash bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi. Bugungi kunda ushbu tadbirlar asosan OTM huzurida tuzilgan "Jamoatchilik kengashi" tomonidan amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, jamoatchilik kengashi bir necha nafar a'zodan iborat komissiya tarkibida faoliyat olib boradi. Ayrim hollarda ushbu komissiyaning faoliyatini tashkil etish va uning baholash tizimi bilan bog'liq holatlarda nomzodlarni yetarlicha to'laqonli baholash uchun zarur mezonlar cheklanganlik xarakteriga ega bo'ladi. Aksariyat hollarda asosan nomzodlar to'g'risidagi hujjatlar bilan cheklanishga to'g'ri keladi. Demakki holatning vaqt jihatdan, iqtisodiy jihatdan hamda nomzodning ushbu faoliyatga mosligi va yaroqliligini ta'minlovchi xolis baholash xususiyatiga ega bo'lgan tizimni ishga tushirish zaruriyati mavjud. Bu esa "Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga psixologik yaroqliligi diagnostikasi tizimini shakllantirish" kompyuter dasturiy ta'minotiga ehtiyoj borligidan dalolat bermoqda.

Ammo oliy ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat sifatini diagnostika qilish, tahlil qilish va baholash borasida jiddiy ilmiy izlanishlar haligacha mavjud emas. Faqat psixologiya fanida OTM o'qituvchisi faoliyatini pedagogik aks ettirish bo'yicha qator ishlar mavjud bo'lib, ularda universitet o'qituvchisi pedagogik madaniyatining individual ko'rsatkichlari, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, uning kasbiy malakasi ko'rib chiqiladi. Ma'lum darajada universitet o'qituvchisi faoliyatini tahlil qilish va baholash bo'yicha ba'zi umumiy pozitsiyalar aniqlandi. Jumladan:

o'qituvchi kasbiy madaniyatining eng yuqori ko'rsatkichi, ya'ni uning o'quv va ilmiy faoliyatining uyg'unligi;

nazariya va faktologiyaning, bilim va tajribaning, bilim, ko'nikma va malakalarning bilimning yetakchi roli bilan bog'liqligi;

o'qituvchining zamonaviy didaktik texnologiyalarni o'zlashtirish va ularni tegishli mualliflik usullari bilan uyg'unlashtirish qobiliyati bilan belgilanadigan ish sifati;

o'qituvchining o'quvchilarning o'quv faoliyatini rag'batlantirish va uni tadqiqot, ijodkorlik va mustaqil muammolarni hal qilish sifatida tashkil etish qobiliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan mahorati;

o'qituvchining o'z ishiga munosabati, uning umumiy madaniyati, umumbashariy bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek, oliy ta'limning yangi paradigmasiga, shu jumladan, ko'p

qirrali ta'lim tizimiga o'tishga, talabaga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishga, undan foydalanishga yo'naltirilganligi, ta'lim xizmatlari bozori, innovatsion jarayonlarga tizimli yondashish va boshqalar.

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim sifati asosan quyidagi omillarga bog'liq: OTMning ilmiy-ma'rifiy markaz sifatidagi mavqei, bu borada o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorligi, ta'limning zamonaviy kontseptsiyalari asosidagi professor-o'qituvchilar tarkibining jipsligi, pedagogik salohiyat, tashkilot va ushbu universitet tarkibiga kiradigan shaxslar, yangi professor-o'qituvchilarning OTM texnologiyalariga egaligi, o'qituvchilarning kasbiy madaniyati darajasi. Oxirgi omil tayanch bo'lib, ayni paytda OTMning barqarorligi va o'zini-o'zi rivojlantirishining mezon ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Kadrlar siyosatiga, shuningdek, kadrlarni tanlash bilan bog'liq tadbirlar mazmuni bilan bog'liq konkret dasturlarni tuzishda ichki va tashqi omillar muhim rol o'ynaydi. Tashqi muhit bilan bog'liq omillarni normativ chegaralanishlar hamda mehnat bozoridagi vaziyatga ajratish mumkin. Masalan, ba'zi mamlakatlar normalarida ishga qabul qilishda testlarni qo'llashning ta'qiqlanganligi personalni boshqarish xizmati xodimlarini kadrlarni tanlab olishda juda xushyor va tadbirkor bo'lishga undaydi. Mehnat bozoridagi vaziyatni hisobga olishda esa raqobatning mavjudligini, mustaqil ishchi kuchining tuzilmaviy va professional tarkibini hisobga olishga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rasulov A.I. va b. Pedagogik kadrlarni psixologik saralash nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T., 2022. - 140 b.

2. Кузьмина, Н В Методы исследования педагогической деятельности. – Ленинград: ЛГУ, 1970. – 115 с.

3. Кухарев, Н. В. На пути к профессиональному совершенству: книга для учителя. – Москва: Просвещение, 1990. – 159 с.

BO'LAJAK O'QITUVCHILAR UCHUN VERBAL-KOMMUNIKATSION KOMPETENTLARINING ZARURIYATI

Ismoilov T.I., NamDU professori vazifasini bajaruvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida verbal va kommunikativ kompetentsiyalarning muhim roli ko'rib chiqiladi. Talabalarning xilma-xilligi va o'qitish usullarining doimiy o'zgarib turishi bilan ajralib turadigan bugungi ta'lim sharoitida o'qituvchi va o'quvchining samarali hamkorligi muvaffaqiyatning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Maqolada verbal muloqot sohasida qanday ko'nikma va qobiliyatlar pedagogik amaliyotning ajralmas qismi ekanligi, jumladan, materialni aniq va aniq taqdim etish qobiliyati, empatik muloqot, tinglovchilarning e'tiborini va muloqotni har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtirish tahlil qilinadi. O'qituvchilarning verbal va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan usul va vositalar ham ko'rib chiqiladi. Bu kompetensiyalar nafaqat samarali ta'lim olish, balki har bir o'quvchining rivojlanishi uchun muhim bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga xizmat qilishi ta'kidlangan. Ushbu maqola o'qituvchilar uchun verbal muloqot ko'nikmalarining ahamiyatini keng asoslab beradi va ularning zamonaviy ta'limdagi rolini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: verbal va kommunikativ kompetensiyalar, pedagogik faoliyat, ta'lim jarayoni, samarali muloqot, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabati, materialni aniq taqdim etish, muloqotda empatiya, individual ta'lim.

O'qituvchilik kasbi jamiyatdagi eng muhim va mas'uliyatli kasblardan biridir. Har bir bolaning kelajagi, demak, butun jamiyatning kelajagi ta'lim sifatiga bog'liq. Biroq, muvaffaqiyatli o'qituvchi bo'lish uchun faqat o'z faningiz bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish

etarli emas. Muvaffaqiyatning muhim tarkibiy qismi verbal va kommunikativ kompetensiyalardir, chunki ular o'qituvchiga talabalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish, qulay ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi. Kelajakdagi jamiyatni shakllantirishda o'qituvchilarning rolini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Ular o'quvchilarning bilimlarini uzatish, ko'nikmalarni shakllantirish va xarakterini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Biroq, o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o'qituvchilar nafaqat o'z fanlari bo'yicha chuqur bilimga, balki mukammal verbal va kommunikativ kompetensiyalarga ham ega bo'lishlari kerak. Ushbu maqolada biz verbal muloqot nima uchun o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishining muhim jihati ekanligini va bu ta'lim jarayonining samaradorligiga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqamiz.

Verbal va kommunikativ kompetensiyalar tushunchasi. Verbal-kommunikativ kompetensiyalar o'z fikrlaringizni samarali va adekvat ifoda etish, shuningdek, boshqa odamlarning muloqotini tushunish va izohlash imkonini beradigan ko'nikmalar to'plamini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiyalar tinglash, savol berish, aniq va ishonarli gapirish, tinglovchilarning xususiyatlarini va muloqot kontekstini hisobga olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchilar uchun verbal-kommunikativ kompetensiyalar ularning kasbiy muvaffaqiyatlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Samarali ta'lim muhitini yaratish. Pedagogning asosiy vazifalaridan biri har bir o'quvchi o'z salohiyatini yuzaga chiqarishi mumkin bo'lgan munosib ta'lim muhitini yaratishdir. Bu talabalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini talab qiladi. Verbal-kommunikativ kompetensiyalar o'qituvchiga talabalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishga, ularning ehtiyojlari va muammolarini tushunishga, shuningdek, o'quv materialini tushunarli va qiziqarli tarzda tushuntirishga imkon beradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik. Ota-onalar bilan hamkorlik ham o'qituvchining kasbiy faoliyatining muhim qismidir. Verbal va kommunikativ kompetensiyalar o'qituvchilarga talabalar bilan samarali muloqot qilish, ularga bolalarning muvaffaqiyatlari va muammolari haqida aytib berish, shuningdek ularni o'quv jarayoniga jalb qilish imkonini beradi. Bu ota-onalar tomonidan yaxshiroq tushunish va qo'llab-quvvatlashga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, bolalarning o'qishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Kasbiy rivojlanish va o'sish. Verbal va kommunikativ kompetensiyalar nafaqat bugungi kunda muvaffaqiyatli ishlashga yordam beradi, balki o'qituvchilar uchun kasbiy rivojlanish va o'sish uchun eshiklarni ochadi. Samarali muloqot qila oladigan va o'z bilimlarini o'tkaza oladigan o'qituvchilar ko'pincha ta'lim sohasida etakchi bo'lishadi. Ular mahorat darslari o'tkazishi, ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishi, hamkasblari bilan tajriba almashishi va ta'lim jamiyatidagi mavqeini oshirishi mumkin.

Pedagogik ish o'quvchilarning ota-onalari va hamkasblari bilan o'zaro munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Verbal muloqot qobiliyatlari konstruktiv dialoglarda ishtirok etish, o'z pozitsiyalaringizni va qarorlaringizni tushuntirish, turli odamlar bilan umumiy til topish imkonini beradi, bu esa muvaffaqiyatli hamkorlik va o'zaro tushunishga yordam beradi. O'qituvchilarning kasbiy muvaffaqiyatlarida verbal-kommunikativ kompetensiyalar muhim rol o'ynaydi. Ular qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishga, o'quvchilar motivatsiyasiga, bilimlarni samarali uzatishga va nizolarni hal qilishga hissa qo'shadi. O'qituvchilar verbal muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish orqali nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning hayotiga ta'sir qiladi, ularning muvaffaqiyatli va o'ziga ishongan fuqaro bo'lib yetishishlariga yordam beradi.

Verbal va kommunikativ kompetensiyalar o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismidir. Ular qulay ta'lim muhitini yaratishga, talabalar va ota-onalar bilan munosabatlarni yaxshilashga hissa qo'shadi, shuningdek, kasbiy o'sish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Binobarin, bu kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim sohasida muvaffaqiyatli va samarali mehnat qilishga intilayotgan har bir o'qituvchi uchun ustuvor vazifaga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Susan Gross. O'qituvchilar uchun Verbal va Kommunikativ Kompetensiya. (2010)
2. Wilga M. Rivers. Kommunikativ til o'qitish va o'qitishda kommunikativ til. (1987)
3. Sandra J. Savignon O'qituvchilar uchun kommunikativ verbal til o'qitishning keyingi bosqichlari. (2005)
4. Keith S. Folse. Kommunikativ o'qitish va o'qituvchilar uchun kommunikativ kompetensiya: o'quv maqsadlari, dars tuzilishi va usullari. (2006)
5. Diane Larsen-Freeman, Marti Anderson. Kommunikativ til o'qitish: o'qituvchilar uchun qo'llanma. (2011)
6. Claire Kramsch. "Kommunikativ kompetensiya va kommunikativ o'qitishning ijtimoiy muammolari. (2009)
7. Zoltán Dörnyei. Kommunikativ kompetensiya va o'zlashtirish. (2009)
8. Susan J. Fox. Verbal va kommunikativ kompetensiya: teoriyadan amalga oshirish. (2001)

СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ

Уришов Ш.М., доцент ТГУВ

Аннотация. Одним из направлений научного поиска в области повышения эффективности и результативности учебного процесса является проблемное обучение, которое рассматривается сегодня в качестве одного из ведущих направлений в конструировании систем школьного образования с целью решения таких сложнейших задач, как развития умственных сил, познавательной активности и творческого мышления.

Ключевые слова: Проблемное обучение, сущность, формирование, основные компоненты, цель, организация проблемного обучения, учебная ситуация, дидактическое значение, функции учителя, пути реализации проблемного обучения, деятельность учащихся, приемы создания проблемных ситуаций.

Сущность проблемного обучения состоит в том, что преподаватель, систематически создавая проблемные ситуации и организуя деятельность учащихся по решению учебных проблем, обеспечивает оптимальное сочетание их самостоятельной поисковой деятельности с усвоением готовых выводов науки. Одним из направлений научного поиска в области повышения эффективности и результативности учебного процесса является проблемное обучение, которое рассматривается сегодня в качестве одного из ведущих направлений в конструировании систем школьного образования с целью решения таких сложнейших задач, как развития умственных сил, познавательной активности и творческого мышления.

Сущность проблемного обучения состоит в том, что преподаватель, систематически создавая проблемные ситуации и организуя деятельность учащихся по решению учебных проблем, обеспечивает оптимальное сочетание их самостоятельной поисковой деятельности с усвоением готовых выводов науки. Проблемное обучение направлено на формирование познавательной самостоятельности учащихся, развитие их логического, рационального, критического и творческого мышления и познавательных способностей. Сегодня разработка моделей обучения как организации учебно-поисковой исследовательской деятельности рассматривается в зарубежных педагогических поисках как одно из направлений, инновационного подхода к учебному процессу. Это дает основание отнести проблемное обучение к категории нового вида обучения.

Сущность проблемного обучения состоит в том, что перед учащимися последовательно и целенаправленно выдвигается ряд учебных проблем, и школьники с помощью учителя или самостоятельно осуществляют творческий поиск путей их решения. Проблемное обучение представляет собой целостную дидактическую систему, конструирование которой основано на логико-психологических закономерностях творческого усвоения знаний и способов деятельности. Применение проблемного обучения позволяет учителю конструировать системы развивающего обучения.

Основные компоненты этой системы (цели, учащиеся, педагоги, содержание образования, организационные формы, дидактические процессы) характеризуются специфическими особенностями, обусловленными современными социальными потребностями общественного развития, целью модернизации школы, предусматривающей первоочередное решение задачи развития творческих способностей и познавательной самостоятельности учащихся, превращения их знаний в убеждения в процессе усвоения системы научных знаний.

Эти требования непосредственно воздействуют на такой элемент педагогической системы, как цели обучения и воспитания. Основная цель проблемного обучения – формирование и развитие у учащихся опыта творческого усвоения знаний и усвоения школьниками способов творческой деятельности. Сущность проблемного обучения состоит в радикальном изменении роли субъектов образовательного процесса: основная функция учителя в этих условиях состоит в создании учебных проблемных ситуаций; функция школьников – в самостоятельном поиске учебной информации, недостающей для успешного, решения поставленной учебной проблемы. Основные категории проблемного обучения: «проблемная ситуация», «учебная проблема», «проблемная задача», «познавательная задача», «проблемный вопрос», «проблемное задание», «способ разрешения проблемной ситуации».

Проблемная ситуация – особый вид мыслительной деятельности, связанной с выполнением учащимися задания, которое требует приобретения новых ранее неизвестных ему знаний или овладения ими новыми способами действия является центральным звеном в структуре процесса проблемного обучения. Проблемная ситуация затрагивает познавательную и мотивационно-эмоциональную сферу личности, отражает субъективную неопределенность целей, условий, способов и средств деятельности, проявляется в познавательном затруднении школьника. А.М.Матюшкин в структуру проблемной ситуации включает три компонента:

познавательную потребность, побуждающую к интеллектуальной деятельности;

неизвестное достигаемое знание или способ действия;

интеллектуальные возможности человека, включающие его творческие способности и прошлый опыт.

Проблемная ситуация сопровождается состоянием напряженности мыслительных, эмоциональных и волевых психических сторон личности ученика. Под влиянием проблемной ситуации в его сознании возникает учебная проблема, подлежащая решению.

Учебная проблема – форма проявления логико-психологического противоречия процесса усвоения, определяющая направление умственного поиска, пробуждающая интерес к исследованию, объяснению сущности неизвестного и ведущая к усвоению нового понятия или нового способа действия. Такое понятие учебной проблемы вытекает из ключевого понятия проблемного обучения – проблемной ситуации, подчеркивает внутренние стороны учебно-познавательной деятельности школьника в ходе проблемного обучения, его объективно-субъективную сущность. Объективная проблема может быть поставлена учителем, но стать субъективной для ученика и побуждать его к познавательной активности она может только в условиях созданной

учителем проблемной ситуации: проблемная ситуация делает объективную проблему лично значимой для ученика.

Формами предъявления учебной проблемы учащимся могут быть проблемная (поисковая) познавательная задача, проблемный вопрос, проблемное задание (теоретическое или практическое). При решении любой задачи (теоретической, практической, конструкторской и др.) ученик помимо основного получает и познавательный результат: знания о каком-либо конкретном явлении или вопросе и способах его решения. Поэтому любая задача носит познавательный характер. Но по своему содержанию задача может быть проблемной и не проблемной. Внутренняя структура не проблемной задачи характеризуется тем, что содержание данного и искомого не ново для ученика в принципе, новыми являются только факты (например, цифры); путь решения этих задач известен ученику. Если путь решения задачи неизвестен ученику - такие задачи называют проблемными или поисковыми, или просто познавательными.

Сущность познавательной задачи, содержащей учебную проблему, охарактеризовал известный отечественный психолог А. М. Матюшкин следующим образом: «Проблемная задача в отличие от обычных учебных задач представляет не просто описание некоторой ситуации, включающей характеристику данных, составляющих условие задачи, и указание на неизвестное, которое должно быть раскрыто на основании этих условий. В проблемной задаче сам субъект включен в ситуацию задачи».

Проблемный вопрос. Особенностью проблемного вопроса, в отличие от информационного, является то, что он ориентирован на противоречивую ситуацию и требует от учащихся определенных действий по приобретению новых знаний. По определению А.М.Матюшкина, «проблемный вопрос – это вопрос, определяющий область тех неизвестных закономерностей или способов действия, которые могут или должны быть раскрыты на основе усвоенных знаний и достигнутого уровня способов действия».

Проблемное задание. Учебные задания – это любой вид поручения учителя учащимся выполнить какие-либо учебные (теоретические или практические) действия. Задание является проблемным, если оно нацеливает ученика на действия, вызывающие у него потребности в новых знаниях и способах, без которых задание не может быть выполнено.

Организация проблемного обучения. При конструировании содержания проблемного обучения в процессе подготовки к уроку учителю, по мнению М.И.Махмутова, необходимо проанализировать учебный материал со следующих точек зрения:

- а) научной (выделение основных понятий, их взаимосвязи);
- б) психологической (предвидение реакции на выдвижение проблем);
- в) логической (варианты последовательной постановки вопросов, задач, заданий);
- г) дидактической (выбор приемов и методов создания проблемных ситуаций);
- д) воспитательной значимости материала.

Критерий выделения учебных проблем. В связи с этим возникает вопрос: Какие объективные критерии необходимо положить в основу вычленения наиболее важных для развития и воспитания учащихся учебных проблем, заключенных в самом содержании учебного материала? В качестве таких критериев выделяются следующие:

мировоззренческие вопросы, моральные, общественно-исторические, естественно научные, литературоведческие и другие проблемы изучаемых наук;

ведущие идеи, методы и понятия науки;

проблемные вопросы и поиск путей их решения в истории науки;

проблемные вопросы и методы современной науки;

практические проблемы (В.Н.Максимова).

Правила создания учебных ситуаций. Важным аспектом организации проблемного обучения являются знание и соблюдение учителем правил создания проблемных ситуаций. Такие правила сформулированы А.М.Матюшкиным в работе «Проблемные ситуации в мышлении и обучении». К ним относятся:

1. Чтобы создать проблемную ситуацию, учащимся следует предложить такое задание, выполнение которого потребует открытия новых знаний и овладения новыми умениями.

2. Задание должно соответствовать интеллектуальным возможностям учащегося.

3. Проблемное задание дается до объяснения учебного материала, это могут быть задания на усвоение нового материала, его закрепление и практическое применение.

4. Одна и та же проблемная ситуация может быть вызвана разными типами заданий.

Моделирование и прогнозирование предстоящей межсубъектной учебной деятельности как условие успешной организации проблемного обучения. Особенность проблемного обучения заключается в изменении функций субъектов учебного процесса.

Основная функция учителя состоит в создании проблемных ситуаций и управлении познавательной деятельностью школьников по разрешению учебных проблем. Это обеспечивается делением учебного материала на части и последовательным включением школьников в решение учебных проблем. Действия ученика в условиях проблемной ситуации осуществляются, как правило, по следующим этапам:

а) анализ проблемной ситуации, использование известных способов действия; осознание и принятие проблемы; решение проблемы;

б) выдвижение гипотезы;

в) доказательство гипотезы;

д) проверка правильности решения.

Управление учителем деятельностью учащихся в процессе поэтапного решения проблемной задачи дает возможность получения обратной информации по каналам внутренней и внешней связи, вносить своевременно поправки и коррекцию в учебный процесс, что является одной из характерных особенностей педагогических технологий.

Пути реализации проблемного обучения. Проблемное обучение осуществляется с помощью проблемного изложения, частично-поискового и исследовательского методов обучения. Степень познавательной самостоятельности школьников при использовании этих методов различна.

Проблемное изложение. Сущность этого метода состоит в том, что учитель, поставив проблему, вскрывает ее внутренние противоречия, рассуждает вслух, высказывает предположения, формулирует гипотезу, показывая, как шла мысль человека к открытию истины. Таким образом, проблемное изложение дает учащимся образец научного поиска. Учащиеся вовлекаются в мыслительную деятельность: контролируют убедительность мысли учителя, логику и доказательность рассуждений, усваивают этапы решения целостных проблем.

Дидактическое значение проблемного изложения знаний состоит в том, что оно делает знания учащихся о сущности изучаемых явлений и закономерностей более доказательными, а знания – более осознанными; учит мыслить научно, диалектически, повышает интерес учащихся к излагаемому материалу. Вместе с тем проблемное изложение имеет и свои недостатки. Здесь по-настоящему активен только учитель, учащиеся являются пассивными соучастниками поисков истины.

Частично-поисковый (эвристический) метод характеризуется привлечением учащихся к частичному поиску знаний в момент изложения их учителем. Например, ученикам предлагается высказать предположение, объяснить факт, доказать

правильность той или иной мысли посредством несложного опыта или рассуждения, сделать вывод из опыта, показанного учителем в ходе изложения знаний. Назначение частично-поискового метода – постепенное приобщение школьников к самостоятельному решению учебных проблем. При частично-поисковом методе учитель конструирует проблемное задание и предварительно планирует участие школьников в выполнении шагов поиска. С этой целью он расчленяет проблемную задачу на серию взаимосвязанных вопросов. Каждый из вопросов или их часть представляют подпроблемы, которые требуют от школьников не только воспроизведения своих знаний, но и осуществления небольшого творческого поиска. В итоге все намеченные шаги поиска последовательно должны привести к решению проблемы.

Деятельность учащихся состоит в том, что они воспринимают и осмысливают проблемное задание в целом, актуализируют необходимые для его выполнения знания и последовательно решают поставленные учителем вопросы, осуществляя самоконтроль и мотивируя свои действия. Следовательно, школьники включаются в поисковую деятельность, но реализуют ее не вполне самостоятельно, так как каждый шаг направляется учителем. Таким образом, частично-поисковый метод обеспечивает постепенное формирование у учащихся обобщенных способов решения учебных проблем: умения выполнить отдельные этапы исследования, делать выводы, высказывать предложения и т. д. При этом целостное решение проблемы отсутствует, деятельность школьника не предполагает планирования этапов исследования (решения), соотнесение этапов между собой. Все это делает учитель.

Исследовательский метод – способ организации учебной работы, при котором учащиеся знакомятся с научными методами добывания знаний, овладевают умением добывать новые знания, планировать поиск, открывать новую для себя истину или закономерность. Главное назначение исследовательского метода – организация поисково-творческой деятельности учащихся по решению учебных проблем. Функция учителя при использовании исследовательского метода заключается в построении системы таких проблемных заданий для самостоятельного исследования, в объективной структуре которых спроектированы условия происхождения тех мыслительных способностей учащихся, которые предстоит сформировать в реальном учебном процессе. Все задания исследовательского типа должны быть доступны учащимся и вписываться в контекст учебной программы и логику учебного процесса. Целостное выполнение учащимися проблемных заданий обеспечивает не только развитие у школьников осознанных глубоких знаний, но и овладение методами научного познания, формирование интереса к предмету и потребности в творческой деятельности.

Методы реализации проблемного обучения целесообразно использовать в тесной взаимосвязи: проблемное изложение знаний и частично-поисковые методы предшествуют и сопровождают применение исследовательского метода. Развивающая функция проблемного обучения реализуется по-разному на его различных уровнях, которые соответствуют разным методам. Т.В.Кудрявцев выделяет *четыре уровня проблемного обучения*.

Первый – проблемное изложение, при котором движение мысли школьника должно совпадать с движением мысли учителя, раскрывающего процесс рождения знания в науке.

На втором уровне учитель создает проблемную ситуацию, а проблема формулируется и решается учащимися при его помощи.

На третьем уровне проблемная ситуация полностью разрешается самими учащимися.

На четвертом уровне школьник сталкивается с необходимостью самостоятельно усмотреть проблему, поставить ее и разрешить.

В опыте педагогов широко используются наряду с названными методами различные приемы проблематизации обучения. К числу приемов создания проблемных ситуаций относятся следующие:

1. Побуждение учащихся к теоретическому объяснению явлений, фактов, внешнего несоответствия между ними.

2. Побуждение учащихся к сравнению, сопоставлению и противопоставлению фактов, явлений, правил, действий, в результате которых возникает познавательное затруднение.

3. Прием столкновения житейских знаний с научными.

4. Ознакомление учащихся с фактами, носящими как будто бы необъяснимый характер и приведшими в истории науки к постановке научной проблемы.

5. Показ значимости изучаемого вопроса путем решения задач, имеющих практический характер.

6. Организация предварительных практических работ учащихся, выполнение которых способствует формированию познавательной потребности, и т. д.

7. Раскрытие реальных проблем, имеющих личностную значимость для учащихся.

Концепция проблемного обучения не получила массового распространения в системе российского образования. По мнению отечественного ученого-педагога М.И.Махмутова: основная масса учителей «до сих пор работает по старинке: рассказывают, объясняют, опрашивают, ставят отметки... ». Вместе с тем проблемная ориентация образовательного процесса, заключающая в себе огромный развивающий потенциал, воплощается сегодня в инновационно-поисковом подходе, который способствует преобразованию традиционного обучения в продуктивную деятельность школьников. Обобщенной базовой моделью в рамках поискового подхода является модель обучения как творческого поиска: от видения и постановки проблемы к выдвижению предположений, гипотез, их проверке, познавательной рефлексии над результатами и процессами познания.

Успешность реализации обучения на проблемной основе обуславливается во многом соблюдением требований к содержанию учебного материала, а также соответствующей подготовкой учителя. Проблемное обучение особенно эффективно:

а) когда содержание учебного материала имеет преимущественно теоретический характер и направлено на формирование у учащихся понятий, системы знаний о законах и теориях изучаемой науки;

б) когда содержание учебного материала логически продолжает ранее изученное, на базе которого школьники могут принять участие в самостоятельном поиске новых знаний;

в) когда содержание учебного материала доступно для самостоятельного поиска учащимися (Ю.К.Бабанский).

Применяется проблемная технология лишь в тех случаях, когда учащиеся подготовлены учителями к деятельности по разрешению проблемных ситуаций. Важным условием организации проблемного обучения является специальная система подготовки учителя к уроку и, в частности, в конструировании специальных целостных обучающих систем, включающих следующие элементы, имеющие специфическое функциональное назначение:

1) цели обучения, направленные на формирование и развитие творческой личности путем овладения школьниками опыта творческой учебно-познавательной и практической деятельности в процессе усвоения новых знаний;

2) учащиеся, основная задача учебной деятельности которых заключается в самостоятельном решении поставленных учителем учебных проблем;

- 3) педагоги, ведущей функцией которых является создание проблемных ситуаций;
- 4) проблематизированное содержание образования;
- 5) формы организации обучения – проблемные уроки, домашние задания и т. д.;
- 6) способы осуществления дидактического процесса – проблемное изложение, эвристический, исследовательский методы.

Необходимо учитывать также и следующие требования к подготовке учителя: уметь ставить перед классом реальные учебные задачи в понятной для детей форме;

выполнять функцию координатора и партнера; стимулировать; творческое мышление учащихся при помощи умело поставленных вопросов; проявлять терпимость к ошибкам учеников и др.

Разработанная в отечественной дидактике концепция проблемного обучения получила сегодня углубленное развитие, стала одной из теоретических основ разработки инновационных подходов к обучению, реализации этих идей в образовательной практике.

Использование проблемного обучения способствует развитию:

умственных сил учащихся (противоречия заставляют задуматься, искать выход из проблемной ситуации);

самостоятельности (самостоятельное видение проблемы, формулировка вопроса, разработка плана исследования и т. д.);

развитию творческого мышления (самостоятельного применения знаний, способов деятельности, самостоятельный поиск решения учебной проблемы).

Постепенное накапливание опыта решения теоретических и практических проблем учит школьников трудному искусству решения новых проблем, что имеет большое значение для формирования творческих основ деятельности молодого человека.

Использованная литература:

1. Занков Л.В. Дидактика и жизнь. Избр. пед. труды. – М. : Педагогика, 1990. – С. 23-82.
2. Осмоловская И.М. Дидактика: учеб. пособие для студентов вузов. – М.: Академия, 2006. – 240 с.
3. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии: Учеб. пособие / С.А.Смирнов, И.Б.Котова, Е.Н.Шиянов, Т.И.Бабаева и др. – М.: Академия, 1998. – 512 с.
4. Педагогические технологии: Учебное пособие для студентов педагогических специальностей / Под общей ред. В.С.Кукушина. – Ростов-н/Д. : Март, 2002. – 320 с. – Серия «Педагогическое образование».
5. Современные педагогические технологии. Электронный ресурс: <http://www.imc-new.com/index.php/teaching-potential/teaching-technologies>. Дата обращения: 28.05.2012.

ПЕДАГОГИК КАСБИЙ РЕФЛЕКСИЯНИ ТАШХИСЛАШ

Халиков А.А., ТДПУ профессори

Аннотация. Мазкур мақолада касбий рефлексияни ўқитувчи педагогик фаолиятининг таркибий қисми ва унинг педагогик маҳоратини ривожлантириш асослари сифатида қаралиши, касбий педагогик фаолиятни ўқитувчининг рефлексив позицияси нуқтаи назаридан ёндашиб ташхислаш ва таҳлил қилиш асосида янада такомиллаштиришнинг аҳамияти кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: рефлексия, ташҳис, педагогик диагностика, инновацион тафаккур, касбий рефлексия, коррекциялаш, рефлексив позиция, профессиограмма, аналитик қобилиятлар.


Жаҳонда айна вақтда халқаро илғор тажрибалар асосида олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчилар педагогик маҳоратини ривожлантиришнинг амалий технологик тизими ва педагогик жараёнларини такомиллаштириш; педагогик маҳоратни ривожлантириш механизмларини шакллантириш; касбий рефлексия, ўз-ўзини фаоллаштириш, ностандарт педагогик ечимлар, педагогик маҳорат бўйича танловлар ҳамда кўп даражали таълим тизимларида педагогик маҳоратни ривожлантириш долзарб муаммо сифатида эътироф этилмоқда. Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг етакчи илм-фан намоёндалари билан бўлган мулоқотида кўп масалалар муҳокама қилиниб, “Юқори салоҳиятга эга кадрлар тайёрлаш масаласини такомиллаштириш, илмий кадрлар ва юқори малакали мутахассислар, дунё даражасидаги янги олимлар авлодини тайёрлаш” ҳам долзарб масалалардан бири сифатида белгиланди [1]. Ушбу долзарб муаммолар бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини глобаллашув жараёни талаблари асосида такомиллаштириш заруриятини вужудга келтирди.

Педагогик фаолиятда рефлексив жараёнларни ўрганиб таъкидлаш мумкинки, рефлексия нафақат педагогик фаолиятни режалаштириш билан боғлиқ ҳодиса, балки рефлексия асосида касбий фаолиятни оптималлаштириш мақсадида ҳам қўлланади. Рефлексия – асрлар давомида ўқитувчининг касбий фаолиятида тўпланиб келинган тажрибаларини ташхислаб, унинг хулқ-атвори, мулоқот маданияти, тафаккурида йиғилган эски андозаларни, камчиликларни бартараф этиш имкониятини беради. Рефлексиянинг касбий қийинчиликларни енгишдаги ролини ўрганган В.А.Метаеванинг ишлари ҳозирги куннинг энг долзарб тадқиқотларидан бири саналади. Олима рефлексиянинг ривожланганлик даражаси «ўқитувчининг касбий фаолиятидаги қийинчиликларни ташхислаш асосида самарали ҳал қилиши» педагогик маҳорат натижасида муваффақиятларга эришишига боғлиқ, деган хулосага келади [6; 47-6.].

Илмий адабиётлар таҳлили ва касбий рефлексияни ўқитувчи педагогик фаолиятининг таркибий қисми ва унинг педагогик маҳоратини ривожлантириш асослари сифатида қарашади ва қайд қилувчи эксперимент натижалари касбий рефлексияни ривожлантириш усулларини излаш зарурияти мавжудлиги кўрсатади. Шу сабабли фанда ташхис (диагностика) ва ташхислаш (диагнозлаш) тўғрисида ҳам мунозаралар қилинади [2, 9, 4]. Ташхислашга, яъни диагностикага билишнинг алоҳида усули сифатида қараш қабул қилинган (грекчадан таржима қилганда, diagnosis – таниб олиш демакдир) [2].

Биз педагогик ташхислаш сўзининг ўрнига педагогик диагностика сўзини ишлатишни лозим топдик. Педагогик диагностика мазмун ва моҳиятига қараб кўплаб функцияларни бажаради. Педагогик диагностиканинг таҳлилий вазифаси ўқув-тарбия жараёнидаги ютуқ ва камчиликларнинг келиб чиқиш сабаблари ва оқибатларини, уларнинг ўзаро боғланишларини аниқлаш ва чора тадбирлар ишлаб чиқишга қаратилган. Педагогик диагностик функциялар ўқувчининг таълим олганлиги, тарбияланганлиги ва ривожланганлигини аниқлаш учун қўлланилади, шунингдек, ўқитувчининг ҳам касбий компонентлик даражасини ўрганишда муҳим аҳамият касб этади. Педагогик диагностиканинг баҳолаш функцияси маъмурият томонидан олиб борилиб, алоҳида ўқитувчи ёки алоҳида ўқувчи фаолиятида эришган ютуқлар ва камчиликлар юзасидан сифат кўрсаткичларни миқдор жиҳатдан баҳолайди. Педагогик диагностиканинг коррекцион вазифаси ўқув – тарбиявий жараёни ўқитувчининг педагогик фаолияти юзасидан коррекциялашни (тўғри йўналтириш) таъминлайди ва ўқитувчининг касбий жиҳатдан ўз – ўзини ривожлантириш ҳамда педагогик

маҳоратини ривожлантиришга кенг имкониятлар яратади. Педагогик диагностиканинг ориентацион (йўналишни аниқлаш) функциясининг мақсади педагогик жамоа ва алоҳида ўқитувчилар фаолиятида мавжуд бўлган муаммоларни узлуксиз ҳал этишни мувофиқлаштириб боришдир. Педагогик диагностиканинг ориентацион вазифаси натижалари ҳақидаги доимий хабарлар ташхисланиб информацион (ахборот) вазифа таъминланади (1-расмга қаранг):



1-расм. Педагогик рефлексиянинг диагностика функциялари

Шу ўринда диагностика (ташхис) ва диагностикалаш (ташхислаш) тушунчаларининг фарқини аниқлаш лозим. Диагностикани соддалаштирилган кўринишда «ташхисни аниқлаш» деб қарасак, унда диагностикалаш (ташхислаш) бу жараённинг ташхисни қўйиш методлари йиғиндисидир [8]. Шу боис педагогик фаолиятнинг ўзига хос жиҳатларини эътиборга олиб, уни ўрганишда диагностикалаш (ташхислаш) терминини қўллаш ўринлироқ кўринади. Умуман диагностикалаш терминини ташхислаш деб аталса ҳам мақсадга мувофиқ бўлади.

Педагогик ташхислаш деганда педагогик тизимни (шунингдек унинг алоҳида таркибий қисмларини) тадқиқ қилиш методларининг жамланмасини тушунамиз, улардан фойдаланиш самарадорлиги маълум ташкилий-педагогик шарт-шароитлар билан боғлиқ ҳолда шаклланади. Педагогик ташхислашнинг яхлитлиги унинг нафақат ўқитувчи педагогик фаолиятини ўрганишнинг диагностик жиҳатларини, балки аниқланган сабаб ва оқибатларнинг бир-бири билан ўзаро боғланиши асосида ҳар бир ўқитувчининг педагогик қийинчиликларни бартараф этишнинг оптимал йўллари ва воситаларини топиш имкониятини берди [15]. Конструктив – прогностик нуқтаи назардан таъминлади, ўқитувчи педагогик маҳоратининг ривожланиш истиқболларини белгилаб, унинг фаолият юритиш динамикасини кузатиш орқали танланган меҳнат шакллари самарадорлигини баҳолаш имкониятини яратди.

Ўқитувчи педагогик фаолиятини ташхислашнинг турли аспектларини ўрганишга бағишланган илмий тадқиқот ишларининг сони кўп. Педагогик фаолиятни тадқиқ этиш мантиқи, педагогик ташхислашнинг турли методикаларини бирлаштириш зарурияти Н.В.Кузьминанинг ишларида кенг ёритилган. Тадқиқотнинг сўров, кузатиш, баҳолаш (рейтинг), ўз-ўзини баҳолаш, жуфт қиёслаш, социометрия ва эксперимент каби методларини ўрганар экан, у айнан «ўз-ўзини баҳолаш, ўз-ўзини англаш усулларида бири сифатида шахснинг барча имкониятларини намоён қилишга, унинг хулқиға, характерига, фаолият суръатига таъсир этишини» таъкидлайди. Ўқитувчининг педагогик билим ва малакалари тизимини тавсифлаб, Н.В.Кузьмина ўқитувчининг

билиш ва ўрганиш малакалари ичидан унинг педагогик фаолияти учун зарур бўлган афзалликларни ва нуқсонларни онгли равишда билиб тузатиш ёки такомиллаштириш мақсадида ташхис қила олиш қобилиятини ажратиб кўрсатади [3].

Ўқитувчининг педагогик маҳоратини оширишнинг асосий йўли – бевосита таълим муассасасида илмий асосда ташкил қилинган тадқиқотчилик иши, деб ҳисоблаган В.П.Симонов моҳир ўқитувчи шахси ва фаолияти самарадорлигини ташҳислаш учун асосий касбий аҳамиятли кўрсаткичларнинг тизимини ва тахминий мазмунини ишлаб чиқди. У таклиф қилган методикалар, муаллифнинг фикрича, нафақат ўқитувчининг таълим фаолияти, балки у билан ўзаро фаолият олиб борадиган ўқувчиларнинг ўқув фаолияти самарадорлигини ҳам аниқлаш имкониятини беради. Ўқитувчининг аҳамиятга молик бўлган касбий сифатларини ташҳислаш натижаларини олим уч хил йўналишда баҳолайди:

- оптимал;
- йўл қўйиладиган;
- танқидий даража бўйича.

В.П.Симоновнинг фикрича, ҳамма вақт ҳам ижобий натижа беравермайдиган текширувчиларнинг юзаки ёндашуви ўқитувчиларнинг касбий фаолиятини маълум даражада бузади ёки нотўғри категориялайди, уларнинг педагогик ташаббускорлигини ва мустақиллигини сўндиради. Олим ҳар бир ўқитувчида ўз педагогик фаолиятини «ишончли ва исботли» натижалар билан баҳолаш ва унинг натижалари ҳамда самарадорлиги ҳақида гапириш малакасини ривожлантириш зарурлигини айтади [11].

Касбий педагогик фаолиятни таҳлил қилиш ва ўз-ўзини таҳлил қилишни ўқитувчи фаолияти ва рефлексив позицияси нуқтаи назаридан тузатиш, такомиллаштириш мақсадида педагогик вазифаларни ҳал қилишга қаратилган педагогик малакалар йиғиндиси сифатида қараб, А.В.Христева касбий педагогик фаолиятни таҳлил ва ўз-ўзини таҳлил қилишнинг қуйидаги босқичларини ажратиб кўрсатади:

- мазмунли – диагностик (тайёрлов - мослашув) босқич;
- мақсадли лойиҳалаштириш (таҳлил ва ўз-ўзини таҳлил қилишдан мақсадни аниқлаштириш) босқичи;
- технологик (касбий педагогик фаолият жараёнини ва ўз-ўзини таҳлил қилиш) босқич;
- таҳлил ва ўз-ўзини таҳлил қилишнинг назарий (педагогик фаолиятнинг моҳияти, натижалари билан педагогик фаолият жараёни ўртасидаги алоқаларнинг сабаб ва оқибатларини назарий англаш) босқичи;
- фаолиятни рефлексив баҳолаш (фаолиятни баҳолаш ва рефлексив таҳлил) босқичи;
- коррекциялаш (ижодий босқич бўлиб, ўз педагогик фаолиятини назарий жиҳатдан англаш ва баҳолаш асосида такомиллаштириш ва ҳамкасбларининг самарали педагогик тажрибаларидан ижодий фойдаланиш йўллари ва усуллари белгиланади) босқичи [14].

Ўқитувчининг ижтимоий–психологик шаклланишида ўз устида ишлаши мураккаб тизимга эга. Бунда ўқитувчи экстенсив, тахминий, методологик, коммуникатив, психологик ҳамкорликда ижодкорлик вазифаларини бажаради. Диагностик дастурда ўқитувчи касбий тайёргарлик жараёнида тадқиқотчилик, моҳирлик, репродуктив (хотирада сақлаш), расмий – ижрочилик каби фаолият бўйича мунтазам иш олиб боради. Ушбу фаолият дастурлари айниқса, ёш ўқитувчиларнинг педагогик фаолиятида дуч келадиган ижтимоий муносабат, синфдан қўрқиш, ўқувчилар билан ўзаро муносабатда зиддият ҳосил бўлиши каби психологик тўсиқларни енгишда муҳим аҳамият касб этади.

Олимларнинг педагогик маҳорат таҳлилига бу каби чуқур ёндашувида барча ўзаро боғланган тизимларни бирданига қамраб олиш амалда мумкин эмас. Натижалар ҳаддан зиёд катта ҳажмда, тарқоқ бўлади, энг асосийси, бу ҳолда педагогик меҳнатнинг алоҳида

бўғинлари таҳлилига чуқур ёндашиб бўлмайди. Умуман педагогик фаолият доимий равишда ўз-ўзини таҳлил этиш, ўқитувчи рефлексияси ривожланишининг ташаббускори бўла оладиган ўзига хос «тезлаштирувчи» ролини ўйнамоғи керак [7].

И.Г.Татурнинг иши эндигина ўз фаолиятини бошлаётган ўқитувчилар дуч келадиган типик дидактик қийинчиликларга бағишланган. У дидактик қийинчиликларга шундай таъриф беради: «Дидактик қийинчиликлар – ўқитувчининг таълим жараёнидаги қийинчилиги бўлиб, уни ҳал қилиш учун шарт-шароитлар йўқлиги, кескинлик, бепарволик, ўз ишидан қониқмаганликнинг психологик ҳолати ёки аксинча, уни бартараф қилиш учун шароитлар таъминлангани ҳолда педагогик маҳоратни такомиллаштириш, педагогик «фикрлашни», малака ва кўникмаларни ривожлантиришни таъминлайдиган тетиклик, мобилизация тайёргарлик, эмоционал кўтаринкилик ҳолатининг мавжуд эмаслиги» [12].

Қийинчиликларнинг позитив роли унинг индикаторлик (ҳисобловчи) вазифаси билан ҳам белгиланади. «Индикаторлик вазифаси педагогик маҳоратнинг шаклланиш жараёнини тормозловчи объектив омилларни ажратади, бироқ у ўз-ўзини баҳолаш тарзида субъектив намоён бўлиши, шахс учун фаолиятнинг тобора қийин жиҳатларини аниқлаб бериши мумкин».

Демак, ўз педагогик фаолиятини эндигина бошлаган ёш ўқитувчи асло жисмонан ва руҳан бўшашиши, бутунлай осойишталикка берилиши мумкин эмас. Бу туйғу психология фанида релаксация деб аталиб, кишиларнинг иш фаолиятида салбий ҳолатларига бериладиган баҳо сифатида эътироф этилади.

Я.С.Турбовскийнинг фикрича, касбий такомиллашувнинг салбий «энергетик асоси» бўлган қониқмаслик ҳисси, ривожланишда тўхтаб қолганликни чин кўнгилдан ҳис этиш саналади. «Буйруқ, чақириқ ва назорат эмас, балки айнан ўқитувчининг ўз фаолиятидан қониқмаслик ҳисси, юзага келган педагогик зиддиятни бошқача қилишга, бунинг учун янги воситаларни излаб топишга ва уни ўзлаштиришга онгли равишда интилишини таъминлайди, қийинчилик ва зиддиятларни бартараф этишдан, шахсан ўзи ҳал қилган тадқиқотчилик вазифасидан ижодий қувониш, қониқиш ҳисси – ўқитувчи касбий компонентининг асосий манбасига айланади, аниқроғи, айланиши мумкин» [13].

Я.С.Турбовский томонидан ишлаб чиқилган, педагогик тажрибани диагностик ўрганиш назарияси ва методикаси ҳар бир педагогик жамоада ва жамоанинг ҳар бир аъзосида педагогик касбий фаолият хусусиятларини ўрганишда ягона мақсад учун ҳаракатланишга имконият беради, бу ўз навбатида ўқитувчининг педагогик маҳоратини ошириш механизмини яратиш учун замин ҳозирлайди. Шу муносабат билан педагогик ташхис педагогик фаолиятда эришиладиган ютуқларни белгиловчи характер касб этганида самарали бўлишини таъкидламоқчимиз. Олимлар томонидан олиб борилган тажриба ишлари жараёнида шу нарса аниқландики, педагогик маҳоратни тадқиқ қилишнинг белгиловчи характери бевосита ўқитувчининг касбий рефлексиясига таянади.

Бу ўқитувчининг таълим–тарбия жараёнида пайдо бўладиган муаммоси айнан нимадан иборатлигини ва унинг сабаби айнан нима эканлигини аниқлаш, сабаб ва оқибатларини педагогик қийинчилик оқибати билан қориштирмасликка имконият беради. Бунда педагогик ташхислашнинг ўқитувчи касбий фаолиятини тезкор коррекциялаш имкониятини берадиган ўзига хос индикаторлик (ҳисоблаш) вазифаси намоён бўлади. Ўқитувчининг ўз ички имкониятларини баҳолаш диагностика давомида ҳар қандай ҳолатда ҳам эътиборга олиниши лозим, - деб таъкидлайди А.К.Маркова, - унга ишонч билдириш керак, унинг касбий фаолиятига баҳони ошириб ёки пасайтириб қўйиш ўқитувчи касбий ривожланишини тўхтатиб қўйиши мумкин. Ушбу ўқитувчининг индивидуал ривожланиш мантиқини ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир.

Ўқитувчининг ютуқларини бошқа ўқитувчиларнинг ютуқлари билан эмас, балки ўзининг олдинги ютуқлари билан ҳам таққослаш керак [5].

Шахсий педагогик фаолиятни ўз-ўзида таҳлил қилиш жараёнида ўқитувчи ўзининг таълим-тарбиявий фаолияти натижалари ва хусусиятларининг ҳолатини ўргангани, педагогик зиддиятлар ўртасидаги сабаб ва оқибатли боғланишларни аниқлайди, ўқувчиларга таълим ва тарбия беришни янада такомиллаштириш йўллари белгилайди, - деб таъкидлайди Л.Е.Плескач. Олимнинг фикрига кўра, “Рефлексия – ўз-ўзини таҳлил қилиш бўлиб, ўз-ўзича белгиланган мақсадга эришиш эмас, балки билим олиш, тажриба орттириш усули, ижодга, касбий жиҳатдан такомиллашишга нисбатан рағбатлантиришдир” [10].

Шунингдек, таъкидламоқчимизки, педагогик ташхислаш қайд қилувчи эмас, балки мақсад ҳосил қилишни белгиловчи (прогностик) характерга эга бўлганлигида самарали бўлади, бу ўқитувчининг касбий рефлексияси ривожланиши асосида амалга оширилади. Айтилган пайтда айнан таълим-тарбия жараёнида мақсад ҳосил қилувчи ташхислаш унинг ривожланиш қобилиятини таъминлайди. Хулоса қилиб айтилганда, ўқитувчи томонидан ўз касбий фаолияти натижаларини англаб етиши унинг педагогик фаолиятни амалга оширишини янада такомиллашган усуллари излаш ва уларни ўзлаштириш заруриятини таъминлайди. Фаолиятни ўзгартириш эса, фаолият субъектининг ўзгаришига олиб келади. Ўқитувчининг аналитик (таҳлил қилиш) қобилиятлари ривожланиши жараёнида унинг касбий рефлексияси ҳам ривожланади, бу ўз навбатида, ўқитувчининг ўз-ўзини ривожлантириш жараёнини маълум бир йўналишга солиб, унинг шахсий ижодий фаоллигини оширади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий услубий рисола. – 200 б.
2. Краткий психологический словарь. / Ред. сост. Л.А.Карпенко; Под общ. ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. – Ростов на Дон, 1998. – 286 б.
3. Кузьмина Н.В. Педагогическое мастерство учителя как фактор развития способностей учащихся // Вопросы психологии. – 1984. – №1. – С.16.
4. Леонтьев А. А. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва, 1975.
5. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва, 1996. – С. 106.
6. Метаева В.А. Рефлексия и её роль в преодолении профессиональных затруднений педагога: Дис. канд. пед. наук. – Екатеринбург, 1996. – С. 47.
7. Михайлова Е.С. Коммуникативный и рефлексивный компоненты и их соотношение в структуре педагогических способностей.: Автореф. дис. канд. психол. наук. – Л., 1990. – С. 18.
8. Ожегов С. И. Словарь русского языка /Под ред. Н.Ю.Швединой. – Москва, 1980. – С. 67.
9. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. Психология интеллекта. Генезис числа у ребенка. Логика и психология. – Москва, 1969.
10. Плескач Л.Е. Обучение учителей самоанализу педагогической деятельности как составная часть системы внутришкольного управления.: Автореф. канд. пед. наук. – Москва, 1983. – С. 19.
11. Симонов В.П. Диагностика личности и профессионального мастерства преподавателя. – Москва, Межд. пед. акад., 1996. – С. 103.
12. Татур И.Г. Становление педагогического мастерства будущего учителя в процессе развития его рефлексивной позиции: Дис. канд. пед. наук. – Одесса, 1989. – 97 с.

13. Турбовской Я.С., Провоторов В.П. Диагностические основы целенаправленного образования. – Москва: ИТО и ПРАО, 1995. – С. 76.

14. Христева А.В. Формирование умений анализа профессионально-педагогической деятельности: метод. реком. Для студентов педвузов и учителей. – Магнитогорск, МГПУ, 1997. – С. 43.

15. Философский словарь. / Под ред. И.Т.Фролова. – Москва, Политиздат, 1986. – 233 б.

БЎЛАЖАК ЧЕТ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА УМУММАДАНИЙ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ

Шарипова С.Б., ЎзДЖТУ доценти

Аннотация. Мақолада олий таълим тизимида талабаларнинг умуммаданий дунёқарашини шакллантириш миллий ғоя ва мафқурани талаба-ёшлар онгига сингдириш асосида баркамол шахсни тарбиялаш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: дунёқараш, маданият, эстетик ва бадиий қадрият, илмий дунёқараш, умуммаданий дунёқараш.

Олий таълимда талабалар ижтимоий-гуманитар фанларни (фалсафа, маданиятшунослик асослари, тарих, иқтисодий география, демократик жамият қуриш асослари, ҳуқуқ асослари, тил ва адабиёт, диншунослик ва бошқалар) ўрганиш орқали ижтимоий ҳаёт воқеа-ҳодисаларини тўғри англаб етсалар, тасвирий санъат, мусиқа каби фанлари эса маънавий-ахлоқий ва эстетик дид ва қарашларнинг таркиб топишига ёрдам беради. Айниқса, талабаларни кейинги касб фаолиятига тайёрлашда мутахассисликка доир фанларни ўрганиш малакаси ва уларни ўз фаолиятида қўллаш олиш кўникмасини ҳосил этишда ўқув-тарбия жараёни мазмуни ҳамда амалий фаолиятида дунёқарашга доир кўникма ҳосил қила олади.

Ҳар бир талаба ўзи ўқиётган курси бўйича умуммаданий дунёқарашнинг қайси жиҳатларини ҳал эта олади, ўрганилаётган мавзу, бўлим ёки маълум муаммони қай даражада ҳал эта олишини аниқ белгилаган ҳолда тарбияланувчилар диққатини унга тортиш муҳим. Талабаларда умуммаданий дунёқарашни шакллантиришда барча ўқув фанлари иштирок этади. Барча ўқув фанлари у ёки бу даражада инсоннинг билимига доир тушунчасининг моҳиятини тушунишга, мустақил билиш фаолияти кўникмаларини, диалектик тафаккурни шакллантиришга олиб келади. Умуммаданий дунёқарашни шакллантиришда:

1) маданиятнинг фалсафий, иқтисодий, ижтимоий-сиёсий қарашларда яхлит бир тизим сифатида етакчи тушунчаларини ажратиш олиш;

2) ўқув фанларида дунёқараш мазмуни қай даражада эканлигини аниқлаб бериш (ўқув предметлари ва ёш хусусиятлари жиҳатидан);

3) олий таълим тизимида ўрганиладиган фан асосларини умуммаданий фанларни яхлит бир мажмуада бирлаштириш.

Масалан, фалсафа фанини билишнинг умумназарий асослари, дунёнинг моддийлиги ва ўзгариб туриши, жамият ва табиатнинг ривожланиш қонуниятлари ҳақида баҳс юритар экан, маданиятнинг жамият маънавий тараққиётининг умумий қонунлари, уларни ҳаракатга келтирувчи кучлар, инсоннинг маданий-тарихий жараёнда ҳамда маданият соҳасида тутган ўрни ҳақидаги фан сифатида ўрганишни асосий вазифа этиб белгилайди. Дунёқараш эса илмий билиш назарияси асосида барча адабиётларда илмий дунёқарашни ёритишга бағишланган.

Профессор С.К.Аннамуратова умумтаълим мактабларида ўқувчи шахсини миллий ва умумбашарий бадиий маданияти асосида шакллантириш бўйича муҳим тадқиқот ишларини олиб борар экан, мазкур муаммони ҳал этишда ҳам ўқув жараёнида ҳам

тарбиявий ишларни ташкил этишда ўқув-методик базасининг етишмаслиги ўқитувчиларнинг ўқувчиларда миллий ва умумбашарий бадиий маданиятга қизиқишини шакллантиришда санъатнинг ҳар бир тури, унинг тарихи, назарияси, идрок этиши, ижодкорлигини ўрганиш бўйича педагогик тавсия ва методик ишланмалар етишмаслиги; амалиётчилар дастур ўқув қўлланма, методик тавсияларга, кўргазмали иллюстратив материалларга муҳтожлиги; дарсларнинг ва ижодий машғулотларнинг эмоционал-билишга доир сифатининг пасайганлиги ҳақида фикр юритади.

Чунки санъатни ўрганиш жараёнида жуда оз миқдорда педагогик самара кузатилмоқда, ўқув-билув ва бадиий материал етарли даражада эмоционал мазмунга эга эмас. Ўқувчилар санъат асарларини бадиий таҳлил ва бадиий идрок этишга йўналтирилмайди; ўқувчиларнинг ёш хусусиятларига эътибор берилмайди, уларнинг мустақиллиги ва фаоллиги талаб даражасида эмаслигини аниқлайди ва тадқиқот ишида бу камчиликларнинг олдини олиш бўйича илмий-амалий тавсиялар ишлаб чиқади.

С.К.Аннамуратова бадиий маданият эстетик ва бадиий қадриятлар тизими сифатида шахснинг эстетик, ахлоқий, ғоявий-сиёсий хислатларини шакллантиради, - деб таъкидлар экан, - бадиий маданият жамият, ижтимоий гуруҳ, айрим шахслар томонидан эгаллаб олинади. Лекин уни эгаллаб олиш ўзига хос хусусиятга эга бўлиб, унинг асосий негизи жамият ва алоҳида шахсга ўзига хос тарзда таъсир этувчи санъат бўлиб ҳисобланади, дейди.

Санъат ҳар бир шахснинг маънавий дунёсига таъсир этар экан, уни эгаллаб олиш механизми ижтимоий-индивидуал характер касб этади. Бу борада энг муҳим воситалар эстетик идеал, эстетик ҳиссиёт, эстетик эҳтиёж бўлиб ҳисобланади. Бадиий маданиятга эга бўлишнинг асоси бадиий саводхонлик бўлиб, бу билим, малака ва кўникмалардир.

Шунга кўра бадиий маданиятнинг асосий омили мақсадга мувофиқ йўналтирилган, билишга доир фаолият, ҳис этиш, тушуниш, севиш ва санъатни баҳолай олиш, ундан завқ олиш, уни яратиш ва тарғиб этиш, бадиий қимматини англаш кабилардан иборат деб билади.

Бадиий фаолиятнинг турли шаклларида санъатнинг бадиий тилини билиш ва унинг мазмунини англаш мумкин. Бадиий қадриятлар билан узлуксиз равишда мулоқот санъатга қизиқиш, санъат билан мулоқотга интилиш шаклланади. Санъатга доир билимларни эгаллаш, унинг тарихи ҳақида, репродукцияларни қўллаш, музейлар, кутубхоналар, кино, концерт ва бошқаларга бориш, бу билимларни мустаҳкамлаш таъкидланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қодиров Б. Комил инсон тарбиясининг педагогик асослари. – Т.: Меҳнат, 2001. – 195 б.
2. Туленов Ж. Фалсафий маданият ва маънавий камолот. – Т.: Меҳнат, 2000. – 215 б.
3. Муродов М., Қорабоев У., Рустамова Р. Этномаданият. – Т.: Адолат. 2003. – 198 б.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISHDA RAHBAR BOSHQARUVINING ASOSIY SAMARALI FUNKSIYALARI

**Baybayeva M.X., TDPU. professor v.b.,
Qodirova N.A., BuxIU magstrianti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim samaradorligiga erishishda ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv funksiyalari haqida ma'lumotlar yoritilgan. Ta'lim jarayonida rahbarlarning funksiyalari samaradorlik va natijaviylikka ta'sir etish bosqichi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: rahbar, funktsiya, boshqaruv, tizim, bosqich, faoliyat, samaradorlik, muassasa, natija.

Ta'lim muassasasi rahbari boshqaruv faoliyatining asosiy vazifasi ta'lim jarayonini tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun jamoada zaruriy sharoitlarni yaratish, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash va ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish hisoblanar ekan, ular o'z boshqaruv faoliyatlarida ta'lim muassasasida mavjud barcha jarayonlarni tartibga solib turish uchun boshqaruv funktsiyalarining mazmun va mohiyatini bilish zarur hisoblanadi. "Funktsiya" so'zi lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, bajarish, vazifa, faoliyat, majburiyat ma'nosini bildiradi. Boshqaruv vazifalari - biror ob'ektga rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan faoliyat turi deb tushuniladi. Boshqaruv vazifalari o'zining tarkibi bilan boshqaruv texnologiyasini bunyod etadi [1]. Boshqaruv vazifasining ma'nosiga ikkita element kiradi: u avval tizimda nima qilinayotganini belgilasa, so'ngra "qanday qilib?" savoliga javob berishni bildiradi.

Ta'lim muassasasi rahbarlarining asosiy funktsiyasi ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda muassasaning xayotiy faoliyatini ta'minlash bo'yicha boshqaruv yo'nalishidagi masalalarning ijobiy yechimini topish, hal etish hisoblanadi. Alohida ta'kidlash zarurki, boshqaruv faoliyati yoki ixtiyoriy faoliyat inson-inson munosabati, shuningdek, insonning tashqi muhit bilan munosabatlari, tarbiyaviy munosabatlar shaklida, ya'ni shaxsning ehtiyojlari talablaridan kelib chiqib ko'zlangan maqsadni amalga oshirishdagi o'zaro aloqalar shaklida tahlil qilinadi va o'rganiladi. Faoliyat maqsadi ob'ektiv bo'lib, o'z o'rnida shaxs tomonidan belgilanadi va u faoliyatning asosiy komponenti hisoblanadi [6]. Shuningdek, faoliyat sub'ektni ma'lum bir harakatga keltiruvchi sabablarni aniqlaydi va unda aniq bir shaxsning faoliyati va maqsad ifodalanadi. Boshqarishning ijtimoiy-psixologik funktsiyalari - jamoadagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar xarakteri bilan bog'langan. Ular ikki xil funktsiyalarni o'z ichiga oladi: vakolatlar taqsimoti va motivatsiya (undash) [2]. Ma'muriy boshqaruvning texnologik funktsiyalari - har qanday darajadagi rahbarlar mehnati texnologiyasi mazmunini anglatadi va ular faoliyatining quyidagi ikki tomonini belgilaydi: qarorlar va kommunikatsiyalar (aloqa, munosabat yullari). Yuqorida keltirilgan funktsiyalar o'zaro bir-birini to'ldirib, ma'muriy boshqaruvning yagona tizimini tashkil qiladi [4]. Mamlakatimiz olimlari boshqarish faoliyatining turlariga ko'ra quyidagi funktsiyalarni ajratib ko'rsatishadi:

boshqarishning iqtisodiy funktsiyalari, ya'ni mablag'larning doiraviy aylanishini amalga oshirish, mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, marketing xizmatini uyushtirish, foyda olishni ta'minlash va h.k.;

boshqarishning sotsial funktsiyalari, ya'ni: mehnat sharoitini yaxshilash, xodimlarning sotsial madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini kondirish, moddiy rag'batlantirishni ta'minlash, ijtimoiy himoyani ta'minlash va h.k.;

boshqarishning ma'naviy-ma'rifiy funktsiyalari, ya'ni: xodimlarni insoniylik, yaxshilik, mehr-shafqatli va o'zaro munosabatlarda sabr-toqatli bo'lish ruhida tarbiyalash, xodimlarni vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, halollikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalashga xizmat qilish va h.k.;

boshqarishning tashkiliy funktsiyalari, ya'ni: ishlab chiqarishni tashkil qilish, o'zaro aloqalarni o'rnatish va muvofiqlashtirish, barcha bo'g'in va bo'limlar o'rtasida vazifalar taqsimoti, vakolat va boshqarish apparati xodimlari o'rtasida mas'uliyatlarni belgilash, boshqarishning aniq uslubini tanlash va qaror qabul qilishda ish tartibi izchilligi, axborotlar oqimini tashkil qilish va h.k.

Qayd qilingan funktsiyalar bir-biri bilan bog'liq va ma'lum darajada tartibga solingan ko'p unsurlardan, tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, yaxlitlikka ega. Shuning uchun ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Menejment nazariyasida asosan to'rtta funktsiya: rejalashtirish, tashkil etish, motivlashtirish va nazorat funktsiyalarining ajratilishini va ularni

birinchi darajali deb hisoblash qabul qilinganligini ta'kidlash joiz [3]. Bunday holatlarda boshqaruv faoliyatining funksional tarkibini aniqlashga vaziyatli yondashuv qo'llaniladi. Boshqaruvda vaziyatli yondashuvning ommalashishi natijasida mutaxassislar boshqaruvning boshqa funksiyalari - maqsadni belgilash, kommunikatsiya, rag'batlantirish kabi funksiyalarni ham alohida ajratib ko'rsatishgan.

Bugungi kunda maktab rahbarlari boshqaruv funksiyalarining integrativ sifatlarini tavsiflovchi xususiyatlar: maktab boshqaruvini ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirish, rahbarlik uslublaridan korporativ foydalanish, ta'lim menejmentining tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash, boshqaruvni maktab faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida belgilashni ko'rsatadi [5]. Rahbarning ta'lim muassasasidagi boshqaruv faoliyatini yaxshiroq tushunish uchun boshqaruvning funktsiya va metodlarini ko'rib chiqish hamda rahbarlarni boshqaruv faoliyatining tarkibiy tuzilishini belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmadxo'jayev X.T., Mirdadayev K.M., Krzokov O.S. Menejment va strategiyani boshqarish. - Toshkent: Ilm Ziyo, 2004. 12-24 bet.
2. Valijonov R., Qobulov O., Ergashev A. Menejment asoslari. – Toshkent: Sharq, 2002. 25-26 bet.
3. Djo'raev P.X., Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. – Toshkent: Fan, 2006. – 23 bet.
4. Ismailova Z. K., Baybaeva M.X. Rahbarlarning nizoli vaziyatlarni hal etishda konfliktologik kompetentligini rivojlantirish // Life Sciences and Agriculture. – 2020. – №. 2-2. – S. 185-188.
5. Baybayeva M.X. Ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatidagi roli // Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. – 2022. – T. 3. – №. 5. – S. 59-66.
6. Baybayeva M.X. Rahbarlarning boshqaruv faoliyatlarida sog'lom va ijodiy muhitni yaratishga xos zamonaviy yondashuvlar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 4-2. – S. 403-411.

ФУНКЦИИ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ И КОРРЕКЦИИ ЛИЧНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Исамова П.Ш., доцент УзГУМЯ

Аннотация. В статье освещаются цель и функции психолого-педагогической диагностики и коррекции личности в образовательном процессе высшей школы. Раскрывается взаимосвязь с функциями педагогического процесса, прежде всего с такими как общепринятыми, как образование, обучение и воспитание.

Ключевые слова: психолого-педагогическая диагностика и коррекция, функции планирования ППДК личности.

Основной целью психолого-педагогической диагностики и коррекции личности в образовательном процессе высшей школы является обеспечение эффективности высшего профессионального образования путем его психолого-педагогического сопровождения. Применительно же к функциям проектируемой нами системы психолого-педагогической диагностики и коррекции (ППДК) личности наиболее близким является определение функции с позиций системного подхода. Эти функции неразрывно взаимосвязаны с функциями самого педагогического процесса, прежде всего с такими общепринятыми, как образование, обучение и воспитание:

1. Функция психолого-педагогической диагностики. Эта функция является важнейшей системообразующей функцией ППДК личности в образовательном

процессе, т.к. без психолого-педагогической диагностики невозможно качественно реализовать другие функции ППДК (коррекции, целевой ориентации, формирования и др.). Более того, первостепенной задачей психолого-педагогической диагностики в образовательном процессе является обеспечение процессов образования, обучения и воспитания обратной связью, которая позволяет эффективно эти процессы организовать. Благодаря психолого-педагогической диагностике осуществляется мониторинг начального, текущего и итогового уровня развития профессионально-важных качеств и психологических свойств личности студента в образовательном процессе. Диагностика итогового уровня развития профессионально-важных качеств и психологических свойств личности студентов необходима для оценки эффективности формирования (коррекции) их в ходе образовательного процесса в вузе, также для принятия решения о необходимости дальнейшего развития (коррекции) этих качеств.

2. Функция психолого-педагогической коррекции и развития. Эта функция предполагает целенаправленное изменение свойств и качеств под влиянием коррекционно-развивающих воздействий. Психологическая коррекция понимается как «деятельность по исправлению (корректировке) тех особенностей психического развития, кои по принятой системе критериев не соответствуют «оптимальной» Модели», а психическое развитие как «закономерное изменение психических процессов во времени, выраженное в количественных, качественных и структурных преобразованиях [2].

Принципиальная возможность объединения диагностических и коррекционно-развивающих методик в единой ППДК личности обусловлена совместимостью между психодиагностическими и психокоррекционными методиками по следующим позициям. Функциональное родство между соответствующими диагностическими и коррекционными методиками обусловлено тем, что общим предметом психолого-педагогической диагностики и коррекции являются свойства психологической структуры личности. При этом важной функцией их диагностики является выявление необходимости и содержания последующей коррекции (развития). Процесс же коррекции (развития) предполагает использование диагностических данных об эффективности коррекции (наличие обратной связи).

Структурная и функциональная общность научно-технического и аппаратурно-программного обеспечения, обуславливающая целесообразность объединения психолого-педагогических диагностических и коррекционных аппаратурных методик в единую диагностико-коррекционную систему. Возможность научно-методического, технического и программного взаимодополнения аппаратурных психодиагностических методик психокоррекционными, а психокоррекционных методик психодиагностическими.

Основной целью проектируемой ППДК личности является обеспечение эффективности высшего профессионального образования путем его психолого-педагогического сопровождения. В связи с этим несомненно внимания заслуживают функции образовательного процесса: диагностическая, целевой ориентации, планирования, организаторскую, мобилизационно-побудительную, коммуникативную, формирующую, контрольно-аналитическую, оценочную, координации и коррекции, совершенствования^[1].

Так, функция целевой ориентации ППДК личности на начальном этапе обучения в высшей школе предполагает определение по результатам психолого-педагогической диагностики целей и задач как процесса образования, так и процесса самообразования студентов, а также ранжирование и дифференциацию образовательных задач.

Функция планирования ППДК личности предполагает моделирование образовательной деятельности студента, определение ее содержания, способов и форм организации, составление индивидуальной программы профессионально-личностного

развития. Однако дальнейшее текущее планирование образовательной деятельности студента следует осуществлять с учетом результатов коррекционно-развивающей работы, которые свидетельствуют о ее эффективности и индивидуальной обучаемости студента.

Мобилизационно-побудительная функция ППДК личности предполагает формирование и сохранение на протяжении всего процесса обучения в вузе оптимального уровня мотивационной готовности студентов к личностному развитию, развитию профессионально-важных качеств (ПВК). Эта функция осуществляется с помощью оценки начального (стартового) уровня личностного развития и сформированности ПВК, составления на ее основе ППЛР студента. Систематический мониторинг динамики профессионально-личностного развития, осуществляемого по результатам текущей психолого-педагогической диагностики, стимулирует мотивационную готовность студентов к саморазвитию и самосовершенствованию. Этому также способствует использование коррекционно-развивающих методик для получения оперативного развивающего эффекта, действующего в роли подкрепления мотивации.

Коммуникативная функция личности предполагает обеспечение участников образовательного процесса (педагогов и студентов) на протяжении всего процесса обучения в вузе для своевременного согласованного внесения корректив в эту программу. Формирующая функция диагностики личности предполагает формирование адекватной самооценки, самосознания студентов в целом, и профессионального самосознания, в частности. Адекватность самооценки студента зависит от качества (достоверности) имеющейся у него информации о самом себе. Несомненно, что системные представления о собственных способностях, профессионально важных качествах и обучаемости, полученные с помощью ППДК личности, отличаются гораздо большей достоверностью, чем спонтанные суждения о себе. Поэтому ППДК личности в образовательном процессе является важным условием формирования адекватной самооценки и профессионального самосознания студентов.

Контрольно-аналитическая и оценочная функции диагностики личности предполагают контроль, анализ и оценку эффективности педагогических и психологических воздействий на личностное и профессиональное развитие студентов. Показателем эффективности является величина разности между показателями (по результатам диагностики) выраженности того или иного свойства до и после развивающего (корректирующего) воздействия. Показателем эффективности педагогических и психологических воздействий на личностное и профессиональное развитие студентов является также положительная динамика профессионально-личностного развития студентов. Координационная функция ППДК личности предполагает согласование действий всех участников педагогического процесса для реализации цели личностного и профессионального становления студентов, своевременное корректирование их взаимодействия на основе результатов систематического психолого-педагогического мониторинга.

Таким образом, система психолого-педагогической диагностики и коррекции личности в образовательном процессе высшей профессиональной школы реализует такие функции, как психолого-педагогическая диагностика и коррекция (развитие) личности – основные функции, а также функции целевой ориентации, планирования, организации, мобилизационно-побудительная функция, коммуникативная, формирующая, контрольно-аналитическая, оценочная, координационная и функция совершенствования. Этим обеспечивается эффективность психолого-педагогического сопровождения высшего профессионального образования.

Библиографический список:

1. Дудина М., Хаматнуров Ф. Т. Основы психолого-педагогической диагностики: учебное пособие / М. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2016. 190 с.
2. Цагарелли Е.Б. Функции системы психолого-педагогической диагностики и коррекции личности в образовательном процессе// Фундаментальные исследования. – 2013. – № 4-1. – С. 145-148.

PEDAGOGICAL ASPECT OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

**Sirojiddinova I. M., Associate Professor of "Department of Humanities"
Faculty in Andijan Machine-Building Institute**

Abstract: The article highlights the problem of mass introduction of distance educational technologies into the higher education system of the Republic of Uzbekistan from the perspective of its psychological and pedagogical effectiveness.

Key words: distance learning, distance education, quality of educational services.

In modern Uzbekistan, in the context of the rapid spread of information and communication technologies (ICT), new demands are placed on the higher education system and its effectiveness. The modernization of the higher education system of the Republic of Uzbekistan is designed to meet the needs of the population in obtaining knowledge and skills in demand in the developing economy. It is generally accepted that the level of quality of educational services still differs significantly in different universities and regions of Uzbekistan, which affects the socio-economic efficiency of the higher education system as a whole. New educational services include distance education (DE), including distance educational technologies (DET) themselves [1]. The widespread use of the latest educational distance technologies will help level out the inequality in the quality of education in universities of the Republic of Uzbekistan. The creation of effective distance learning systems creates conditions for social accessibility to quality education for a significant part of the population, and helps solve the problem of education for people who, for various reasons, cannot use the services of full-time education. A feature of obtaining distance education is the possibility of constructing an individual curriculum, multiple options for choosing an educational trajectory and reducing tariffs for educational services [2].

The key concept of this publication is the concept of distance learning. The study of scientific literature, dictionaries and encyclopedias became the basis for the conclusion that at present it is impossible to talk about distance learning as a finally formed and uniformly understood term in the history of pedagogical practice.

So, distance learning (DL) is a set of technologies that ensure delivery of the main volume of studied material to students, interactive interaction between students and teachers during the learning process, providing students with the opportunity to independently work on mastering the material, as well as during the learning process [3, 4]. Distance learning and the development of modern equipment and technologies are inseparable: one contributes to the development of the other. Currently, a student, no matter where he lives, can study under the program of almost any Western university without leaving his country [5, 6].

One of the most acceptable options for preschool education, in our opinion, is that the student receives methodological support for the courses, which he studies, and then passes the exam. Another method is that the information was posted on the server, people studied it and, say, in two weeks they had to write a certain test. So, in blocks, they went through the entire program, and at the end the organizers set a time at which they would take the exam [7, 8].

In its historical development, distance education has implemented three stages of information exchange with students: using regular mail (exchange of parcels), case

technologies, network technologies (telecommunications, e-mail, Internet, etc.). The goal of the development of DET in the future is to provide access to information resources located anywhere in the world from anywhere in the world where the learning process using distance educational technologies is organized. It can be assumed that distance learning will in the near future become as common a form of education as full-time or correspondence courses. At the same time, the quality of distance learning is growing at a rapid pace and will soon equal and perhaps even surpass the quality of full-time education [9, 10].

The considered characteristics of distance learning are the basis for close interest in it. They clearly and clearly indicate the advantages of this type of training over traditional educational practice, creating the prerequisites for the widespread use of DET opportunities in the higher education system of Uzbekistan in a shortened form of education.

REFERENCES:

1. Густырь А.В. К определению терминологического стандарта открытого и дистанционного образования // Проблемы нормативно-правового обеспечения открытого образования. Материалы конф- М. МЭСИ, 2021.
2. Mahammadovna S. I. Features of Cluster Design in Modern Paradigms of Education //Telematiqu. – 2023. – Т. 22. – №. 01. – С. 348-355.
3. Сирожиддинова И. Методика смешанной отборки при комплексном проектировании профессиональной подготовки будущих инженеров //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 7/S. – С. 87-92.
4. МАХАММАДОВНА S. I. Таълим жараёини мониторинг тадқиқ қилиш учун ташхис материалларини ишлаб чиқиш //Results of National Scientific Research. – 2022.
5. Iroda M. Rational Methods Awakening and Stimulating University Students Professional and Creative Abilities //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
6. Mahammadovna S. I. Needs and Factors for Developing Professional and Creative Abilities of Students of Higher Educational Institutions //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – Т. 25. – №. 6. – С. 2804-2810.
7. Sirozhiddinova I. Rational methods of awakening and stimulation professional and creative abilities of university students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 7.
8. Ловцов Д.А. Адаптивная система индивидуализации обучения// Педагогика. 2001-№6
9. Mahammadovna S. I. IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGINEERS BASED ON THE CLUSTER APPROACH //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 3. – С. 45-47.
10. Sirojiddinova I. M. ENGINEERING STUDENTS HAVE SUCCEEDED IN CREATING A TECHNOLOGY CLUSTER // Pedagogy & Psychology Theory and practice International scientific journal № 5 (43), 2022 ISSN 2412-8201. Volgograd, 2022/ 22-25 <http://scippjournal.ru/archives> 22-25 12.

RAQAMLI GUMANITAR TA'LIM VA IJTIMOY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISH MUAMMOLARI

**Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna,
pedagogika fanlari nomzodi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi raqamli transformatsiya natijasida oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikalarini o'zgartirish zarurati, ijtimoiy-gumanitar fanlar pedagoglarining yangi kompetensiyalarga bo'lgan ehtiyojining yuzaga kelish sabablari tahlil etiladi.

Kalit soʻzlar: raqamli gumanitar taʼlim, ijtimoiy-gumanitar fanlarni raqamlashtirish muammolari, raqamli kompetensiyalar.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat va inson hayotining turli sohalariga faol kirib borayotganligi sababli taʼlim tashkilotlari taʼlimni raqamlashtirish va axborotlashtirish yoʻnalishida oʻz rivojlanish strategiyalarini qurmoqdalar. Taʼlim va tarbiya tizimini modernizatsiya qilish, taʼlim dasturlarini raqamli iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish, taʼlim faoliyati uchun raqamli vositalarni keng joriy etish va ularni axborot muhitiga yaxlit holda integratsiya qilish, fuqarolarni butun hayot davomida individual oʻquv dasturiga muvofiq istalgan vaqt va istalgan joyda oʻqitish imkoniyatini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda taʼlim-tarbiya tizimini yangi bosqichga koʻtarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilgʻor xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va pedagogik taʼlim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qoʻllash koʻnikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qoʻshuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilgʻor taʼlim texnologiyalarini joriy qilish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Raqamli gumanitar fanlar iborasi Internetda paydo boʻlgach Yevropa miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, AKTdan foydalanishda bugungi kunda ham oʻqituvchilar dars berishdan koʻra darsga oʻquv materiallarini tayyorlashga koʻproq vaqt ketkazishadi. (European Schoolnet and University of Liège, 2013). Yevropa Komissiyasi raqamli taʼlimga bagʻishlangan "Horizon Report Europe" tadqiqotlarida raqamli gumanitar taʼlim vositasi nafaqat oʻqitishni yaxshilash, balki moslashuvchan taʼlim texnologiyalarini yaratish va foydalanish orqali auditoriyada innovatsiyalarni ilgari surish dolzarbligini taʼkidlaydi.

Taʼlimni raqamlashtirishning nazariy asoslari Ye.M. Yegorova , A.A. Verbitskiy, N.V. Shamova, A.Yu. Uvarov, N.P. Goncharuk, Ye.M. Xromova, G.A. Kruchinina va boshqalar tomonidan oʻrganilgan. Ilmiy adabiyotlarda "raqamli texnologiyalar" tushunchasi "kodlar va signallarni maʼlum ketma ketlikda va maʼlum chastotada yozib olish uchun kompyuterlar yoki boshqa zamonaviy jihozlardan foydalanadigan texnologiyalar" deb talqin etiladi .

Olib borilgan tadqiqotlar gumanitar fanlarni oʻqitish jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish muammosi yetarlicha oʻrganilmaganligini koʻrsatadi. Raqamli gumanitar fanlar yoki raqamli gumanitar taʼlim- bu ijtimoiy va gumanitar tadqiqotlarda kompyuter usullaridan foydalanish bilan bogʻliq zamonaviy fan sohasi boʻlib, taʼlimning raqamli didaktik materiallari va Internet orqali taqdim etiladigan xizmatlarni oʻz ichiga oladi. Raqamli gumanitar fanlar - bu kompyuter fanlari va gumanitar fanlar chorrahasida joylashgan tadqiqot, oʻrganish va yaratish sohasi sifatida raqamli materiallar va bosma materiallardan foydalanishni oʻz ichiga oladi va anʼanaviy gumanitar fanlar (tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyot, sanʼat, arxeologiya, pedagogika, musiqa va boshqalar)ni oʻqitish metodikalarini kompyuter fanlari bilan birlashtiradi, oʻqitish jarayoniga kompyuter vositalarini taqdim etadi va maʼlumotlarni yigʻish, ularni vizualizatsiya qilish, maʼlumotlarni qidirishda matematik statistikadan foydalanish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Oliy taʼlim tizimida gumanitar fanlar umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilganligiga eʼtibor qaratsak, raqamli texnologiyalarni gumanitar fanlarni oʻqitish jarayoniga joriy etish bu fanlardan dars beradigan mutaxassislardan yangi koʻnikma va malakalarni, raqamli kompetensiyalarni talab etishini koʻrishimiz mumkin. Raqamli taʼlim oliy taʼlim tashkilotlarida oʻquv jarayonining qulayligi va interaktivligini taʼminlaydi, taʼlim tashkilotini raqamlashtirish ishlari oʻquv jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladi, ammo, fanlarni oʻqitish jarayoniga raqamli texnologiyalarni toʻgʻridan-toʻgʻri joriy etish fan oʻqituvchilariga bogʻliq boʻladi. Raqamli texnologiyalar va raqamlashtirilgan gumanitar taʼlim ijtimoiy-gumanitar fanlar oʻqituvchilarining ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirish, ularni samarali tayyorlash va pedagogik mahoratning yuqori darajasini taʼminlashi mumkin. Buning uchun raqamli gumanitar taʼlim muhitida oʻqituvchining kreativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash,

malaka oshirish ta'limi jarayonida raqamli gumanitar ta'limdan foydalanib, ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqish va tajribasindan o'tkazish, integrativ kreativ faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash muhim hisoblanadi. Raqamli dunyo bilan o'zaro munosabatda bo'lish uchun o'qituvchilar o'z bilim va malakalarini takomillashtirishlari, ta'lim jarayoniga yangi texnologiya va metodlarni qo'shishlari, talabalar esa bu metodlar vositasida mustaqil fikrlash, o'z ustida ishlash, muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali foydalanishlari mumkin bo'ladi. Raqamli ilm-fanni targ'ib qilish, mobil texnologiyalardan ta'lim jarayonida keng foydalanish bizning ta'lim sohasidagi qudratli imkoniyatlarimizni ochish demakdir. Gumanitar fanlar nafaqat talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, balki dunyoqarashi, xulq-atvori va shaxsiyatini shakllantirishi bilan ham ahamiyatga ega. Ilgari talabalar atrofdagi kattalardan o'rgangan bo'lsa, hozirgi vaqtda talabalar kompyuter va internet tarmoqlari orqali turli manbalardan o'rganadilar. Raqamli ommaviy axborot vositalarini, raqamli texnologiyani yoshligidan ishlatgan talabalar bu texnologiyalar bilan o'rganayotgan fanlarini juda tez o'zlashtira oladilar. M.Marajabovning fikricha raqamli pedagogika talabalarga onlayn yaratish, tahrirlash, aks ettirish va rivojlantirish, metakognitsiya, tanqidiy tahlil, nashr etish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi [4;64]. Bugungi kunda insoniyat qo'lida kamida 130 million kitob mavjud. Millionlab manbalarni o'rganish va adabiyotlarni keng jamoatchilikka tushunarli va ochiq qilish uchun ma'lumotlar tahlili va falsafani birlashtirgan holda raqamli muzeylar, yangi media kontent yaratish talab etiladi. Oddiy qilib aytganda, an'anaviy gumanitar fanlar usullarini (masalan, tarix, tilshunoslik, adabiyot, pedagogika yoki musiqa) axborot texnologiyalari bilan birlashtirgan holda o'qitish, o'qituvchidan o'quv materiallarini to'plash, vizualizatsiya qilish talab etiladi. To'liq raqamlashtirish dunyosida tilshunoslik, filologiya, tarix, san'at tarixi, pedagogikada bugungi kunda "raqamli burilish" sodir bo'lmoqda. Texnologiyaning rivojlanishi tufayli yangi tadqiqot obyektlari: millionlab matnlar to'plami, tarixiy ma'lumotlar bazalari, raqamli arxivlar, elektron muzeylar paydo bo'lmoqda. Ushbu obyektlar til, madaniyat va jamiyat haqida juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, ammo ularni an'anaviy gumanitar usullar bilan yetarli darajada o'rganib bo'lmaydi. "Raqamli burilish" tubdan yangi tadqiqot malakalarini talab qiladi. Raqamli gumanitar fanlar fanlararo ta'lim sohasi bo'lganligi sababli bu yo'nalishda ishlash turli vakolatlarga ega ishtirokchilarni birlashtiradigan jamoalar uchun osonroqdir. Bu yerda bir nechta tadqiqotchilar: dasturchilar, matnni qayta ishlash bo'yicha mutaxassislar, dizaynerlar, tilshunoslar, tarixchilar, madaniyatshunoslar, jurnalistlar va boshqa soha vakillari birgalikda ishlashi talab etiladi. Interaktiv xaritalarni yaratish, maktublar va kundaliklar asosida buyuk yozuvchilarning ijtimoiy tarmoqlarini, qadimgi davlatlarning 3D modellarini qurish, muzeylar, kutubxonalar uchun veb-resurs, mobil ilova yoki media-loyiha yaratish ijtimoiy gumanitar yo'nalish o'qituvchilarining barchasini qiziqtiradi. Misol uchun, talabani Shayboniylar sulolasi, urushdan keyingi o'zbek adabiyoti yoki neoklassitsizm qiziqtirmasa ham, bunday loyihalar talabalarning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi va umuman san'at, adabiyot yoki tarixga yangicha qarashni kengaytiradi. Yangi media, multimedia loyihalari, interaktiv xizmatlar va xaritalar, ma'lumotlar bazalari, muzeylarda immersiv tajriba olish imkoniyati - bularning barchasi raqamli gumanitar fanlar sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Raqamli gumanitar ta'lim ko'nikma va malakalarini takomillashtirish asosida raqamli muhitda ilmiy tadqiqotlarni olib borish mumkin bo'ladi. Bugun adabiyotshunoslikda, falsafada va tarixda, pedagogikada katta ma'lumotlar, statistika, dasturlash zaruriy malakalarga aylanib bormoqda. Buning uchun gumanitar fanlar o'qituvchilari matematika va informatika fanlarini puxtaroq egallashlari kerak bo'ladi, chunki yaqin kelajakda raqamli hujjatlar, shaxsiy bulut xizmatlarini boshqarish va ishonch mexanizmlarini o'rganish; shaxsiy raqamli arxiv modelini, ijtimoiy-madaniy soha uchun raqamli loyihalarni yaratishda informatika usullari gumanitar fanlarga kirib, tilshunoslarni, arxivchilarni va madaniyatshunoslarni, tarixchilarni, pedagoglarni dasturlashni o'zlashtirishga

majbur qiladi va universitetlarda "raqamli ijtimoiy-gumanitar fanlar" uchun o'quv dasturlari paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4623-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4749364>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli farmoni <https://lex.uz/docs/5085999>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-sonli farmoni <https://lex.uz/docs/4545884>
4. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqishning nazariyasi va amaliyoti. Sh.S.Sharipov va b. // -Toshkent: O'zF Akademiya "Fan" nashriyoti, 2011. -206 b.
5. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007.– 160 b.
6. M. Mamarajabov. "Raqaamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish" mavzusidagi 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi mutaxassisligi bo'yicha pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. T.2022 y.
7. 64-бГершунский Б.С. Философия образования для XXI века. – М.: Просвещение, 1998.-608 с.
8. Зеер Э.Ф., Заводчиков Д. Идентификация универсальных компетенций выпускников работодателем.//Высшее образование в России. 2007.-№5.-28-37 стр.
9. Креативная педагогика. Методология, теория, практика / под ред. д. т. н., проф. В. В. Попова, акад. РАО Ю. Г. Круглова. — 3-е изд. — М. : БИНОМ. Лаборатория знаний, 2012. — 319 с.

GLOBALLASHUV JARAYONI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI

B.Kulmatov, O`zDJTU, o`quv ishlari bo`yicha prorektor

Agar tarixga nazar tashlasak, o'z faoliyatida boshi berk ko'chaga kirib qolganda, hamma vaqt ilmiy — texnikaviy yangilikka intilgan va erishilgan muvaffaqiyat evaziga o'z ko'chasini ochiq qilib olgan: olov paydo bo'lishdan, bug' mashinasi, yadro, atom energiyasi paydo bo'lishiga qadar biz uning guvohimiz. Axborotni qayta ishlash, boshqaruv jarayonining boshi berk ko'chaga kirib qolishi o'z navbatida tezkor elektron hisoblash mashinalari bunyod etilishiga olib keldi. Jamiyatni axborotlashtirish ishlab chiqarishning yuqori darajasidagi jarayon bo'lib, axborotdan jamoat resursi sifatida foydalaniladi. Axborotlashtirish, bu umumjahon jarayoni bo'lib, taraqqiy etgan mamlakatning jahon bozoridagi peshqadamligi, iqtisodiy o'sishi va milliy xavfsizligini ta'min etadi. Ma'lumki, globallashuv jarayoni obyektiv va qonuniy jarayon bo'lib, o'ziga xos bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. Bu jarayon birinchi galda davlatlarga xalqaro maydonga erkin chiqishga, boshqalar bilan yaqindan hamkorlik olib borishga hamda o'z milliy manfaatlarini turli xil xalqaro va nodavlat tashkilotlar doirasida ta'minlashga keng imkoniyatlar beradi [1].

Shuni aytish kerakki, vaqt o'tishi bilan globallashuv jarayonining o'ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga, bir qator salbiy jihatlari ham namoyon bo'la boshlaydi. Davlatlarning bir-biriga sezilarli darajada o'sgan bog'liqligi shuni ko'rsatmoqdaki, bir mintaqadagi xoh salbiy, xoh ijobiy voqea-hodisalar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalib, o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buning oqibatida, mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdidlar vujudga kelmoqda. Vaziyatning keskinlashuvi, tashqi tahdidlarning ichki tahdidlar bilan, ya'ni an'anaviy tahdidlar bilan o'zaro qo'shilishi, ular orasidagi masofa yaqinlashuvi hamda ularning o'zaro

bog'liqligi o'sishi kuzatilmoqda. Bu holat esa milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda jahon geosiyosatida geostrategik kuchlar muvozanatining o'zgarishi, ko'p qutbli markazlar yuzaga kelishi, ular orasidagi raqobat hamda ayrim davlatlarning dunyo hukmronligi uchun ochiqdan — ochiq da'volari yangi mustaqil davlatlarda jamiyatni erkinlashtirish va huquqiy demokratik davlat qurish jarayoniga, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [2].

Ushbu geosiyosiy raqobat oqibatida xalqaro xavfsizlikning yangi noan'anaviy tahdidlari: xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm, narkobiznes, noqonuniy qurol savdosi, separatizm vujudga kelishi kuzatiladi. Mazkur tahdidlar esa zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi globallashuv va integratsiyalashuv natijasida kundan-kunga milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka xavf solmoqda.

So'nggi davrlarga kelib, geosiyosiy vaziyatning o'zgarishi hamda raqobat kuchayishi natijasida yuqorida ko'rsatilgan omillardan tashqari, ilgari kuzatilmagan tahdidlar yuzaga kela boshladi. Ayrim g'arb davlatlari tomonidan o'z milliy manfaatlarini kengaytirishda «demokratiya eksporti» «ikkilamchi meyor» siyosiy va «axborot huruji» kabi asosiy vositaga aylanmoqda. Globallashuv jarayonini bevosita axborot bilan bog'liq ekanligini tushinish qiyin emas, albatta [3].

Mutaxassislarning fikricha, hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbaiga aylanib bormoqda. AQSh Strategik tadqiqotlar institutining ma'lumotlariga ko'ra, axborot mahsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg'i-energetika sohasiga sarmoya qilingan 1 dollardan ko'ra bir necha barobar ko'p foyda berar ekan. Bu faqat uning iqtisodiy jihati, uning siyosiy jihati esa o'z shaxsiy manfaatlariga o'ta arzon, o'ta qulay yo'llar bilan erishish sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda axborot omili ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan ayrim kuchlar manfaatiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham yangi mustaqil davlatlarning milliy xavfsizligini ta'minlashda siyosiy, iqtisodiy, harbiy omillar bilan bir qatorda uning axborot jihatlari borgan sari dolzarblashmoqda.

Prezidentimiz aytganlaridek, axborot omili yadroviy poligonlardan ham dahshatli omilga aylanib borayotir. Agar mazkur omilga alohida e'tibor berilmas ekan, u borgan sari kuchayib boradi. Natijada, ayrim kuchlar qo'lida asosiy «qurol»ga aylanadi. Bu esa nafaqat davlatlar yoki mintaqalarda keskin vaziyat vujudga kelishiga sabab bo'ladi, balki xalqaro miqyosda ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar natijasida milliy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro xavfsizlik kabi tushunchalar mohiyatini tushinishga, ularning o'zaro bog'liqligini anglashga e'tibor ortib bormoqda. Bugungi dunyoning axborot xavfsizlik holati «Xavfsizlik»ka bo'lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamoqda.

Bugungi globallashuv asrida axborotga bo'lgan talab har qachongidan ko'ra, kuchayib bormoqda. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo'lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko'ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, tele-radio kanallar odamlarni xolis va haqqoniy axborot yetkazadigan, gumanistik qarashlar, ilg'or g'oyalarni ifoda qiladigan erkin minbar sifatida e'tibor beriladigan vositadir. Aslida ham shunday. Bugun jahon miqyosida bo'layotgan olamshumul o'zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi inson aqlini lol qoldiradigan yangiliklaru ixtirolar barcha-barchasi ommaviy axborot vositalari orqali ma'lum bo'lmoqda. Demak, OAV, matbuot yaxshilikka, ezgulikka xizmat qilmoqda. Lekin ming afsuslar bo'lsinki, o'tgan asrning oxirlari, XXI yuz yillikning dastlabki yillarida G'arb matbuotida biz aytgan ezgulikka xizmat qilish o'rniga boshqa buyurtmali «ezgulikka» xizmat qilish hollari ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, bu holni sobiq ittifoq parokanda bo'lgach, uning o'rnida tashkil topgan mustaqil respublikalar, xususan, Markaziy Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston bilan bog'liq jarayonlarda uchratish mumkin [3].

Agarda mustaqilligimizning dastlabki yillarida G'arb matbuotining Respublikamizga bo'lgan munosabatini tahlil etadigan bo'lsak, «Ozodlik», «BBS» va boshqa radio hamda gazetalarda ko'proq ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy va shu kabi sohalaridagi kamchiliklarga e'tibor qaratiladi. Lekin, O'zbekiston o'z tashqi siyosatida qat'iy va dadil yo'l tuta boshlaganidan, ayrim xalqaro tashkilotlari «Buyuk derjava» larning yo'rig'iga yurmaganidan, ularning geostrategik rejalarini barbod etgandan so'ng axborot hurujlar avj ola boshladi. So'nggi vaqtlarda ayrim ommaviy axborot vositalarida terroristik tajovuzlar dunyoning Yevropa qismida «terrorizm» deb baholanib, O'zbekistonda «inson haq-huquqlarining himoyasi» sifatida qaralmoqda. Mana shunday sharoitda, ya'ni, demokratik jarayonlarga baho berishda kim holis yondoshayotganligi, kimning esa berayotgan bahosi uydirma bo'lib, haqiqiy demokratiyaga va milliy manfaatlariga zid ekanligini anglash uchun har birimizda fuqaroviy pozitsiya bo'lishi kerak. Shu o'rinda ulug' alloma Abu Rayxon Beruniy merosidagi ayrim fikrlarga e'tiborni qaratmoqchimiz. Alloma bundan ming yil burun shunday yozib ketganlar.

«Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg'onlik tusini oladi. Chunki, odamlarning maqsadlari xilma-xil xalqlar o'rtasida tortishish va talashish ko'p. Shunday kishilar ham bo'ladiki, ularning tabiatiga yolg'on xabar tarqatish o'rnashib qolib, go'yoki unga shu vazifa yuklangandek bo'ladi va xabar tarqatmasdan tinchiy olmaydi. Bu yomon xohishlardan va tabiatiga buzuvchi fikrlarning joylashganligidan kelib chiqadi». Qarang bundan o'n asr avval yashab o'tgan bobokalonimiz bugungi kun voqeligi, ayniqsa, o'zini adolatparvar, inson huquqlari himoyachisi, oddiy so'z bilan aytganda, «jurnalist» deb yurgan ayrim kimsalarga bahs berib o'tgan ekanlar. Axborotni himoyalash masalalariga rivojlangan mamlakatlar katta ahamiyat beradi. Hozirgi paytga kelib xalqaro munosabatlar yangi axborot texnologiyalari asosida shakllanayotgani bois, axborotni himoyalash va kompyuter tizimlari xavfsizligini ta'minlash jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlarida «axborot quroli»ga qarshi maxsus davlat dasturini amalga oshirish uchun yiliga 137 mln. dollar sarf qilinadi.

Kurashning bu turida eng samarali qurol – axborot. Shu bois, axborotni o'z maqsadlariga xizmat qildirishga intilish keskin tus olmoqda. Axborot, uni uzatish, qayta ishlash va yig'ish bosqichlari o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ya'ni, insonning oddiy, kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlarining asosini ham, dunyo mamlakatlarining insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan qarorlarining manbaini ham axborot tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Mutaxassislarining xulosalariga qaraganda, rahbarlar, boshqaruv xodimlari axborotlar bilan ishlashga o'z vaqtlarining 30 foizdan 80-95 foizgachasini sarflashar ekan. Bu tabiiy holat. Chunki o'z vaqtda va ishonchli axborotlarga ega bo'lish hamda ularni o'z vaqtda yetkazish va amaliyotda unumli foydalanish samarali boshqarishni ta'minlashning sharti hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, endilikda axborot- davlat faoliyatida boshqaruvchilik kuchini sezilarli darajada namoyon qiladi. O'zbekistonning mustaqil bo'lishi uni ayrim davlatlarning bizning mintaqamizga intilishlari mohiyatida ikki muhim jihat-mintaqada geosiyosiy ta'sirga va bu yerdagi tabiiy hamda notabiiy resurslarni tasarruf etishda o'z ulushiga ega bo'lish alohida ko'zga tashlanadi. Boshqa ayrim davlatlardan farqli o'laroq, buning O'zbekiston hukumati tomonidan anglab yetilgani va mazkur masala uning tashqi siyosatida aks etib turishi «katta o'yin» qatnashchilarini o'z manfaatlari yo'lida har qanday usul hamda vositalardan foydalanishga majbur etadi [3].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda dunyo bo'ylab o'z manfaatlarini keng yoyishning eng maqbul usuli – axborot hurujlari bo'lsa, eng samarali vosita – axborot tizimlari va vositalari hisoblanadi.

Axborot hurujlarining tez-tez uyushtirilayotgani aslida «urush»ga munosabatni o'zgarganidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Axborot bilan qurollangan bunday hurujlar davlatlar tomonidan o'z manfaatlari doirasini kengaytirish maqsadida uyushtirilgan ekan, bunday vaziyat mavjud bo'lmaydi. Hozirda turli usullarda olib borilayotgan

mafkuraviy targ'ibot va tashviqotlarning asl maqsadi-inson qalbi va ongi uchun kurashga qaratilgan. Bu kurash natijasiga ko'ra uchta asosiy bosqichdan iborat.

Birinchisi – muayyan axborot inson tomonidan qabul qilinmaydi. Ikkinchisi – axborot inson ongida ma'lumot sifatida saqlanib qolishi va u bundan boshqa bir masala yuzasidan qarorlar qabul qilishda solishtiruvchi manba sifatida foydalanish mumkin. Uchinchisi – axborot fikr yoki g'oya sifatida inson qalbini egallashi, ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylanishi hamda bu uning amaliy faoliyati asosini tashkil qiluvchi omil bo'lib qolishi mumkin.

Axborot uchinchi holatda insonni harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchini to'la namoyon etadi. Hozirda axborot hurujlari haqida ko'p gapirilayotgan bo'lsada, mutaxassislar tomonidan mazkur tushunchaga hali to'la ta'rif berilganicha yo'q. Buning ustiga, hatto soha tadqiqotchilari, mutaxassislar ham «axborot urushi» degan jumlaning qachondan muomalaga kirgani va axborot-qurol sifatida ilk bor qachon foydalanilgani haqida bir to'xtamga kelgani yo'q. Dunyoning deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarida axborot hurujlari masalasiga jiddiy munosabatning shakllanib ulgurgani, bu borada aniq konsepsiyalarning yaratilgani nafaqat mintaqada, balki jahonda o'zining munosib o'rnini egallash sari intilayotgan O'zbekiston uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning geosiyosiy joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va boshqa iqtisodiy hamda ijtimoiy salohiyati uning manfaatdor kuchlar tomonidan «axborot hurujlarining obyekti» sifatida qaralishi ehtimolini keltirib chiqaradi.

«Sovuq urush» davrida yadroviy hurujlardan cho'chib yashagan dunyo endi terrorizmning shavqatsiz tajovuzlaridan saqlanish yo'llarini izlamoqda. Zero, vaqt va makon tanlamaydigan bu ofat xohlagan vaqtda, xohlagan joyda o'zining mash'um basharasini namoyon etib qolishi mumkin. Kishini xavotirga soladigan sabab shuki, terroristik hurujlar kiber makonda ham faollashib bormoqda. Shu bois, ko'plab davlatlarning oldida axborot-kommunikatsiya va kompyuter tizimlarida ishonchli axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi turibdi.

Dunyoda kim axborot bozorini egallasa, o'sha hukmronlik tizginini tutadi, deyishadi. Chunki ayni paytda dunyoni inson emas, aynan axborot boshqarmoqda. SNN bilan BBS ning ovozi yetmayotgan joyda «Al-jazira»ning mahsulotlari sotilayotgan ekan, bu axborot bozorida yangicha qarashning paydo bo'lishiga imkon beradi. Shu o'rinda rossiyalik olim A.Zinovevning «Globallashuv yangi jahon urushi. U yangi tipdagi jahon urushi» degan ta'kidi kishini ancha sergak torttiradi. Yana bir olim A.Parshev esa «Aslida globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shimcha qiymatini dunyodagi asosiy zahiralarni o'zlashtirishdan iboratdir» deydi. Ochig'i bu kabi farazlarning mohiyatida globallashuv jarayoniga qarshilik ko'rsatishdan ko'ra, uning zamiridagi «siyosiy o'yin»larni fosh qilishga nisbatan norozilik yotibdi desak, to'g'ri bo'lar edi. Ayrim gegemonlik vasvasasiga tushgan davlatlarning globallashuv geosiyosati negizida «Demokratiyani faol ilgari surish prinsipi» yotibdi. «Universal va barchaga taalluqli» demokratiyani jahonga yoyishga urinishlar, bugungi kunda jadallashib ketganidan ko'z yuma olmaymiz. Demak, «demokratchi»lar o'z g'oyalari va turmush tarzini tiqishtirmoqchi bo'lmoqdalar [3].

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan beri inson axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko'rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi o'rnini yanada oshdi. Hatto, davrimiz ham «Axborot asri» — deb nom olgani bejiz emas. Ayni paytda mutaxassislar har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan birga mudofaa qudrati ham axborot tizimi va texnologiyalariga bog'liqligini ta'kidlashmoqda. Shu o'rinda jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kommunikatsiyalar, elektron ko'rinishdagi ma'lumotlar bazasi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar bilan bir qatorda, axborot tizimlariga buzg'unchilik maqsadida ta'sir etishni ko'zda tutuvchi yangi «axborot quroli»ning ta'siri kuchayishiga olib kelayotganini aytib o'tish joiz. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizning axborot resurslari va telekommunikatsiya tarmoqlarini

noqonuniy maqsadlarda ishlatishga qarshi himoya choralarini ko'rish va ularning benuqson faoliyatini ta'minlashga da'vat etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Globallashuv nima - globallashuvning ijobiy tomonlari va kamchiliklari va uning oqibatlari. Elektron resurs: Globallashuv - bu zamonaviy dunyo globallashuvining salbiy ifodasi nima? (unistica.com). Murojaat sanasi: 20.02.2022.

2. Globallashuv: tarixi, xususiyatlari, sabablari, oqibatlari. Электрон ресурс: Globallashuv: tarixi, xususiyatlari, sabablari, oqibatlari - Fan - 2022 (warbletoncouncil.org) Мурожаат санаси: 20.02.2022.

3. Globallashuvlashuv jarayoni va axborot xavfsizligi. Elektron resurs: Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi | infoCOM.UZ Murojaat sanasi: 20.02.2022.

TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING EVRISTIK TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH METODLARI

Xaydarov S.A., TMCI dotsenti

Annotasiya: Umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatini samarali tashkil etishda ta'lim berishning va o'qish muhitini shakllantirishda o'qituvchilarni innovatsion dasturlar asosida ishlash mexanizmlarini yoritilgan.

Kalit so'zlar: Umumiy o'rta ta'lim, o'qituvchilar, innovatsion dasturlar, modernizatsiyalash, rahbar va pedagoglar, kompetentsiya va kreativ fikrlash, milliy qadriyatlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bgyicha Harakatlar strategiyasi to'grisida"gi PF-4947-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, Xalq ta'limi tizimiga alohida vazifalar belgilab berildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatini samarali tashkil etishda ta'lim berishning va o'qish muhitini shakllantirishda o'qituvchilarni innovatsion dasturlar asosida ishlash mexanizmlari yaratildi.

Harakatlar strategiyasining IVbandi- Ijtimoiy sohani rivojlantirish harakat dasturining maqsadi ta'limni kompetentsiyaviy yondashuvlar bilan takomillashtirish masalasi belgilangan. Ta'limni isloh qilish va modernizatsiyalash sharoitida ta'lim tizimini boshqaruv faoliyatida raxbar va pedagoglarning zamonaviy yondashuv texnikasidan foydalangan holda amaliyotga joriy etish davr talabidir. Bu yondashuvning negizi kompetentsiya va kreativ fikrlash bilan bogliq. Kommunikativ kompetentsiya asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi;

o'zgalar fikrini hurmat qilishni namoyish eta olish;

o'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'grilash, fikrni qarama-qarshi qo'yish) muloqot maneralarini tanlay olish;

o'zgalar bilan o'zaro hurmat assosiga qurilgan munosabatlarni o'rnata olish;

o'zini tutishda, boshqalar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilishda va resurslarni boshqarishda axloq normalariga rioya etish;

milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning mas'uliyati, ijtimoiy adolatni himoya qila olish.

O'zini-o'zi rivojlantirish, o'z ustida ishlash kompetentligi ko'rsatkichlari:

o'z kasbiy mahoratini oshirish rejasini tuza olishi;

kasbiy rivojlanishiga oid manbalarni aniqlay olish, o'zining va ishlaydigan muassasasi extiyojlaridan kelib chiqib kasbiy malakasini oshirish bo'yicha o'quvlarni tanlay olish va ularda ishtirok etish;

o'z kasbiy bilim va mahoratini oshirish hamda takomillashtirishda kollegial forumlardagi muhokamalarda ishtirok etish.

Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetentsiyasi:

ta'lim jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga va yangilanish jarayonlariga tez va oson moslasha olish;

ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qila olish, ularni egallash va o'z kasbiy amaliyotiga joriy etish;

turli xil yangi vazifalar va mas'uliyatlarni qabul qila olish;

o'ziga, jamoaga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatli bo'lish;

har bir o'quvchining o'zlashtirishi va muvaffaqiyatli ta'lim olishiga mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.

Buning uchun, uzluksiz ta'lim tizimida yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash kabi ko'p qirrali vazifani faqat malakali, yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. "Pedagogik mahorat – tugma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki u izlanish, ijodiy mehnat orqali qo'lga kiritiladigan yutuq hisoblanadi" o'qituvchi qiyofasida barkamol shaxs va malakali mutaxassisga xos bo'lgan barcha sifatlar o'z aksini topa olishi zarur. Buning uchun, o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalardan biri evristik texnologiya hisoblandi. Evristik texnologiya - muammoli o'qitish tizimidagi asosiy texnologiyalardan biri bo'lib, o'quvchilarga uzluksiz ravishda o'zlari uchun yangiliklarni kashf etishga imkon yaratadi. Evristika – grek. heurisko - "izlayman", "topaman", "kashf etaman" degan ma'noni bildiradi, u "evrika" so'zidan kelib chiqib, grek. "heurisko" - "topaman" deganidir. Shunga ko'ra, evristik texnologiyada o'quvchida ijodkorlik, yangilik yaratish qobiliyatini rivojlantirish goyasi yetakchilik qiladi. Aniqrog'i, evristik texnologiya negizini savol-javob shaklidagi suhbatlar tashkil etib, bunda o'qituvchi bolalarga tayyor bilimlarni bermay, balki o'quvchilarning avval egallagan bilimlari, hayotiy tajribalari, kuzatishlariga tayangan holda, oqilona savollar orqali ularga yangi tushunchalar, xulosa va qoidalarni o'zlari ochishlari (kashf qilishlari)ga sharoit yaratadi.

Ijodiy layoqatlar – bu shaxsiy fazilatlarining tizimli namoyon etilishi bo'lib, shaxsning layoqatlari yangilikni yaratish, favqulodda qarorlar qabul qilishida ko'rinadi. Turli olimlar va metodistlar evristik metodni turlicha talqin etadilar va nomlaydilar. Masalan, izohlovchi suhbat, rivojlantiruvchi suhbat, evristik metod, analitik usul, suqrotona suhbat, qisman izlanish usuli kabilar. Darsda u qadar qiyin bo'lmagan muammolarni hal qilib, birmuncha murakkabroq masalalarni uyga vazifa sifatida topshirish mumkin. Uy sharoitida o'quvchining yetarlicha vaqti bo'ladi va o'z tafakkur tezligi doirasida hayajonlanmay fikrini to'raligicha muammoning yechimiga qarata oladi.

O'quv jarayonida o'qituvchi avvaldan evristik suhbat uchun kerakli muammo yoki savollar tizimini tuzib chiqadi. Topshiriq ochiq xarakterda bo'lib, uning barcha uchun birdek yagona "to'g'ri" javobi bo'lmasligi kerak) evristik shakldagi mashg'ulotlar tizimidan foydalanish mumkin. Ular: goyani taqdim etish, evristik suhbat, topshiriq tuzish darslari, tushunchalarni konstruksiyalash, ishchan o'yinlar, evristik ma'ruza va seminarlar, konferentsiyalar, ijodiy ishlar himoyasi, refleksiv mashg'ulotlar bo'lishi xam mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'grisida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3907-son Qarori. 2018 yil 14 avgust.
3. Ishmuhamedov R.J. O'quv jarayonida inrefoal uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. – T.: RBIMM, 2008.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONI BOSHQARUVIDA RAHBAR FAZILATLARI

Baybayeva M.X., TDPU professor v.b.
Magzumova L.T., BuxIU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada rahbarning boshqaruv faoliyatida sog'lom va ijodiy muhitni shakllantirishda fazilatlari va madaniyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, rahbar, ijodiy, odob, e'tiqod, adolat, muloqot, shaxs, faoliyat, tarbiya, jamoa, rahbar, soglom, muhit.

Ta'lim muassasalarini boshqarish – bu o'z qo'l ostidagi xodimlarni muvaffaqiyatlarga erishishga rahbarlik qilish ekan, u aniq maqsadga erishish bilan bevosita bog'liq. Shunday qilib, aniq maqsad va unga erishish yo'lidagi muvaffaqiyat boshqaruv natijalaridan biri hisoblanadi. Muvaffaqiyat deganda jamiyat tomonidan tan olingan eng yaxshi natijalarga erishish tushuniladi. Muvaffaqiyat quyidagi elementlarni qamrab oladi:

1. Faoliyat bilan bog'liq real maqsadni aniqlash;
2. Uni jamiyat tomonidan tan olinishi;
3. Yaxshi natijaga erishishi.

Boshqaruv jarayoni maqsadga erishish yo'lida odatda ko'pgina qiyinchiliklar, to'siqlar, muammolarga duch kelish mumkin. Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal etgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Boshqaruv pog'onasi. Menejerlar boshqaruv pog'onasiga binoan uch toifaga bo'linadi: yuqori pog'ona menejerlari; o'rta pog'ona menejerlari; quyi pog'ona menejerlari. Menejer – bu maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning sir-asrorlari, qonun-qoidalarini puxta egallagan malakali mugaxassis, bu yollanma boshqaruvchi bo'lib, alohida ijtimoiy qatlamga mansub bo'ladi. Menejer deganda faqat rahbar, boshqarish bilan shug'ullanadigan oddiy muhandis, iqtisodchi yoki vrachni emas, balki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan muhim kasb vakili, professional boshqaruvchi tushuniladi. Xodimlar orasidagi, bajaruvchilar va ma'muriyat orasidagi munosabat chiziqli ko'rinishda bo'lib (ierarxik, vertikal), unda har bir quyidagi xodim, faqat o'zidan yuqoridagi o'zining boshlig'iga bo'ysunadi.

Boshqaruv jarayonida sog'lom va ijodiy muhitni shakllantirishda rahbar madaniyati deganda rahbar odobi va iqtidori o'rtasidagi dialektik bog'lanish tushuniladi. Bu bog'lanish quyidagi fazilatlar majmuidida o'z aksini topadi: jamoada sog'lom va ijodiy muhitni shakllantirishda rahbar madaniyati - odob+iymon+insof+adolat+iqtidor. Odob – yaxshilik bilan yomonlikning farqini bilish, foyda bilan zarar orasidagi tafovutni anglashdir. Odob vositasida kishi o'z jonini yomon hislatlardan davolaydi, yoqimsiz ayblardan poklaydi, chiroyli fazilatlardan bezaydi, aqlning suyanchig'i, barcha fazilatlarning mezoni. Bexudaga xalqimizda "Aql bilan odob — egizak" deyishmaydi. Iymon uch narsaning butunligidan hosil bo'ladi, e'tikod, iqrar va amal. E'tiqod – bu ishonch. Iqrar – so'zda buni tan olish. Amal – yaxshi ishlar bilan uni isbotlash. Insof – rahbarning jamiyat oldida, tevarak-atrofidagi kishilar oldida o'z hatgi-harakati bilan ma'naviy mas'uliyatini his etishining ifodasidir. Insof bu adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg'usi va qobiliyati, ishda kishilarga munosabatda halollik bilan yondoshish.

Adolat - bu barcha fazilatlar ichidagi eng oliy fazilatdir. Adolatparvar rahbarning ahloqiy hislatlari bemalol qonun o'rnini bosa oladi. Adolatli jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik ishiga rag'bat kuchli bo'ladi. Iqtidorli – deganda biror soha bo'yicha layoqatini ongli ravishda namoyon qilish uchun qat'iyat ko'rsata oladigan kishilar tushuniladi. Iqtidorli odamlar kuch-quvvatini ayamaydi va kutiladigan natijasiga – maqsadiga yotadi.

Hozirgi davrda insonlarning turmush, mehnat sharoitiga, hayotining ijtimoiy masalalariga, turmush tarziga katta ahamiyat berilayapti. Chunki har bir xodimning mehnat unumdorligi, ishining samarasi ko'proq uning mehnatidan qoniqish hosil qilishiga ma'naviy-madaniy darajasiga, hayot, turmush sharoitlariga bog'liq. Insonning mehnatga bo'lgan qiziqishi, hohishi, ichki safarbarligi u yoki bu ishni chin yurakdan bajarish istagi ishning natijasiga juda

katta ta'sir etadi. Hozirgi kunda jamoada sog'lom ijtimoiy - ruhiy muhitni yaratmasdan turib, rahbar uni boshqara olmaydi. Bu o'z navbatida rahbarlardan boshqarishda ijtimoiy ruhshunoslik asoslaridan yetarlicha bilimga ega bo'lishni, boshqaruvda ijtimoiy - ruhiy usullarini qo'llay bilishni talab etadi.

Boshqaruv faoliyatidagi muvaffaqiyat rahbarning va butun jamoaning mehnatga bo'lgan qiziqishiga ongli intizomiga yuqori darajadagi tashkilotchiligiga maqsadga erishish yo'lida ishni intiluvchanlik bilan tashkil etishiga bog'liq. Shunday qilib, rahbar faqat «direjyor» rolini emas, balki «kompozitor» rolini ham ijro eta olishi lozim. Rahbarning jamoani boshqarishida yana muhim xususiyatlaridan biri xodimlarning vazifasini aniq belgilash, xodimlarga rahbarlik bo'yicha vakolatlar berish va ularni oqilona boshqarish orqali yaxshi natijalarga erishish hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda rahbarning madaniyati va uning o'ziga xos fazilatlari namoyon bo'ladi. Rahbar o'z qo'l ostidagilar qila olishi mumkin bo'lgan ishni qilmasligi, ularning erkin xarakat qilishlariga yo'l ochib berishi va undan qo'rqmasligi lozim. Ishni taqsimlashda rahbar o'z xodimlariga ma'lum vakolatlar berish bilan birga ularning javobgarligini ham oshirishi lozim. Rahbar ishda har doim o'zini o'z hodimining o'rniga qo'yib ko'ra olishi lozim. Inson o'ziga bo'lgan hurmatni sezsa, unga ma'lum sharoitlar yaratilgan bo'lsa, ishni qiziqish, tashabbuskorlik bilan bajaradi, bo'yniga javobgarlikni oladi, topag'onlik tashkilotchilik xususiyatlarini namoyon qilgan holda mehnat qiladi va boshqaruv jaaryonida soglom va ijodiy muhit shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – 45 b.
2. Рыбакова М.М. Педагогик жараёнда тўқнашувлар ва ўзаро таъсирлар Матн. – Москва: Наука, 2001. – 128 б.
3. A'zamxo'jayev E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi diss.... – T.: 2002, 155 b.
4. Baybayeva M.X. Ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatidagi roli //integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. – 2022. – T.3. – №. 5. – S. 59-66.
5. Baybayeva M.X. Rahbarlarning boshqaruv faoliyatlarida sog'lom va ijodiy muhitni yaratishga xos zamonaviy yondashuvlar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 4-2. – S. 403-411.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ БОШҚАРУВИ БЎЙИЧА ИЛҒОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Авазов А.Ж., ЖизДПУ доценти

Аннотация. Ушбу мақолада ривожланган хорижий мамлакатларнинг олий таълим тизимини бошқаришнинг илғор тажрибалари ўрганилган.

Калит сўзлар: таълимни бошқариш, Европа модели, Америка модели, дуал принцип, глобаллашув.

Олий таълимнинг мақсади республикамизнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ривожини таъминлашга, ўзи танлаган мутахассислик бўйича бозор иқтисодиёти шароитида мустақил ишлашга лаёқатли, юқори малакали рақобатбардош кадрларни тайёрлашдан иборатдир. Хориж тажрибасини олий таълим тизимида қўллашнинг, бизнингча, уч асосий модели мавжуд. Булар Европа, Америка ва Осиё моделидир. Европа модели доирасида инглиз, француз ва немис таълими модели, шунингдек, Шарқий Европа мамлакатлари таълим модели алоҳида ажралиб туради. Масалан, “дуал принцип” (яъни таълимни ишлаб чиқариш билан боғлаш) немис моделининг, таълимнинг барча учун бепуллиги француз таълим моделининг ўзига хос хусусияти

ҳисобланади. Европа таълим тизими кенг кўламли ўқитиш тизими ва ишчи мутахассисликларга, жумладан, меҳнат ва аҳоли бандлиги органлари томонидан бепул асосда қайта ўқитиш тизимини ҳам ўз ичига олади.

Олий таълимнинг Европа моделига кирувчи Англияда таълимнинг хусусияти, энг аввало, унинг молиялаштирилишидаги ва масофавий таълимдаги ўзига хосликлар билан ажралиб туради. Бу ҳолат жаҳондаги олий таълим тизимида содир бўлиб, чуқурлашиб бораётган глобаллашув, либераллашув ва интеграционаллашув (байналминаллашув) жараёни тенденциялари билан уйғун ҳолда юзага келмоқда.

Глобаллашув деганда, одатда учта кенг тарқалган мазкур жараённи изоҳловчи ҳолат:

- а) тарихий жараённинг узлуксизлиги;
- б) дунёнинг универсаллашуви ва галогенлашуви;
- в) миллий чегараларнинг том маънода очиклиги [1].

Бугунги кунда олий таълим ва умуман таълим жараёнидаги глобаллашув жараёнини халқаро институтлар ва ташкилотлар (БМТ, Юнеско, Европа иқтисодий ҳамкорлик ташкилоти, Катта саккизлик давлатлари) бошқаришга ҳаракат қилмоқда.

Олий таълимни эркинлаштириш эса олий ўқув юртларга мустақиллик бериш (автономлаштириш) ўзининг ривожланиш стратегиясини ўзи белгилаш, таълимни молиялаштиришдан тортиб хорижий олий ўқув юртлари билан халқаро ҳамкорликка қадар бўлган масалаларни ўзи хал қилишини англатади. Олий таълим соҳасини интеграционаллашуви, миллий институционал даражада уйғунлашув ҳисобланиб, бу жараёнда таълим хизматлари халқаро меъёрлар билан ўлчанади. Шуни алоҳида қайд этиш керакки, олий таълимдаги интеграционаллашув муайян мамлакатда мазкур жараённи молиялаштиришга кенг имкониятлар очади. Буюк Британия олий таълим тизимидаги тажрибалардан фойдаланишда биз қуйидаги жиҳатларга асосий эътибор қаратишимиз лозим деб ҳисоблаймиз:

Ўзбекистон шароитида таълимнинг байналминаллашувини шаклланишида миллий менталитети ва тарихий мероснинг умуминсоний тамойилларига таяниш;

масофавий таълимнинг энг самарали услубиётини замонавий таълим технологиялари билан боғлаб ривожлантириш зарур.

Францияда олий таълим, асосан, университет таълимига асосланган бўлиб, у уч (циклик) даврийлик асосида ташкил этилган. Улардан иккитаси асосий ҳисобланиб, 2-3 йиллик муҳлатни ўз ичига олади ва кўшимча учинчи давр (агар қиёсланса) “аспирантура” тушунчасини англатади ва дипломга эга бўлгандан кейинги таълим ҳисобланади. Биринчи цикл якунига кўра, талабага умумуниверситет таълими бўйича диплом берилади (УУТД) ёки у илмий-техник университет таълими квалификацияси (ИТУТК) деб ҳам номланади. ИТУТК дипломи битирувчини кичик ва ўрта бўғин менежери лавозимида ишлай олиш ҳуқуқини беради. Иккинчи циклни биринчи йилидаги якунга кўра олий таълим талабасига лицензиат (licence) даражаси берилади, бу даража “тўлиқсиз олий маълумот” олганлигини англатади. Иккинчи циклнинг иккинчи йил якуни бўйича – битирувчига магистр (maitrise) даражаси берилиб, бу даража “тугалланган олий маълумот”ни англатади.

Шундай университетлар ҳам бўладик, иккинчи цикл уч йиллик бўлиб, учинчи йилда ўқиган талабалар инженер (муҳандис) даражасига эга бўладилар. Талабалар ўз имкониятларига қараб кўпчилик университетларни ҳар бир берадиган даражаси асосида ёки икки йиллик магистратура ва ёки уч йиллик муҳандислик таълими курсларида таълим олишлари мумкин. Университет даражасига қараб унинг битирувчилар, мамлакатни бутун худудида амал қилувчи ва бир хил кучга эга бўлган “миллий диплом”га ёки муайян муассаса ёки фирмалардагина тан олинadиган “ички диплом”га эга бўлишлари мумкин.

Кўшимча учинчи циклда олий мактаб, махсус олий маълумот берилганлигини қайд қилувчи диплом (ОБҚД) ни ёки тадқиқотчилик дипломи (ТД)ни олиш имконини беради. Ўзбекистонда таълим сифатини янада яхшилаш ва олий таълимни бошқариш самарадорлигини оширишда олий маълумотли (малака) квалификация бериш цикли тизимидан миллий таълимнинг ўзига хос жиҳатларини эътиборга олиб қўллаш, бизнингча, яхши самара беради. Айниқса, олий ўқув юрти салоҳиётига қараб табақалаштирилган дипломни жорий этиш механизмини ўйлаб кўриш керак.

Олий таълимнинг ана шу йўналишида Австралия, Янги Зеландия ва Америка Қўшма Штатларида ҳам яхши самараларга эришилмоқда. Америка Қўшма Штатларида иқтисодийнинг жадал ривожланиши ва янги технологияларнинг жорий этилганлиги, ишлаб чиқариш билан олий таълимнинг мустақкам алоқасининг таъминланганлиги ана шу омиллар қаторига киради. АҚШ университетлари дунёдаги яхши кутубхоналари, компьютер марказлари, спорт заллари ва шинам ётоқхоналарига эга. Олий таълим муассасалари юксак даражада билим, иқтидор, тажрибаларга эга бўлган профессор-профессор-ўқитувчилар таркиби билан ҳам ажралиб туради. АҚШдаги муайян нуфузга эга бўлган университетларда фан докторлари умумий профессор-профессор-ўқитувчилар таркибининг 90 % ини ташкил этади. Демак, олий таълим сифатини бошқариш, энг аввало, таълим муассасасидаги кадрларнинг илми, изланувчанлиги, интеллектуал салоҳиётига бевосита боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. J. Khamidov, and K. Akhadova. "THE ROLE OF MATHEMATICS IN THE FORMATION OF DESIGN COMPETENCE OF FUTURE ARCHITECTS AND BUILDING ENGINEERS" Science and innovation, vol. 2, no. A1, 2023, pp. 97-102. doi:10.5281/zenodo.7541432

2. Axadova, K. (2023). BO'LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN ZAMONAVIY METODLAR. O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI. <https://doi.org/https://doi.org/10.5281/zenodo.7807515>

ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИЯДА ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКНИ ЎРГАНИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАРИ

**Исмайлова Р.Н., ТДПУ доценти
Панасырова С.В. ТДПУ 1 босқич талабаси**

Аннотация. Ушбу мақолада оилавий зўравонлик масалаларини илмий тадқиқ этишдаги методологик муаммолар таҳлил этилган. Илмий тадқиқот ишларни ташкил этишда зўравонлик ва мажбурлаш тушунчалари ўртасидаги фарқни ажрата олмаслик ёки нотўғри ажратиш кўпинча принципиал жиҳатдан мажбурлашнинг ҳар қандай шаклини рад этишга олиб келиши ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: оилавий зўравонлик, эр- хотин муносабати, методологик муаммолар, миллий ва диний, ижтимоий нормалар

2023 йил 28 июлда Фарғона шаҳрида ўтказилган ИИВ коллегиясининг кенгайтирилган йиғилишида республика президенти Шавкат Мирзиёев ўтган олти ойнинг ўзида оилавий зўравонликдан 20 мингга яқин аёллар жабр кўрганлини таъкидлаб, қийин аҳволга тушиб қолган хотин-қизлар учун ҳуқуқий ва психологик ёрдам кўрсатиш хизматини кенгайтириш вазифасини қўйди. Ўзбекистонда оила институтини амалда мустақкамлаш борасида талай ижобий ишлар амалга оширилишига қарамай, афсуски оилавий зўравонликни олдини олиш, зўравонликка учраган шахсларга ижтимоий психологик интервенцияни самарадорлигини таъминлаш ижтимоий психология тармоғининг марказий муаммоларидан ҳисобланиб, ечилиши тезроқ топилиши жабҳаси билан алоҳида аҳамият касб этади.

Оилавий зўравонлик турларидан бири бўлган эр хотин муносабатидаги зўравонлик бутун дунё бўйлаб қизгин баҳсли мавзу бўлиб, унинг илдизлари антик даврларга бориб тақалади. Бу ижтимоий синф, ирқ, дин, маданият ва жинслар ўртасидаги ҳокимият муносабатларининг ифодасидир. Деярли барча инсоният жамиятларида аёллар патриархал жамиятнинг қўл остида эди. Никоҳ институти маълум бир шароитларда хотинга нисбатан зўравонлик учун "қонунийликни" таъминлади. Эрнинг хотинини уриш ҳуқуқи турли динлар ва маданиятларда мустаҳкамланган ва аёл эркакнинг мулки тушунчаси шаклланган.

Тинч-тотув оиланинг образи оиладаги зўравонлик феноменининг мавжудлигини кеч тан олишга ёрдам берди. Зўравонликка учраган аёлларнинг омон қолиш хулқ-атвори узоқ вақтдан бери илмий тадқиқотчилар ва жамоатчилик томонидан муҳокома қилинади. Бироқ, сўнгги ўн йилликларда аёллар ҳаракатининг ривожланиши бу масалани жамоатчилик эътиборига ҳавола этди ва уни оиланинг шахсий дахлсизлиги тубига ташлаш ёки сургун қилиш мумкин эмаслигини кўрсатди.

Аксарият одамлар учун оила ҳар қандай ҳаётини вазиятда ҳиссий ва психологик ёрдам олишни кутадиган жойдир. Шу билан бирга, статистик маълумотларга кўра, зўравонлик кўпинча учинчи шахслар томонидан эмас, балки оила аъзолари томонидан содир бўлади. Оилавий зўравонликнинг кенг тарқалиши бевосита унга бўлган муносабат ва унинг жамоатчилик фикрида йўл қўйилиши билан боғлиқдир. Жамиятнинг ҳар томонлама ривожланиши бизни гендер тенглиги ғоясига олиб бориши кутилган эди, бунинг натижасида аҳоли ўртасида оилавий зўравонликдан воз кечиш ёки қабул қилиш даражаси паст бўлиши керак эди. Аммо, оилавий хусусан эр-хотиннинг зўравонлигига йўл қўйилиши ҳанузгача пасайгани йўқ. Шу билан бирга, жамиятнинг оммавий онгида номувофиқлик мавжудлигини тасдиқлади: одамлар никоҳ муносабатларининг кадр-қимматини тан олишади ва оиладаги зўравонликка йўл қўйилмаслигига ишонишади, аммо оилалар ҳали ҳам бу ҳодисанинг юқори даражада тарқалиши билан ажралиб туради. Муаммо шундаки, одамлар эр-хотиннинг зўравонлигига йўл қўйиб бўлмаслиги тўғрисида айтганларига қарамай, аслида улар зўравонликнинг баъзи ҳолатларини тушунмайдилар.

Илмий тадқиқотда юзага келадиган фундаментал муаммо - бу унинг методологик асосидир. Методологик ишланманинг мақсади ўрганилаётган предметни (объектни) унга ўхшаш бошқа ҳодисалардан, муҳим белгиларини аниқлаш орқали аниқ чегаралашни таъминлашдан иборатдир. Ушбу компонентнинг устуворлиги тадқиқот натижаларининг ўрганилаётган ҳодиса учун методологиянинг объективлиги даражасига боғлиқлигидир.

Биринчидан, назарий ва амалий характердаги ишланмаларнинг самарадорлигини таъминлаш имкониятларини белгилайди. Аслида зўравонлик хусусиятига эга бўлган ҳаракат белгиларининг тўғри таърифини аниқлаш имкониятини беради: зўравонлик ҳаракатини амалга оширган (бажарган) шахснинг хусусиятлари, зўравонлик ҳаракати, зўравонликни содир этиш ҳолатларини идрок этишнинг аҳамияти, вазиятни идрок этишга айнан шу вазиятнинг таъсири, қонуний кўрсатмаларни бажариш ва тақиқларга риоя қилиш имконияти, омиллар ва ижтимоий нормаларнинг тегишли таъсир даражаси, хулқ-атвори, ҳуқуқбузар учун қонуннинг маъноси (қадрият ёки ижтимоий норма сифатида) ва бошқалар.

Иккинчидан, эр-хотинлар томонидан бир -бирларига (ёки фақат бир томонга) нисбатан зўравонлик муаммосини таҳлил қилишда асосий методологик вазифалар қуйидагилардан иборат: зўравонлик характериға эга бўлган ҳаракатларни тарбиявий таъсирдан ажратиш (зўравонликсиз таъсир этиш характеридаги ҳаракатлар); эр-хотин ўртасидаги ўзаро боғлиқликка нисбатан "мажбурият" таърифини аниқлаштириш. Яъни, маълум бир вазиятда муносабатларнинг маъқул стандартларини яратиш. Иккинчиси оғишларни аниқлаш учун зарурдир, бу фақат ўрганилаётган объектни аниқ фактлар

билан солиштириш орқали амалга оширилади. Зўравонлик ва мажбурлаш ўртасидаги фарқни ажрата олмаслик ёки нотўғри ажратиш кўпинча принципиал жиҳатдан мажбурлашнинг ҳар қандай шаклини рад этишга олиб келади, бу эса методологик жиҳатдан нотўғри ҳисобланади.

Учинчидан, "зўравонлик" тушунчасини белгилашда тадқиқот ғояси асосан қуйидаги йўналишларда ҳаракат қилади: зўравонликни кенг маънода тушуниш, яъни зўравонликни мажбурлаш хусусиятига эга бўлган барча таъсирларини ўз ичига олади. Бундай ҳолда, ҳаракатларни зўравонлик деб таснифлашнинг ягона сабаби мажбурланган шахснинг иродасига қарши ёки унга қарши ҳаракат қилиш белгиси деб қаралади. Зўравонлик тушунчаси тор маънода, бу ҳолда зўравонлик тушунчасига мажбурлаш белгисидан ташқари (мажбурланган шахснинг иродасига қарши ҳаракат қилиш) бошқа хусусиятларни киритиш билан тавсифланади. Масалан, Л.В.Сердюкнинг таъкидлашича, зўравонлик тушунчасини белгилаш учун расмий белги яъни "ноқонунийлик" тушунчасини ҳам киритиш керак.[2]

Шундай қилиб, "зўравонлик" тушунчаси чекланган бўлиб, уни бошқа ижтимоий фойдали ҳаракатлардан, жумладан, тарбиявий хусусиятга эга бўлган ҳаракатлардан ажратиш мумкин бўлади. Таърифланган ёндашув ҳодисанинг расмий чекланишига асосланади. Буларни фақат зўравонликнинг объектив белгиси сифатида қабул қилиш мумкин. Зўравонлик таркибининг объектив белгиларига зўравонлик содир этиш усули, жойи, вақти, ҳолати, воситаларини киритиш мумкин.

Тўртинчидан, зўравонлик моҳиятини тўғри аниқлаш ва у билан содир бўлган хатти-ҳаракатларни аниқлаш, қилмишнинг моҳиятини ҳар томонлама аниқлаш имконини берадиган мезонлар тизимини қуришдагина амалга ошиши мумкин. Буларга қуйидагилар киради: мажбурлаш зарурати, мажбурлашнинг мутаносиблиги (танланган восита ва унинг чораси) ва бостирилиши керак бўлган ҳаракат, мажбурлашнинг ўз вақтида амалга оширилиши, мажбурланган шахснинг мустақил равишда ўзгариши, ўзини- ўзи бошқариши, тартибга солиш қобилиятини ҳисобга олиш, унинг хулқ-атворининг ўзгариши ва жиддий оқибатларнинг йўқлиги.

Бешинчидан, зўравонлик-зўравонликсизлик мезонларини ишлаб чиқиш кейинчалик эр-хотин муносабатида психологик, таъсирга нисбатан муносабатларнинг стандартларини аниқлашга имкон беради. Ривожланган мезонлар тизими оилавий муносабатлар ва психологик маориф ва маърифат ҳақидаги миллий, диний ва қонун тушунчаларига мос келиши лозим.

Олтинчидан, методологик ноаниқликлардан келиб чиқадиган хатолардан бири бу муносабатларнинг устун шакли ёки ижтимоий маъқулланган муносабатлар шакли сифатида ижтимоий меъёрларни қабул қилишдир. Бунинг натижасида эр ва хотин ўртасидаги муносабатларни анъанавий тушунишда гўё зўравонликка асосланган ва улардаги зўравонлик норма деб ҳисобланиб қолмоқда. Шу муносабат билан оилада тарбиялашнинг анъанавий миллий-диний ғояси асосида "идеал тип" ва ҳақиқатан ҳам мавжуд муносабатлар, шу жумладан, уларни шакллантирадиган ижтимоий меъёрлар ва ўз-ўзидан шаклланган кадриятлар ўртасидаги фарқни ажратиш кўрсатиш жуда муҳимдир. Тўғри, миллий, диний кадриятлар нуқтаи назаридан оиладаги зўравонликни қабул қилиниши мумкин эмас. Мавжуд муносабатларда тўғрининг нотўғрилиги ёки қобилиятсизлиги туфайли эмас, балки бир қатор ташқи ва ички омиллар таъсири остида тўғридан четга чиқиш мумкин бўлади.

Шунинг учун, биринчи навбатда, зўравонлик белгиларини тўғри аниқлаш керак. Ушбу хатоларнинг натижаси жамият онгида оила ҳақидаги тушунчани рад этишни бошланишидир. Шу билан бир қаторда, тўғри деб топилган кадриятлар сифатида тан олинишини даъво қиладиган ҳақиқий прогрессив ижтимоий меъёрлар аниқлаштириш керак бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Лохматкина Н.В. Психологические характеристики подвергавшихся семейному насилию женщин, наблюдающихся у врачей общей практики. [Электронный ресурс] // Медицинская психология в России: электрон. науч. журн. 2011. N 1. URL: <http://medpsy.ru> (дата обращения: 02.08.2023 г).
2. Сердюк Л.В. Насилие: криминологическое и уголовно-правовое исследование. – М.: ООО Издательство Юрлитинформ, 2002.
3. Туйчиева Г.У., Исмаилова Р.Н. ва бошқалар. Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланган хотин-қизларга психологик ёрдам кўрсатиш. Тошкент: Фан, 2021.-120 б

ПРОБЛЕМА ТЕОРИИ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ

Арипова М.Л., доцент УзГУМЯ

Аннотация. В этой статье освещается одна из актуальных проблем социально-культурной деятельности, выявление особенностей работы с одаренными детьми. Приведен анализ теории социально-культурной деятельности, которая занимается вопросами приспособления, адаптации и социализации к принятым в обществе правилам и нормам, изучает взаимодействие одаренного ребенка с социальной культурной средой, исследует взаимосвязи между одаренным ребенком и окружающей социокультурной сферой.

Ключевые слова: одаренность, адаптация, социализация, самооценка, игра, культура.

Роль социокультурного пространства в становлении и развитии одаренного ребенка обусловлена несколькими факторами: личностными, культурными и институциональными. К личностным факторам относятся самооценка, эмоциональная чувствительность, характерные индивидуальные особенности, процессы саморегуляции, адаптации и социализации. Культурные факторы включают в себя традиции, нормы, правила окружающего пространства, распространенные общественные стереотипы, семейные ценности. Институциональные факторы включают в себя систему образования и поддержки одаренных детей, программы и специализированные школы для развития одаренности, финансирование со стороны государства. Разберем каждый из вышеперечисленных факторов подробнее. Специфику личностных факторов рассмотрим в контексте возрастных особенностей детей дошкольного возраста. Напомним, что именно в этом возрасте происходит наиболее интенсивное и эффективное развитие одаренности ребенка.

Личностные факторы в период дошкольного возраста происходит развитие множества психических процессов таких, как мышление, воображение, восприятие, память, когнитивная сфера. Происходит гармонизация отношений со взрослыми и детьми. Ярко выражен эгоцентризм речи. Ребенку нравится рассказывать о себе и употреблять слово «Я». Помимо эгоцентричной речи ребенку этого возраста присуще эгоцентричное мышление. В связи с этим у старшего дошкольника именно в этот период формируется самооценка, которая будет доминировать всю его жизнь. Возникающее неудержимое, естественное для этого периода онтогенеза стремление к овладению телом, психическими функциями и социальными способами взаимодействия с другими людьми приносит ребенку чувство переполненности и радости жизни. В то же время ребенок испытывает потребность к удержанию освоенных действий через их неустанное воспроизведение. В эти периоды ребенок категорически отказывается присваивать новое (слушать новые сказки, овладевать новыми способами действий и др.), он с упоением воспроизводит известное. Весь период детства с трех до семи лет

просматривается эта тенденция раннего онтогенеза человека: неудержимое, стремительное развитие психических свойств, прерывающееся выраженными остановками — периодами стереотипного воспроизведения достигнутого.

Ведущим видом деятельности по Эльконину в этом возрасте является игра. Игра — это, тот неотъемлемый процесс жизни ребенка, которому его не надо учить. Ребенок играет спонтанно, наедине с собой с младенческого возраста. Игра приносит удовольствие ребенку, хотя не во всякой игре есть смысл. Такая деятельность присуща любому ребенку независимо от местности, культуры, обычаев и времени. В младшем дошкольном возрасте отчетливо прослеживаются игры в одиночестве. Причем ребенок в такой ситуации чувствует себя комфортно и не нуждается в постороннем вмешательстве. А в старшем дошкольном возрасте ребенок ищет себе «компанию» для воспроизведения игровой деятельности. Еще одной характерной чертой старшего дошкольного возраста является появление игр с правилами, до этого возраста дети играют в сюжетные и сюжетно-ролевые игры. Эльконин утверждал: «у старших дошкольников главным в содержании игры становится подчинение правилам... Причем дети этого возраста чрезвычайно придирчиво относятся к выполнению правил своими товарищами по игре. И здесь в основном спорят вокруг того, «бывает ли так или не бывает», и, кроме того, отчетливо выступает критика действий соучастников по игре» [56].

Многообразие типов деятельности в этом возрасте оказывает влияние на психическое развитие ребенка. Дети в старшем дошкольном возрасте могут выполнять поручения взрослых, самостоятельно одеваться, убирать за собой, ответственно соблюдать правила поведения. Особый интерес у ребенка проявляется к творческим видам деятельности, таких как рисование, лепка, конструирование, изготовление поделок, хореография, пение, литературное творчество (пересказ и самостоятельное сочинение сказок и стихов). Посредством игры ребенок через творческую проекцию воспроизводит интересующие его события. Может переиграть сюжет минувших неудачных моментов своей жизни, подстроив обстоятельства для благоприятного исхода.

А понравившиеся события ребенок будет повторять много раз, и каждый раз с интересом проживать сюжет, как будто в первый раз. Так, например, дети могут воссоздавать понравившийся танец до тех пор, пока не будут задумываться о координации своих движений. Рисуя, ребенок наделяет картину определенным смыслом и сюжетом. Может объяснить, что представляют собой, нарисованные им персонажи. Старший дошкольник с удовольствием продолжит изображаемый сюжет словесно, периодически в процессе рассказа, добавляя элементы к своему рисунку. Как уже упоминалось ранее, данный возраст характеризуется частыми повторениями достигнутого результата. В творческой игровой активности процесс воссоздается по той же схеме. Имея перед собой пример или шаблон, ребенок строго действует его предписаниям. Но если изначально не давать образец, а поставить задачу и «дать волю творчеству», то ребенок, с помощью активизации своего воображения, мышления и фантазии, начнет находить собственные подходы на пути решения творческой задачи. Это является важным аспектом в развитии психических процессов. Исследуя динамику развития способностей ребенка, мы, в настоящей работе, будем опираться на теорию Ховарда Гарднера том, что «кривая развития творческих способностей детей и подростков имеет U-образную форму со снижением в начальных классах» [58]. Данная теория базируется на особенностях психического и физического развития человека от раннего детства до подросткового возраста. Так в дошкольном возрасте ребенок познает мир, что особенно ярко прослеживается в возрасте 5–6 лет, когда самым частым вопросом ребенка является вопрос «почему?». С одной стороны в этом возрасте одним из механизмов творчества является подражание. Это хорошо прослеживается в

литературном, художественном и хореографическом творчествах. А с другой стороны ребенок заменяет свое «незнание» фантазией.

Такой механизм можно наблюдать при ответе детей на каверзные вопросы. В младшем школьном возрасте замедляется психическое и физиологическое развитие. С физиологической точки зрения, это обусловлено тем, что организм «готовится» дать большой толчок своего развития в подростковом возрасте. Такое замедление сказывается и на креативности ребенка, поскольку известно, что в пубертате творчество так же стремительно развивается, а в младшем дошкольном возрасте развитие творческих способностей замедляется. В подростковом возрасте есть два сценария развития творческих способностей. Согласно первому сценарию человек может только подражать и следовать стереотипам, тогда как согласно второму сценарию – личность не следует установленным правилам (в разумных пределах) и приобретает свой собственный стиль. Культурные факторы: можно выделить три подхода по выявлению, развитию и поддержке одаренных детей в различных культурах:

1. Создание специальных государственных программ и образовательных учреждений для одаренных учащихся. Страны Северной Америки являются лидером по развитию работы с одаренными детьми. Разработанные методические материалы, высокий уровень достоверности диагностического тестирования, создание специализированных программ, профессиональная подготовка кадров. В данной деятельности активно принимают участие Министерство образования и науки, образовательные организации, колледжи и университеты. Также активно развивается обучение одаренных детей, по принципу менторства. Каждому ребенку назначают наставника, который является примером модели поведения ученика, а при необходимости воспитателем отдельных качеств.

Помимо этого, на государственном уровне утверждено необходимость образования одаренных детей и специальной подготовки педагогов. Для оптимизации процесса разработаны действующие программы для одаренных детей, создаются специализированные классы и школы, проходят конкурсы и олимпиады.

2. Обучение одаренных детей в общеобразовательных школах. В английской культуре на государственном уровне не выделяется такая категория детей, как одаренные, но с другой стороны данная категория детей интенсивно поддерживается в рамках обычных классов. Для одаренных детей не существует специализированных классов или школ, но образование одаренных учащихся в общеобразовательных школах поддерживается финансово и технически.

3. Частные школы для одаренных детей, школы при университетах. В Европейских странах одаренные дети не имеют поддержки со стороны государства. Поэтому в этих странах существуют частные образовательные объединения для развития одаренности детей или учебные курсы в Центрах развития одаренности при университетах. Например, в Германии создана летняя школьная академия для учащихся с высоким потенциалом и мотивацией обучению. Главной целью академии является обмен информацией между участниками и создание условий для развития своей одаренности. В странах Юго-Восточной Азии, так же отсутствуют специальные школы для одаренных детей. Но с другой стороны на базе университетов существуют специальные школы, которые позволяют давать образование повышенного уровня, а при общеобразовательных школах создаются объединения дополнительного образования.

Использованная литература:

1. Боева Е.Л. Работа с одаренными детьми. Выявление одаренности у детей. – Москва: Астрель, 2007.

2. Васютин А. Самая лучшая книга по воспитанию детей. – Санкт-Петербург: Питер, 2008.
3. Mayesky M. Creative activities for young children. – USA: Delmar, 2009.

ФОРМИРОВАНИЕ ОПЕРАЦИЙ МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Алимова Г.К., доцент ТГПУ

Аннотация: в статье показаны этапы формирования операций мышления у дошкольника. Перечислены факторы, влияющие на формирование мышления ребёнка.

Ключевые слова: психология, практика, мышление, операция, дошкольник.

В современной психологической науке в самом общем понимании мышление предстает в качестве процесса познавательной деятельности личности, который характеризуется опосредованным и обобщенным видом действительности, а также как высшая форма творческой активности. Адекватность отражения реальности психикой достигается при гармоничном единстве и сочетании абстрактно-логического и конкретно-чувственного мышления. По определению М.В.Карповой [1], основными логическими приемами формирования мышления являются операции – анализ, синтез, сравнение, классификация и обобщение. К этапам формирования операций мышления относятся: целенаправленность формирования логических приемов и последовательность формирования логических приемов от элементарного к сложному. Поэтапность обучения показывает, что ребенок действует непосредственно с предметами, ощущает с помощью зрения, использует знаки/символы, выполняет действия со словесно заданными объектами, а также происходит выполнение действий в умственном плане. Разберем каждый из них по этапам:

1) Практический этап. Ребенок действует предметно по заданному признаку – цвет, величина, размер и форма. Эта операция направлена на развитие операции анализа и синтеза [2, с. 99].

2) Зрительный этап. Ребенок смотрит сам на предмет или на изображение и может назвать части предмета и их признаки.

3) Этап моделирования анализа и синтеза. На этом этапе важно вести знаки, которые обозначают признаки и их проявления.

4) Внешнеречевой этап. На этом этапе дети должны найти конкретные предметы по представлению. Также им даются на отгадывание разнообразные загадки и возможность самим придумать загадки или составлять рассказы об обособленных предметах.

5) Умственный этап. На этом этапе дети выполняют действия синтеза и анализа в умственном плане.

Все названные этапы взаимосвязаны и исходят из того, что мозг дошкольника подвижен и податлив, открыт новым знаниям. Именно поэтому полезные привычки, желание заниматься спортом, музыкой, театральным и художественным искусством закладываются именно в дошкольный период. Для того чтобы ребенок мог анализировать и мыслить, необходимо постоянно ставить перед ним новые задачи, а также модернизировать и усложнять уже полученные им навыки. Можно выделить несколько факторов, оказывающих сильное влияние на мышление ребенка:

1) круг общения. Чем старше ребёнок, тем больше вокруг него должно быть детей и взрослых. Он должен наблюдать разные модели поведения взрослых и детей;

2) развитие речи. Ребенок учится строить предложения и выражать свои мысли;

3) формирование аналитического мировосприятия. Дети дошкольного возраста характеризуются тем, что обращают внимание на формы, цвет, величину, пространственное расположение и временные рамки;

- 4) приобретение навыков и умений. Ребенок учится пересказывать, читать по слогам, петь;
- 5) становление личностных качеств: характер, адаптивность, инициативность, организованность – всё это формируется в результате воспитательных мероприятий;
- 6) формирование самооценки: развитый ребёнок способен оценивать себя;
- 7) появление самоконтроля: ребенок учится управлять своим поведением и поступками.

К стадиям развития мышления относятся: наглядно-действенное, наглядно-образное, словесно-логическое. Наглядно-действенное мышление формируется в возрасте 1-3 лет, когда он в результате своих действий начинает делать выводы «на будущее». В возрасте 3-7 лет формируется наглядно-образное мышление. Именно в этот период проявляются первые признаки анализа. Ближе к 6 годам появляются первые задатки словесно-логического мышления, когда ребенок начинает развернуто отвечать после анализа информации, способен выстраивать в правильном порядке последовательность событий. Весь мыслительный процесс ребёнка можно разделить на стадии: сравнение, анализ, синтез и обобщение. Сравнивая, ребёнок учится находить одинаковое в разном, разное в одинаковом. На стадии анализа происходит выделение черт, качеств, свойств, используемых материалов и предметов. Стадия синтеза тесно связана со стадией анализа. Без анализа синтезировать не получится. Яркими признаками обобщения являются выделение общих признаков предметов, объединение в группы. Знание особенностей мышления ребёнка поможет его всестороннему развитию.

Использованная литература:

1. <http://cyberleninka.ru/article/n/psihologopedagogicheskieusloviya-formirovaniya-logicheskikh-priemov-myshleniya-u-detey>. (дата обращения: 10.05.2021).
2. Трофименко Ю.В. Организация дидактической игровой деятельности дошкольников при формировании навыков счетной деятельности // Вопросы дошкольной педагогики. – М., 2016. - № 3. – С. 98-103.

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI KITOB MUTOLAASIGA QIZIQTIRISH

Eshmurodova D.N., GulDU doktoranti

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida ukuvchilarda kitobxonlik madaniyatining urni va roli tadqiq kilingan bulib, bir kator samarali usullar tavsiya kilingan.

Tayanch suzlar: Ta'lim jarayonida, kitobxonlik madaniyati, oila kutubxonasi, ma'naviyat va ma'rifat, kitob muotlaasi, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport.

Boshlang'ich sinflarda o'quv yillari bo'yicha taqsimlangan va o'quvchilarning o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning mazmuni va hajmi belgilanadigan maxsus davlat hujjati - o'quv dasturi bo'lmasligini ta'kidlab o'tish lozim. Biz bunday dasturni ishlab chiqishimiz lozim edi, ammo u umumiy vazifa – o'qitish kursining ilmiy va metodologik asoslarini aniqlash va asosli ifodalashni muvaffaqiyatli hal etishning natijasi bo'lishi mumkin edi. Boshqacha aytganda, bizga o'sib borayotgan va rivojlanayotgan inson egallaydigan bilish va voqelikni qayta o'zgartirish usuli sifatida kitob o'qishni ifodalash va rejalashtirilgan o'quv faoliyatining o'ziga xosligini ta'minlovchi majmuani o'rganishga mo'ljallangan ahamiyatli tarkibiy qismlarni tavsiflash lozim edi, mulohaza va tahlilning dastlabki nuqtasi kitob bo'lishi kerak edi.

Kitob va kitobxonga bag'ishlangan ishlarni o'rganish kichik maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatiga kiritiladigan ob'ektlar orasida kitob eng murakkab hodisani ifodalashini ta'kidlash imkonini beradi. O'zining murakkabligiga ko'ra "kitob" hamon yagona talqinga ega

emas. Fransuz yozuvchisi, adabiyotshunos, sotsiolog Rober Eskarpi ta'kidlaganidek: "Barcha tirik borliq singari, kitob ham ta'riflarning qat'iy chegaralariga sig'maydi. Hali hech kim unga aniq va barqaror ta'rif bera olmagan". Kitobshunoslar "kitob" tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan eng ko'p qo'llaniladigan quyidagi ta'riflarni ajratadilar:

Kitob – insonlar orasidagi muloqot vositasi, ommaviy axborot quroli.

Kitob – adabiyot asari sinonimi, mualliflik ishi mahsuli.

Kitob – nashr – nashriyot – poligrafiya faoliyati mahsuli.

Kitob – gazeta, jurnal, buklet, albom va boshqalardan farqli nashrning alohida shakli.

Kitob betlarning muayyan konstruktiv tashkil etilishi shakli...

Kitob – yozma xabarning tashkil etilishi shakli.

Kitobxonni shakllantiruvchi pedagog uchun va mustaqil o'qish san'atini o'rganuvchi o'quvchilar uchun kitob qanday asosiy ma'noga ega? Mazkur savolni hal etish uchun biz kitobning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan uning ta'riflariga murojaat etdik. Bunday ixcham ta'riflardan biri A.Gersen keltiradi: "...yozma ifodalangan va umumiy foydalanishga taqdim etilgan tajriba bu kitobdir". Bunday ta'riflarni biz yana kitobga e'tiborlarini qaratgan o'tmish va hozirgi zamonning boshqa ko'pgina buyuk allomalarining ta'riflarida uchramiz: "suhbatdosh", "ustoz", "mash'ala", "o'qituvchi", "do'st", "bebaho meros", "inson orqali ko'rinadigan olam", "xalqlar tarixi", "o'tmish tajribasi", "inson aqlining merosi", "fikr kemasi", "inson kashf etgan buyuk mo'jiza" – bu va shu kabi bolalikdan o'zlashtirilgan tasavvurlar kitobni kashf etgan inson uchun g'urur hissini uyg'otadi, kitob oldida biz uchun zarur bo'lgan va insoniyat tomonidan to'plangan tajribani saqlash joyi va yetkazish vositasi sifatidagi predmet oldida kabi e'zozlash hissini tug'diradi.

Insoniyatning tarixiy tajribasi va unda shakllangan aqliy qobiliyatlar nafaqat kitobda, balki "inson tomonidan yaratilgan har bir predmetda – qo'lbola quroldan to zamonaviy elektron hisoblash mashinasigacha" amaliy ro'yobga oshirilgan. Ushbu ma'noda kitob ham istisno emas, u ham "fikrni amalga oshirish jarayonidir". Ammo ijtimoiy tajriba va individual fikr kitobda ikki bor: birinchi bor – qo'lyozmani yaratishda – tilda, so'zda, yozuvchida o'z fikrini keng insonlar doirasining mulkiga aylantirish o'tkir ehtiyoji yuzaga kelganida; ikkinchi bor – muallifning fikrini maqsadga muvofiq va bevosita yetkazadigan tarzda va bizning barchamizga qaratiladigan biror-bir yozma xabarni tashkil etish uchun maxsus mo'ljallangan predmetda amalga oshishini unutmazlik kerak. Ammo "inson - kitob" tizimida bizni muallif va nashriyotchilar emas, balki kitobxon, bunda kitobxon boshlovchi – kichik maktab o'quvchisi qiziqtiradi. Berilgan matnni mustaqil o'qishda kitob so'z-belgi bo'lib xizmat qiladi va topshiriq yo'naltirgan fikrlar hamda matn obrazining o'ziga xosligini o'zlashtirish uchun ularning tizimini to'g'ri talqin etish kerakdir.

Kitoblarga mustaqil murojaat etishda va matnni o'qishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan topshiriqda muallifning fikri ham kitobxondan kitob ichiga, ertakdagidek – "yetti qulf ortiga" yashiringan bo'ladi va birovning yordamisiz matn faqatgina yozuvchilarning o'ylaganlaridek kitobxon tomonidan kitobni mushohada etish orqali idrok etilishi mumkindir. "Kitob mutolaasiga qiziqishlarini yuksaltirish - buyuk maqsadlarimizga erishishning muhim kafolatidir"-deb ta'kidlagan mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Ta'kidlash joizki, Sharq va G'arb allomalari ham o'z asarlarida kitobxonlik haqida noyob fikrlarini bayon qilishgan.

Kitobdin yaxshiroq do'st yo'q jahonda,

G'amxo'ring bo'lgay u g'amli zamonda.

U bilan qol tanho, hech bermas ozor

Joningga yuz rohat bergusi takror (Abdurahmon Jomiy).

Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir! (Amir Temur).

Modomiki dono, kuchli va baxtiyor bo'lishni xohlar ekanmiz, ishni avvalo kitob o'qishdan boshlashimiz kerak (J. Kennedi).

Agar siz o'qishni xohlagan kitob hali yozilmagan bo'lsa, demak uni yozishni boshlashingiz kerak (Morisson)

G'oyat dono hatti-harakatlarda intiluvchi ezgu saxovatlarimizning asosiy ishi uchun biz kitobdan qarzdormiz (R.Emerson)

Tadqiqotimizda boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan hamkorlikdagi kutubxonachilarning ijtimoiy-pedagogik hamda kasbiy faoliyatlari bilan bog'liq vazifalar o'zaro uyg'unlikka nazariy asoslanadi. Maktab kutubxonasining ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda kitob mutolaasiga qiziqishlarini shakllantirishdan iboratdir. Yosh o'quvchilarda kitob mutolaasiga qiziqishlarini shakllantirish birgina kutubxonachining vazifasigina emas, balki o'qituvchilar va ota-onalarning ham vazifasi bo'lib, faqat ongli yondashuvni birgalikdagina amalga oshirishni taqozo qiladigan juda ham murakkab jarayondir. Shuning uchun bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil fikr yuritishga qaror qildik.

O'qish madaniyati juda keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishib, kitob bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lish, shuningdek kitobdan to'la ravishda foydalana bilishda yordam beruvchi ko'nikmalarni egallashdan iborat. Boshlang'ich sinflarda kitob mutolaasiga qiziqishni shakllantirishda kitobxonlik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Kitobxonlik madaniyati o'quvchiga o'qiyotgan asarini to'laqonli tushunish, undan badiiy-estetik zavq olish, yozuvchi fikri, asar g'oyasini anglash va baholay olish, bundan tashqari kitob va kutubxonadan foydalanish, ma'lumotnoma-bibliografik apparatidan o'zini qiziqtirgan yoki zarur masalalarga doir kitoblarni topib olish va undan foydalanish yo'llarini o'rgatadi. Kitob tanlash, uni tez o'qish, o'qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya etish, avaylab saqlash ham kitob mutolaasiga qiziqishlarining tarkibiy qismlariga kiradi. "Kitobxonlik madaniyati" tushunchasi keng ma'noda qo'llaniladi. Xususan, bu hodisa asarni anglash va uni tushunish uchun kitobxondan ma'lum tayyorgarlik va saviyani talab qiladi. Bu hodisaning mohiyati kitobni shunchaki varaqlash va undan umumiy foydalana bilishdan to'ijodiy o'qish, kitob muallifiga oshno bo'lib, uning asarini chuqur tahlil qilib mutolaa qilishgacha boradi.

O'qish darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonni o'qib tushunishi uchun ham mehnat qilish kerakligi muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat ilmiy kitobni emas, balki badiiy asarni tushunib o'qish uchun ham kitobxon ma'lum darajada ongli harakatlarni amalga oshirishi, muayyan tushunchaga ega bo'lishi lozim. Ilmiy, ijtimoiy, siyosiy adabiyotlarni o'qishda uni tushunish muhim ahamiyatga ega. Bu oson ish emas, albatta. Kitob mazmunini tushunmaslik yomon, uni noto'g'ri tushunish undan ham yomon. O'qish jarayonida turlicha fikr va savollar paydo bo'ladi. Muallif fikriga qo'shilish yoki inkor qilish o'quvchilarning fikrini boyitadi, chuqurlashtiradi. Kitobxonlik madaniyatida adabiyot tanlashda yuqori didga ega bo'lish, kutubxonachilik ma'lumoti va bibliografik bilimlarga ega bo'lish, kitob bilan ishlash, yangi nashrlar, ro'znomalardan foydalana bilish ham kitob mutolaasiga qiziqishlarini shakllantirishda muhimdir.

O'qish-aqliy mehnatning keng tarqalgan shaklidir. Kutubxonachi va o'qituvchining vazifasi uning yana ham samaraliroq bo'lishini ta'minlashdan iborat. Bilim olish uchun o'qishni tashkil etgan kitobxon o'zini o'rab turgan muhit, tabiat, insoniyatni tushunish, o'zining hayotda tutgan o'rnini belgilash, dunyoqarashini kengaytirish va kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirish uchun kitob bilan ishlash qoidalarini bilishi va unga amal qilishi shart. Kitob bilan samarali ish olib borishning muhim shartlaridan yana biri o'quvchining ruhiy omillarini hisobga olishdan iborat. Kitob bilan ishlashdan oldin o'quvchi o'zini ruhan tayyorlashi kerak: "Men o'qiy olmayman", "baribir hech narsa tushunmayman", "o'qish qiyin" degan fikrlardan xoli bo'lishi zarur. Aksincha, "men o'qiy olaman", "ulguraman", "tushuna olaman", "maqsadimga erishaman" degan ishonch bilan mutolaaga kirishish lozim. Ba'zi o'quvchilar o'qishga juda tez

kirishib ketadi, tez o'qiydi, shoshadi, bu esa uni tez charchatadi, ko'zi toliqadi, asab tolalari charchaydi.

Kitob bilan ishlashni to'g'ri tashkil etishning muhim shartlaridan yana biri o'qishga uzviy va izchil tartibda kirishishdan iborat. Bu butun o'qish jarayonida saqlanib qolishi kerak. Kitobning tushunish qiyin, murakkab o'rinlarini tushunib olish uchun qayta-qayta o'qish zarur bo'ladi. Asosiysi qancha o'qish emas, o'qilganni uqib borishdir. O'qish jarayonida ketma-ketlik va muntazamlilik muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat vaqtni to'g'ri taqsimlash, balki tanlangan materialni to'la o'zlashtirib olishga ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – 82 b.
3. Badiiy adabiyotlarni targ'ib qilishning ommaviy usullari: Metod. Tavsiya /Tuzuvchi Z. Berdiyeva. – T.: Toshkent Davlat Madaniyat instituti, 1985. – 29 b.
4. Bolalar adabiyotining tavsifi va sistemalashtirilishi /Tuzuvchilar: V.V.Sadurskaya va boshq. – T.:O'qituvchi, 1990. – 56 b.

INNOVATSION YONDOSHUV ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISH **Karimova M.M., TDPU o'qituvchisi**

Annotatsiya: maqolada asosan ta'limda innovatsion menejmentni joriy etish, menejmetining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: menejment, ta'lim, innovatsiya, joriy etish, tizim, pedagogik jarayon, xodim, muassasa, boshqaruv

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir.

Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi [4].

«Menejment» va «menejer» atamaları hozirgi talqinda korxon va muassasa egalari o'z mulklari va xodimlarni o'zlari boshqarganlaridan ko'ra tanlangan yo'nalish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib yetganlaridan so'ng paydo bo'ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi. Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir [5].

Bundan tashqari, olimlar ta'lim menejmetining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

ta'lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lchovga ega;

ta'lim menejmenti – bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi);

menejment mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o'zaro dialektik birligi;

ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi [3].

Maktabni boshqarish ishiga maktab inspeksiyasi, ya'ni, vazirliklar va xalq ta'limi bo'limlarining maktab inspektorlari xizmati yordam beradi. Ular maktab faoliyatini o'rganadi, ta'lim-tarbiya jarayonining natijalarini tahlil qiladi, ilg'or tajribalarini aniqlaydi va ularni ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi, kamchiliklarni anihlab, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi, maktab direktori va o'qituvchilarga metodik va moddiy yordam ko'rsatadi.

Ta'lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatidir [2].

O'quvchilar bilim sifati va ta'lim natijalarining davlat ta'lim standartiga muvofiqligini nazorat qilishni ta'minlash uchun joriy, oraliq va yakuniy nazorat bilan birga bosqichli nazorat o'tkazish ham nazarda tutiladi. Bosqichli nazorat o'quv yili tamom bo'lgandan keyin imtihonlar, test sinovlari, sinovlar shaklida amalga oshiriladi. Uning asosida reyting aniqlandi va o'quvchini navbatdagi sinfga o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi. Maktabga bevosita rahbarlik boshqarishning yuqori organlar tomonidan tayinlanadigan direktor, davlatga qarashli bo'lmagan ta'lim muassasalarida esa muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarining faoliyati, shuningdek, me'yoriy hujjatlardan biri sanalgan Ustav yordamida ham amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasining Ustavi ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

Ta'lim muassasasining Ustavida ta'lim jarayonining quyidagi ikki muhim tarkibiy jihati ajratib ko'rsatiladi:

davlat ta'lim standartida belgilangan bilimlar zahirasi egallash yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish tartibi;

bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni tashkil etish (savodxonlik, mustaqil fikrlash hamda masalalarni yecha olishga o'rgatish) [5].

Shuningdek, ta'lim muassasasining Ustavida muassasani boshqarishga qo'yiluvchi talablar, o'qituvchi, o'quvchilar hamda ta'lim muassasasi rahbarlarining huquq va burchlari ham aniq bayon etib berilgan. Mazkur o'quv yurtida o'quvchilar ta'lim standartlari asosida ta'lim olish uchun intilishlari, ta'lim muassasasining pedagogik xodimlari esa yuqori darajada ta'lim berishlari, ta'lim oluvchilarning o'quv dasturlarini davlat ta'lim standartlari darajasida o'zlashtirishlarini ta'minlashlari zarur. Ta'lim muassasasi rahbari (direktori) esa o'quv-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'min etadi, o'quv dasturlari talablarining bajarilishini nazorat qiladi, ta'lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablariga to'laqonli rioya etilishi, ma'naviyat ishlarining samarali tashkil qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017.
2. Taraxtiyeva G. Innovatsion menejment. – T., 2013.
3. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T., 2006.
4. Baybayeva M.X. Ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatidagi roli // Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. – 2022. – T. 3. – №. 5. – S. 59-66.
5. Baybayeva M.X. Rahbarlarning boshqaruv faoliyatlarida sog'lom va ijodiy muhitni yaratishga xos zamonaviy yondashuvlar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 4-2. – S. 403-411.

TAYM MENEJMENT ASOSIDA TALABALARNING VAQTINI SAMARALI BOSHQARISH YO'LLARI

Yuldasheva X.Q., Yashnobod tumani IT Park School maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada asosan taym menejment asosida talabalarning vaqtini samarali boshqarish yo'llari haqida bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: menejment, taym, ta'lim, innovatsiya, joriy etish, tizim, pedagogik jarayon, xodim, muassasa, boshqaruv

Hozirgi zamon odami uchun “Hamma vaqt ulgurish”, taym menejment, vaqtni boshqarish eng zaruriy xususiyatlar hisoblanadi. Ma'lumotlarning turlichaligi, voqea va xodisalarning jadallik bilan o'zgarib borishi, vaqtida barcha ishga ulgurib, yanada qisqa vaqt mobanida ko'proq vazifani amalga oshirishga undab bormoqda. Vaqtni boshqarish, vaqtni tashkil etish, taym-menejment (ing. time management) — vaqtni to'g'ri tashkil etish va undan samarali foydalanish texnologiyasi. Vaqt bu-pul. Bu so'z hech kim uchun yangilik emas. Va hammaga bolalikdan tanish. Vaqt o'tgan sari pulning va vaqtning qiymati bir bo'lib qolishi hech kimga sir emas. To'g'rirog'i, Vaqt-puldan qimmatliroq va muhimroqdir [1]. Vaqtni boshqarish bu-jarayon. Vaqtning (ish, shaxsiy va h.k.) aniq yo'naltirilgan jarayoni. Bu holatni baholash joiz bo'lsa, quyidagicha izohlash mumkin-eng qisqa fursat ichida shaxsning o'z oldiga aniq maqsad qo'ya bilish jarayoni. Vaqtni boshqarish (Taym menejment) - bu inson hayot faoliyatining turli sohalarida vaqtni optimallashtirish muammolari va usullarini o'rganishga bag'ishlangan fan va amaliyotning fanlararo bo'limidir.

Gleb Arxangelskiyning ta'kidlashicha, taym menejment nafaqat kundaliklar, rejalar va muddatlar. Bu texnologiya sizning hayotingizda almashtirib bo'lmaydigan vaqtni maqsadlaringiz va qadriyatlarigizga mos ravishda ishlatishga imkon beradi. Siz hayot faoliyatingizni rejalashtirishda qat'iy yoki moslashuvchanlik yo'li bilan vaqt o'lchovi yoki o'z uslubingizda Outlook yoki kundalik rejalarini yuritish daftari orqali qo'llaysiz. O'zingizni hayotiy maqsadlaringizni toppish muxim – va ularga yondoshgan holatda vaqtingizni taqsimlang [5]. O'zingizning xohlagan narsangiz uchun vaqtingizni behuda sarflamang. Shuningdek, u korporativ taym menejment kontseptsiya tushunchasini ochib beradi – bu umumiy boshqaruv doirasidagi intizom bo'lib, xodimlarning shaxsiy taym menejmenti korporativ samaradorlikni oshirish vositasiga aylanishiga imkon beradi [3].

Vaqtni samarali boshqarish uchun vaqtni boshqarishning ko'plab usullari va tamoyillari mavjud bo'lib, ulardan foydalanib vaqtni samarali boshqarishni o'rganishingiz mumkin. “Taym menejment” texnologiyasi asosida vaqtni boshqarish keng ko'lamli tadbirlarni o'z ichiga oladi, jumladan:

- maqsadni belgilash;
- vaqtni rejalashtirish va taqsimlash;
- ro'yxatlarni tuzish;
- vaqt sarfini tahlil qilish va boshqalar.

“Taym menejment” texnologiyasi asosida vaqtni boshqarish yordamida har bir talaba o'zining kun tartibini, oyini, yilini samarali rejalashtirish imkoniyatiga ega. Ta'lim jarayonida aniq tashkil etish, nazorat qilish, rejalashtirish, eng muhimi, o'z vaqtida amalga oshirishni talab qiladigan majburiy vazifalar mavjud. Vaqtni boshqarish talabaga u uchun nima muhimligini aniqlashga yordam beradi va uni tashkillashtirish, rejalashtirish va nima ikkinchi darajali ekanligini aniqlashga yordam beradi, o'z vaqtini boshqarishga, uni boshqarishga yordam beradi, lekin biz qattiq nazorat haqida gapirmayapmiz. Rejalashtirish - bu maqsad va vazifalarga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni optimal taqsimlash jarayoni, shuningdek ularni belgilash va amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlar to'plami [2].

Reja tuzish va u haqida o'ylashni boshlashingiz bilanoq, maqsadingiz mavhumdan konkretga aylana boshlaydi. Ammo amalda harakat qilishni boshlamaguningizcha, sizning fikringizdagi rejalar va loyihalar sizni natijaga olib kelmaydi. Shunday qilib, istak va natija o'rtasida harakat bo'lib, rejalashtirish maqsadga erishish jarayonini tezlashtiradi, chunki u harakatning amaliy qo'llanmasidir. Rejalashtirish, birinchi navbatda, kerakli natijaga erishish uchun bajarilishi kerak bo'lgan aniq qadamlarni aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, buning uchun zarur bo'lgan resurslarni va ularning manbalarini aniqlashga yordam beradi. Uchinchidan, vaqt oralig'ini belgilash imkoniyatini beradi.

"Taym menejment" texnologiyasi asosida vaqtni boshqarishda "To Do list" deb nomlangan vosita mavjud - nima qilish kerakligi ro'yxati. Bu kun, hafta yoki boshqa aniq belgilangan vaqt oralig'idagi vazifalar ro'yxati. Haftalik yoki oylik "Ishlar ro'yxati" bir qancha kundalik vazifalarni hal qilishni talab qiladigan vazifalardan iborat bo'ladi [4]. Harakat, o'z navbatida, rejani talab qiladi. Bunday ro'yxatlar qo'shimcha resurslarni talab qilmaydi, lekin sizga bajarishingiz kerak bo'lgan hamma narsani vizual ravishda ko'rsatish va ushbu jarayonni boshqarish imkonini beradi. Barcha vazifalarni nazorat ostida ushlab turish uchun rejalashtirish tizimingizda faqat uchta asosiy bo'lim kerak:

1 "Kun": bugungi kun uchun vazifalar - kundalikdagi kunning rejasi.

2 "Hafta": o'rta muddatli vazifalar - ularning bajarilishi kelgusi hafta yoki oyda bashorat qilinadi.

3 "Yil": uzoq muddatli maqsadlar - boshqalar.

O'rta muddatli rejalashtirish haqida o'ylaganimizda, odatda "hafta uchun reja", "oy uchun reja", "yil uchun reja" tushunchalari aqlga tushadi. Bunday qat'iy rejalashtirishga ehtiyoj sezilmaydi. Shaxsiy ishda haftalik reja va oylik reja birinchi kuniyoq qulab tushadi. Muayyan davr uchun qat'iy reja emas, balki bo'limlar orasidagi vazifalarni ko'chirishning qat'iy qoidalari kerak. Aynan:

keyingi kunni rejalashtirishda "Hafta" bo'limi ko'riladi. Hammasi "yakuniga yetgan", eng muhimi "Kun" bo'limiga o'tkaziladi.

haftada bir marta, keyingi haftani rejalashtirishda "Yil" bo'limi ko'rib chiqiladi. Eng muhimi "Hafta" bo'limiga o'tkaziladi.

Rejalarga rioya qilmaslik va belgilangan maqsadga erishmaslik doimiy vaqt etishmasligiga va kelajakdagi harakatlarning salbiy natijasiga olib keladi.

Rejalashtirish siz uchun qanchalik muhimligini, intizom va nazoratga qanchalik tayyor ekanligingizni anglashdan boshlanishi kerak. Shaxsiy tavsiyalar va vositalarni qo'llashga bir martalik urinishlar sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi [2].

Har qanday maqsadga erishish, unga erishish uchun har kuni muayyan harakatlar amalga oshirilgandagina mumkin bo'ladi. Inson hayotining asosiy vaqtinchalik elementi kundir, shuning uchun asosiy e'tibor kunning dasturini rejalashtirishga qaratilishi kerak. To'g'ri oldindan rejalashtirish yomon ishlashning oldini oladi. Vazifa boshlanishidan oldin rejalashtirishga sarflangan vaqtning 10%, uni hal qilishda 90% tejashga yordam beradi, deb ishoniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupova N. Taym menejment – vaqtni boshqarish. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2009. – B.3-6. 88b.
2. Qosimova D. Menejment nazariyasi – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2011. – B.87-99.
3. Ziyavitdinova N.M., Y.M.O'rinov, Sh.N.Xayitov. Menejment — Toshkent: "Tafakkur-Bo'stoni", 2012. – 56b
4. Maxkamova M., S.Yuldasheva, Sh.Xolmatova, O. Shmigun. Menejment. – Toshkent: "Sharq" 2007. – 79 b

O'QUVCHILARDA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Tojiboyeva Sh., mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umummadaniy kompetensiyaning mazmun-mohiyati hamda ta'lim tizimida o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyaning shakllantirishning masad va vazifalari, yoshlarning har tomonlama kamol topishida ushbu kompetensiyaning o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, milliy, umummadaniy, madaniyat, ijtimoiy-psixologik omillar, madaniy mezonlar, madaniy meros va qadriyatlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.04.2017-yilda qabul qilgan 187-sonli "Umumiy o'rta va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish masalasiga alohida urg'u berilib, tayanch va fanga oid kompetensiyalar qatorida milli va umummadaniy kompetensiyalarga ham izoh berib ketilgan hamda ularni shakllantirish borasida amaliy yo'l-yo'riqlar ko'rsatib o'tilgan [3;1]. Mamlakatimizda ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh chegarasiga mos ravishda milliy va umummadaniy kompetensiyaning shakllantirish vazifasi qo'yilgan. Milliy va umummadaniy kompetensiyalar deganda vatanga sadoqat, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Umummadaniy kompetensiya darajasi – bu aniq vaziyatlarni baholash mezonlarini va ma'lumot manbalarini tanlash mezonlarini mustaqil aniqlash asosida kognitiv muammolarni, hayotiy muammolarni, kasbiy ta'lim muammolarini, aksiologik muammolarni hal qila olish qobiliyatidir. Aytish mumkinki, umummadaniy kompetensiya madaniy standartlardan baholash mezonlari sifatida foydalanishda namoyon bo'ladi.

Pedagogika nazariyasida umummadaniy kompetensiya – bu o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini anglash, madaniyatning turli sohalaridagi hodisalar haqida mustaqil va asosli mulohazalar yuritish, boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilish uchun yetarli bo'lgan ta'lim darajasidir. Qolaversa, ushbu atama madaniy muammolar, madaniy tajribani uzatish, ta'lim va tarbiya, shuningdek, ushbu muammolarni hal qilishga tayyorlik qobiliyatini anglatadi. Umummadaniy kompetensiyaning shakllantirishda ta'lim faoliyati alohida rol o'ynaydi, bunda o'quvchi madaniyat bilan tanishib, o'zini, madaniyatga nisbatan munosabatini o'zgartiradi va shu bilan tobora murakkab bo'lgan hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lib boradi [4; 113].

Umummadaniy kompetensiya ta'lim darajasi sifatida qaralganligi sababli, ta'lim o'quvchilarning insoniyat madaniyatining rivojlanishi asosida hayotning muayyan bosqichi uchun muhim bo'lgan muammolarni hal qilish qobiliyatini tavsiflovchi natija ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir. Muhim muammolar mavjudligi va ularni hal qilish qobiliyati umummadaniy kompetensiyaning kognitiv komponentini tashkil etadi. Bir qator muhim muammolarning mavjudligi va ularni hal qilish qobiliyati insonning umummadaniy kompetensiyasining umumiy xususiyatlarini belgilaydi. Shunday qilib, umummadaniy kompetensiya tarkibidagi qadriyatga yo'naltirilganlik komponenti o'zlashtirilgan madaniy makon nafaqat shaxsning ma'naviy va moddiy madaniyat manbalariga yo'naltirilganlik darajasini tavsiflaydi, balki badiiy asarlarda ilgari surilgan ilmiy, falsafiy g'oyalar mazmunini va uning me'yorlari va qadriyatlariga munosabatini ham belgilab beradi. Ilmiy-nazariy adabiyotlarni o'rganish shaxsning madaniyat darajasini belgilovchi quyidagi moddiy va ma'naviy madaniyat manbalaridan bahramand bo'lish imkonini beradi:

o'quv, ilmiy, badiiy adabiy manbalar;
madaniy qadriyatlarni yaratish manbalari, jumladan, teatrlar;
madaniy boyliklarni saqlash manbalari, jumladan, muzeylar;
madaniy qadriyatlarni tarqatish manbalari, jumladan, kinoteatrlar, konsert zallari, ma'ruza zallari;
madaniy qadriyatlarni namoyish qilish uchun audiovizual va multimedia manbalari, jumladan, televideniye, radio, kompakt disklar, internet muhiti;
madaniy qadriyatlar haqidagi ma'lumot manbalari, jumladan, gazetalar, jurnallar;
muloqot muhiti, jumladan, oila a'zolari, do'stlar, o'qituvchilar, tanishlar.

Madaniy-ma'rifiy jihatdan yuksalish asosida madaniy faoliyat va muloqot qilish qobiliyati shakllanadi. Ta'lim jarayonida bu o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyasining faol kommunikativ komponentini tashkil qiladi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida umummadaniy kompetensiyaning qadriyat yo'nalishi va kommunikativ-faoliyat komponentlarini baholash mezonlari aniqlanadi. Shunday qilib, umummadaniy kompetensiyani madaniy makonni o'zlashtirish tajribasi, o'qitish, ta'lim va rivojlanish darajasi bilan shartlangan, madaniy imkoniyatlardan foydalanishga yo'naltirilgan o'quvchi shaxsining integratsion qobiliyati sifatida belgilaymiz.

Umummadaniy kompetensiyani tashkil etuvchi uchta komponentning kombinatsiyasi ta'limni yaxlit inson madaniyatini tarbiyalashga yo'naltirish imkoniyatini belgilaydi. Inson madaniyati, ya'ni o'z taqdirini o'zi belgilash va madaniy identifikatsiyalash qobiliyatiga ega, insonparvar, ijodiy va o'z ishlab chiqarish faoliyatini qurishga tayyor bo'lgan ma'naviy shaxsni yuqorida ko'rsatilgan kognitiv, qadriyatlarga yo'naltirilgan va kommunikativ-faoliyat tarkibiy qismlarini amalga oshirmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Ko'rinib turibdiki, bu komponentlar bir-birini to'ldirib, umumiy madaniy kompetensiyaning birligi va yaxlitligini tashkil qiladi. Shunday qilib, madaniyatning ta'limga va ta'limning madaniyatga integratsiyalashuvi umumiy madaniy kompetensiyani rivojlantirishning maqsadli jarayoni orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so'zi”, 2017-yil 4-avgust

2. Mirziyoyev Sh. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi,” Xalq so'zi”, 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.

3. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 187-sonli Qarori. 06.04.2017i.

4. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent:, O'qituvchi, 2006.

10-SINFDA “AROMATIK UGLEVODORODLAR” MAVZUSINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Tursunov B.H., Kitob tumani ixtisoslashgan maktab-internati kimyo fani o'qituvchisi

Bugungi kunda har bir fan kabi “Kimyo” fanini o'qitish ham o'quvchilarning ichki motivatsion sohasini, o'quv faoliyati, kognitiv faolligi va mustaqilligini rivojlantirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan maktab kimyo ta'limida pedagogik texnologiyalarni izlashga bag'ishlanishi zarur. 2021-2025-yillarda ta'limni rivojlantirish

konsepsiyasiga muvofiq, zamonaviy ta'limning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri raqobatbardosh shaxsni tayyorlashdir [4,5].

Maktab kimyo ta'limiga kelsak, ushbu kontsepsiyani amalga oshirishda bir qator muammolarga duch keladi. Kimyo o'qitishning eng muhim muammolari orasida fanni o'rganishga ajratilgan soatlarni doimiy ravishda qisqartirish va uni kimyoni ilgari o'rganish (propedevtika kurslari) yoki o'qitish orqali tenglashtirish imkoniyatini ajratib ko'rsatish kerak. Bundan tashqari, kimyo fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishning pasayishi tendentsiyasi va motivatsiyaning etishmasligi kimyo o'qitishning asosiy bosqichining davlat standartini o'zlashtirishga yordam bermaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, kimyo eng qiyin umumiy ta'lim fanlaridan biridir. Kimyo bo'yicha hatto boshlang'ich maktab kursini ham muvaffaqiyatli o'zlashtirish oson emas. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi har bir o'quvchini kognitiv ehtiyojlarning shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan faol faoliyatga jalb qilishdir [1,2,3]. Yuqoridagi muammolarni hal qilish nafaqat barqaror ijobiy motivatsiyani shakllantirishga yordam beradigan, balki kimyoviy ta'lim davlat standartini amalga oshirishni ta'minlaydigan yangi pedagogik texnologiyalarni izlash va ishlab chiqishda ko'rinadi.

Kimyoviy o'qitish orqali o'quvchilarda shaxsiy dunyoqarash va e'tiqod shakllanadi. Kimyoni o'qitishda belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, faoliyat yo'nalishidagi qiyinchiliklarni engish, yakka tartibda, juftlikda va guruhlarda ishlash kabi metodlar jarayonida o'quvchi shaxs sifatida shakllanib boradi. Kimyoviy ta'limda o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodidan mavzuga muvofiqini tanlay bilishi muhim hisoblanadi.

O'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodidan avvalo oddiydan murakkabga o'tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanmog'i lozim. Ushbu nazariyaga asosan dars jarayonida qo'llanayotgan oddiy metodlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: kichik guruhlarda ishlash, juftliklarda ishlash, jamoa bilan ishlash, "Aqliy hujum", "Klaster" usullari.

Murakkab metodlar qatoriga BBB, matnni tahlil qilish, "Muammoli ta'lim texnologiyasi", Venn diagrammasi, Rezyume kabilarni kiritish mumkin. Bugungi kun o'qituvchisi XXI asr qiyofasini o'zida to'la shakllantirgan, o'z sohasi emas, balki fanlararo bog'lanishni ta'minlash uchun butun bir sohaning bilimdon egasi, nutqi ravon, izchil, so'zi bilan amaliy bir, jamiyatda barkamol, e'tiqodi ma'naviy mafkurasi, fikri va zikri sog'lom, barkamol farzandlarni tarbiyalovchi mukammal inson bo'lmog'i lozim.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiya, ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usulli asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni bilimlarining yaxlit o'zlashtirilishiga yordam beradi, o'quvchi tafakkurini o'stiradi, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Shuning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim va usullarini tahlil qilish, dars jarayoniga tadbiq etish amaliy ahamiyatga egadir. O'qituvchi o'quvchilarga dars berish jarayonida "Muammoli ta'lim texnologiyasi" metodidan foydalansa, o'quvchilarni ko'proq o'qishga undaydi va unlarning qiziqishini rivojlantiradi. Ushbu qism uchun o'qituvchi quyidagi ma'lumotlaridan foydalanishi mumkin:

Muammoli savol: Uglevododorodlar, xususan benzol va ularning hosilalari birikmalari qishloq xo'jaligi uchun pestitsid (pestitsid) sifatida ishlatiladi. Pestitsidlar dalalar va o'rmonlarni zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish uchun ishlatiladi. Pestitsidlar quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi: insektitsidlar (zararli hasharotlardan himoya qiladi), fungitsidlar (patogen mikroblarga qarshi), zootsidlar (kemiruvchilarga qarshi), gerbitsidlar (begona o'tlarga qarshi). Bir tomondan, pestitsidlar qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini sentineriga 35% gacha oshiradi, ular iqtisodiy jihatdan foydalidir. Boshqa tomondan, ulardan foydalanish kimyoviy zaxarlar yuqori dozalariga chidamli zararkunanda xashorotlarning paydo bo'lishiga olib keladi zararli hasharotlarning paydo bo'lishiga olib keladi, tuproqqa salbiy ta'sir qiladi, tuproq faunasi va mikroorganizmlarni nobud qiladi. Demak, sizningcha qayerdan bunday muammolar paydo bo'ladi deb o'ylaysiz va siz bunday

muammolarni qanday hal qilgan bo'lardingiz? – O'quvchilar muammoni hal qilish variantlarini muhokama qilishadi.

Shunday qilib, kimyo darslarida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning harakatchanligi, ularning ijobiy fikrlash qobiliyati hamda fanni o'zlashtirish bo'yicha samaradorligi oshib, ularda ijobiy o'sish kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Чернобельская Г.М. Методика обучения химии в средней школе. - М.: ВЛАДОС, 2000. - 336 с.

2. Багрова Н.В. Компьютерные технологии как средство индивидуализации процесса обучения // Химия в школе, - 2013. - № 8. - С. 31-34

3. Бражникова А.М. Применение ИКТ в процессе обучения химии / А. М. Бражникова Информационные технологии для Новой школы. - СПб: Региональный центр оценки качества образования и информационных технологий, 2014. Т. 4. 29-31.

4. Atqiyayeva S. I. Komilov K.U. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry. Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ», 2021. Выпуск №10 (том 3), 684-692 стр.

5. Badalova S. L.. Komilov Q. U. Kurbanova A J. Case technology in chemistry lessons, Academic Research in Educational Sciences, 2020, Vol. I No, 1. Page 262-265 .

KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDAGI O'QUVCHILARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING PSIXOKORREKSIYASI

Konratbaeva A.B., Nukus DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada amaliyotchi psixolog uchun zarur bo'lgan kichik maktab yoshi davriga xos psixokorreksion ish mazmuni va agressiv xulq-atvorni korreksiya qilishning asosiy yo'nalishlari, psixokorreksiya metodlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yosh davri, agressiya, agressiv xulq-atvor, psixokorreksiya metodlari, empatiya, nizo, his-tuyg'ular, g'azab.

Maktabda psixologning rivojlantiruvchi faoliyati bolaning yaxlit psixologik rivojlanishi uchun ijtimoiy-psixologik sharoitlarni yaratishga, psixokorreksion faoliyati esa rivojlanish jarayonida o'ziga xos xulq-atvordagi yoki ruhiyattagi muammolarni hal qilishga qaratilgan. Bunda muayyan shaklni tanlash psixodiagnostika natijalari bilan belgilanadi. Korreksion va rivojlantirish ishlarining mazmuni bolaning shaxsiyatiga yaxlit ta'sir ko'rsatishi kerak. Psixokorreksiya ishlari ham guruh, ham individual faoliyat shaklida amalga oshirilishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining agressiv xulq-atvori ota-ona va o'qituvchi tomonidan qoralangan va rad etilgan kategoriya sifatida ko'rsatiladi. Kattalarning agressiv xulq-atvor sabablarini bilmaslik va tushunmaslik natijasida o'quvchida ochiq adovatni va ularga nisbatan g'azabni keltirib chiqarishiga olib keladi.

Agressiv bola bilan ishlash samarali bo'lishi uchun korreksion ishning tizimli, murakkab xarakterga ega bo'lishi va bolaning har bir xarakterologik xususiyatini o'rganishni talab qiladi. T.P.Smirnov agressiv bola bilan ishlashda ularning oilalarining xarakterologik xususiyatlarini tahlil qilib, oltita asosiy korreksion ish yo'nalishlarini atab o'tgan. Bular quyidagilar:

- 1) pozitiv o'z-o'zini baholashni rivojlantirish;
- 2) empatiyani rivojlantirish, o'zining va boshqalarning his-tuyg'ularini anglashni shakllantirish;
- 3) shaxsda havotirlanish darajasini pasaytirish;
- 4) muommoli vaziyatda bolaga konstruktiv xulq-atvor reaksiyalarini o'rgatish. xulq-atvordagi destruktiv elementlarni yo'qotish;

5) bolaga o'z g'azabini boshqarish usullari va texnikalarini o'rgatish. destruktiv his-tuyg'ular ustidan nazoratni rivojlantirish;

6) bolaga g'azabini o'zi va boshqalar uchun xavfsiz tarzda ifoda etishga, shuningdek, salbiy vaziyatga javob berishga o'rgatish.

Har bir yo'nalish boladagi belgilangan psixologik xususiyatni korreksiya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, psixologik texnika va usullar to'plamini o'z ichiga oladi. Shu qatorda yana bir yo'nalishni alohida ta'kidlash kerak. Bu yettinchi yo'nalish bolada agressiv xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi omillarni yo'qotishga asoslangan yo'nalish hisoblanib, bunda ota-ona va pedagoglar bilan maslahat ishlari olib boriladi. [2; 20-21-b.]. Muallifning ta'kidlab o'tgan korreksion ish yo'nalishlari ilimning har qanday davri uchun dolzarb va ahamiyatli sanaladi. Amaliyotchi psixologning maktabdagi faoliyati davomida pedagoglar uchun psixologik maslahat amaliy jihatdan muhim fundamental yo'nalish hisoblanadi. Uning maktabdagi barcha ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan maktab o'quvchilarida turli muammolarni hal qilishda o'qituvchilar va maktab ma'muriyati bilan keng va konstruktiv hamkorlikni yo'lga qo'yganligi bilan belgilanadi. Shunday ekan, psixologik-pedagogik maslahat turli maktab muammolari va o'qituvchining kasbiy vazifalarini hal qilishda o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etishning universal shakli sifatida qaraladi.

O'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning agressiv xulq-atvorini ko'rib, o'zida salbiy his-tuyg'ularni boshidan kechirishi natijasida emotsional charchashga olib kelishi mumkin. Bunday holat shubhasiz, pedagogik faoliyat sifatiga ta'sir qilib, uning samaradorligini pasaytirishi mumkin [3; 97-b.]. Shuning uchun ham agressiya kuchayishining oldini olish va deviant yoki delikvent xulq-atvoriga o'tishini oldini olish, o'qituvchi uchun kichik maktab yoshi davridagi o'quvchilarning agressiv xulq-atvorini o'z vaqtida aniqlash va uni tuzatish bo'yicha ishlarni malakali tashkil etish muhimdir.

Agressiv xulq-atvorni psixologik korreksiya qilishda tuzatish hozirgi vaqtda quyidagi yo'nalishlarda turli usullar bilan amalga oshiriladi:

1. O'yin terapiyasi - boshlang'ich sinf o'quvchilari o'ynashni juda yaxshi ko'radilar. O'yin ko'plab funktsiyalarni bajaradi: rivojlanish, ta'lim, diagnostika, terapevtik. O'yin davomida bola o'z his-tuyg'ularini, aloqa ko'nikmalarini, o'zini o'zi qadrlash xususiyatlarini va boshqalarni namoyon etadi. Shubhasiz, agressiyani korreksiya qilishda o'yinga katta rol beriladi.

2. Ijodiy o'zini ifoda etish (artterapiya, raqs terapiyasi, biblioterapiya va ijodiy faoliyat turlari).

3. Agressiyaning sportga sublimatsiyasi: bolalarni hamkorlik ko'nikmalarini talab qiladigan jamoaviy sport turlari (futbol, basketbol va boshqalar) bilan shug'ullanishini tavsiya etiladi, boks yoki karate kabi o'ta tajovuzkor individual sport turlari esa bola uchun nomaqbuldir.

4. Konstruktiv o'zaro ta'sir qilish ko'nikmalarini va moslashuvchan xatti-harakatlarni rivojlantirish maqsadida o'quv guruhida ishtirok etish [4; 78-b.].

5. Logoterapiya – (yunoncha logos – ma'no, so'z, therapeia – mualaja) V.Frankl tomonidan yaratilgan psixoterapiya nazariyasi va amaliyoti hisoblanib, ushbu yo'nalishda shaxs xulqi va taraqqiyotining asosi sifatida inson o'z hayotining ma'nosini topishi va amalga oshirishga intilishini ko'radi. Logoterapiya hissiy holatlarni og'zaki bayon qilishga, ya'ni ichki tajribalarni og'zaki tavsiflashga qaratilgan bola bilan suhbatlashishdan iborat bo'lgan nutq psixoterapiyasining usuli. Ushbu usuldan foydalanib psixolog bolaning shaxs sifatida ahamiyatini, hamdard bo'lishga tayyorligini, boshqa odamning qadr-qimmatini hurmat qilishga o'rgatishi mumkin.

6. Psixogimnastika – bu guruh a'zolarining o'zini namoyon qila oladigan va nutqsiz munosabatga kirisha olishini ta'minlovchi metoddur. Bu samarali vosita yordamida shaxsning ijtimoiy hodisalarni idrok qilishi uchun eng qulay sharoit yaratiladi, "tana tili"ga e'tibor beriladi, atrof-muhit munosabatlarini ifodalashga imkoniyat yaratiladi [1; 191, 199-b.].

Yuqorida keltirilgan psixokorreksiya metodlari, korreksion ish yo'nalishlari amaliyotchi psixologlar va tadqiqotchilar uchun kichik maktab yosh davridagi o'quvchilarda agressiv xulq-atvorni psixokorreksiya qilishda va psixokorreksion dastur tuzishda nazariy manba sifatida foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya. – Toshkent, 2019. – 435 b.
2. Смирнов Т.П. Психологическая коррекция агрессивного поведения детей. – Ростов-н/Д: Феникс, 2004. – 160 с.
3. Селиванова Е.А., Кувайцева Е.Ю. Содействие учителю в коррекции агрессивного поведения детей младшего школьного возраста при помощи игротерапии. Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров // Научно-теоретический журнал. 2015. № 3 (24) С. 97.
4. Шалагинова К.С. Психологические основы работы с агрессивными младшими школьниками. Часть 1. (лекционный курс): учебно-методическое пособие. – Москва: РУСАЙНС, 2020. – 98 с.

M.G.DAVLETSHIN ZAMONAVIY O'QITUVCHI HAQIDA

Nishanova Z.Ya., TDPU erkin izlanuvchisi

O'zbekiston psixologiya fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, psixologlar ilmiy jamoatchilikda o'zining alohida salobatli o'rniga ega olim Muhammad Gabdulgalimovich Davletshindir. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari doktori, professor M.G.Davletshin Vatanimizdagi psixologiya fanining rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan olimdir.

M.G.Davletshin 1923 yil 11 noyabrda tavallud topgan bo'lib, 50 yildan ortiq Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika insituti (hozirgi TDPU)da pedagogik faoliyatini olib borgan. U talabalarga psixologik bilimlarni berish bilan birga respublikamizda ilmiy salohiyatli kadrlarni yetishtirishda ulkan hissa qo'shgan. U 50ga yaqin shogirdlarining fan doktori va fan nomzodi ilmiy darajasini olish bo'yicha dissertatsiyalariga rahbarlik va maslahatchilik qilgan. Uning shogirdlari respublikamizning barcha oliy o'quv yurtlarida ustoz g'oyalarini targ'ibot va tashvig'ot qilmoqda. Ustozning shunday g'oyalaridan biri zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologik xususiyatlariga bag'ishlangandir. M.G.Davletshin "Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi" asarida bu haqda batafsil to'xtalganlar [4].

O'quvchilarga zamonaviy bilimlarni berish uchun o'qituvchining o'zi shunday bilimga ega bo'lmog'i lozim. SHuning uchun ham hozirda yangi turdagi o'rta maxsus bilim yurtlarida dars berish qobiliyatiga ega bo'lgan pedagoglarni tayyorlash masalasi jiddiy tarzda qo'yilmoqda.

Ustozning ta'kidlashicha, dars berish uchun o'qituvchi eng oliyjanob xislatlarga ega bo'lmog'i zarur. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. SHuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy psixologik mexanizmlardan foydalana olishi zarur.

M.G.Davletshin rahbarligida M.Abdullajanova, Ye.Gladkova, A.Mashkurov, T.Hamroqulov, E.Xidirov va boshqalar ilmiy izlanishlarida turli fan o'qituvchilarining professiogrammalari yaratildi. Professiogrammalardan ma'lum bo'lishicha, o'qituvchi quyidagi shaxsiy xislatlarga ega bo'lishi zarur: bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish; amaliy-psixologik aql farosatlilik; mehnatsevarlilik; jamoat ishlarida faollik; mehribonlik; kamtarlik; odamiylik, dilkashlik; udabburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish; o'z bilimini oshirishga intilish [1].

O'qituvchining kasbiga xos bilimlari quyidagilardir: ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi; etnopsixologik bilimlarni egallashi; hozirgi zamon

pedagogikasi metodologik asoslarini egallaganligi; maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xislatlarini tushunish; o'z fani o'qitish metodikasini bilishi; o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi; ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni bilishi. O'z kasbiga xos xislatlar quyidagilar: milliy istiqlol mafkurasini tushunishi; zamonaviy maktabda olib boriladigan o'quv tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an'ana va urf odatlarni tushunishi o'qituvchining kuzatuvchanligi, boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib. undan to'g'ri xulosa chiqara olishi psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalana bilishi, o'quvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq- atvor sabablarini tushuntirishni bilish kerak.

M.G.Davletshin pedagogika oliy o'quv yurtiga kirayotgan abituriyentlarni pedagogik faoliyatga moyilligi va qobiliyatlariga qarab qabul qilish zarurligini ta'kidlagan [3]. O'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarni oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog hamma vaqt odamlar orasida bo'lar ekan u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Ikkinchidan, o'qituvchining o'zi axborotlar olish uchun o'quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega. Uchinchidan, u o'ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib, ko'pincha o'z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir.

Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina o'qituvchi bo'la oladi, agar o'qishni to'xtatib qo'yar ekan unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb juda haqqoniy aytganlar. Bu haqiqatni yoshi qancha bo'lishidan, pedagogik mahoratidan, qanday dars berishidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilar yaxshi bilib olishlari lozim. M.G.Davletshinning ta'kidlashicha, pedagogik kasb har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatda yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faoliyat bilan shug'ullanishga moyil, oqibat natijada esa pedagogik qobiliyatga ega bo'lgan kishilargina erisha oladi. Pedagogik qobiliyat tarkibiga didaktik, akademik, pertseptiv, nutq, tashkilotchilik, avtoritar, kommunikativ qobiliyatlar, diqqatni taqsimlay olish, pedagogik xayol kiradi [2].

O'z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida M.G.Davletshin 250 dan ziyod ilmiy va o'quv-uslubiy asarlarni yaratgan. Kasblarning ichida eng sharaflari va mashaqqatli kasb bo'lgan o'qituvchilikni tanlagan bugungi pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari yuqorida M.G.Davletshin ta'kidlagan xislatlarni o'zlarida shakllantirsalar, barkamol avlodni tarbiyalash ishiga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shgan bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G. "Ta'limning psixologik asoslari" o'quv qo'llanmasi . -T.: TDPI.1978.
2. Davletshin M.G. "Qobiliyatlar va ularning diagnostikasi". -T.: TDPI. 1979.
3. Davletshin M.G. "Kasb tanlash" o'quv-uslubiy qo'llanmasi. -T.: TDPI. 1986.
4. Davletshin M.G. "Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi" o'quv qo'llanmasi ". -T.: TDPU. 1999.

THE METHODS OF DEVELOPING INTERCULTURAL COMPETENCE IN IN THE EXAMPLE OF TEACHING ENGLISH

Usmanaliev Kh.M., Basic Doctorate at the Uzbek State World Languages University

Abstract: It is known that a foreign language acts as a means of familiarization with another culture and serves as a source of knowledge . In the process of perceiving a foreign language culture, facts of another culture are identified and analyzed. The article analyzes the essence and significance, the formation of intercultural competence of students in the process of teaching English.

Key words: intercultural communication, intercultural competence, intercultural communication, tolerance.

Studying English in higher education is becoming increasingly important in light of the changes taking place throughout the world and in our country. The development of information and telecommunication technologies that ensure the rapid establishment and development of interpersonal contacts and the exchange of relevant information in various spheres of life of the world community, the expansion of international relations (professional, commercial, business and personal) has a significant impact on increasing the interest and motivation of youth and adults to master foreign language as a means of intercultural communication.

The problem of developing intercultural competence of students at a non-linguistic university is the subject of numerous studies, which is caused by active processes of economic globalization and cultural integration. The study of issues of organization, content, forms, methods and technologies of intercultural learning is reflected in the works of I.I.Khaleeva [1989], S.G.Ter-Minasova [2000], N.M.Gromova [2002], N.D.Galskova [2002, 2004], N.F.Koryakovtseva [2001, 2004], Y.Roth and G.Kopteltseva [2001], G.V.Yatskovskaya [2001], G.I.Voronina [2001], V.P.Furmanova [1994], R.D.Lewis [1999], Hofstede Geert [2001]. In the studies of A.A.Leontyev [1987, 2003], I.A.Winter [1989], I.L.Bim [1999, 2003], E.I.Passova [1998, 2001], R.P.Milruda [1989], E.S.Polat [2000, 2001], T.Yu.Tambovkina [1996], related to the research and development of conceptual provisions for the organization of teaching foreign languages at school and at university in the context of a student-oriented paradigm of language education, form the theoretical basis for further research in the field of methodology teaching foreign languages.

In the USA in the 50s of the twentieth century, after the end of the war, the need arose to study intercultural communication. This was due to the fact that US diplomatic workers were not popular outside their own country, as they did not have the necessary knowledge about the languages and cultures of the countries where they had to work.

In the 70-80s, research on intercultural competence also began in Europe. In this case, this was due to the growth of migration flows; due to the large number of migrants, it was necessary to resolve issues related to communication between native residents and migrants.

One of the most important reasons why our government should amend educational programs to include intercultural competency programs is our country's desire to strengthen international contacts. When introducing such a program into the education system, the teacher's task will be to: make students understand that their culture is only a small part of the world of cultures, and acquire intercultural communication skills, study behavioral patterns, develop such qualities as understanding, tolerance and Adoption.

Intercultural competence consists of such abilities as: understanding, respect, productive use of cultural conditions and factors influencing the perception, evaluation, feelings and actions of a foreigner, tolerance and the development of effective ways of cooperation. Intercultural competence describes the ability to organize the process of intercultural interaction in such a way that a joint search for productive solutions to problems occurs in an atmosphere of mutual respect and agreement, excluding any kind of misunderstanding.

Intercultural communication as a scientific and applied discipline deals with the problems of understanding and mutual understanding: to understand someone else's (other), adequately communicate with someone else's, correctly interpret other cultural signs that are not one's own. In terms of its genesis, subject relevance, as well as from the point of view of research tools, intercultural communication has an interdisciplinary status. It integrates the knowledge of a number of sciences, such as cultural anthropology, linguistics, pragmalinguistics, communication theory, ethnopsychology, sociology.

A review of the literature shows that there are at least two approaches to defining the essence of intercultural communication: linguistic, which relates the processes of intercultural communication by nature to speech activity; cultural-anthropological (which actually gave

birth to it as a term and as a new discipline), based on the achievements of many sciences [1]. According to I.I.Khaleeva, intercultural communication is a process of communication (verbal and non-verbal) between communicants who are native speakers of different cultures and languages [2]. Intercultural communication, i.e. communication of linguistic individuals belonging to different linguistic and cultural communities, like any communication, is an interaction of “speaking consciousnesses” [3].

Along with the term intercultural communication, in the research discourse of modern domestic psycholinguists there is the concept of “intercultural communication”; this term appears as communication between “carriers of different cultures”. Such communication is always accompanied by communicative conflicts due to insufficient commonality of consciousness. The authors emphasize that the main reason for such misunderstanding in intercultural communication is not different languages, but precisely the different consciousness of communicants. In accordance with this approach, intercultural communication is part of interdisciplinary disciplines, such as: linguistics, sociolinguistics, cognitive psychology, psycholinguistics, cognitive linguistics. It should also be noted that there are several levels of intercultural communication:

- 1) communication between different ethnic groups: society can consist of ethnic groups of different numbers that create and share their subcultures;
- 2) communication between social groups of a particular society: differences between people can arise as a result of their origin, education, profession, social status, etc.;
- 3) communication between representatives of different religious denominations;
- 4) communication between people of different ages and genders;
- 5) communication between residents of different areas;
- 6) communication in the business sphere (when representatives of different enterprises come into contact, misunderstandings may arise) (3).

The formation of intercultural competence involves the interaction of two cultures in several directions: familiarization with the culture of the country of the language being studied through the foreign language itself and the assimilation of the behavior model of speakers of a foreign language culture; the influence of a foreign language and foreign culture on the development of the native language and behavior patterns within the native culture; personality development under the influence of two cultures. It is necessary to consider how the formation of intercultural competence of students is carried out, taking into account these areas. In the process of mastering a foreign language, students learn material that demonstrates the functioning of language in the natural environment, the speech and non-speech behavior of native speakers in different communication situations and reveals behavioral features associated with folk customs, traditions, the social structure of society, and ethnicity. First of all, this happens with the help of authentic materials (original texts, audio recordings, videos), which are normative in terms of linguistic design and contain linguistic and regional information [4].

The formation of intercultural competence also involves mastering the following skills: to see in a representative of another culture not only what distinguishes us, but also what unites us; change assessments as a result of understanding another culture; refuse stereotypes; use knowledge about another culture to gain a deeper understanding of your own.

Intercultural competence is formed in the process of learning foreign language communication, taking into account the cultural and mental differences of native speakers and is a necessary condition for a successful dialogue of cultures. Awareness of possible problems arising in intercultural communication between representatives of different cultures, understanding of values and generally accepted norms of behavior are quite significant factors in learning a foreign language. And when students are prepared to deal with them accordingly, they can avoid misunderstandings, inappropriate perceptions of behavior and potential conflicts that may arise due to incorrect use of language, erroneous interpretation of the

interlocutor's reaction and assessment of the current situation. And the student's ability to refract cultural values in his behavior contributes to his development as a good specialist in cooperation with representatives of the world community.

References:

1. Lebedeva N.M. Introduction to ethnic and cross-cultural psychology. – M.: Klyuch, 1999. – 223 p.
2. Babansky Yu.K. Problems of increasing the effectiveness of pedagogical research. – M., 1982.
3. Belaya E.N. Theory and practice of intercultural communication: Textbook. – M.: FORUM, 2011. – 208 p.
4. Solovova E.N. Methods of teaching foreign languages. – M.: Education, 2002. – 239 p.

KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Turdimurodov B.Q., TTA Termiz filiali katta oqituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi, kreativ qobiliyatlarini takomillashishi, ularni ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlashda interfaol usullarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, qobiliyat, kreativ qobiliyat, layoqat, innovatsion uslub va yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, ijodiy fikrlash.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida "pedagog xodimlarning o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish huquqiga ega ekanliklari ta'kidlab o'tilgan [1].

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohaslarining mavjud taraqqiyotidan foydalanib, undan ta'lim-tarbiya yo'nalishida keng qo'lanilsa, o'sha mamlakatning zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab beradi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlarni bo'lishini taqozo etadi. Raqobotbardosh kadrlarni tayyorlash uchun ta'limning yangi modullari yaratilmoqda. Uning nazariy asoslari ilmiy-amaliy jihatdan ko'rsatib berilmoqda. Shu boisdan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da, o'quv-tarbiyaviy jarayonni xorijiy mamlakatlardagi ta'lim jarayonini tashkil etish va qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish zarurdir, uni bajarish jiddiy vazifalardan biridir. Har tomonlama kamol topgan yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda oliy ta'limda o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy etish, bu borada o'quv-uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, oliy ta'limning axborot-resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish asosida axborot texnologiyalari fanidan darslarni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksakligi bilan, balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg'un rivojlanishiga qanchalik yo'naltirilganligi, innovatsiyalarni tadbiq etilganligi bilan ham o'lchanadi. Demak, ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim axborot texnologiyalaridan foydalanish, hamda amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, chet el ilg'or tajribalarini o'rganish va ta'lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutgani holda, ta'lim oluvchilarda bilim olishga va yangiliklarni puxta

o'zlashtirishga ehtiyojini, shuningdek, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarkib toptirishni uzluksiz ta'lim jarayonining asosiy vazifasi sifatida belgilab berdi.

Oliy ta'lim tizimidagi asosiy vazifalardan biri o'quv jarayoniga pedagogik innovatsion usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar (AKT) ni joriy qilish orqali zamon talabiga muvofiq ta'lim berish jarayonini keskin o'zgartirish bo'lib, uning asosini oliy ta'lim tizimida o'qitilayotgan fanlarning uslubiy tizimlarini yaratish tashkil etadi. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol pedagogik texnologiyalardan uzluksizlik va uzviylik tamoyili asosida foydalanishga katta e'tibor berilmoqda, chunki ta'limning interfaol turi maktabgacha ta'lim bosqichidan to oliy ta'lim jarayonigacha ta'lim oluvchida mustaqil tafakkur hamda tezkor faoliyatni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ta'limning interfaol metodlaridan har bir bosqichda talabaning o'ziga xos psixologik xususiyatlari, tafakkur tarzini hisobga olgan holda foydalanish, aniq bir talabalar auditoriyasining o'ziga xos jihatlarini hisobga olish o'qituvchidan katta pedagogik mahoratni talab qiladi. Xususan: "BBB", "Baliq skeleti", "Blits-so'rov", "Aqliy hujum", "Tarmoqlar (Klaster)" kabi metodlar oliy ta'lim tizimida ham muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda va ulardan dars jarayonida foydalanish esa talabalarni darsga nisbatan qiziqishini oshiradi.

O'qituvchi talabaning talab va ehtiyojlariga ko'ra ta'lim texnologiyalariga asta-sekin murakkab elementlarni kiritgan holda oqilona qo'llay bilishi lozim. Har bir pedagog shuni doimo yodda tutishi kerakki, hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari talabalarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va ijod qilishga yo'naltirilmog'i lozim. Shuning uchun ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashga nisbatan qiziqish kundankunga kuchayib bormoqda. Bunday usullar talabalarga tayyor bilimlarni o'zlari qidirib topib, mustaqil o'rganib, tahlil qilish va xulosalarni ham o'zlari chiqarishlari lozimligini o'rgatadi. Bujarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratiladi, talaba dars jarayonining asosiy ijrochisiga aylanadi. Interfaol usullar o'qituvchi-talaba hamda talabalarining o'zaro birgalikdagi harakatlaridir. Ushbu jarayonda o'qituvchi o'quv mashg'ulotining tashkilotchisi, rahbari va nazoratchisi vazifasini bajaradi. Bunda talaba auditoriyada o'zini erkin his qilishi, o'quv faoliyati emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Oliy ta'lim tizimida keng ko'lamda qo'llaniladigan interfaol usullar bir qancha bo'lib, qaysi metodni tanlash o'qituvchining o'tayotgan mavzusi hamda darsning maqsadiga bog'liq.

Talabalarga ishonish, erkinlik berish, shu bilan birga, nazorat qilib borish ularda adolatlilik, rostgo'ylik fazilatlarini tarbiyalaydi. Tarmoqlar (Klaster)metodida esa biror-bir mavzuni chuqur o'rganish avvalo talabalarining fikrlash faoliyatini jadallashtirishga hamda oshirishga xizmat qiladi. Mazkur usulni qo'llashdan maqsad mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish va umumlashtirishga qaratilib, bunda talabalarining shu mavzu bo'yicha tasavvurlari chizma asosida ifodalanadi. Yuqorida keltirilgan barcha metodik texnologiyalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tilganda guruhda qoloq, o'zlashtirmaydigan talaba qolmaydi. Deyarli barcha talabalar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi. Bunday darslar talabalarining mustaqil bilim olishlari mutaxassisliklarini chuqurroq o'rganishlariga, talabalarining so'z boyliklarini ko'paytirishlariga katta yordam beradi.

O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erishaolsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, tahlil etaolsalar, xulosa qilaolsalar, o'zlariga, guruhga, guruh bilan ularga baho beraolsa, o'qituvchi bilan ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarataolsa – anashu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Demak, pedagogik texnologiya – talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va

kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Hozirgi davrda ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, mana shu sababli barchamiz «yangi pedagogik texnologiyalar» atamasini ishlata boshladik. Bir misol, shaxsiy kompyuter ta'limning imkoniyatlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Internet leptomlar ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta'lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lim va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog'liq.

Ma'lumki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mikroelektronika, hisoblash texnikasi (apparatli vositalar va dasturiy ta'minotlar), elektronaloqa va antoelektronika-mikroprosessorlar, yarimo'tkazgichlar va optik-tolali kabellar sohalaridagi kashfiyotlar bilan bog'liq.

Bu kashfiyotlar ulkan axborotlarni ishlab chiqish va saqlashga hamda ularni kommunikatsiya tarmoqlari orqali tez tarqatish imkonini beradi. Kompyuterlarni bir-biriga ulash va ularni bir-biri bilan aloqa qilishga sozlash yangi kuchli texnologik tizimning umumiy protokoldan foydalanuvchi tarmoq axborot sistemalarini yaratishga imkon beradi. Ular odamlarni, ularning uylarini va idoralarni birlashtiradi hamda juda qisqa vaqt ichida ulkan topshiriqlar sonini ishlab chiqadi va bajaradi. Bu axborotlardan foydalanish xususiyatini va kommunikatsiya tuzilishini tubdan o'zgartiradi. Shu bilan birga kompyuter tarmoqlari Yer sharining barcha nuqtalari bilan aloqa qilish imkonini beradi. Ta'lim tizimi uchun bu o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida kommunikatsiya uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradi [2].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu sababli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lmagan juda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tishda imkon beradi:

1) Bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lim olish yo'lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta'lim kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga olib kelsa, axborotlar bilimlar to'plash jarayonining mazmunli jihatini ta'minlash uchun kerak bo'ladi. Internet va «Butun jahon tarmog'i» barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo'lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Internet tarmog'i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko'plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta'lim tizimida qayta aloqani ta'minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog'liq sohalar hamda ta'lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar – saytlar ta'lim tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo'qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

Axborot-tarbiyaviy faoliyat. Ta'lim muammosini globallasuvi – seminarlar o'tkazishdan tortib terrorizm va diniy ekstremizm mohiyatini ochib berishgacha-elektron tarmoqlar axborot-tarbiyaviy imkoniyatlarini ahamiyatini oshiradi. Yangi axborot texnologiyalari fan va ta'limni to'plangan bilimlarni yetkazish, ularni to'ldirish va qayta baholash kabi yanada yaqin va samarali kanallari bilan bog'lashga imkon beradi. Bugungi kunda fan-bu ta'lim tizimini rivojlantirish asosiy, ustun turuvchi vositasidir. Bu har doim ham bo'lmagan, ilg'or axborot texnologiyasi ta'lim tizimida fanning ahamiyatini o'zgartirdi. Jamiyat faqat fanning o'zi rivojlanishi bilan emas, balki ta'lim va o'qitish tizimi bilan ham bog'liq yangi ilmiy tuzilishni yaratadi. Bugungi kunda Internetga simsiz ulanishni ta'minlovchi, shu jumladan, mobil

telefonlar soni Internetga ulanadigan shaxsiy kompyuterlar sonidan ortib ketdi. Foydalanuvchilar soni ko'payib borishi bilan axborot texnologiyalari faqat inson tasavvuri imkoniyatlari bilangina chegaralanadi. Barkamol, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash muammosi ta'lim tizimidan yosh avloddan faqat milliy madaniyat yutuqlarini emas, balki umuminsoniy dunyo madaniyati yutuqlarini ham egallab olishga intilishni shakllantirishni talab etadi. Barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasi milliy mustaqillikning ustuvor g'oyalaridan biri hisoblanadi [3].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim sifatini oshirish yoshlarning ma'naviy-g'oyaviy tarbiyasi darajasini o'stirishning vazifasi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish so'zsiz yangi axborot texnologiyalariga asoslanishi zarur. Ta'lim tizimini rag'batlantirmay turib, fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmaydi. Ta'lim tizimi yopiq nuqtai nazarlar, qarashlar statik tizimi emas, bir uzluksiz jarayondan iborat bo'lishi kerak. Mustaqil Respublikamizning rivojlanishini kafolatlash uchun ta'lim tizimi dinamik, mukammal bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Turdimurodov B.K., Khursanov S.U. Innovation of pedagogical technologies in the process of remote control unit // Academic research in educational sciences, OOO «Academic Research– 2021. – T. 2. – №. 12. – C. 992-997.
3. Kurbanovich T.B. Forming Creative Thinking of the Teacher in Teaching Students in Information Technology // Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 330-333

CHET TILINI O'QITISHDA BIR NECHA SALOHIYAT (MULTIPLE INTELLIGENCE) NAZARIYASINI QO'LLASH

Baxronova M.A., A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti

Annotatsiya. Ko'pchilik olimlar o'quvchining chet tilini o'rganishi uchun uning verbal va matematik salohiyati yuqori bo'lishi muhim deb hisoblashadi. Biroq Hovard Gardnerning bir necha salohiyat nazariyasi bu tushunchani inkor etib, har bir shaxsda kamida 7 ta salohiyat mavjud degan farazni ilgari suardi. Faqat bu salohiyatlar har bir kishida turlicha namoyon bo'lishini ta'kidlashadi.

Kalit so'zlar: salohiyat, IQ (intellekt koeffisenti), lingvistik, matematik-mantiqiy.

Ba'zi olimlar bir necha salohiyat (ing. Multiple intelligence) nazariyasini intellect koeffisienti (IQ) darajasi bilan bog'liq tushuncha deb qabul qilishlari mumkin, ya'ni IQ darajasi yuqori kishilarda aql ham yuqori darajada bo'ladi deb qaraladi [3; 448-b.]. Bu nazariya ta'lim sohasidagi psixolog Hovard Gardner tomonidan munozara ostiga olindi. U o'zining "Aql andozalari" (Frames of Mind) nomli kitobida ta'kidlashicha, IQ darajasini aniqlash testlari faqat lingvistik va mantiqiy-matematik salohiyatni aniqlashga qaratilgan, vaholanki, har bir kishi kamida 7 ta salohiyatga ega bo'ladi. Shu tufayli shaxsning salohiyatini shunchaki IQ darajasi bilan baholashning o'zi yetarli emas. Veshler singari olimlarning ta'kidlashicha, salohiyat dunyoni anglash, aqlan fikrlash, muammoga duch kelganda imkoniyatlardan oqilona foydalana olishdan iborat, deb qaraladi [4; 203-b.]

Psixologlar salohiyatning yagona yoxud ko'p qirrali faktor ekanligi ustida ko'p mubohasa qilishadi. Harvard universiteti psixologi Hovard Gardner Bir necha salohiyat nazariyasini ishlab chiqdi. U salohiyatga "muammolarni hal qila olish va bir yoki bir necha madaniy kontekstda qadrlanadigan mahsulot yarata bilish qobiliyati" sifatida ta'rif beradi. Gardnerning fikricha shu paytgacha yaratilgan Salohiyat koeffisenti testlari ma'lum bir guruhdagi shaxslargagina mos

bo'lib, har bir kishida turli shaklda namoyon bo'luvchi 8 ta salohiyat mavjud. Hammada shu 8 salohiyat mavjud bo'lsa-da, taqriban olganda, ikki kishi shu 8 salohiyatga bir xil ko'rinishda ega bo'la olmaydi. Gardner nazdidagi 8 salohiyat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Lingvistik – so'zlarni xoh og'zaki (masalan, notiq, siyosatchi, muxbir sifatida), xoh yozma (masalan, shoir, noshir, dramaturg, journalist sifatida) tarzda samarali qo'llay olish imkoniyati. Bu salohiyat til tizimi, gap qurilishi, fonologiya yoki tildagi tovushlarni, semantika, pragmatika va tilni amalda qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi [2; 271-b.]. Amalda qo'llay olish ba'zan retorika (ma'lum bir ishda boshqalarni ishontirish), mnemonika (ma'lumotni eslab qolish uchun tilni qo'llash), tushuntirish (ma'lumot berish uchun tildan foydalanish) va meta-til (tilning o'zi haqida ma'lumot berish uchun tildan foydalanish) kabilarni ham nazarda tutadi.

Mantiqiy-matematik – raqamlarni to'g'ri qo'llay olish imkoniyati (matematik, statistikachi yoki hisobchi sifatida) va to'g'ri xulosa chiqara bilish (olim, komyuter dasturchisi sifatida). Salohiyatning bu turi mantiqiy tuzilma va izchilliklikka, gap va uning qurilishiga (shartli gap, sabab-oqibat asosidagi gap kabi), vazifalari va boshqa qo'shimcha abstraksiyalarini ham o'z ichiga oladi. Turkumlash, tasniflash, xulosalash, umumlashtirish, hisob-kitob qilish, gipoteza testi kabilarni ham shu salohiyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Fazoviy – olamni fazoviy-ko'rgazmali tomonidan aniqlikda ko'ra bilish (ovchi, gid kabilarni) va shu xususiyatni hayotiy vaziyatlarda ishlata olish (interyer dizayneri, rassom, arxitektor, kashfiyotchi). Bu salohiyat rang, chiziq, tuzilish, shakl va shular bilan bog'liq elementlarga katta e'tibor qaratadi. U tasavvur qilish, ko'rgazmali yoki fazoviy fikrlarni grafik tasvirlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy-kinestetik – o'zining fikrlari va hissiyotlarini ifodalash uchun tana harakatlaridan foydalanish (aktyor, atlet yoki raqqos kabi) yoki biror nimani yaratish va ko'chirishda qo'llarni ishga solish (hunarmand, jarroh, haykaltarosh, mexanik usta kabi). Bu salohiyat koordinatsiya, muvozanat, kuch, epchillik, egiluvchanlik, tezlik kabi maxsus fizik ko'nikmalarni va jonli, aktiv harakatlarni o'z ichiga oladi.

Musiqiy – musiqiy shakllarni qabul qilish, tanqidiy fikrlash, yetkazish va ifodalash salohiyati. Bu salohiyat musiqiy parchaning ritmi, tempi, musiqiyliigi, tonini his qilishni nazarda tutadi.

Tashqi – boshqalarning kayfiyati, maqsadi, motivatsiyasi, hissiyotlarini farqlay bilish va uni qabul qila olish. Bu yuz ifodasiga, ovoz va hatti-harakatga sezgir bo'lish va shu hatti-harakatlarga pragmatic tarzda yondasha olishni nazarda tutadi (lider sifatida biror ishni bajarishda ma'lum bir guruh kishilarga ta'sir o'tkaza olish).

Ichki – o'z-o'zini tanish va shuning natijasi o'laroq harakat qilish. Bu salohiyat o'zining ichki va tashqi imkoniyatlariga to'g'ri baho bera olish (o'zining yutuq va kamchiliklarini ko'ra bilish); o'zining ichki kayfiyati, maqsadlari, motivatsiyasi, temperamenti va xohishlarini aniq belgilash; ichki tushunish va o'zini baholay bilishni o'z ichiga oladi.

Naturalistik – tabiat hodisalari, flora va fauna, o'zi yashab turgan atrof-muhitni anglay olish, uni tabiiy bo'lmagan unsurlardan ustun qo'ya olish hissi.

Gardner IQ testlari bilangina inson salohiyatiga baho berishni noto'g'ri deb hisoblaydi. Uning bu nazariyasi bir necha javoblar to'g'ri bo'lishi mumkin bo'lgan savollardan iborat salohiyat testini tuzishga turtki bo'lgan. Bu albatta, test oluvchidan ijodiy fikrlashni talab qiladi. Bu turli salohiyatni aniqlashga berilgan javoblar turli natijani ko'rsatadi, biroq barcha javoblar to'g'ri deya baholanadi, degan g'oya bilan tuzilgan testlardan iborat bo'lishi kerak.

Gardnerning Bir necha salohiyat nazariyasini chet tilini o'rgatishda qo'llaydigan bo'lsak, bir qancha ko'rsatmalarga amal qilishimiz lozim. Xususan, o'qituvchi har bir salohiyatning ahamiyati alohida ekanligini yodda tutmog'i lozim. Bu faqatgina verbal va matematik salohiyatni ustun qo'yuvchi an'anaviy o'qitish usuliga ancha zid bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, Bir necha salohiyat nazariyasi chet tilini o'qitishda monoton xususiyatga ega bo'lgan darslardan qochib, yangicha, o'ziga tortuvchi dars o'taman degan o'qituvchi uchun ajoyib vosita bo'la oladi. Shu nuqtai nazardan, "til lingvistik nuqtai nazar bilangina cheklanib qolmasadan,

muloqotning barcha jihatini qamrab olib [1; 339-b.]”, o’quvchilarga o’zlariga qulay bo’lgan usulda ma’lumotni qabul qilib olishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Armstrong T. Multiple intelligences in the classroom. Alexandria: ASCD, 2009.
2. Baxronova M. So’z o’zlashtirish va uning chet tilini o’rganishdagi ahamiyati // Ta’lim, fan va innovatsiya. - № 4. – Toshkent, 2023.
3. Scott V. Multi-competence and language teaching. 2016, Cambridge: Cambridge University Press. doi:10.1017/CBO9781107425965.021
4. Sreenidhi S.K., Tay S.H. Multiple intelligence assessment based on Hovard Gardner’s research // Inetrnational journal of scientific research and publications, 2017. – Volume 7. – Issue 4.

SOS BOLALAR MAHALLALARI TARBİYALANUVCHILARIDAGI GENDER IDENTIFIKATSIYASINI O’RGANUVCHI METODLAR TAVSIFI

**Niyazova N.F., SOS O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi
Xorazm viloyati filiali psixologi**

Annotatsiya: Insoniyat yartilibdiki ular turli irq'larga, millatlarga, dinlarga va shu qatori erkak va ayol jinslariga bo'lingan. Ushbu maqolada SOS Bolalar mahallalari tarbiyalanuvchilaridagi gender identifikatsiyasini o'rganuvchi metodlar tavsifi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: SOS, ijtimoiy ma'naviy xamda axloqiy qadriyatlar, yetim bolalar, stress va depressiyalar, zamonaviy diagnostika usullari, psixologik-pedagogik yordam.

Dunyo miqyosida kechayotgan global jarayonlar nafaqat iqtisodiy-moliyaviy, balki ijtimoiy ma'naviy xamda axloqiy qadriyatlarning parchalanishiga sabab bo'lmoqda. Jamiyatda sodir bo'layotgan bunday transformatsiyalar yetim va ijtimoiy yetim bolalar xayotida chuqur iz qoldiruvchi oqibat'larga olib kelmoqda. Ma'lumot'larga ko'ra, «dunyo axolisi 7,6 milliarddan ortiq, ulardan 2,2 milliard bolalardan iborat bo'lib, 2,7 million bola o'z oilasi bag'rida emas, institutsional muassasalarda tarbiyalanmoqda. Ularning o'rtacha 10-20% chin yetimlar bo'lsa, mutlaq ko'pchiligi (80-90%) ijtimoiy yetim bolalardir».

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019-yil 11-fevraldagi PQ-4185-son Qarorini ijro etish, shuningdek, ota-ona qaramog'i-dan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning oilaviy shaklini va boshqa muqobil shakllarini joriy qilish, ularning hamjamiyatga tezda ijtimoiy moslashishi uchun keng imkoniyat yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi [1; 36-b.].

Eksperimental psixologiyada gender identifikatorini o'rganish muammosi bugungi kunda juda dolzarbdir. Buning sababi diagnostika vositalarining yo'qligi bilan bog'liq. Vaziyat ham qiyin, gender psixologiyasida tadqiqotlar juda ko'p, ko'p jihatdan fikrlash, xulq-atvor, aloqa va boshqalar sohasidagi differentsial farqlarni o'rganish bilan cheklangan. Gender diagnostikasining ixtisoslashtirilgan usullari va usullarini izlash o'z-o'zini angla h va jin ning o'ziga xo ligi bugungi kungacha so'zlar, chunki ma'lumotlarning namoyon bo'lish darajasi va normativligi aniqlanmagan shaxsning fazilatlarini, shuningdek, ijtimoiy moslashuv va aqliy saqlashga hissa qo'shadigan fazilatlar va xususiyatlar to'plami aniqlanmagan shaxsiy salomatlik.

1990-yillarda rus psixologiyasida tadqiqotlar olib borila boshlandi, ijtimoiy-konstruktivistik yondashuv doirasida shaxsning gender xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar tahlil bilan bog'liq gender sotsializatsiyasining dizayni va oqibatlarini jarayoni turli guruhlarining teleyalarini taqdim eting.

Erkaklik va ayollik tushunchalarini o'rganish uchun turli xil muhit sharoitida tarbiyalangan o'spirinlar T.I.Yufereva is "erkin tavsiflar" usulidan foydalangan. Ushbu usul yozishga imkon beradi mavzu bo'yicha insholar: "men zamonaviyni qanday tasavvur qilaman erkaklar va ayollarmi?». Shundan so'ng, sakkizta tegoriyani (mavzularni) tahlil qilish va ajratish asosida zo'ravonlik darajasi, xulq-atvor shakllari aniqlanadi va respondentning erkakligi va ayolligining psixologik xususiyatlari.

Shaxsiyatning xarakterologik xususiyatlarini o'rganish uchun an'anaviy ravishda erkaklik / ayollik tushunchalariga nisbatan ham foydalanish mumkin interpersonal diagnostikaning o'zgartirilgan versiyasi T.Liri. Ushbu metodika-bu qisqa xususiyatlar to'plami bo'lib, unga ko'ra tadqiqot ishtirokchisi o'zining haqiqiy o'zini baholaydi (tashxis qo'yish paytida dru gihning ko'zlari bilan o'zining tasvirim va o'zining ideal shaxsim (ko'zlarimda qanday bo'lishni xohlardim boshqalar) gender nuqtai nazaridan.

Shaxsning gender stereotiplarini o'rganish uchun usul qo'llaniladi shaxsiy semantik differentsial (LSD) O.L.Kustova. Shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish (hissiy, kognitiv va xulq-atvor komponentlari) quyidagilar bilan o'rganiladi "men kimman? M.Kun va T.Makpartlend (modifikatsiya qilingan) T.V.Rumyantseva) V.L.Sitnikovning Sochi metodikasi (inson qiyofasining tuzilishi). Etakchi tadqiqotchilarning fikrlarini nazariy tahlil qilish asosida gender identifikatsiyasining tarkibiy tuzilishi, o'spirinning psixologik, shaxsiy va xulq-atvor xususiyatlari to'g'risida biz quyidagilarni ta'kidladik gender identifikatsiyasining tarkibiy qismlari: hissiy-baholovchi (o'ziga, atrof-muhitga nisbatan hissiy munosabat, o'zini ma'lum bir jinsdagi tanani tasavvur qilish sifatida qabul qilish); kognitiv (shaxsning murakkablikni anglashi, o'ziga xoslik, dunyoning o'z rasmining ko'p qirraliligi va men obrazim); xulq-atvor (ma'lum ijtimoiy narsalarni amalga oshirish qobiliyati va tayyorligi rol, shaxslararo o'zaro ta'sir va jinsga bog'liq xatti-harakatlar). Bundan tashqari, biz shaxsiy komponentni ajratdik, shaxsiyatning psixologik xususiyatlarini o'z ichiga olgan o'smirlik davrida nevroitiklik, depressiya, reaktiv tajovuzkorlik va boshqalar olib boriladigan gender o'ziga xosligini shakllantirish.

Turli xil ijtimoiy sharoitlarda tarbiyalangan o'spirinlarda jinsga o'xshash tarkibiy qismlarni o'rganish uchun biz psixodiagnostik usullarning quyidagi kompleksidan foydalandik, ularning tanlovi tadqiqot mavzusi va vazifalariga mos keladi: o'z-o'zini tavsiflash usuli bilan gender identifikatsiyasining mazmunini o'rganish L.N.Ojigovaning "men ayol/erkakman" so'rovnomasi yordamida o'tkazilgan.

Anketa ta'sir qilish xususiyatlari va darajasini o'rganish uchun mo'ljallangan gender stereotiplariga ega bo'lgan shaxslar shaxsiyatning mazmunli xususiyatlarini o'rganish metodologiyasi shaxslar. "Men Kimman? M.Kun va T.Makpartlend (modifikatsiya qilingan) T.V.Rumyantseva) shaxsning o'ziga bo'lgan munosabatini, hissiyotini, men obrazining kognitiv va xulq-atvor mazmunini aniqlashga imkon beradi so'rovnomasi S.Boem psixologik jinsni o'rganish uchun mo'ljallangan va shaxsning androgenligi, erkakligi va femininligi darajasini aniqlash (turi) va gender identifikatsiyasining kognitiv komponentini tashxislaydi; xulq-atvor komponenti "maqollar" so'rovnomasi orqali o'rganildi, bu sub'ektlarning oiladagi rollarni taqsimlash, sub'ektlarning gender munosabatlari haqidagi an'anaviy g'oyalarga ta'sir qilish darajasini ochib beradi; ko'p faktorli FPI so'rovnomasidan foydalanish (modifikatsiyada va A.A.Krilov va T.N.Ronginskayaning rivojlanishi) psixologlarga turli xil ijtimoiy sharoitlarda tarbiyalangan o'spirinlarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi.

"Men ayolman/erkakman" so'rovnomasi L.N.Ozhigova. O'zgartirilgan va riant anketasi gender identifikatsiyasining mazmunini va sub'ektning o'ziga xos jinsi stereotipiga sodiqlik darajasini aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu texnikaning asosi nazariy taqdimotdir inson xatti-harakatlarini tashkil etish va yo'naltirishning asosi uning ma'lum bir jinsning vakili sifatida o'ziga bo'lgan munosabati. Berilgan so'rovnomasi proeksion tadqiqot usullariga, tikish usullariga ishora qiladi va jummalarni to'ldirishni o'z ichiga oladi. Mavzu taklif qilinadi jum to'qqiz jumla. Takliflarni yakunlash natijalariga ko'ra, ular shaxsning bo'lingan ehtiyojlari,

motivlari va his-tuyg'ularini, uning o'ziga bo'lgan munosabatini baholaydilar, kelajakka, uning jamiyatdagi munosabatlarining tabiati va h.k. yolg'ondan oldin tugatish mantiqiy ravishda sinov nimani anglatishini yoki nimani anglatishini, ya'ni ijtimoiy mavqe va xarakterli xususiyatlar bilan bog'liq.

Shaxsiyatning mazmunli xususiyatlarini o'rganish metodologiyasi shaxslar. Sinov "Men Kimman?" M.Kun va T.Makpartlend (modifikatsiya qilingan) T.V.Rumyantseva) [194] mazmun xususiyatlarini o'rganish uchun ishlatiladi shaxsning o'ziga xosligi. Savol "Men Kimman?" xususiyatlar bilan bevosita bog'liqinsonning o'zini o'zi anglashi, ya'ni.uning "men" yoki men tushunchasi bilan. Respondentdan "men kimman?». O'z jinsini belgilashning to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita variantlarini aytadi jinsiy identifikatsiyani shakllantirish, rolning mumkin bo'lgan xilma-xilligi to'g'risida xulq-atvor. O'z-o'zini identifikatsiyalashda jinsni belgilashning yo'qligi sabablari xususiyatlari quyidagilar bo'lish mumkin: jinsiy rol haqida yaxlit fikrning yo'qligi xulq-atvor, shakllanmagan aks ettirish; ushbu mavzuning travmatizmi tufayli sizning poloroleingizni va xususiyatlaringizni ko'rib chiqishdan saqlanish (salbiyni almashtirish o'zini boshqa jins vakillari bilan taqqoslash tajribasi); jinsiy identifikatsiyaning shakllanmaganligi yoki umuman identifikatsiya inqirozining mavjudligi.

Psixologik jinsni tashxislash va darajasini aniqlash metodologiyasi S.Boem shaxsining androgenligi, erkakligi va femininligi. Anketa S.Boem – bu o'lchov uchun eng ko'p ishlatiladigan vosita, respondent o'zini gender nuqtai nazaridan qanday baholaydi. Texnikaning tavsifi, uni qo'llash shartlari, uning haqiqiyliigi va ishonchliligi amalga oshirildi ko'pgina xorijiy va mahalliy adabiy manbalarda. Metodika tomonidan taklif qilingan S.Boem 1974 yilda psixologik diagnostika uchun jins va androginiya, erkaklik va feminizm darajasini belgilaydi shaxsiyat (turi). So'rovnomada 60 ta sifatlar mavjud bo'lib, ularning har biri uchun mavzu "ha" yoki "yo'q" deb javob beradi va shu bilan ushbu fazilatlarining mavjudligini yoki yo'qligini baholaydi. Ushbu ro'yxatdagi yigirma sifat erkaklik, yigirma ayollik va yigirma o'lchovni belgilaydi. Erkaklik va ayollik tushunchalarini o'rganish uchun turli xil muhit sharoitida tarbiyalangan o'spirinlarda T.I.Yufereva "erkin tavsiflar" usulidan foydalangan. Ushbu usul quyidagi mavzu bo'yicha insholar yozishga imkon beradi: "Men zamonaviy erkaklar va ayollarmi qanday tasavvur qilaman?». Shundan so'ng, sakkizta teoriyani (mavzularni) tahlil qilish va ajratish asosida zo'ravonlik darajasi, xulq-atvor shakllari aniqlanadi va respondentning erkakligi va ayolligining psixologik xususiyatlaritahlil qilinadi.

Bugungi kunda O'zbekiston SOS Bolalar mahallalarida 200 nafar bola doimiy tarbiyalanib kelmoqda.Ushbu tashkilotning muhim vajifalaridan biri xam aynan ota-onasining qaramog'isiz qolgan va qiyin hayotiy sharoitlarga tushib qolgan bolalarga ijtimoiy va psixologik ko'makni ta'minlashdan iboratdir.Aynan shuning uchun ham ushbu muassasa tarbiyalanuvchilarning psixologik jihatlarini chuqur taxlil qilish lozim. Chunki bunday bolalar o'z oilasidan, ota-ona bag'rida mahrum bo'lish barobarida,nafaqat fiziologik balki psixolgik jarohat bilan ulg'aygan.Ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, kelgusida ularni qabul qiluvchi oilalarga maslaxatlar ishlab chiqish, hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish uchun ham emotsional holatlarini psixologik tahlil qilish va o'rganish muhim.

Hozirgi kunda SOS bolalar mahallalarida uch bo'linma o'z faoliyatini olib bormoqda. Ular: bolalar mahallalari – muqobil parvarish qilish xizmatlari; yoshlar uylari – yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlari va ijtimoiy markazlar – ijtimoiy yetimlikning oldini olish bo'limlari. Ularda asosan ota-onasining qaramog'isiz qolgan yoki ijtimoiy yetimlik havfi ostida bo'lgan bolalar va yoshlar, shuningdek qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan 280dan ortiq oilalar qo'llab-quvvatlanib, 620 nafar bola tarbiyalanmoqda, ushbu bolalardan 32 nafari imkoniyati cheklangan bolalardir. Mazkur muassada qabul qilinuvchilar nafaqat ijtimoiy himoya qilinadi, shu bilan birgalikda ularga psixologik xizmat ham ko'rsatiladi. Bu ularga hayotiy qiyin vaziyatlardan, stress va depressiyalardan chiqishga, shaxs sifatida rivojlanishga, qobiliyatlarning namoyon bo'lishiga, motivatsion sohasining to'g'ri yo'nalishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mazkur tashkilotda himoyaga muhtoj, ijtimoiy yetim bolalar nafaqat ijtimoiy himoya qilinadi, shu bilan birgalikda tashkilot psixologlari tomonidan yuqorida ko'rsatilgan vazifalar bajarilib, bolalarni yoshlik davrida olingan psixologik travmalarini bartaraf qilish uchun yordam ko'rsatiladi. Bu jarayonlarni amalga oshirishda ular ilg'or xorijiy tajribadan foydalanadi, doimiy ravishda chet eldagi filiallar bilan fikr va tajriba almashishadi, malaka oshirib, yangi bilimlarni amaliyotga joriy qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations // Вестник интегративной психологии журнал для психологов. – Выпуск № 22, 2021 г. – С. 233-237.

2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. – 600 b.

3. Olimov L, Avezov O. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. International Journal of Scientific & Technology Research. volume 9, issue 02, february 2020. – P. 2784-2786.

4. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. – 747 b.

TALABALAR AKADEMIK O'ZLASHTIRISHINING PSIXOKORREKSION-RIVOJLANTIRUVCHI DASTURI

Jabborova M.A., Shahrizabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar akademik o'zlashtirishining psixokorreksion-rivojlantiruvchi dasturi, ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, muhim pedagogik-psixologik omillar, talaba shaxsning eng muhim sifat va fazilatlari hamda individualligi haqida ko'p qirrali ma'lumotlar tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, akademik o'zlashtirish, motiv, talaba, o'quv samaradorligi, intellekt, qobiliyat, temperament, xarakter.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonlarga moslashishiga imkon beradigan muhim pedagogik-psixologik omillar va mexanizmlarni aniqlash hamda shakllantirishdan iboratdir. Tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun bitta tajriba guruh va bitta nazorat guruhini tashkil etdik. Shahrizabz davlat pedagogika institutining 2-kurs Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalari (jami – 52 nafar) tajriba guruhi (26 kishi) va nazorat guruhlariga (26 kishi) kiritildi. Tadqiqotda 18-20 yoshli 52 nafar talaba ishtirok etdi. Tadqiqot jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda biz talabalarining shaxsiy xususiyatlarini o'rganish usullarini tanlab oldik.

Ikkinchi bosqichning maqsadi bevosita tadqiqotni tashkil etish edi.

Uchinchi bosqichda - tadqiqot natijalarini tahlil qilib, zarur xulosalarni chiqarishga erishdik.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining shaxs xususiyatlarini diagnostika qilish uchun maxsus tadqiqot usuli sifatida biz 16 faktorli R.B.Kettel so'rovnomasidan foydalandik. R.B.Kettell tomonidan yaratilgan 16 faktorli shaxs so'rovnomasi universal xususiyatli bo'lib, u shaxsning eng muhim sifat va fazilatlari hamda individualligi haqida ko'p qirrali ma'lumot beradi. Savollar loyihaviy xarakterga ega bo'lib, oddiy hayotiy vaziyatlarni aks ettiradi. Mazkur test so'rovnoma insonning individual psixologik xususiyatlarini o'rganish zarur bo'lgan vaziyatlarda tezkor diagnostikaning qulay vositasidir. R.B.Kettel testi shaxs xususiyatlariga tashxis qo'yadi, konstitutsiyaviy omillarni chaqiradi. Biz so'rovnomaning C shaklidan

foydalandik – bu qisqartirilgan versiya bo‘lib, vaqt yetishmasligi sharoitida qo‘llaniladi. Unda 105 ta savol bor. Tekshiruv vaqti 30 dan 50 minutgacha.

Ushbu metodikani qo‘llash talabalar temperamenti va xarakteriga xos asosiy tayanch tuzilmalarning psixologik o‘ziga xosligini aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari, har bir omil nafaqat insonning ichki tabiatini sifat va miqdoriy baholashni, balki shaxslararo munosabatlar nuqtai nazaridan uning xususiyatlariga ham baho berishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, individual xususiyatlarni belgilovchi omillarni uchta soha guruhlariga ajratish mumkin: intellektual, hissiy-irodaviy va kommunikativ.

Tashxis qo‘yish jarayonidan so‘ng arifmetik usuldan foydalanish kerak: o‘rtacha arifmetik qiymatni hisoblash, qiyosiy tahlil qilish va subyektlarning ikkita namunasi o‘rtasida ma‘lumotlarni statistik qayta ishlash shular jumlasidandir.

Talabalarining akademik o‘zlashtirish determinantlarini rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion – rivojlantiruvchi trening dasturi tuzildi. Ushbu dastur talabalarning xarakterli xususiyatlarini hisobga olgan holda va ularning o‘zlashtirishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi xatti-harakatlarni kamaytirishga, ijobiy sifatlarning oshirishga xizmat qiladigan, kompleks yondashuvni ta‘minlaydigan tuzatish ishlarining muayyan yo‘nalishlari doirasida qurilgan psixologik usullar va psixologik xizmat trening tizimidir. Trening dasturi har biri 40 minutdan 25 ta mashg‘ulotni o‘z ichiga oladi.

Psixokorreksion – rivojlantiruvchi treningdan so‘ng ikkilamchi diagnostik tekshiruv o‘tkazildi. R.B.Kettellning 16 faktorli shaxs so‘rovnomasi bo‘yicha psixokorreksiyadan oldin va keyin olingan ma‘lumotlarning natijalari tahlil qilindi. Ko‘pgina mualliflarning ilmiy ishlarida endigina ta‘lim muassasasida tahsil olishni boshlagan talabaning katta kurslardagi talabalarga nisbatan boshqa xarakterli xususiyatlarga ega ekanligi qayd etilgan.

1-jadval.


Kettel testi bo‘yicha subtestlarning guruh bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlari (Styudent t-mezoni bo‘yicha)

№	Treningdan oldin		Treningdan keyin		T – mezon	p- muhimlik darajasi
	Tajriba guruhi n=26	Nazorat guruhi n=26	Tajriba guruhi n=26	Nazorat guruhi n=26		
A	6.96±1.34	7.04	8.46±1.33	7.38	4,044	0***
B	8.11±1.17	7.96	8.15±1.37	8.46	0,108	0.914
C	6.23±1.14	5.92	8.37±1.57	6.69	5,457	0***
E	7.30±1.19	7.42	7.38±1.36	7.76	0,217	0.829
F	6.30±1.28	7.03	7.84±1.54	6.96	3,904	0***
G	7.19±1.44	6.96	8.31±1.43	7.2	2,794	0.007**
H	6.34±1.26	7.23	8.58±1.55	7.42	5,681	0***
I	9.03±1.21	8.5	8.65±1.29	8.23	1,104	0.275
L	8.07±1.35	8.69	7.11±1.27	8.35	2,636	0.011*
M	7.27±1.46	7.81	6.84±1.25	8.04	1,122	0.268
N	6.34±1.01	6.69	7.15±1.04	6.53	2,821	0.007**
O	7.96±1.25	8.31	6.92±1.13	7.73	3,146	0.003**

Q1	6.38±1.23	8,69	8.04±1.07	6.57	5,147	0***
Q2	4.77±1.03	5.12	7.19±1.20	6.38	7,805	0***
Q3	5.19±1.20	4.38	7.73±1.31	6.03	7,274	0***
Q4	8.08±1.62	7.35	6.88±1.27	7.61	2,946	0.005**

* - $p < 0,05$ ** - $p < 0,01$ *** - $p < 0,001$

R.B.Kettell testidan foydalangan holda talabalarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, treningdan oldin tajriba va nazorat guruhi talabalarining 16 ta omil bo'yicha olgan ballar nisbati barcha jabhada bir xil ekanligini ta'kidlash lozim. O'tkazilgan trening natijasida tajriba guruhi a'zolarining eng muhim sifat va fazilatlari hamda individual psixologik xususiyatlari ancha o'zgarib tarbiyalaganini, undagi natijalar ijobiy ko'rinish olganligini guvoh bo'ldik. Xususan, tajriba guruhi talabalarida ijtimoiy-psixologik treningdan so'ng kirishimlilik (A omil $T=4.044$, $p < 0,001$), hissiy barqarorlik (S omil $T=5.457$, $p < 0,001$), ta'sirchanlik (F omil $T=3.904$, $p < 0,001$), jasorat (H omil $T=5.681$, $p < 0,001$), ($T=5.147$, $p < 0,001$), nomuvofiqlik (Q2 omil $T=7.274$, $p < 0,001$), o'z-o'zini nazorat qilishning yuqoriligi (Q3 omil $T=7.274$, $p < 0,001$) kabi omillar katta o'zgarish bilan ijobiy tomonga o'sganligini ko'rish mumkin (1-jadval, 1-rasm):




1-rasm. Ijtimoiy-psixologik trening yordamida o'sish kuzatilgan omillar (16 faktorli shaxs so'rovnomasi yordamida olingan)

Ijtimoiy-psixologik treningdan so'ng tajriba guruhi talabalarida mehribonlik, ochiqko'ngil va xushmuomalalik sifatleri yanada yaqqol namoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Bunday talabalarda xulq-atvorda tabiiylik va qulaylik, ehtiyotkorlik, mehribonlik, munosabatlarda oqibatligi bilan tengdoshlaridan ajralib turadi. Ular o'zini o'zi ruhiy jihatdan tarbiyalashga qodir, mehnatsevar, hissiy jihatdan yetuk, psixologik ustanovkaları ideal tarzda namoyon bo'ladi. Shuningdek talabalarda quvnoqlik, impulsivlik kuzatildi, suhbatdoshlar bilan yaxshi muloqatda bo'lishga intilish yuqori, mobillik kuchli. Sinaluvchilarda o'z-o'zini nazorat qilishning yuqoriligi, ijtimoiy talablarni bajarishda aniqlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zi haqidagi ijobiy g'oyalarga ergashadi, his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini yaxshi boshqaradi, har bir ishni oxirigacha olib borishni yaxshi ko'radi.

Ijtimoiy-psixologik treningdan oldin 16 faktorli shaxs so'rovnomasi yordamida olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak talabalarda ba'zi omillar ko'rsatkichlari yuqoriligini ko'rish mumkin edi (2-rasm). Xususan, L omilda ($T=2.636$, $p < 0,05$) – shubhalanish sezilarli darajada yuqoriligi bilan ajralib turardi. Talabalarda o'quv jarayoni boshidanoq atrofdagilarga nisbatan ehtiyotkorlik va har narsada sir tutishga harakat qilishardi, ishonchning kamligi, boshqalar bilan munosabatlarda ochiq emasligi kuzatilgan edi. Jamoda ular bir-biridan ajralib turishgandi, ko'p holatlarda faqat o'zlari haqida qayg'urishardi. Treningdan so'ng ($T=2.636$,

$p < 0,05$) talabalarda ba'zi psixologik sifatlari shakllandi: ochiqko'ngillik, ishonuvchanlik, boshqa odamlarga nisbatan xayrixohlik, bag'rikenglik, muloyimlik hislatlari namoyon bo'ldi. Shuningdek, ular atrofida bilan oson til topishib, jamoada ijobiy faoliyat ko'rsata boshlaganliklari yaqqol kuzatildi.



2-rasm. Ijtimoiy-psixologik trening yordamida pasayish kuzatilgan omillar (16 faktorli shaxs so'rovnomasi yordamida olingan)

Tadqiqot davomida olingan natijalarimizga ko'ra, M omil ($T=1.122$, $p < 0.268$), O omil ($T=3.146$, $p < 0,01$), Q4 omillarda ($T=2.946$, $p < 0,01$) ko'rsatkichlar sezilarli darajada pasayganligi qayd etildi. Ya'ni, talabalarda depressiya, zaiflik, ta'sirchanlik, tashvishning sezilarli darajada kamayishi, intilishlarida keskinlik, zo'riqish, umidsizlik, qo'zg'aluvchanlik, asabiylashish, bezovtalik, hayajon, tashvish, charchoq va zaiflik hissi kabilarning pasayishi kuzatildi. Ijtimoiy-psixologik trening orqali talabalarda xotirjamlik, o'zini erkin tutish, o'ziga ishonch kuchaydi, o'z imkoniyatlarini, malakalarini, bilim va qobiliyatlarini adekvat baholay boshlaganliklari kuzatildi.

Tadqiqotimiz davomida aniqlangan akademik o'zlashtirish determinantlarining (axborotlarni qayta ishlash va kognitiv soha, individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlari, o'quv faoliyat motivlari, o'quv faoliyatini tashkil etish uslublari, o'zini tashkil etish usullari) shaxs sifat va fazilatlariga bog'liq ekanligi ko'zga tashlanadi. Xususan, tajriba guruhi talabalarida aqliy qobiliyat – intellekt yaxshilandi, xotira mustahkamlandi, bilishga (kognitiv), muvaffaqiyatga erishish, o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlari o'sdi, dars jarayonlariga bo'lgan munosabat (o'quv topshiriqlarini o'z vaqtida mustaqil bajarish, ta'lim jarayonida o'z harakatlarini nazorat qilishi, tartib-intizom amal qilishi) ijobiy tomonga o'zgardi, talabalarning o'z faoliyatini amalga oshirishida (irodaviy kuchi, o'zini nazorat qilishi, faoliyatini rejalashtirishi, o'z oldiga yuksak maqsadlarni qo'yishi) o'ziga ishonch kuchaydi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs sifatlari va o'zlashtirish determinantlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, talabalarda shaxs sifat va fazilatlarini yaxshilanishi bilan akademik o'zlashtirish determinantlari kuchayganligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jabborova M.A. Educational Reforms Are the Main Criteria for the Development of Youth. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY VOLUME: 04 ISSUE: 01 | JAN 2023 (ISSN: 2660-6836), SJIF 2023 – 6.63. – P. 111-114.
2. Jabborova M.A. Psychological Determinants of Students' Academic Performance as a Problem. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2 | Issue 1 | ISSN: 2795-8612, SJIF 2023 – 6.958. – P. 316-318.

3. Jabborova M.A. Talabalar akademik o'zlashtirishiga ta'sir etuvchi omillar // O'zbekiston milliy universiteti xabarlari. – Toshkent, 2022, [1/10/1]. – B. 82-84. (19.00.00; №10)

KICHIK MAKTAB YOSHI O'QUVCHILARI UCHUN QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINI MULTIMEDIYALI TEXNOLOGIYADA YARATISH

Seitmuratova V.J., Nukus DPI doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qoraqalpoq xalq ertaklarini multimediyaga texnologiyasida yaratishning tarbiyaviy ahamiyati va bola rivojidadagi o'rni haqida so'z etilgan.

Kalit so'zlar: Multimediyaga texnologiyasi, audio va vizual fikrlash, ilmiy ijodkorlik, animatsion, multisavodxonlik, mantiqiy fikrlash, ixtiro qilish.

Hozirgi vaqtda butun jahonda texnologiya ta'limga ham kengroq kiritilib ta'lim muassasalarida chuqur o'z tasirini ko'rsatmoqda. Ta'lim vositasi bo'lib ulguragan talim texnologiyasi dars va amaliyotda, ta'lim dasturlarida, kompyuter va internetga asoslangan faoliyatlarda keng qamrov olgan. Shu o'rinda maktabgacha va boshlang'ich sinf dasturlarida va darslarida ham multimediyaga mahsulotlarining o'rni beqiyosdir.

Ertaklarni bolalarga multimediyaga mahsulotlari orqali yetkazish va shuning tasirida bolalarga har taraflama tarbiya berish bu, oqilona va tejamkorlik usulidir. Multimediyaga orqali ertaklarni bolaning o'z ona tilida tomosha qildirish va hikoya qilish bu o'qitishning asl shakllaridan biridir. Sababi, shu usul orqali bola millat tarixini, xalq donoligini, milliy qadriyatlarini o'rganadi va ularni qadrlashni tushunib boshlaydi. Rus olimi L.S.Vigotskiyning aytishishga, hikoya qilish xotira va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi [1; 17-b.]. Shu o'rinda qoraqalpoq xalq ertaklarini multimediyaga orqali ko'rish va hikoya qilishda bolada xotira, til rivojlanish, mantiqiy fikrlash, og'zaki va yozma nutqda ham ijodkorlik rivojlanadi.

Qoraqalpoq xalq ertaklari ham ko'p turlarga ajratiladi, masalan; tabiyat haqida, chorvachilik, dehqonchilik, hayvonotlar haqida, insonlar haqida va hayoliy ertaklarga bo'linadi. Hayoliy ertaklarda-bunda odamlar uchar gilamga minib uchishi, bu hozirgi kunda samolyotning paydo bo'lishi, yetti qavat yerning ostida yurib shaxarlarni ko'rish bu, hozirgi zamonda metroning paydo bo'lishi va hokozalar bilan ifodalanadi. Demak, hayoliy ertaklar bolaning ilmiy ijodkorlik qobiliyatining o'sishiga ham ta'sir etadi [2; 47-b.]. Biz pedagoglar shu ertaklardagi ertakdagi xalqimizning arzu-armonlarini, qanday yashab o'tganlarini, kasbkorligi, urf-odatlarini, madaniyati, bugungi zamonimizni qanday arzu qilganliklarini bolalarga multimediyaga ertaklar bilan tushuntirib boramiz va bolalarga kundalik hayotida har bir narsaning qadriga yetishiga tarbiyalab boramiz. Ayniqsa, bolaga yoshiga mos milliy tarixga asoslangan xalq ertaklarini animatsion usulda yetkazish, bolalarning xotirasini, mantiqiy fikrlashini, tasavvurini boyitadi. Ertaklarni bu usulda o'rgatishda bolalarda ko'proq, audio va vizual fikrlash, multisavodxonlik qobiliyati ham oshib boradi. Shuning natijasida bola til qoidalarining ko'p qismini o'rganadi va muqarrar ravishda og'zaki ijodkorlik va semantik: bolalar so'zlar yoki iboralar bilan emas, balki hikoyalar, hikoyalar va ertaklarni o'ylab topadilar.

Qoraqalpoq xalq multimediyaga ertaklar ham bolaning shaxsiyatining aqliy, axloqiy, estetik rivojlanishi uchun ham katta ahamiyatga ega. Ehtimol, ertaklarni sevmaydigan, uzoq vaqt davomida yorqin voqealar va ajoyib sarguzashtlarga to'la qiziqarli hikoyalarni ko'rishni va tinglashni istamaydigan biron bir bola bo'lmas kerak. Binobarin, ertak nafaqat o'yin-kulgi, balki bolaning ijodini rivojlantirishning ajoyib usuli hamdir. Bizning fikrimizcha, bolalar nutqini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri ertak tuzish va multimediyaga ertak yaratishni o'rganishdir. Buning uchun biz bu jarayonga psixologik tarafdin ham yondashib borishimiz kerak. Kichik maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishidagi muhim nuqta - bu ertaklarni mustaqil ravishda ixtiro qilish va ertak mazmunini chizish qobiliyatidir. Amaliyot shuni

ko'rsatadiki, qizlar va o'g'il bolalar turli yo'llar bilan ertak o'ylab topishadi, rasmda ertak qahramonlari obrazini yaratadilar va undan zavqlanishadi. Eng quvnoq xarakterga ega bo'lgan bolalar yorqin, rang-barang, quvnoq tasvirlarni chizadilar, uyatchan, o'zini tuta oladigan bolalar esa cheklangan tasvirlarga ega. Bolalar chizgan ertaklaridan ertakning mazmunini tuzamiz va ularga audio yozuvlar bilan ishlov beramiz.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning xalq ertaklarin o'ylab topish ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi ishlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bolalar nutqi ijodini rivojlantirishning barcha shakllari, usullari va usullarining tizimli, izchil va maqsadga muvofiqligi muhim ahamiyatga ega. Bolalar bilan ertak yaratishda ertakning nomini aytamiz va hikoyaning davomini va yakunini ixtiro qilishni taklif etamiz. Bolalarga "Tulki va xo'roz" ertagini taklif qilamiz.



Bolalar o'ylab topish orqali ertakni chizadi va uni hikoya qilishni o'rganadi. Yakunlab aytadigan bo'lsak, multimediyali ertaklar bolaning ijodiy fikrlash va ijodiy qobiliyatini, ijodiy o'ylashini rivojlantirib nutq madaniyatini ham shakllantirib borishda katta ahamiyatga ega, shu bois bu usulni Qoraqalpog'iston Respublikasining barcha boshlang'ich sinf o'qituvchilari qo'llanishsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва, 1934.
2. Qurbanbaev I. Balalar ádebiyatı. – Nókis: Bilim, 1992.

AYBDORLIK HISSINING PSIXOLOGIK TALQINI

Sultanova S.M., TDPU o'qituvchisi

Annotatsiya. Aybdorlik tushunchasi uyat tushunchasiga juda yaqin, chunki bir xil holat ikkala hissiyotni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ikkala hissiyot ham biror narsani tuzatish yoki yashirish istagini keltirib chiqaradi, ammo bu istak aynan nimaga qaratilganligi aybdorlikni uyat hissidan ajratib turadi. Qadimgi falsafa doirasida aybdorlik va uyat hislari jamoatchilik fikridan qo'rqish bilan bog'liq holda ko'rib chiqilgan, bu xatti-harakatlar qabul qilingan me'yorlarga mos kelmagan taqdirda qoralanishi mumkin bo'lgan.

Kalit so'zlar: aybdorlik, uyat, ishga mas'uliyat, hamkasblar o'rtasidagi muloqot, aybdorlik hissi, hissiyot, kechinma, emotsiya, ichki me'yor, jamoatchilik fikri, ijtimoiy me'yor, xulq-atvor, o'zgaralar bilan nizolashish.

G.G.Matyushin o'zining «Uyat va vijdon axloqiy o'zini o'zi baholash shakllari sifatida» nomli kitobida uyat va aybdorlikning mohiyatini o'zi haqidagi jamoatchilik fikridan qo'rqish va «ba'zi nomussizlik qo'rquvi»da ochib bergan Platon va Aristotelga murojaat etadi.

Aristotel ham aybdorlik va uyatni axloq nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqan va ularning ijtimoiy mohiyatini ta'kidlagan. Demokrit uyatning ikki turini ajratgan: o'zgaralar oldida va o'zi oldida, bunda birinchi holatda insonning uyatli harakati boshqalarga ma'lum bo'lsa, ikkinchisida bu harakat haqida faqat uni sodir etgan shaxsgina biladi. Matyushin o'z oldida uyat va aybdorlikning zamonaviy tushunchasi o'rtasidagi bog'liqlik haqida taxmin qiladi [1].

S.V.Gornayeva «Shaxsiy ijtimoiy xulq-atvorni psixologik tartibga solish ma'nosida aybdorlik va uyat» nomli maqolasida XX asr faylasuflariga murojaat qiladi. Masalan, Kerkegor uyatni inson o'zini dunyoga jamiyat oldida o'zi xohlagandek ko'rsata olmaydigan umidsizlik tuyg'usiga reaksiya deb biladi. Bu o'z-o'zidan bo'la olmaslik va boshqa bironing bu qobiliyatsizlikni bilib qolishdan qo'rqish uyatni keltirib chiqaradi. J.P.Sartr uyat kechinmasini «boshqa odamlar oldida o'zimdanda uyalaman» holati sifatida ta'riflaydi va undagi uchta munosabatni ajratadi: o'zimni qanday his qilaman, boshqa odamni qanday his qilaman va boshqa odam meni qanday ko'radi. Sartrning fikricha, uyatni boshdan kechirish uchun inson o'z his-tuyg'ularini shu uch bog'liqlik bo'yicha bilishi kerak. Inson himoyasiz va kuzatilgan vaziyatdan qochib qutula olmasligini tushunganida uyat paydo bo'ladi. Aytish mumkinki, faylasuf olimlar, uyat va aybdorlikni asosan jamiyat va o'z-o'zidan o'z fikri va qarashlariga munosabat sifatida ko'rib, bu tuyg'ularning kechinmalarini yaxshilik va yomonlik, «yaxshi-yomon» toifalarida tahlil qilganlar [2].

Ko'pgina mualliflar aybdorlik va uyat hissini shaxsning axloqiy xulq-atvori va rivojlanishi bilan bog'laydi. G.M.Breslav o'zining «Tuyg'ular psixologiyasi» nomli kitobida T. Shibutani, D.A.Xanna, K.Fisher, A.Modilyani va boshqalarga murojaat etadi. Uyat va aybdorlik axloqiy va etik me'yorlarga zid bo'lgan xatti-harakatlar sodir etilganda paydo bo'ladigan hissiyotlar sifatida qaraladi. Ular axloqiy o'zini o'zi boshqarish me'yori va haqiqiy xatti-harakatlar o'rtasidagi nomuvofiqlikni bildiradi, shaxsiy javobgarlik hissini va jamiyat me'yorlariga rioya qilish zarurligini shakllantiradi. R.Mey, E.Fromm, I.Yalom, O.Rank kabi mualliflar uyat va aybdorlik hissini nafaqat boshqalarga nisbatan, balki o'ziga nisbatan sodir etilgan harakat bilan ham bog'laydilar [3].

Rus psixologiyasida uyat va aybdorlik o'z-o'ziga munosabat va o'z-o'zini anglash tushunchalari bilan bog'liq holda o'rganilgan. V.N.Myasishchev uyat va aybdorlikni insoniy tajriba va xatti-harakatlarning axloqiy mezonlariga ko'ra shakllanadigan baholash munosabatlari deb hisoblaydi. Ushbu mezonlarga e'tibor qaratgan holda, inson ijtimoiy me'yor va qoidalarni o'zlashtiradi [4]. V.V.Stolin o'z-o'ziga munosabatni o'rganar ekan, aybdorlik va uyat hissini ichki ziddiyat va o'zini ayblash kabi o'ziga xos modalliklar bilan bog'lagan [5].

O.N.Bogolyubova o'zining «Uyatni boshdan kechirish: hodisalarning sifatli tahlili» nomli maqolasida yozishicha, bugungi kunda ko'pchilik tadqiqotchilar uyat va aybdorlikni o'z-o'zini anglash hissiyotlari (self-conscious emotions) toifasiga kiritishadi. Uyat va aybdorlikdan tashqari, bu his-tuyg'ularga xijolatchilik, hasad va mag'rurlik ham kiradi. Ularning barchasini o'z-o'zini anglash jarayoni bilan bog'liqligi birlashtiradi. Bogolyubova aybdorlik va uyat o'rtasidagi farqqa katta e'tibor beradigan Djuna Tangneyga murojaat qiladi. Uning nuqtayi nazari bo'yicha, aybdorlik muayyan xatti-harakat bilan bog'liq va uyat butun shaxsga tegishli. Uyat tashqi qoralash muhitini o'z ichiga oladi, bunda aybdorlik hissi ichki «vijdon urishi» bilan keskinlashadi. Aybdorlik shaxsni faollashtiradi, chunki u vaziyatni to'g'rilash istagini keltirib chiqaradi, uyat esa yashirish va g'oyib bo'lish istagini keltirib chiqaradi. Va shunga ko'ra, aybdorlik hissi ko'proq empatik kechinma bilan bog'liq, uyat esa, aksincha, unga to'sqinlik qiladi va stressga buzg'unchi reaksiyalarga ko'maklashadi.

Tangneyning aytishicha, uyat aybdorlikka nisbatan ortiq darajada kuyinish tuyg'usidir, chunki u o'zining «Men»iga salbiy baho beradi, aybdorlik esa faqat harakatni «baholaydi» [6].

K.Muzdibayev o'zining «Aybdorlik va uyatni boshdan kechirish» nomli kitobida ham hissiyotlar farqiga e'tibor beradi. Uning fikricha, «uyat» va «aybdorlik» bir-biriga yaqin tushunchalardir, chunki ular o'zaro o'xshash tartibga solish funksiyalariga ega. Ammo ular shaxsda butunlay boshqacha kechinmalarni aks ettiradi. Agar kishida biror narsani, me'yorlarni, qoidalarni, va'dalarni buzganida, o'z majburiyatlarini bajarmaganida aybdorlik hissi paydo bo'lsa, u holda uyat kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning butun yaxlitligiga taalluqlidir. Bu qoidalarni buzish bilan bog'liq emas. Aybdorlik hissini boshdan kechirayotgan odam o'z e'tiborini xatti-harakatlariga qaratsa, uyatli holatga tushgan shaxs o'zini, «Men»ni tahlil qilishga qaratadi. Uyat harakatning nomaqbulligi va nomuvofiqligi tufayli paydo bo'ladi va o'zini o'zi qoralash bilan bog'liqdir. Shunday qilib, haqiqatan ham, bu fenomenlarni o'rganishda ularning farqlanishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, uyatni boshdan kechirganda, inson o'zidan, o'zining butun shaxsiyatidan uyaladi, aybdorlikni esa shaxs muayyan harakat uchun his qiladi. K.Muzdibayev «Ayb va uyatni boshdan kechirish» nomli kitobida aybdorlikni shaxsning har qanday axloqiy me'yorlar, diniy yoki huquqiy me'yorlarni buzganlik holati, shaxsning o'z qilmishini anglashi bilan bog'liq salbiy tuyg'usi sifatida ta'riflaydi. Aybdorlikni boshdan kechirganda, noto'g'ri amal yoki harakatning mohiyati zarar yetkazish, kimgadir yoki biror narsaga zarar yetkazishdan iborat. Aybdorlik bilan bog'liq bo'lgan asosiy hissiyotlar - bu vijdon, afsuslanish, pushaymonlik va jazodir.

K.Muzdibayev aybdorlik tushunchasiga keng tavsif beradi. Darhaqiqat, turli fanlar bu tushunchadan foydalanadi va uni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqadi. E.P.Ilin aybdorlikni psixologik atama sifatida «qabul qilingan axloqiy me'yorlar va o'z xatti-harakatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan o'ziga nisbatan norozilik kechinmasi» deya tushunish mumkin, deb yozadi. U O.S.Vasileva va E.V.Korotkova asarlariga murojaat qiladi, bu olimlar aybdorlikni ehtiyojlar piramidasining eng yuqori darajasidagi ehtiyoj bilan belgilanadigan tuyg'u sifatida ta'riflaydi. Ular ta'kidlashicha, aybdorlik salbiy faollikdan keyingi vaqt davri bilan bog'liq [2].

Yuqorida ta'kidlangan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, shaxsning ijtimoiylashuvida uyat va aybdorlik hissi katta ahamiyatga ega. Bu his-tuyg'ular inson tomonidan jamiyatdagi xulq qoidalari va normalarini o'zlashtirishga, shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini tartibga solishga, odamlar bilan samarali munosabatda bo'lishni, boshqa odamning kechinmasini his qilishga o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Матюшин Г.Г. Стыд и совесть как форма моральной самооценки. – М., 1998.
2. Вайсс Д. Как работает психотерапия. – М., 1998.
3. Бреслав Г.М. Психология эмоций. – М., 2007.
4. Мясищев В.Н. Психология отношений. – М., 2004.
5. Столин В.В. Самосознание личности. – М., 1983.
6. Tangney J.P., Dearing R.L. Shame and Guilt. New York: Guilford Press, 2003. – 272 p.

OILADA FARZANLARNI TARBIYASIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING AHAMIYATI

Axmedov L., AndDPI 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Yosh avlodni har tamonlama mukammal shaxs qilib tarbiyalashda otalarning vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: biologik, ijtimoiy, ahloqiy, iqtisodiy negizi, pedagogik.

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, ahloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. SHu sababli turmushdagi va oila a'zolari munosabatlaridagi o'zgarishlar uning moddiy-maishiy, iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita

bog'liqdir. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini tadqiq qilgan venger sotsiologi M.Komleji 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarining o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhiti (vaziyat, sharoit, xolat) omillarini to'rt guruhga ajratadi:

1) ota-onalarning jamoatchilik faoliyati (ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari):

2) oila ichidagi munosabatlari (ota-ona munosabati, ota-onalarning buva va buviga munosabatlari, aka-ukalar va opa-singillarning o'zaro munosabatlari):

3) ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati (ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari, maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati):

4) oilada o'quvchining faoliyati (o'quvchining kundalik tartibi, xo'jalik ishlaridagi muayyan majburiyati) va boshqalar.

Hozirgi kunda jamoatchilikni quyidagi dolzarb muammolar tashvishga solmoqda. Oilada o'g'il-qizlar kimlar tomonidan tarbiyalanayaptilar va ular qanday ruhda, maromda tarbiya olmoqdalar? – Oilaning tarbiya ishi rejasi va tartibli olib boriladimi? o'quvchilar ko'z o'ngida ota-ona, katta yoshdagi qarindosh-urug'lar, tug'ishganlar qanday darajadagi obro'ga egalar?

Oilada rag'batlantirish va jazolash metodlaridan qay yo'sinda foydalanmoqda va shu kabilar. Shuningdek, shaxslararo munosabatlarda oila a'zolarining asab sistemasi (uning kuchi, muvozanati, ildamlig'i, beqarorligi), temperamenti (uning xolerik, sangvinik, flegmatik toifalari), g'oyaviy maslagi, uning qiziqishi, his-tuyg'usi, ideali, e'tiqodi, dunyoqarashi, shaxsiy pozitsiyasi) ahloqiy xislati, diqqati, uning kuchi, tarqoqligi, parishonxotirligi, tiyrakligi) xotirasi, irodasi (mustaqilligi, qat'iyligi, dadilligi, mard-qo'rqmasligi), nutq (mazmunli, mantiqli, oxangli, sur'ati, dag'al va yumshoqligi), emotsional ichki kechinmlari (kayfiyati, extiroosi, zo'riqishi, jo'shqinligi, qo'rsiligi, achchiqlanishi, xursandligi) kabi ruhiyat va ma'naviyat jihatlarini hisobga olgan holda joriy qilish muammolari ham kishilarni juda qiziqtiradi. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tuzilishining taxminiy sxemasi quyidagicha:

1) buva va buvi hamda oilaning qolgan barcha a'zolari aloqasi:

2) ota-onaning o'zaro munosabatlari:

3) ota-ona va farzandlar orasidagi muloqot:

4) farzandlarining o'zaro munosabatlari tartibi:

5) kelinning barcha oila a'zolari bilan munosabatlari:

6) kelinlarning (ovsinlar) o'zaro muloqot qilishlari kabilar.

Axloqiy tarbiyani izchil va tartibli amalga oshirishda oila g'oyat muhim rol o'ynaydi. Inson axloqiy, ma'naviy va ruhiy qiyofasining poydevori oilada qo'yiladi. Shuning uchun ham mashhur allomalar oila tarbiyasiga katta e'tibor bershgan hamda shu masalaga bag'ishlab qator qimmatli asarlar yozishgan. O'zbek xalqining ko'p asrlik boy madaniyati va tarixi bor. Mazkur madaniy meros jamiyatdagi jamiki ma'naviy boyliklarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasi, ma'naviy-madaniy tarixi boy merosga ega bo'lib ularning mohiyati, mazmuni xalq ijodiyotida, ilg'or mutafakkirlarning asarlarida aks etgan. Xususan, jumhuriyatimiz xalqlarining pedagogika va ruhshunoslik fanlari bo'yicha merosini o'rganish ishlari xali o'zining ko'pgina tadqiqotchilarini kutib turibdi. Hatto bir necha asrlar ilgari At-Termiziy, Ismoil Buxoriy kabi allomalarning inson ma'naviy olamini boyitadigan durdona yodgorliklari, xususan, «qur'oni-karim» mazmunini yoritadigan xadislari majmuasi musulmon olamining hayotbaxsh oftobidir. Uning nurlaridan yoshlarimiz, farzandlarimizni bahramand etish fursati keldi. Oilada bola tarbiyasining o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, ota-onalar ulardan o'rinli foydalanishlari lozim. Xususan, ular quyidagicha:

1) oilada xissiy moslik, ruhiy xotirjamlik va iliq iqlim yaratish:

2) ota-ona obro'sini saqlash:

3) tarbiyada ota-ona, kattalar o'rtasida talabchanlik birligi:

4) bola shaxsini mehnatda tarbiyalash:

5) oila, maktab va jamoatchilik xamkorligi:

- 6) bolani sevish va izzat qilish:
- 7) oilada qat'iy rejim va kun tartibi o'rnatish:
- 8) tarbiyada bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish:
- 9) bola taraqqiyotini aniqlab berish:
- 10) bolada tashabbuskorlik sifatlarini hosil etish va boshqalar shular jumlasidan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uzoqov X., G'oziev E., Tojiev A. Oila etikasi va psixologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1992.
2. Oila tayanchi: TDPU Ilmiy maqolalar to'plami. – T., 1998.
3. Подготовка старшеклассников к семейной жизни. С.В.Ковалёв. – Москва: Просв-э, 1991.
4. Психология в семье. – И.П.Плотникс. М.: Педагогика, 1991.

LINGUOCULTURAL FACTORS AFFECTING THE SPEAKING SKILLS OF UZBEK LEARNERS OF ENGLISH

Nazarov S., Independent researcher

Abstract. In the English as a Foreign Language (EFL) pedagogy environment, how to increase speaking competence and confidence for undergraduate students tends to be a crucial question among instructors. This concern led to a qualitative research design as an action study in a regular course employing a task-based approach. The findings indicated that confidence, creativity of topics, and speaking competence were the key aspects of improvement when speaking to the audience.

Keywords: English speaking development, factors enhancing EFL/ESL speaking skills.

Speaking is one of the four macro skills necessary for effective communication in any language, particularly when speakers are not using their mother tongue. As English is universally used as a means of communication, especially in the internet world, English speaking skills should be developed along with the other skills so that these integrated skills will enhance communication achievement both with native speakers of English and other members of the international community.

In the Uzbek context of learning English as a Foreign Language (EFL), instructors regularly ask the question why the majority of undergraduate students are unable to speak English confidently, especially for communication in real situations with international speakers. One among many reasons to take into consideration might be a lack of confidence in terms of anxiety about making errors as stated by Trent (2009) and in other related studies. Basically, most Uzbek undergraduate students have studied English for approximately 8-10 years before entering the tertiary level. Based on the question of how to increase the speaking confidence and competence of undergraduate students, an initial informal interview was conducted with a group of EFL university students on the factors expected to enhance their speaking skills.

While reading and listening are considered to be the two receptive skills in language learning and use, writing and speaking are the other two productive skills necessary to be integrated in the development of effective communication. Of all the four macro English skills, speaking seems to be the most important skill required for communication (Zaremba, 2006). Effective communication by means of speaking usually creates a number of benefits for both speakers and business organizations. For example, effective speaking skills result in achievements during ceremonial speaking activities, job training activities, job interviews, and many other business purposes. Zaremba (2006) also pointed out a study indicating that speaking skills or communication skills were usually placed ahead of work experience, motivation, and academic credentials as criteria for new recruitment for employment.

There are a number of factors relating to speaking skills to be considered for effective English speaking performance. Pronunciation, vocabulary, and collocations are singled out as important factors to be emphasized in building fluency for EFL speakers. Providing students with a variety of situations and frequent speaking tasks plays a significant role in the improvement of students' fluency when speaking (Tam, 1997).

Confidence and competence usually lead to strengths of English speaking skills. Patil (2008) asserted that building up the learner's confidence to eliminate fear of making errors was a priority that the teacher should consider in order to make the learner feel comfortable with their language use.

The findings in this section were derived from interviews conducted with the course participants. Building up confidence in speaking to an audience was mainly reported as a factor that strengthened speaking performance. The tasks based on speaking for special communication in a variety of situations designed into the course also helped participants to prepare for speaking, and once each speaking task was well-prepared, this preparation became an effective strategy to minimize anxiety, and thus maximize speaking confidence.

In addition, suggestions for EFL learners' speaking improvement included a variety of course activities, encouragement for more exposure to listening through media, and seeking opportunities to speak in real situations. Moreover, practice and exposure to both listening and speaking activities in real world situations appeared to be a practical method to promote speaking confidence. Examples of the verbatim reported factors are displayed in Table 1.

Table 1.

Factors enhancing speaking development

Participants	Factors
No. 1	Confidence should be developed first; more confidence very important to make students gain confidence to speak
No. 2	I love to watch foreign movies. Listen to songs – help pronunciation; confidence is the most important in speaking English
No. 3	The course helps me to be confident, listening to more news, songs and TV programs

The findings in this section were obtained from the recordings of one speaking task and the information was categorized in terms of content, pronunciation, and language use. Strengths of speaking performance found in this study included a wide variety of real world topics, when a broad range of vocabulary was employed; however, weaknesses were found in the pronunciation and grammatical structure of the sentences. Errors of word stress and the final sounds of some English words were categorized as weaknesses in this study.

This action research was qualitatively conducted to investigate the factors enhancing the development of speaking skills of Uzbek EFL undergraduate students. A confidence factor was gradually developed during the 15 weeks of a regular listening and speaking course. A task-based pedagogical design provided opportunities for the course participants to speak in different situations, which helped to make 'passive' vocabulary 'active' and also expanded the English lexicon derived from varied speaking topics. Creativity of topics was considered to be a speaking strength, and errors in pronunciation and grammatical structure were categorized as weaknesses of the research findings. Suggestions for speaking improvement for EFL learners mainly covered listening skills, which included listening to music, watching movies, and frequent practice of listening and speaking skills from multimedia websites. The task-based learning design in this qualitative action research could be applied to promote a particular skill or integrated-skill pedagogy in EFL/ESL and other language learning contexts.

References:

1. Bailey K.M. (2005). Practical English Language Teaching: Speaking. New York:

McGraw-Hill.

2. Koshy V. (2005). Action research for improving practice: a practical guide. London: SAGE.

3. Lucas S.E. (2001). The art of public speaking. (7th Ed.). Singapore: McGraw-Hill.

4. Nunan D. (2006). Task-based language teaching in the Asia context: Defining 'task'. Asian EFL Journal, 8 (3),12-18. Retrieved from http://asian-efl-journal.com/Sept_06_dn.php

5. Osborn S., Osborn M., Osborn R. (2008). Public speaking guidebook. Boston: Pearson.

AUTIZM SPEKTRIDA BUZILISH ANIQLANGAN BOLA ONALARIGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Asrarxanova E.A., TDPU o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada autizm spektrida buzilish aniqlangan maktabgacha yoshdagi bolalar onalarining psixoemotsional sohasining xususiyatlari, onaning o'z farzandiga munosabatini autizm spektrida buzilish aniqlangan bola psixik taraqqiyotiga ta'siri mavjudligi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Tayanch tushunchalar: autizm spektri buzilishi, shaxsiy emotsional soha, ichki konflikt, apatiya, ichki komfort, vaziyatli va shaxsiy havotirlanish, simbioz, kooperatsiya, infantilizatsiya;

Bugungi kunda Xitoy davlati psixologik tadqiqotlarida autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalarining 72,5 foizida depressiya, 80,2 foizida havotirlanish darajasining yuqoriligi 67,1 foizida ikkala holatlarning ham namoyon bo'lishi aniqlangan. Bu psixoemotsional holatlar 95 foiz onalarda tashvish va ruhiy tushkunlik namoyon bo'lishiga javoban ularning psixikasining himoya mexanizmlari ekanligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ota-onalarida tashvish va depressiyaning og'irligini kamaytirishning asosiy omili bu – bolaning holatidagi ijobiy o'zgarishlar hisoblanadi.

Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar sonining ko'payishi shoshilinch ravishda bunday bolalarning rivojlanishiga foydali ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni tahlil qilishni va yordam berish usullarini izlashni talab qiladi. Hozirgi vaqtda autizm bo'yicha tadqiqotlar genetik va atrof-muhit omillarining ta'rifi va roliga e'tibor qaratmoqda. Autizm bilan kasallangan odamlarga yordam ko'rsatishni tashkil etishda turli texnologiyalar, usullar ishlab chiqilmoqda va tasdiqlanmoqda. Mavjud tadqiqotlar va autizimli odamlarga yordam berish usullari tahlili autizimli bolalarni rivojlantirishda ota-onalar va oilalarning roliga etarlicha e'tibor berilmaganligini ko'rsatadi.

Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar odatda oilada birinchi va ko'pincha yagona bo'ladi. Tajriba yetishmasligi tufayli ota-onalar uzoq vaqt davomida bolaning xususiyatlarini sezmaydilar. Hayotning uchinchi yili ota-onalar uchun ayniqsa onalar uchun juda muhim, chunki bolaning og'ishlarining jiddiyligi aniq bo'ladi. Onalarda ruhiy tushkunlik, ona bilan bolaning muloqot qilmasligi oldida chalkashlik, o'zlariga past baxo berish, bola uchun o'zini butunlay rad etish, bolaning taxmin qilingan roli bilan bog'liq qo'rquv bezovta qilishi, shaxslararo munosabatda onalarda muammolar, "yomon irsiyat" haqidagi fikrlar yuzaga kela boshlaydi. Bundan tashqari, autizimli bolalarni "oddiy" bolalar bilan taqqoslash orqali yuzaga keluvchi havotirlanish ham ko'pgina autizimli bola onalarini bezovta qiluvchi psixoemotsional holatlardan biri sanaladi. Oilaviy munosabatlarda keskinlik, yashirin yoki aniq ziddiyat, ota-onalarning o'zaro ayblovlari onalarda kuchli emotsional zo'riqishlarni, ichki konflikt va ichki vakum, apatiyani yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalari turli xil xulq atvor strategiyalarga egaligi bilan farqlanadi. Ulardan ba'zilari bolaning haqiqiy muvaffaqiyatlari va imkoniyatlarini kam baholaydi, uning kamchiliklariga e'tibor beradi. Ular boladan uyaladilar. Ta'limni qat'iy direktiv tamoyillarga asoslangan holda tashkil etadilar. Boshqa onalar, aksincha, har qanday

yo'l bilan o'z farzandlarining yutuqlarini bo'rttirib, ularning yetishmasligini yashirishadi. Ko'pincha onalar o'zlari buni sezmasdan va natijalarni bolaga bog'lamasdan, bola uchun juda ko'p narsa qilishadi. Ko'pgina oilalarda bunday bolalarga nisbatan ziddiyatli pozitsiyalar mavjud. Ko'pgina onalar autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalardagi og'zaki-intellektual rivojlanishni asosiy deb bilishadi, garchi og'zaki bo'lmagan rivojlanish ustunlik qiladi.

Bugungi kunda autizm spektrida buzilish anqilangan bolalarni ta'lim tarbiyasini tashkil etishdagi ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan usullar ahamiyati o'rganilganligiga qaramay, oila bola rivojlanishning eng muhim omili va manbai hisoblanishi inobatga olinmagan. Shu sababli, autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar rivojlanishi omillarini o'rganish va bu bolalarga g'amxo'rlik qilishni tashkil etishda oila tizimini tahlil qilish, ayniqsa ona shaxsini rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda zarur hisoblanadi. L.S.Vigotskiy har qanday bolaning rivojlanishining manbai va asosi bo'lgan «buyuk-biz» tizimi deb ataladigan bolaning va yaqin kattalarning ruhiy hamjamiyatini shakllantirishni ko'rib chiqdi [4]. Bu tizim hissiy yaqinlik mavjudligida paydo bo'ladi.

L.S.Vigotskiyni ishlab chiqqan bu tizimini O. S. Nikolskaya autizmli bolaga ham tegishli deb hisoblaydi va bu tizm autizmli bolalarga ota-onalarni emotsional semantik yondashuvini rivojlantiradi deb ta'riflagan.

“Semantik, chunki asosiy vazifa bolaning individual ta'sirchan tajribasini to'plash va mazmunli tartibga solishdir, bu atrof-muhit bilan faol munosabatlarni rivojlantirish uchun yordamga aylanishi mumkin. Hissiy, chunki bolaga yordam berishning asosiy vositasi birgalikda yashash va nima bo'layotganini hissiy jihatdan tushunishdir” [6].

Bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy va aqliy rivojlanishi uchun uning ota-onasi bilan munosabati muhimdir. Bu haqda E.Erikson ko'pgina ilmiy ishlar olib borgan. Ota-ona munosabatlarining zamonaviy tadqiqotchilaridan E.O.Smirnova, M.V.Sokolova, I.A.Alikin, N.V.Lukyanchenko va boshqalar ishlarida esa ota-onalarning munosabati o'zgaruvchanligini va bu bolaning yoshiga bog'liq degan xulasani ko'rishimiz mumkin. Mualliflar nafaqat ota-ona munosabatlarining dinamikasini, balki ona va otaning bolaga bo'lgan munosabati o'rtasidagi farqlarni ham ta'kidlaydilar. E.Fromm ularni «onaga bog'lanish» va «otaga bog'lanish» deb ta'riflaydi. Onalik muhabbati, E.Fromm nuqtai nazaridan, shartsiz va kelajakda hech qanday “to'lov” ni talab qilmaydi.

E.Frommning g'oyasi bolani ota-onalar tomonidan so'zsiz qabul qilish haqida bo'lsa, E.O.Smirnova va M.V.Sokolova E.Fromm g'oyasini davom ettiradi. Ular yozadilar: “Ota-ona munosabati bolani so'zsiz qabul qilish va ob'ektiv baholashni o'z ichiga oladi”. Mualliflar ota-ona munosabatlarining ikki tomonlamaligini topadilar [1].

K.N.Belogay va I.S.Morozov ota-ona munosabatini baholash komponentiga ko'proq e'tibor beradi. Ular keng ma'noda ota-onalarning bahosini nafaqat bolaga nisbatan munosabat va harakatlar sifatida, balki o'zlarining tarbiyaviy rolini tushunish, o'z vazifalari va ular haqiqatda qanday amalga oshirilishi haqidagi g'oyalar o'rtasidagi muvofiqlikni boshdan kechirish sifatida tushunishadi. Mualliflar ota-ona munosabatini “ota-ona va bola o'rtasidagi harakatlar, reaksiyalar va tajribalarda ifodalangan tanlangan hissiy va baholash munosabatlari” deb ta'riflaydilar.[3]

Ota-ona munosabatlarini zamonaviy g'oyalarga yaqinroq tushunishni individual psixologiya asoschisi A.Adlerning asarlarida topish mumkin. Uning fikricha farzand va ota-ona munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari hamkorlik bilan belgilanadi. A.Adler birinchilardan bo'lib ota-ona munosabati turi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi.

Avstro-amerikalik psixolog R.Dreykurs fikricha, bolaning barkamol rivojlanishini ta'minlash uchun uning ichki dunyosini (tajribalarini, fikrlarini va xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini) tushunish, uning individual shaxsiy xususiyatlarini hurmat qilish, optimal yo'lni saqlashga intilish kerakligini ta'kidlaydi. Ota onalar bolaning ehtiyojlarini qondirish, uning himoyasi va xavfsizligini ta'minlash kabi vazifalarni bajaradilar va bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini boshqaradi degan g'oyani ilgari surgan.

Rus psixologi V.N.Myasishchevning g'oyasi «munosabatlar» tushunchasining mazmunini ochish uchun samarali. V.N.Myasishchev "munosabatlar"ni uch komponenti mavjud deb hisoblaydi. U munosabatning kognitiv, hissiy va xulq-atvor komponentlarini ajratib ko'rsatadi. Xuddi shu model ota-ona munosabatlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bolani idrok etishning o'ziga xosligi, uning g'oyasi, uning qiyofasi ota-ona munosabatlarining kognitiv tarkibiy qismini tashkil qiladi. Hissiy komponent bolaga nisbatan turli xil his-tuyg'ular va hissiy reaksiyalar spektrida namoyon bo'ladi. Tarbiya turi, bola bilan muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlari, xulq-atvor stereotiplari xulq-atvor komponentiga tegishlidir [5].

«Ota-ona munosabati – bu bolaga nisbatan turli xil his-tuyg'ularning ajralmas tizimi, bolaning muloqot qilishda qo'llaniladigan xatti-harakatlar stereotiplari, bolaning xarakterini, uning harakatlarini idrok etish va tushunish xususiyatlari»dir deb rus olimi A.Y.Varga ta'riflagan. U ota-ona munosabatining uchta tarkibiy birligini ajratib ko'rsatishni taklif qiladi, ularning har biri kognitiv, hissiy va xulq-atvor komponentini o'z ichiga oladi:

- 1) ajralmas qabul qilish yoki rad etish;
- 2) yaqinlik darajasida namoyon bo'ladigan shaxslararo masofa;
- 3) xulq-atvorni nazorat qilish shakli va yo'nalishi.

Turli oilalardagi ota-onalarning munosabatlarini taqqoslab, A.Y.Varga komponentlarning bir yoki boshqasining ustun bo'lishini aniqladi. Bir komponentdagi ustunlik esa, ota-onaning bolaga munosabatlarida turli xil buzilishlarini keltirib chiqaradi degan fikrni ilgari surdi. Umuman olganda, u bunday buzilishlarning to'rt turini ajratadi:

- qabul qiluvchi-avtoritar;
- infantilizatsiya bilan rad etish;
- ijtimoiy nogironlik;
- simbiotik va simbiotik-avtoritar munosabat [4].

Yevropa va Rossiya mamlakatlari aksariyat tadqiqotchilari oilaning faol ishtirokisiz autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarni davolash samarasiz ekanligini ta'kidlashadi. Lekin afsuski O'zbekistonda bu yo'nalishda tizimli ilmiy tadqiqot ishlar olib borilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Богачева О.И., Иванов М.В. Особенности материнского отношения к болезни детей с расстройствами аутистического спектра // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – 2019. - № 3 (19). – С. 21-28.
2. Выготский Л.С. Психология. – М.: Эксмо-пресс, 2000. – 1008 с.
3. Ефимова И.Л. Возможности исследования родительского «выгорания» // Вестник МГОУ. Серия «Психологические науки». – 2013. № 4. – С. 31-40.
4. Костина И.А. Консультирование родителей детей с аутизмом // Детский аутизм: исследования и практика. – 2008. - № 4. – С. 333-344.
5. Красильникова Е.Д. Психологические особенности семей, воспитывающих детей с различными вариантами нарушения психического здоровья // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – 2012. – Т. 12. - № 2. – С. 29-36.
6. Никольская О.С. Методические рекомендации по организации работы с семьями, воспитывающими детей с расстройствами аутистического спектра.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA 5-6 SINFLAR UCHUN ULARNING O'QUV JARAYONIDA FOYDASI

Islomov R.T., NamDU

Annotasiya. Maqolada "flipped classroom" modelining 5-6 sinf o'quv jarayonida qanday qo'llanishi taqdim etiladi. Bu model o'quvchilarga darsni o'qishdan oldin dars materialini o'rganish va darsda yuz berish va amaliyotni o'zlashtirish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar orqali o'quv jarayonini individual va jamoaviy ravishda mustaqil o'rganish

imkoniyati yuzaga keladi. O'quvchilar o'z o'qish temposini va uslubini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Maqolada o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun gamifikatsiya elementlarining qo'shilishi haqida aytiladi. Bu, o'quv jarayonini o'yin elementlari bilan boyitish orqali o'quvchilarni qiziqtirish va qo'shish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: o'quv jarayoni, o'quvchilar, o'zlashtirish, samarali, muammolar, fikrlar, o'rganish, yangi yo'nalishlar, osonlashtirish, qo'llanish, innovatsion texnologiya, ta'lim jarayoni.

Bugungi kunda, innovatsion texnologiyalar dunyoda har bir sohada katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quv jarayonida ham ularga aloqador o'rin berilmoqda. Ma'naviy va ilmiy rivojlanishga qaraganda, ularning 5-6 sinflar o'quv jarayonida foydali qo'llanilishi muhimdir. Quyida, 5-6 sinflar o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar foydalarini ko'rib chiqamiz. Interaktiv darsliklar va dars videolar: Innovatsion texnologiyalar orqali yaratilgan interaktiv darsliklar va dars videolar o'quvchilarga ma'lum mavzularni o'rganishda yordam beradi. Bu videolar o'quvchilarga ko'ngillilik bilan o'rganish imkoniyatini yaratadi va o'qituvchilarga darsni yanada qiziqarli va o'zgaruvchan qilish imkonini beradi. Virtual realitet (VR) va tashqi ma'lumotlar: Virtual realitet o'quvchilarga konseptlarni amaliy ko'rinishda tushunish imkonini beradi. Tashqi ma'lumotlar va virtual turar-joylar orqali, o'quvchilar mazmuni o'zlashtirish, tadqiqot qilish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim o'yinlari va quyidagi dasturlar: Ta'lim o'yinlari o'quvchilarni qiziqarli shaklda o'rganishga imkon beradi. 5-6 sinflar uchun ma'noli o'yinlar yordamida, matematika, tillar, ilm-fanlar va boshqa fanlar o'quvchilar uchun qiziqarli va o'zgaruvchan bo'ladi. Online ta'lim platformalari: Internet orqali o'quv platformalari o'quvchilarga eng so'nggi ma'lumotlarga ega bo'lishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bu platformalar yordamida o'quvchilar o'zlariga qulay va moslashtirilgan o'quv yo'nalishlari tanlashlari mumkin. Kodlash va robototexnika darslari: Innovatsion texnologiyalar o'quvchilarga kodlash asoslarini o'rgatishda va robototexnika bilan tanishishda yordam beradi. Bu, ularni texnologiya sohasida o'zlashtirish va tushunishga tayyorlaydi.

Online hamkorlik va jamoatchilik: O'quvchilar global o'qish imkoniyatiga ega bo'lib, boshqa o'quvchilar bilan online hamkorlik qilish imkonini topishlari mumkin. Bu, ularning global tarix, madaniyat va yangiliklar bilan tanishishiga imkon beradi. Ijtimoiy tarmoq va bog'lanishlar: Ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilarga global o'qish imkoniyatini yaratadi va ularga mazkur tarmoqlar orqali dunyo bo'ylab bog'lanish va kommunikatsiya qilish imkonini beradi. Individual o'quv yo'nalishi: Innovatsion texnologiyalar, o'quvchilarni individual yo'nalishda o'rganish imkonini yaratadi. O'quv dasturlari shaxsiy talablarga moslashtirilgan bo'lib, o'quvchilarni o'zlarining qobiliyatlariga asoslangan o'qitish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, 5-6 sinflar o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, o'quvchilarni motivatsiyalab, ularni qiziqarliroq, o'zlashtirilgan va ko'proq o'rganishga yo'l qo'yadi. Bu, ularning mustaqil, innovativ, ma'naviy va ilmiy rivojlanishiga qo'shimcha qo'shimcha yordam beradi.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar o'quv jarayonlarini rivojlantirishda ahamiyatli o'rin egallayapti. 5-6 sinf o'quvchilari uchun, bu texnologiyalar o'rganish jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va ma'naviyatga mos qilishda yordam berishi mumkin. Quyidagi maqolada, innovatsion texnologiyalar va 5-6 sinf o'quv jarayonida ularning foydalarini ko'rib chiqamiz. Interaktiv O'qish Platformalari: Bugungi kunda, interaktiv o'qish platformalari o'quv jarayonini yanada qiziqarli va o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun yordam beradi. Multimedia asboblar, videolar, animatsiyalar va interaktiv darsliklar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotga o'tkazishlari va ko'rganlarni amalga oshirishlari mumkin. Bu usul, o'quvchilarni qiziqarliroq o'rganishga yondashadi. Virtual Realiti (VR) Vaqtlar: Virtual realiti texnologiyalari o'quv jarayonlarini haqiqiy vaqtga olib chiqish uchun ajoyib vositadir. 5-6 sinflar uchun, virtual kutubxona sayohatlaridan tashqari, tarixiy shaharlarda sayohat qilish, ilm-fan laboratoriyalari va hatta o'quvchi yaratgan dunyoqarashi dunyolari yaratish imkonini beradi.

Online Hamkorlik Sohalar: Internet orqali o'quvchilar dunyo bo'ylab boshqa o'quvchilar bilan hamkorlik qilishlari va o'z fikrlarini almashishlari mumkin. Online vebinarlar, jamoatchilik platformalari va online ta'lim dasturlari o'quvchilarni boshqalar bilan hamkorlik qilish va o'z fikrlarini izhorlash imkonini yaratadi. Kodlash va Robototexnika: Kodlash va robototexnika o'quvchilarni muhiti yaratish va muhiti boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay vositalardir. O'quvchilar o'z dasturlarini yaratish va robotalarni boshqarish orqali texnikaviy tajribani olishadi. Tarmoqli Ta'lim Sohasi: Tarmoqli ta'lim, o'quvchilarni boshqaruv qilish va ta'lim materiallariga o'zlarining qulay vaqtlarida kirishga imkon beradi. Elektron kutubxonalar, onlayn darsliklar va interaktiv testlar o'quvchilarga o'zlarining o'zlashtirilgan o'qish jadvalini tuzishga yordam beradi. Ilm-fan O'yinlari: Ilm-fan o'yinlari o'quv jarayonini o'zlashtirishda va o'quvchilarni qiziqishlarini oshirishda samarali vositalardir. Bu o'yinlar o'quvchilarni ilm-fan sohasida o'zlarini sinab ko'rishga rag'batlantirishi va o'rganishni qiziqarliroq qilishi uchun yaratilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, innovatsion texnologiyalar 5-6 sinf o'quv jarayonlarini qiziqarli va interaktiv qilishda katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalardan foydalanib, o'quvchilar o'rganish jarayonini yanada qiziqarliroq va o'zlashtirilgan tarzda amalga oshirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Исломов Р.Т. (2009). Туб сонлар тақсимои масаласини ўрганишда сонлар назарияси ва эҳтимоллар назарияси орасидаги фанлараро боғланишдан фойдаланиш ҳақида. Ёш математикларнинг янги теоремалари-2009, Республика илмий анжуманининг материаллари, Наманган, 2009 й., 6-7 ноябр, 2 бет.

2. Исломов Р.Т. (2018). Муҳаммад Хоразмий математик асарларининг ўрта асрлар математикасига таъсири. Ёш математикларнинг янги теоремалари-2018, Республика илмий анжуманининг материаллари, Наманган, 2018 й., 18-19 октябрь.

3. Islomovich I.T., & Son I.A. M. (2023). Management forms and organization methods of the neighborhood institute. Conferencea, 57-60.

4. Исломов Р.Т. (2013). Математик ҳукм. Ёш математикларнинг янги теоремалари-2013, Республика илмий анжуманининг материаллари, Наманган, 2013 й., 15-16 апрел, 1 бет.

O'QUV ME'YORIY XUJJATLAR BILAN ISHLASH VA IJRO INTIZOMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA OID OLINGAN NATIJALAR

Mirzayev Sh.

Annotasiya. Bu maqolada, o'quv me'yoriy xujjatlar (o'quv rejalar, dars jadvali, o'quv dasturlari va boshqalar) bilan ishlash va ijro intizomi samaradorligini oshirishga oid olingan natijalar ko'rsatiladi. O'quv tizimida me'yoriy xujjatlar yaratilishidan foydalanishning o'ziga xos muhim ahamiyati ko'rsatilib, ularning o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv darslarini tashkil etish va o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida mustahkam asoslangan. Maqolada o'quv me'yoriy xujjatlarni ishlatishning qanday shakllanishi, o'quv jarayonini tashkil etishda va o'quvchilarga ta'lim berishda ularni samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'llar, usullar va ko'rsatilgan ushbu amaliyotlarning o'qituvchilarning va o'quvchilarning o'zlashtirishlariga qanday ta'sir qilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: o'quv me'yoriy xujjatlar, ishlash va ijro intizomi, samaradorlik, oshirish, natijalar, o'quv jarayonida qo'llaniladigan dars tartibi, dars soatlarini belgilash, mavzu bo'yicha qo'llanmalar tayyorlash.

O'quv jarayonida me'yoriy xujjatlar, o'quvchilarni o'z-o'ziga xos ta'lim yo'nalishida yaxshilash va o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhim vosita sifatida ko'riladi. O'quv me'yoriy xujjatlar - o'quvchilarning o'zlashtirilgan o'quv maqsadlarini erkin

tanlashda, o'quv dasturlarini belgilashda, darsda o'quvchilarning faoliyatini tashkil etishda, talabalarni baholashda va boshqa o'quv jarayonidagi amaliyotlarda yordam beruvchi ma'lumotlar va ko'rsatmalar to'plami hisoblanadi. O'quv me'yoriy xujjatlar tuzish va ularni amalga oshirish, o'quv jarayonida yuqori samaradorlik va natijaviy oqibatlariga erishish uchun o'quv jarayonining qudrat va potentsialini oshirishga imkon beradi. Shuningdek, o'quvchilarga boshqa me'yoriy vositalar bilan ta'minlashga nisbatan o'quv me'yoriy xujjatlarning ishlatilishi shakllanish va ishga tushirish jarayonini osonlashtiradi. O'quv jarayonida xujjatlar bilan ishlashni yanada samarali qilish uchun, o'qituvchilar, maktab muassasalarining boshqaruvi, va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishi zarur.

O'quv me'yoriy xujjatlar bilan ishlash va ijro intizomi o'quvchilarni o'z fikr-mulohazalarini ifodalash va ularni baholashda o'zini isbotlashda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning o'z o'quv yo'nalishi va qobiliyatiga mos keladigan xujjatlarni o'zlashtirishlari, ularning o'z faoliyatlarini mustahkamlashga, o'zlashtirilgan o'quv maqsadlarini erkin tanlashga, va o'quv jarayonining natijalarini oshirishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning o'ziga ishonch va o'zodlik hissiyatini oshiradi va ularga o'z vaqtida vaqtingizga mos keladigan usullarda o'zlashtirilgan maqsadlariga erishish imkonini beradi. O'quv jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun o'quv me'yoriy xujjatlar (OMX) muhim ahamiyatga ega. Bu xujjatlar o'quvchilar, o'qituvchilar, ma'muriyat va ota-onalar uchun maqsadli va to'g'ridan-to'g'ri o'quv jarayonlarini aniqlashga yordam beradi. O'quv me'yoriy xujjatlar bilan ishlash va ijro intizomi o'quv jarayonlarini oshirishda muhim qadam hisoblanadi. Ushbu maqolada o'quv me'yoriy xujjatlar bilan ishlash va ijro intizomini oshirishga oid olingan natijalar haqida gaplashamiz.

1. O'quv jarayonlari samaradorligini oshirish: O'quv me'yoriy xujjatlar o'quv jarayonlarini yaxshilanishiga yordam berish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishga imkon beradi. Buning natijasida o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalari yanada rivojlanadi va o'quv jarayonlariga qat'iylik bilan qatnashishlari oshiriladi.

2. O'quv jarayonlarini ta'minlash: OMX lar o'quv jarayonlari uchun mualliflar va o'qituvchilar uchun tayyorlovchi materiallar sifatida ishlatiladi. Ushbu xujjatlar maqsadli va ma'naviy-ma'rifiy qarorlarga muvofiqlik bilan tayyorlanadi va bu o'quvchilarga o'zlashtirishda yordam beradi. Natijada, o'quvchilar o'quv jarayonlarini samarali bajarishlari va fikr-mulohazalarni yuqori darajada ifodalashlari mumkin bo'ladi.

3. Ota-onalarni o'quv jarayonlari bilan ta'minlash: OMX lar ota-onalarni ham o'quv jarayonlariga o'quvchilarni yaxshi tayyorlashda yordam beradi. Bu xujjatlar ota-ona va maktab o'rtasidagi bog'lanishni mustahkamlash va oila a'zolarini o'quv jarayonlariga qatnashishda qo'llab-quvvatlash maqsadida foydalaniladi. Ota-onalar o'quv jarayonlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari bilan o'z foydalanishlarini yuqori darajada oshirishadi.

4. O'quv jarayonlarining monitoringi va baholashida o'quv me'yoriy xujjatlar muhim ahamiyatga ega: OMX lar o'quv jarayonlarini monitoring qilishda va baholashda yordam beradi. Bu, o'quv jarayonlari samaradorligini va natijalarini tahlil qilishga imkon beradi. Natijada, o'quv jarayonlari yangilanishi va mustahkam bo'lishi uchun kerakli o'zgartirishlar kiritiladi.

5. Maqsadli va muhim bilimlarni o'rgatish: OMX lar o'quvchilar uchun maqsadli va muhim bilimlarni o'rgatishga yordam beradi. Ushbu xujjatlar o'quvchilarni amaliyotga asoslangan maqsadli bilimlarni o'rgatishga tayyorlaydi. Bu esa o'quvchilarning ta'lim jarayonida qiziqish va qiziqarli bilimlarga qiziqishlarini oshiradi.

6. O'quv muhitini mustahkamlash: OMX lar o'quv muhitini mustahkamlash va yaxshilanishiga yordam beradi. Ushbu xujjatlar o'quv jarayonlari, darsliklar, qo'llanmalar, ta'lim vositalarini birlashtirishda va qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida o'quv jarayonlari o'quvchilarni samarali tahlil qilish uchun yaxshi o'quv usullariga asos soladi.

Maqolamizda ko'rsatilgan natijalar o'quv me'yoriy xujjatlarining o'quv jarayonlarini oshirish va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yuqori darajada oshirishga yordam berishini ko'rsatadi. O'quv muassasalari va maktablar o'quv me'yoriy xujjatlardan foydalanib,

o'quv jarayonlarini mustahkam va samarali qilish uchun o'z vaqtida va amalga oshirishlari tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Effective Classroom Management: A Teacher's Guide" - Tracey Garrett (Samarador o'qituvchi me'yoriy xujjatlar va talabalar bilan ishlash bo'yicha yordam beruvchi kitob)
2. "The First Days of School: How to Be an Effective Teacher" - Harry K. Wong, Rosemary T. Wong (O'qituvchilarga me'yoriy xujjatlar bilan qabul qilingan qo'llanma)
3. "The Skillful Teacher: Building Your Teaching Skills" - Jon Saphier (O'qituvchi me'yoriy xujjatlar va talabalarga qiziqarli va samarador ta'lim berish bo'yicha kitob)
4. "Classroom Instruction That Works: Research-Based Strategies for Increasing Student Achievement" - Ceri B. Dean, Elizabeth Ross Hubbell, Howard Pitler, Bj Stone (Talabalarning o'quv natijalarini oshirishda ishlaydigan me'yoriy xujjatlar va usullar)
5. "The Highly Engaged Classroom" - Robert J. Marzano, Debra J. Pickering (Talabalarni qiziqtirish va o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish uchun usullar)
6. "The Classroom Management Book" - Harry K. Wong, Rosemary T. Wong (O'qituvchilarga o'quv jarayonlarini samaradorlik bilan tashkil etishga yordam beruvchi kitob)

TANQIDIY FIKRLASHDA NAZARIY O'RGANISHNING SHART-SHAROITLARINI KASBIY MOSLASHTIRISH YO'LLARI

Xurramova S.M., TerDPI o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tanqidiy fikrlashda nazariy o'rganishning shart-sharoitlarini kasbiy moslashtirish yo'llari haqida batafsil ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nazariy, tanqidiy fikrlash, pedagogik texnologiya, o'rganish, kasbiy moslashtirish, ta'lim, jarayon, o'qitish, muammo, psixologik, tarbiya, metod.

Tanqidiy fikrlashda nazariy o'rganishning shart-sharoitlarini kasbiy moslashtirish yo'llari nazariy o'rganish oliy ta'lim muasasalari, xususan, pedagogika oliygohlaridagi tashkiliy-pedagogik, o'quv-metodik va moddiy-texnik shart-sharoitlar kasbiy moslashtirish jarayonida yetakchi omillardan ekanligini ko'rsatdi. Talabalarning tanqidiy fikrlashga o'rgatish jarayonida ularda turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi. Turli mazmundagi rang-barang fikrlar va g'oyalar yakka-yu yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning tanqidiy fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo'lgandagina talabalar xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanib, uning yordamida aniq va to'g'ri javobni topa olishadi.

Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'liq. Odatda, ular darsda sust tinglovchilar bo'lishadi. Chunki talabalarda o'qituvchi bilimli yoki ma'ruza matnida uning bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilim olishlariga o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining ma'sulligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni tanqidiy fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chog'dagina chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar.

Tanqidiy fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talabalarning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki, qayta ishlashni talab qilganda, tayyor andozalardan holi bo'lshi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalarga tegishli g'oyalarni mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri,

o`ziga taalluqli bo`lgan g`oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko`rsata olishi zarur. Talabalarning o`zlari ham o`z fikrlarining qadrli ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o`z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o`ta muhimligini, shuningdek, tanqidiy fikrlashda katta hissa hisoblanishini tan olishlari kerak.

Ma`lumki, tanqidiy fikrlash jarayonida axborotni tahlil qilish va izohlash, g`oyalarni tahlil qilishda o`rganilayotgan mavzularni o`z taxminiy rejalari bilan qayta tuzib chiqishga qaratilgan savollardan foydalaniladi. Bu masalalarni yechishda Senders ifodalari va Blum tizimli savollaridan foydalaniladi. Bu savollar turli sathdagi qiyinchilikda tanqidiy fikrlashning turli ko`rinishlarini ta`minlashda vosita bo`lib xizmat qiladi. Eslab qolishga xizmat qiladigan yoki formal sathdagi savollar eng quyi sathdagi savollarga taalluqlidir. Baholash yoki hukm chiqarish natijasida beriladigan savollarga tanqidiy fikrlashni ta`minlaydigan ikkinchi sathdagi savollar sifatida qaraladi [1].

Axborotlarni bir shakldan ikkinchi shaklga ko`chirish talabalardan uni transformatsiya qilishni talab qiladi. Ko`chirish savollari talabalarga o`rganayotgan, tavsiflagan va ko`rgan vaziyatlari, sahnalari hamda voqealarini o`zlari namoyish eta olishlari uchun beriladi. Ko`chirish savollari talabalarni axborotlarni qayta ishlash yoki boshqa shakllarga ko`chirishga ilhomlantiriladi. Talabalarda sezish, ko`rish (sensor) tajribasini yaratish, shundan so`ng esa boshqalarga o`z ko`rganlarini yetkazish uchun uni e`lon qilish zarur. Bu fikrlashgatortishning faol ijodiy jarayonidir [2].

Tatbiq qilishga qaratilgan savollar o`qish jarayoni yoki o`rganish tajribasida uchraydigan mantiqiy muammolarni yechish va chuqur o`rganish uchun imkoniyat beradi. Tahlil etishga qaratilgan savollar talabalardan u yoki bu voqeaning ahamiyati yetarli darajada yaxshi yoritilganmi-yo`qmi degan savolga javob berishga undaydi. Sintez qilishga qaratilgan savollar yangicha fikrlash asosida ijodiy muammolarni hal qilishga da`vat etadi. Sintez savollari talabalarga o`zining barcha bilim va tajiibalarini muammoning ijodiy yechilishida foydalanishga imkon beradi. Sintez savollari muqobil ssenariylar yaratishni ham taqozo qilishi mumkin. Baholash savollari yaxshi va yomon, adolat va adolatsizlik to`g`risida hukm chiqarish uchun beriladi. Baholash savollari talabalarga, axborotlar sifatini, yangi axborotlarga nisbatan o`z munosabatini baholay olish hamda ularni qadrlay olishi uchun beriladi.

«Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g`oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo`lgan oqibatlarini ham e`tiborga oladi. Bunda odam bu g`oyalarni dastlab ma`lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo`shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o`z nuqtai-nazarini ishlab chiqadi» [3].

Talabalar noxush holatlarga qarshi turishlari va ularga qaramasdan o`z fikrlarini amalga oshirishlari bilan bir-birlaridan farqlanadilar. Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda ularda tanqidiy fikrlashni paydo bo`lishini aniq sharoitlarini hisobga olib baholashni, har doim individ, shaxs, faoliyat sub`yekti sifatida nimaga qodir ekanligini ko`rsatadi. Talabalarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi mahalliy; assotsiativ-refleks va psixogen va sotsiogen bilan rivojlanadi. Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim, talabalar shaxsining aqliy harakatlari va o`z-o`zini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan; "kichik guruh" tizimi tamoyili asosida tashkil etilgan, shu jumladan mustaqil ish; o`quv materialini didaktik qayta qurish va muammoli-izlash, ongli ravishda kommunikativ o`qitish usullari orqali talabalarning faolligini faollashtirish; o`quv-tarbiyaviy, dunyoviy, umumta`lim, sinf-dars, insonparvarlik, ommaviy rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shaxsning tanqidiy fikrlash, refleksivlik, muloqot qilish, ijodkorlik, harakatchanlik, mustaqillik, bag`rikenglik, o`z tanlovi va faoliyati natijalari uchun javobgarlik kabi asosiy fazilatlarini rivojlantirishni o`z ichiga oladi. Xulosa qilganda tanqidiy fikrlashni o`qish madaniyatisiz shakllantirib bo`lmaydi, u axborot manbalarida navigatsiya qilish, turli o`qish strategiyalaridan foydalanish, o`qilgan narsani

adekvat tushunish, ma'lumotni ahamiyatiga ko'ra saralash, ikkilamchi axborotni "ekrandan chiqarish", yangi bilimlarni tanqidiy baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda talabalarni o'qishga o'rgatish va tanqidiy fikrlashni egallashlari muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Yangi axborotlarga duch kelar ekan, talabalar uni mustaqil ravishda baholashi, unga turli xil nuqtai-nazardan qarashi, undan o'z ehtiyoj va maqsadlari yo'lida foydalana olish imkoniyati to'g'risida xulosa yasay olishlari zarur. Talabalar kelajakda haqiqiy tanqidiy fikrlaydigan inson bo'lib yetishish uchun talabalar ijodiy fikrlab, o'zini sinab ko'rishi va bunga oid malakalarni egallashi zarur. Talabalarni haqiqatan ham dolzarb muammo haqida fikrlash imkoniyatidan mahrum qilib, balki ularni tezda faol o'ylash jarayoniga kirishishga va tajribada amalga oshirishga imkon beradigan texnologiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Tanqidiy fikrlash talabalarga hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib yetishga, jamoaning ochiq fikrini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Norboyeva S. Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish (metodik qo'llanma). – Termiz, 2021. – B. 20.
2. Кулюткин Ю.Н. Диалог как предмет педагогической рефлексии. – СПб.: СПбАППО, 2002– B. 38.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – B. 15.

МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМДА ТАЛАБАЛАРНИНГ РАҚАМЛИ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ("Умумий педагогика" фани мисолида)

Н.Исакулова, ЎзДЖТУ профессори

Аннотация. Мустақил таълимда талабаларнинг рақамли кўникмаларини ривожлантириш "Умумий педагогика" фанида таҳлил этилган.


Калит сўзлар: ўргатувчи тестлар, ФАҚ, водкаст технологиялари.

Олий таълим тизимида талабаларга рақамли технологияларни тақдим этиш рақамли кўникмаларни ўзлаштириш учун имкониятлар яратиш, таҳлилий ва танқидий фикрлашни ривожлантириш, келажакда зарур бўладиган кенг кўламли рақамли трансформация шароитида ёшларга билим ва кўникмалар бериш имконини беради. Масофавий таълим платформасини таълимнинг барча йўналишларида татбиқ этиш учун рақамли технологиялардан фойдаланишнинг умумий даражасини оширади, ўқув дастурларига доимий ўзгартиришлар киритини тақозо этади. Амалиётда рақамли кўникмаларнинг бошланғич, таянч, илғор ва профессионал даражалари маълум. Филологик ОТМ талабаларида эса рақамли кўникмаларнинг бошланғич, таянч даражаларини ривожлантириш мақсадга мувофиқдир.


Талабаларнинг рақамли кўникмалари қуйидагича ривожлантирилади:

1. Талабаларнинг индивидуал, психологик ва ёш хусусиятлари.
2. Таълим фаолиятини рақамли ва оммавий ахборот воситаларини жорий этиш контекстида ташкил этиш хусусиятлари.
3. Рақамли маданият, рақамли саводхонлик, рақамли компетенция, рақамли хавфсизлик, рақамли кўникма тушунчаларининг мазмун-моҳиятини аниқлаш.
4. Ўқитувчиларнинг янги ижтимоий талаблари.
5. Ўқитувчи рақамли саводхонлигининг таркибий қисмлари.
6. Ўқитувчининг рақамли саводхонлиги [6].

Ўргатувчи тестлар телеграмм каналида Quiz Bot, Mytest, Ispringig дастурлари асосида ишлаб чиқиш тавсия этилади. “Умумий педагогика” фанида “Умумий педагогика – таълим-тарбия назарияси. Умумий педагогиканинг илмий тадқиқот методлари” мавзусида 14 та саволдан иборат тест, “Ўзбекистонда таълим тизимини модернизациялаш жараёнлари ва унинг ҳуқуқий-меъёрий асослари. Таълим муассасаси менежменти” мавзусида 45 та саволдан иборат тест телеграмм каналида Quiz Bot орқали ишлаб чиқилди (1-2-расмларга қаранг):




1-расм. “Умумий педагогика – таълим-тарбия назарияси. Умумий педагогиканинг илмий тадқиқот методлари” мавзусида 14 та тест саволлари



2-расм. “Ўзбекистонда таълим тизимини модернизациялаш жараёнлари ва унинг ҳуқуқий-меъёрий асослари. Таълим муассасаси менежменти” мавзусида 45 та тест саволлари

“Таълим шакллари, методлари ва воситалари таснифи”, “Замонавий дарс типологияси ва унга қўйиладиган дидактик талаблар”, “Педагогик касбий компетентлик ва унга хос сифатлар”, “Педагогик маҳорат асослари ва унинг таркибий

қисмлари” мавзуларида тест саволлари Mytest дастури асосида ишлаб чиқилди (3-расмга қаранг):



3-расм. “Педагогик касбий компетентлик ва унга хос сифатлар” мавзусида тест саволлари

Модул-кредит тизимига кўра ўқув материални ўзлаштиришнинг муҳим қисми мустақил таълимга тўғри келади. Водкаст (Vodcast ot video-on-demand – талаб бўйича видеофайлдан иборат) подкаст билан бир хил, фақат видеофайллар билан ишланадиган қисм ҳисобланади. “Умумий педагогика” фанининг “Тарбия назарияси (Глобаллашув жараёнларининг тарбияга таъсири)”, “Миллий тарбия усуллари ва воситалари (Ёшларда илмий ва умуммаданий дунёқарашни шакллантириш зарурияти)”, “Ижтимоий педагогика амалий фаолият соҳаси сифатида (Ўзбекистонда ижтимоий педагогиканинг ривожланиш тарихи. Ижтимоий-педагогик тадқиқотлар)”, “Оилада соғлом маънавий муҳитни барқарорлаштириш. Мактаб ёшидаги болалар ва маҳалла билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият” мавзуларига оид водкаст технологияларидан кичик гуруҳларда фойдаланишга видеонинг электрон ресурслари тавсия этилди (1-жадвалга қаранг):

1-жадвал.

Видеонинг электрон ресурслари

№	Мавзулар	Гуруҳ	Видеонинг электрон ресурслари
1.	Тарбия назарияси (Глобаллашув жараёнларининг тарбияга таъсири)	1-гуруҳ	Globalashuv asoslari video - поиск Яндексa по видео (yandex.ru)
		2-гуруҳ	Axborotli olam muammolari va internet - поиск Яндексa по видео (yandex.ru)
		3-гуруҳ	Tarbiya 7-dars. Kitob donishmand - поиск Яндексa по видео (yandex.ru)
		4-гуруҳ	Tarbiya 8-dars. Muvafaqqiyat - поиск Яндексa по видео (yandex.ru)
2.	Миллий тарбия усуллари ва воситалари (ёшларда илмий ва умуммаданий	1-гуруҳ	Миллий кўғирчоқлар-муҳим тарбия воситаси - поиск Яндексa по видео (yandex.ru)
		2-гуруҳ	Munozara maydoni Миллий фильм ва сериаллар тарбия воситасими? [16.02.2021] - поиск Яндексa по видео (yandex.ru)

	дунёқарашни шакллантириш зарурияти)	3-гуруҳ	Do'stga Xiyonat #ibrat #tarbiya - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
		4-гуруҳ	Янгиликлар 24 Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштириш - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
3.	Ижтимоий педагогика амалий фаолият соҳаси сифатида (Ўзбекистонда ижтимоий педагогиканинг ривожланиш тарихи. Ижтимоий-педагогик тадқиқотлар)	1-гуруҳ	Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги ташкил этилди - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
		2-гуруҳ	Munosabat Тиббий-ижтимоий хизматларни ривожлантириш агентлиги фаолияти [04.10.2021] - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
		3-гуруҳ	Кексалар ва ногиронлиги бўлган шахслар учун интернат уйи ҳудудида "Кексалар боғи..." - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
		4-гуруҳ	Mening huquqim Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш [21.06.2022] - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
4.	Шахсни ривожланиши, ижтимоийла-шуви ва тарбиялаш масалалари (Ижтимоийлашув омиллари ва воситалари. Боланинг социумда ривожланиши)	1-гуруҳ	Кариялар уйи Humoyun Mirzo - Qariyalar Uyi - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
		2-гуруҳ	Глобал трансформациялар даврида янги авлодни тарбиялаш: муаммолар ва истиқболлар - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
		3-гуруҳ	Munosabat Ихтисослаштирилган мактаблар фаолияти ва таълим-тарбия сифатини ошириш... - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
		4-гуруҳ	Qarshi shahar 33-Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
5.	Оилада соғлом маънавий муҳитни барқарорлаштириш. Мактаб ёшидаги болалар ва маҳалла билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият	1-гуруҳ	"Online Mahalla" ахборот тизими - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
		2-гуруҳ	Otalar so'zi Эркатоё ўғил [14.02.2022] - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
		3-гуруҳ	Оилада жанжалларнинг сабаблари нимада? ОИЛА Психологияси курси - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)
		4-гуруҳ	Munozara maydoni Фарзанд камолотида мактаб ва оила ҳамкорлиги етарлими? [25.05.2021] - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)

“Тарбия назарияси (Глобаллашув жараёнларининг тарбияга таъсири)” мавзусида глобаллашув жараёнларига, “Миллий тарбия усуллари ва воситалари (Ёшларда илмий ва умуммаданий дунёқарашни шакллантириш зарурияти)” мавзусида тарбия мазмунидаги, “Ижтимоий педагогика амалий фаолият соҳаси сифатида (Ўзбекистонда ижтимоий педагогиканинг ривожланиш тарихи. Ижтимоий-педагогик тадқиқотлар)” мавзусида ижтимоий иш ходимларига, “Шахсни ривожланиши, ижтимоийлашуви ва тарбиялаш масалалари (Ижтимоийлашув омиллари ва воситалари. Боланинг социумда ривожланиши)” мавзусида боланинг социумда ривожланишига, “Оилада соғлом маънавий муҳитни барқарорлаштириш. Мактаб ёшидаги болалар ва маҳалла билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият” мавзусида оилага оид водкаст технологияларидан фойдаланилади.

Форум (Форум) – элементи узоқ вақт давомида фойдаланувчилар ўртасида мулоқотни ташкил этади. Форум модулини чат модулидан фарқи бўлиб, чат аниқ бир вақт мобайнида қисқа хабарлар орқали мулоқот ташкил этиш учун хизмат қилади. Форум эса чатга қараганда кенгроқ тушунча бўлиб, аниқ бир масала бўйича узоқ вақт давомида фойдаланувчилар ўртасида музокара олиб боориш имконини яратади. Музокара мобайнида фойдаланувчилар матнли ва графикли маълумотлардан фойдаланишлари мумкин. Форум янгиликларига аъзо бўлган фойдаланувчилар форум янгиликлари ҳақида доимий хабардор бўлиб туради. Форум хабарлари профессорўқитувчилари ҳамда талабалар томонидан ҳам баҳоланиши мумкин. Натижавий баҳолар журналига ёзилишида иккала гуруҳ аъзолари берган баҳолари бирлаштирилади. Форум элементидан қуйидаги ҳолатларда фойдаланиш мумкин:

талабалар бир-бирлари билан яқиндан танишиш учун очиқ мулоқот интерфейси сифатида;

курс эълонларидан (янгиликлар форумига аъзо бўлганлар учун) хабардор бўлиш учун;

курс мундарижаси ёки курс маълумотларини муҳокама қилиш учун;

шахсий учрашувларда ташкил этилган мулоқотни давом эттириш учун;

профессор-ўқитувчилар ҳамкорлик муҳитини ташкил этиш учун (яширин форум шаклида);

маслаҳат маркази учун (профессор-ўқитувчилар ва талабалар учун);

жумбоқ, ақлий ҳужум каби мавзулар доирасида муҳокама-мунозара олиб бориш мақсадида [7].

“Дидактика – таълим назарияси (Педагогик жараён. Таълим тамойиллари ва қоидалари)”, “Коррекцион педагогика (махсус педагогика) асослари”, “Инклюзив таълим педагогикаси. Ижтимоий педагогик фаолият методикаси ва технологияси” мавзуларида ФАҚ саволлар банкидан намуналар қуйидагича ишлаб чиқилади:

1) дидактиканинг олтин қоидаси нима?

2) педагогик жараёни тушунтира бера оласизми?

3) таълим тамойиллари таълим қоидаларидан фарқ қиладими?

4) коррекцион педагогика билан диагностик педагогиканинг ўзига хос ва фарқли хусусиятлари мавжудми?

5) инклюзив таълим нима?

6) ижтимоий педагогик фаолият деганда нимани тушунасиз?

7) ижтимоий педагогик фаолият методикасига мисоллар келтира оласизми?

Хулоса қилиб айтганда, талабаларнинг рақамли кўникмаларини ривожлантиришда “Умумий педагогика” мустақил таълимни лойиҳалаштириш талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Эссе ёзиш бўйича услубий тавсиялар. *Esse yozish bo'yicha uslubiy tavsiya*» BELLASHUV.UZ

2. Фақ Нима? Электрон ресурс: *Faq Nima? | Tarmoq xavfsizligi 2023* (internetdaybook.com). Мурожаат санаси: 21.09.2023.

3. Викторина. Электрон ресурс: *Viktorina — Vikipediya* (wikipedia.org). Мурожаат санаси: 21.09.2023.

4. “Кредит модуль тизими ва ўқув жараёнини ташкил этиш” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент, 2020. – 149 б.

5. «Оила» энциклопедияси / тузувчилар: Ф.Акрамова, З.Билолова, И.Жовлиев – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2019. – 2 4 0 б.

6. Хабдиева Светлана Руслановна ОСНОВНЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ // АНИ: педагогика и психология. 2022. №3 (40). URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-podhody-k-formirovaniyu-tsifrovyyh-navykov>
(дата обращения: 23.09.2023).

7. Электрон педагогика УМК.

JAMOANI BOSHQARISHDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK USULLARDAN FOYDALANIB TA'LIM SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Tursunboyev Sh., AndDPI 2-bosqich magistranti

Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullari - bu ishlab chiqaruvchi va ayrim shaxslarga ularning ijtimoiy ehtiyojlari va psixologik xususiyatlariga ta'sir etish bilan boshqarish vositasidir. Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullarini qo'llash korxonada yuz berayotgan ijtimoiy hodisalarni chuqur o'rganish xodimlar nerv tizimsi kayfiyatiga ta'sir etuvchi psixologik (ruhiy) omillarni bilishni talab etadi. Ishlab chiqarish sharoitida sotsiologiya kishilar ijtimoiy aloqasi shakllanishining asosi bo'lgan mehnat omillarini o'rganadi, ijtimoiy tizimlar, shu jumladan, ishlab chiqarish tizimi rivojlanishi va amal qilish qonuniyatlari, kishilarning jamiyatning turli qatlamidagi xulq-atvori qonuniyatlarini tadqiq qiladi. ijtimoiy psixologiya guruh va omma psixologiyasining xususiyatlari, ularning shaxsning ongi va xulqiga ta'siri, kishilar faoliyatini rag'batlantiruvchi omillar, kayfiyat, ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi omillarni o'rganadi. Shaxs psixologiyasi oliy nerv faoliyati turlari va inson temperamenti, xarakteri, shaxsning irodasi, qobiliyati, xissiyoti, xotirasi, anglash va xis etish qobiliyatini o'rganadi, mehnat psixologiyasi mehnat faoliyatlari, shu jumladan, rahbar va mutaxassislar (kasbiy xususiyat va qobiliyatlari, kadrlarni o'qitish usullari, ish va dam olish tartibi, kadrlarni tanlash va baholash usullari, mehnat jarayonining psixologik jihatlarini) faoliyatini o'rganadi.

Har qanday fan o'z predmeti, nazariyasi va uslublariga egadir. Predmet - bu fanning nima bilan shug'ullanishi, uning qaysi sohaga tegishli ekanligini belgilaydi. Nazariya esa bu sohada yuz beradigan jarayon va hodisalarning ro'y berish qonuniyatlarini aniqlaydi. Menejmentning predmeti - xo'jalik yuritishning barcha bo'g'inlarida boshqarishni tashkil etish mantiqi, shakllari, uslublarini ifodalovchi nazariy va amaliy tamoyillar majmuidan iboratdir. Menejment ham boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kabi o'zining bir nechta ilmiy tamoyillariga ega. "Inson munosabatlari" maktabi ushbu tamoyillar ichida alohida o'rin tutganligi bilan ajralib turadi. Menejmentda insoniy munosabatlar maktabini rivojlantirishda ikki olim - Meri Parker Follett va Elton Meyoni eng nufuzli insonlar deb aytish mumkin. Ayni miss Follett birinchi bo'lib menejmentni «boshqa shaxslar yordamida ish bajarilishini ta'minlash» sifatida aniqlab berdi.

Menejmentning asosiy mazmuni uning usullari orqali amalga oshiriladi. Menejment o'z tavsifiga ko'ra: iqtisodiy, tashkiliy-ma'muriy va ijtimoiy-psixologik usullarga bo'linadi. Ushbu usullar ishlab chiqarish jarayonida o'zaro bir-birini to'ldiradi. Ushbu usulning asosiy vazifasi ishlab chiqarishda har bir mahsulot birligiga sarflanadigan harajatlar miqdorini kamaytiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish va undan samarali foydalanishdir. Bunda psixologik treninglar ham muhim rol o'ynaydi, uni o'z o'rnida ishlatilsa yaxshi natijalarga erishiladi. O'zida "inson munosabatlari" maktabi tamoyillarini, ijtimoiy psixologiya hamda sotsiologiya fanlari nazariyalari jamlagan menejmentning ijtimoiy-psixologik usullarining asosiy vazifasi - jamoada sog'lom muhitni shakllantirish, uni boshqaruvchida ham, boshqariluvchida ham aksini toptirishdan iborat. Ijtimoiy-psixologik usullar "boshqarish sotsiologiyasi" va "boshqarish psixologiyasi" ga asoslanadi. Boshqarish sotsiologiyasi insonning ishlab chiqarish omillari bilan o'zaro aloqasi, jamoaning sotsial rivojlanishini rejalashtirish, mehnat jamoasini tarkib toptirish, xodimlarning tashabbusi va ijodiy faolligini oshirish kabi muhim muammolarni ko'pib chiqadi. Boshqarish psixologiyasi kishilarning boshqarish faoliyatlari xususiyatlarini va natijalarini aniqlashga xizmat qiladigan hodisalarni o'rganadi. U kadrlarni tanlashda, ularni joy-joyiga qo'yishda, topshiriqlarni, funksiyalarni taqsimlashda, xodimlarni rag'batlantirishda, intizomni mustahkamlashda va hokozalarda qo'llaniladi. Jamoani boshqarishda ijtimoiy-psixologik usullardan, treninglaridan foydalanish o'zining ijobiy samarasini bermay qolmaydi. Xodimlarga

rahbar tomonidan motivatsiya taqdim etish, ularni moddiy-ma'naviy rag'batlantirish, xar bir xodimning temperamenti, xarakteri, ehtiyoji va boshqa xususiyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, har qanday tashkilotning yanada ravnaq topishi uchun xizmat qilmay qolmaydi.

Rahbarga xos bo'lgan muhim xususiyat kishilar faoliyatini rag'batlantiruvchi omillarni yaxshi bilish, har bir kishini u yoki bu vazifani bajarishga qiziqтира olishdir. Bu ayniqsa, u yoki bu korxonaga ishga kirib, ularni kelajakda nima kutishini bilish lozim bo'lgan yoshlar bilan ishlashda muhimdir. Rahbar ishini kim, qachon, qaysi skripkani chalishi, qaysi asbobda musiqa chalishini o'rgangan, kim noto'g'ri chalishi mumkinligini, kimni qaysi yerga qo'yish kerakligini bilishi lozim bo'lgan dirijyor mehnati bilan solishtirish mumkin.

Kishi ruhiy xususiyatlarining u bajaradigan ish talablariga mos kelmasligi, o'z kasbidan qoniqmaslik uni o'zgartirishga harakat qilishga, xato qilish ehtimoli ortishiga va natijada mehnat unumdorligi pasayishiga olib keladi. Aksincha, agar inson o'z qobiliyatini to'liq namoyon qila oluvchi ish bilan band bo'lsa, u o'z mehnatidan mamnun bo'ladi, kasbni tez egallaydi va mehnat unumdorligi yuqori bo'ladi. Amaliyotda boshqaruv usullari tizimi doimo o'zgarib turadi. Masalan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor tizimiga o'tishda boshqaruvning iqtisodiy usullari rivojlangan. Bundan tashqari, ijtimoiy hayot va iqtisodiyotning demokratlashishi natijasida insoniy omillarning roli o'sganligi bois, ijtimoiy-psixologik omillarga ko'proq e'tibor qaratila boshlangan. Biroq, amaliyotda foydalaniladigan boshqaruv usullari, qoidaga ko'ra, majmuaviy bo'ladilar, ya'ni ular bir vaqtda iqtisodiy manfaat, ma'naviy va moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga oladilar. Bunda ayrim usullar aniq vaziyatlarda bir-birlarini to'ldirganday bo'lib, har xil omillarning boshqaruv ob'ektiga ta'sirini majmuaviy belgilashga imkon beradi. Bunday sharoitlarda turli darajadagi menejerlar boshqaruvning majmuaviy usullarini egallagan bo'lishlari, tanlovni to'g'ri bajarishlari va xuddi ushbu aniq sharoitlarda samaraliroq bo'lgan usullarni qo'llashlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qo'chqorov A., Toshmatov X., Isroilov J. Menejment strategiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston, 2003.
2. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. – T.: O'zbekiston, 2005.

TALABALAR FAOLIYATIDA PEDAGOGIK MUOMALANI RIVOJLANTIRISH SHART SHAROITLARI

Karimova N.X., O'zDJTU o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolaning maqsadi pedagogik faoliyatga va sharoitlarni modellashtirishga talabalar moslashishining omili sifatida pedagogik muomalani ko'rib chiqish hisoblanadi, bu talabalarni kasbga tayyorlash samarasini oshirish uchun oliy o'quv yurtlarida pedagogik jarayonni korrektirovka qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: talaba, muomala, pedagog kasbiy-pedagogik faoliyat, tizim, axborot, tajriba, qobiliyatlar, salohiyat.

Muomala – jamiyatshunoslik nuqtai nazaridan ayni paytda tarbiya va o'z o'zini tarbiyalash jarayoni. Haqiqiy insoniy muomala – ijod shakli bo'lib, u shaxsning eng yaxshi jihatlarini ro'yobga chiqarish va ochishda yordam beradi. Muomala boshqa insonning qadryatlarini hurmat qilish, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan oddiy ahloqiy qoidalar, odatlar va boshqalarga rioya qilishga asoslanadi. Psixologiyada muomala hamkorlikdagi faoliyat talablari bilan yuzaga keladigan, axborotlar almashish, yagona hamjihatlik strategiyasini ishlab chiqish, boshqa odamni qabul qilish va tushunishni o'z ichiga oladigan insonlar o'rtasida aloqalar o'rnatilishi va rivojlanishining murakkab, ko'p planli jarayoni sifatida ta'riflanadi. Yuqorida keltirilganlarni umumlashtirib e'tirof etish mumkinki, muomala quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- 1) odamlarning hamjihatligi;
- 2) shaxs statusi shakllanishining vositasi;
- 3) shaxs rivojlanishi omili;
- 4) axborotlar almashish jarayoni;
- 5) boshqa odam va o'zini tushunish vositasi;
- 6) shaxs ehtiyojlarini qondirish vositasi.

Muomala alohida shaxsning, shuningdek butun jamiyat rivojlanishida ulkan ahamiyatga ega. Insoniyat jamiyati va odamlar jamoasining rivojlanishi – murakkab dialektik jarayon. Jamiyat rivojlanishi bilan birga muomala imkoniyatlari ham kengayadi. Muomala muammosi – kompleks muammo, binobarin uni turli nuqtai nazarda ko'rib chiqqanda, uning inson to'g'risidagi zamonaviy fanni turli sohalariga daxldor ekanini kuzatish mumkin. Muomala tabiati, uning kelib chiqishi, uning ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik funksiyalari; kechishi va o'zgarishi mexanizmlari, faollashishi va korreksiyasi yo'llarini faylasuflar va jamiyatshunoslar (M.S.Kagan, I.S.Kon, B.D.Parigin); psixolingvistlar (A.A.Leontev); psixoterapevtlar (E.Bern, D.Moreno, K.Rodgers); pedagoglar (E.N.Ilin, A.V.Mudrik, N.D.Nikandrov); ijtimoiy psixologiya mutaxassislari (G.M.Andreeva, A.A.Bodalev, L.A.Petrovskaya, Yu.L.Xanin) o'rgangan.

Bizningcha, muomala muammosini birinchi galda psixologik tahlil qilish pedagog uchun ayniqsa muhim hisoblanadi. Sir emaski, psixologik fanda mazkur sohada to'plangan bilimlar bilan pedagoglarning hammasi ham tanish bo'lmagani ularda muomalani ongli tashkil qilishga urinishlarda qator holatlarda qiyinchilik paydo qiladi. Buyuk rus pedagogi K.D.Ushinkiyning o'qituvchilar va tarbiyachilarga qaratilgan: "... o'zingiz boshqarishni xohlaydigan psixik hodisalarning qonuniyatlarini o'rganing" da'vati bugungi kunda ham ilgarigidek dolzarb bo'lib qolmoqda.

Yaqin-yaqingacha psixologiyada inson rivojlanishida predmet faoliyati roliga asosiy e'tibor qaratildi. Bu predmet faoliyatining turi sifatida ta'limga ham tegishli, ta'limda predmet sifatida asosan bashariy madaniyat ob'ektlari, ma'naviy qadriyatlar, ilmiy g'oyalar, faoliyat usullari, xulq-atvor qoidalari va boshqalar namoyon bo'lgan. Shu bilan birga ijtimoiy va jamoa faoliyati hisoblanadigan o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil qilishda muomalaning roli munosib baholanmadi.

Hamkorlikdagi faoliyatning istalgan shakli "individlarning o'zaro... muomalasi"ni taqozo qiladi. Bu qoida ta'lim va tarbiya uchun ham adolatli hisoblanadi, ularda odamlarning birgalikdagi faoliyati muomalasi bilan taqozo qilingan, bunda odamlarning bir qismi ta'lim beruvchi (tarbiyalovchi), boshqa bir qismi esa ta'lim oluvchi (tarbiyalanuvchilar) hisoblanadi. Hamkorlikdagi faoliyatning barcha turlari uchun asosiy muomala mexanizmlari yagona bo'lgani uchun ularni yana ham batafsil ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi va buni boshlang'ich atamalarni ko'rib chiqishdan boshlash kerak.

Ilmiy adabiyotda "muomala" atamasi bilan birga "kommunikatsiya" atamasi ham keng qo'llanadi. Mazkur tushunchalarning aloqadorligiga oid turli nuqtai nazarlar bor. Muomalada uchta o'zaro bog'liq elementni: axborot almashish (kommunikativ element), hamjihatlik (interaktiv element) va o'zaro tushunish (pertsetiv element)ni ajratish mumkinligini hisobga olib, biz mazkur tadqiqot doirasida "kommunikatsiya" atamasiga nisbatan "muomala" atamasini ancha umumiy atama deb hisoblaymiz. "Muomala" atamasini navbatdagi tahlil qilish uchun uning "faoliyat" atamasi bilan aloqadorligini oydinlashtirish zarur. Psixologik adabiyotda bu tushunchalarning aloqadorligiga oid turlicha qarashlar bor. Aytish kerakki, "Nemis ideologiyasi" dayoq inson va insoniyat tarixiy rivojlanishining uch qismli tabiati to'g'risidagi fikr ta'kidlangan edi. Mehnat, ong va muomala yoki "insonning bir-biriga munosabati" bir-birini o'zaro taqozo qilgan holda rivojlanadi. Bu kategoriyalarning bittasini ham umumiy rivojlanish jarayonidan chiqarib tashlab bo'lmaydi: ong va muomala evolyutsiyasiz mehnat rivojlanmaydi; ongning rivojlanishi mehnat faoliyatining rivojlanishi, murakkablashishi, differentsiyasi va spetsifik asosiy muomala vositasi – tilning paydo bo'lishi bilan bog'liq;

nihoyat, faqat mehnat faoliyati rivojlanishi va ong evalyutsiyasi nuqtai nazaridan muomala rivojlanadi.

Ko'rsatilgan yondoshish manbai sifatida hamkorlikdagi mehnat bo'lishini taqozo qiladi, mehnat faoliyatining individual shakllari undan kelib chiqqan. Shunday yondoshilganda, mehnat rivojlanishi mantiqi ham, "moddiy muomaladan" uning oliy psixologik ixtisoslashgan shakllari tomon insoniy muomalaning paydo bo'lishi va rivojlanishi mantiqi ham tushunarli bo'ladi. Biz o'z tadqiqotimizda bir tomondan, muomalani faoliyat turlaridan biri deb hisoblaymiz, ikkinchi tomondan, muomala va predmet faoliyati (bizning holatimizda o'quv-bilish va kasbiy faoliyat) chambarchas bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. – М.: - Просвещение, 1984. – 208 с.

2. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. – М.: Наука, 1980. – 335 с.

3. Адаптация – важнейшая проблема педагогики высшей школы // Сов. педагогика, 1969. - № 3.

THEORETICAL FEATURES OF TEACHING SPEAKING VIA ONLINE CLASSES

Baxadirova Sh.N., ТошAFU тадкикотчиси

Abstract. This paper deals with certain prospects and possibilities involve in teaching speaking online- related aspects. Since, speaking skill is much required for all students regardless of their courses and aspirations, the importance of speaking skill as well as its most essential subskills have been presented in the outset. Most importantly, the role of technology in teaching speaking skills including supra segmental features such as stress, rhythm and intonation. Further, the presentation of various online resources including applications as well as various media like audio, video, text, animation and graphics.

Keywords: Speaking Skill, Online Teaching, Technological Resources for Speaking, ICT.

Speaking is the most basic part of communication and hence to be a good communicator one should speak competently and fluently, using appropriate grammar and vocabulary and apply proper social and cultural etiquettes apt to the situation. The goal of teaching speaking skills is to make the learner communicate effectively. Carol (2003) mentioned that the "technology is a force worthy of consideration, whether one wishes to focus on the technological potential, to examine pragmatic technology use, or to criticize both" (Carol, p.9). The activities used to teach speaking skills should balance between language input, structured output and communicative output. Some teachers feel under confident to in conducting activities due to various reasons. Teachers teaching in traditional methods put many efforts in teaching. Teachers can gain confidence by diverting these efforts into teaching communicative lessons. Some teachers feel that they do not hold complete control over class while conducting communicative activities that make them under confident. However, pre-planning can help teachers to channelize their class in goal-oriented direction. Teachers can take the challenge to prepare for a communicative as motivation.

Vocaroo (<http://vocaroo.com>): Through Vocaroo, students and teachers can record their voice and create voice files of any length. Students can share their voice files with others by creating and sharing a link or embed code on their respective websites. Shaikh (2013) strongly opined that ICT with its technological advancement is trying to overhaul the educational system completely; we are forced to sit up and take note of this development (Shaikh, 222).




Fig 1. Resources for Teaching Speaking Skills Online

Vocaroo is a free web based application and does not demand any registration. It works on any web browser. Google Hangouts (<https://www.hangouts.google.com/>): Conversation activities can be made lively using Google Hangouts. This application is available on computers, Android and iPhone devices. Thamarana (2016) stated that, “e- learning will only add value to the learning process if both staff and students alike approach it with a clear view of what is to be achieved (p. 62). Students can send photos and emoji while video chatting. This also has group video chatting option so students can do online group activities and presentations. AudioPal (<http://www.audiopal.com/index.html>): AudioPal is an online utility through which one can record audios and add them to their personal website. Through this application, students can be asked to record their assignments and upload them into the common website created by the teacher, for sharing and evaluation purpose. In AudioPal students can record their voice by phone or by using computer mic. In case, if the students do not know how to pronounce a word or a phrase then they can use the text-to- speech feature of this application where the application itself covertes the text typed into speech. According to Thamarana (2015) “to teach suitably the use of multimedia enables the teachers to have more flexibility and change while teaching (p.170). AudioPal is available free of cost and one need not have to register to use this app.

Voki (<http://voki.com>): It is a free application where teachers and students can create their own customised animated avatar which delivers the message. Students can create recording up to a minute in Voki. The audio recordings in Voki can be embedded into personal blogs or wikispace. English as a Second Language (ESL) Pronunciation Exercises Online (<http://www.englishmedialab.com/pronunciation.html>): this website gives free speaking activities and learning material to students. According to Brooks et al (2001), “A major advantage of the Internet is that teachers do not have to worry about software and hardware issues as much as in other situations” (Brooks, 32). Learners can access free video lessons to learn phonetics and other pronunciation related content. There are many online quizzes and intonation exercises available on website where students can self-assess their learning. Some of worksheets available are printable too so teachers can print them and distribute it among students in those classes where access to internet is difficult. “With the rapid development of science and technology, the emerging and developing of multimedia technology and its application to teaching, featuring audio, visual, animation effects come into full play in English teaching class and sets a favourable platform to reform and to explore on English teaching model in the new era (Thamarana 2015, p.169).

Skype: It is a well-known video chat and messaging app used by many. The students can register free in this application by using their email id or phone number. Students can video

chat with one another while performing tasks in pairs or groups. They can also interact with native speakers to improve their skills under teacher's guidance. WhatsApp (<https://www.whatsapp.com/>): WhatsApp is a free messenger used by over 1 billion users in 180 countries around the world. Meanwhile, "ICT based language learning allows for widespread classrooms that provide qualitative, quantitative, and economical advantages" (Thamarana 2015, p.232). Apart from sending text messages and sharing photos this application also has features of free calling, video chat and record and share audio messages. The registration for this app has to be done through personalised phone numbers. Students can do tasks by creating WhatsApp group from where they can take instructions and share their work. This application can be used on both mobiles and computers. The audio files can be created for any duration. These audio files are saved in form of MP3 audio clips, which can be uploaded to any websites.

Students speaking in their native language can be another challenge. To solve this, students can be given rewards to speak in English. Another kind of reinforcement is by assigning higher marks to students who speak more in target language. According to David Graddol, "It is the language at the leading edge of scientific and technological development, new thinking in economies and management, new literatures and entertainment genre." Time constraint is also a challenge before teachers. A good lesson plan can help in managing time and students can be asked to do preparations before the arrival of teacher helping to begin the activity immediately. Making passive or introvert students to participate actively in activities a challenge. This can be tackled by making students work in pairs, giving a define role to each member of the group and designing activities keeping in mind the interest of the students.

References:

1. Brooks David W., Diane E. Nolan, Susan M. Gallagher. Web-teaching: A guide to designing interactive teaching for the World Wide Web. Vol.9. Springer Science & Business Media, 2001.
2. Carol Chapelle. English language learning and technology: Lectures on applied linguistics in the age of information and communication technology. John Benjamins Publishing, 2003. Print.
3. Maria Stefanovna. Online resources for learning English. 2016
4. Hilary Schenker. Free Websites to Practice English at Home. 2020

ДИСКУРС КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР, ЁНДАШУВ ВА МЕТОД ТАҲЛИЛИ

Байбабаева Ш.И., ЎзДЖТУ катта ўқитувчиси

Аннотация: мақолада чет тилини ўқитишда педогогик технологиялар таърифи, тавсифи ва классификацияси берилган бўлиб, ҳозирги замонавий чет тилини ўқитишда инновацион педогогик технологиялар ўрни ёритилган

Калит сўзлар: технология, педогогик технология, ёндашув, метод

Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг "Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" 6097-сон фармонида кўра таълим тизимида инновацион хусусиятини таъминлаш бош мақсад этиб тайинланган, шунингдек, талабаларни ўз йўналишларида мутахассис бўлиб етишишларида асосий ўринни эгалловчи инновацион таълим технологияларидан фойдаланиш давлат сиёсати даражасида кўтарилди.

Инновацион педогогик технологиялар ҳақида сўз юритишдан аввал, ёндашув ва педогогик технологиялар ҳақида сўз юритамиз. Ёндашув яъни инглиз тилидаги "approach" термини фанга А.Энтони томонидан киритилган бўлиб, чет тили

хусусиятлари ҳамда уни эгаллашга қаратилган назарий асосдир [5; 107-б.] Турли олимлар ёндашувларни турлича классификация қилганлар. М.В.Лихвитский уларни тўрт турга, яъни бихейвиористик ёндашув, онгли-қиёсий ёндашув, когнитив ёндашув ва интеграллашган ёндашувларга бўлган бўлса, М.Н.Вятутнев 6 турга бўлади, грамматик, тўғри, бихейвиористик, ўқув, коллектив ҳамда коммуникатив-индивидуаллашган ёндашувларга бўлган. А.Щукин эса ёндашувларни уч гуруҳга бўлади, ўқитиш объекти нуқтаи назаридан ёндашув, ўқитиш йўли нуқтаи назаридан ёндашув ҳамда социокултурологик ёндашув [5; 107-б.].

Қуйидаги жадвалда А.Щукин томонидан классификацияланган ёндашувлар ўз аксини топган (1-жадвалга қаранг):

1-жадвал.

Чет тилини таълим беришда ёндашувлар классификацияси (А.Щукин назарияси асосида)

Таълим объекти нуқтаи назаридан ёндашув	Таълим йўли нуқтаи назаридан ёндашув	Социокултурологик ёндашув
<ul style="list-style-type: none"> • тил асосидаги ёндашув - тилга система сифатида қараш; • нутқ асосидаги ёндашув- мулоқотда тил бирликларини ўқитиш; • нутқ фаолиятига асосланган ёндашув 	<ul style="list-style-type: none"> • тўғри ёки интуитив ёндашув • онгли-қиёсий ёки когнитив ёндашув • фаолият асосланган ёндашуви 	<ul style="list-style-type: none"> • лингвокултурологик ёндашув: <ul style="list-style-type: none"> • тил фактидан маъданий фактга • маъданий фактдан тил фактига

Педагогик нуқтаи назардан ёндашувларга тўхталиб ўтадиган бўлсак, З.К.Исмаилова, Р.С.Мусаев, А.А.Шоюсуповалар ўз илмий ишларида уларни анъанавий ёндашув, прдуктив изланувчан ёндашув, тизимли ёндашув, технологик ёндашувларга бўлишади [2; 72-б.].

Келтирилган ёндашувлар ҳам ўз навбатида бир неча турларга бўлинади. Анъанавий ёндашувларга тушунтирув-тасвирий ва репродуктив ёндашув киради. Тушунтирув-тасвирий ёндашув ўқитувчининг ахборот беради, талабалар билимни қабул қилади ва хотирада сақлайди. Репродуктив ёндашув - ўқитувчи фақат баён қилиш билан чекланмасдан, маълумотни тушунтиради; олинган билимларни тўғри тиклаш бу репродукция бўлиб, кўп марта такрорлаш орқали таъминланади. Продуктив-изланувчан ёндашув -ўзлаштирилган билимларнинг намунавий масалаларини мустақил равишда ечиш билан тавсифланади. Тизимли ёндашувда мавҳумликдан аниқликка қараб бориш, анализ билан синтез. мантиқийлик билан тарихийликнинг бирлиги, объектнинг тузилиши, вазифалари ва келиб чиқиши ҳақидаги тасаввурларнинг бирлиги билан белгилинади. Таълимга технологик ёндашув маълумот технологиясини жорий этиш тактикасини ифодалаб, “педогог - моддий муҳит – талаба” функционал тизим қонуниятларига тегишли билимлар асосида қурилади. З.К.Исмаилова, Р.С.Мусаев, А.А.Шоюсуповалар педагогик технологияга қуйидагича тавсиф берадилар, педагогик технология бу - ўқув жараёнини технологиялаштиришни бутунлигича аниқловчи тизимли категория. Бунга қўшимча қилиб шуни айтиш керакки педагогик технологияда ўқув жараёнининг аниқлаштирилган ўқув мақсадларини белгилашдан, то якуний ўқув натижаларига эришганликни назорат қилишгача бўлган жараён лойиҳаланади. “Э.Френе «метод» тушунчаси эга бўлмаганлиги учун унинг ўрнига технология тушунчасини таклиф этган. Демак, ўқитиш технологиялари

(муаммоли ўқитиш, ривожлантирувчи таълим, модулли ўқитиш, дидактик ўйинлардан фойдаланиш ва ҳоказо) педагогик технология бўйича лойиҳаланган ўқув жараёнини амалга оширишнинг турли дидактик конструкциялари сифатида намоён бўлади”-деб таъкидлайдилар [2; 72-б.]. Юқоридаги фикрлардан келиб чиқадики, чет тилини ўқитишда педогогик технологиялардан фойдаланиш бу педогогик ёндашувлардан бири бўлиб, қуйидагиларни ўз ичига олади: Технологик жараён – инглиз тилини касбий эгаларини тайёрлаш жараёни ҳосил қилувчи технологик операцияларнинг йиғиндиси. Технологик операция – педогог томонидан ўқув жараёнида бажариладиган якунига етказилган ҳаракат кўринишидаги жараённинг бир қисми. Технологик харита – академик дарс жараёнининг технологик операциялар кетма-кетлигини баён қилувчи ҳужжат. Технологик режим - технологик операцияларни амалга оширишни белгиловчи тартиб бўлиб, академик дарс жараёнидаги операцияларнинг вақти, шарт ва шароитларини белгилайди [1; 160-б.].

Педогогик технология ҳақида чуқурроқ тўхталиб ўтамиз, “Технология” тушунчаси фанга 1872-йилларда кириб кела бошлаб, “хунар фани” деган маънони англатади ҳамда XX асрнинг 1970-йилларига келиб, ўқув жараёнларида ишлатила бошлади [3; 14-б.]. Юнеско томонидан берилган таърифга кўра, педагогик технология – таълим шакллрини оптималлаштириш мақсадида ўқитиш ва билимларни ўзлаштириш жараёнининг инсон салоҳияти ва техник ресурсларини қўллаш, ва уларнинг ўзаро таъсирларини аниқлашга имкон берадиган тизимли методлар мажмуасидир. Россиялик олим В.М.Монахов эса: “педогогик технология – аввалдан режалаштирилган натижаларга олиб боровчи ва бажарилиши шарт бўлган тартибли амаллар тизими” таъриф берган бўлса, В.П.Беспалко фикрича “педогогик технология- ўқитувчи маҳоратишга боғлиқ бўлмаган холда педогогик муваффақиятни кафолатлай оладиган ўқувчи шахсинишакллантириш жараёни лойиҳасидир.” Бир қатор олимлар, жумладан, М.В.Кларин, Н.Саидахмедов, М.Очиловлар педогогик технология терминини таърифлашда “лойиҳа” атамасидан фойдаланишган бўлишса, Ҳ.Омонов, Н.Хўжаев, Б.Фарберман, Д.Брунерлар таълим жараёни сифатида қараганлар [3; 17-20-б.].

Биринчи бу педогогикнинг талаба билан мулоқоти: мулоқотнинг вазифаси бу шахсни таниш, ахборот алмашиш, келгуси мулоқотни моделлаштириш ва таҳлил қилиш, мулоқотдан олинадиган тасаввур, мулоқот юзасидан фикр алмашиш, педогогик мулоқотни ташкил этиш техникаси ва технологияси, ишга ижодий ёндашиш билан ифодаланса, мулоқотдаги педогогик талаб хулқ атвор ва ижтимоий-маданий қоидаларнинг намоён бўлиши, педогог ва талабага бўлган ҳурмат ва талаб, педогог талабининг психологик мезонлари ва талаблари билан ифодаланади. Иккинчи бу педогогик баҳо ва уни мезонлаш- хатти ҳаракатлардан олинган таассурот, воқелик, объект ва субъектни қабул қилиш, баҳо бериш усуллари танлаш ва таҳлил қилиш билан ифодаланади. Учинчи элемент бу ахборотнинг таъсир этиши, нутқий ахборот бериш, нутқий таъсир этиш, демонстрацион ва кўргазмали таъсир этиш, қабул қилишнинг психологик ва физиологик ҳолати билан ифодаланади. Тўртинчи асосий элемент бу педогогик вазиятларни яратиш ва унга ечим топиш бўлиб, ҳолат таҳлили, конфликт, конфликт хилма-хиллиги, конфликтни ечиш шакллари билан ифодаланади [4; 30-33-б.]. Ҳ.Омонов, Н.Хўжаев ва бошқа бир гуруҳ олимлар педогогик технология таълим амалиётида урта даражада қўлланилади деган фикрни илгари сурадилар ва уларга умумий педогогик даража, хусусий педогогик даража, локал даража киради. Бу терминларга тасниф бериб ўтамиз.

Демак, умумий педогогик технология ўқув-тарбия жараёнининг яхлитлилиги, маълум бир ҳудуд, ўқв юрти томонидан узлуксиз таълим тизимининг муайян бир босқичидаги технологиянинг умумий қонуниятлари илмий-назарий асослари, амалиётда қўллашнинг умумий хусусиятлари, шарт-шароитларини ифодалайди. Унинг таркибига таълим тарбия, жараёнининг мақсад ва вазифаси, мазмуни, восита ва

методлари, тарбия жараёнининг объекти ва субъекти фаолиятининг алгоритмлари киради. Хусусий методик даражада педогогик технологиянинг муайян бир предмет, курсни ўқитиш жараёнининг мақсад ва вазифаларини амалга ошириш масадида фойдаланадиган таълим мазмун, ўқитиш воситалари, методлари ва шакллларининг мажмуаси тушунилади. Локал (модул) даражада ўқув тарбия жараёнининг маълум бир қисмининг хусусий дидактик ва тарбиявий мақсадини ҳал этишга қаратилган технология тушунилади. Унда талабаларнинг мустақил изланишларини ташкил этиш, улар билмини назорат қилиш, шахсий фазилатларни шакллантириш каби масалалар кўзд тутилади.

Фойдаланилаган адабиётлар рўйхати:

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси, 2006. – 160 б.
2. Исмаилова З.К., Мусаев Р.С. ва Шоюсупова А.А. Ўқитишнинг замонавий технологиялари. Ўқув қўлланма. – Т.: ТИМИ, 2010. – 72 б.
3. Ишмухаммедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педогог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Т: Истеъдод, 2008. – 180 .
4. Омонов Ҳ., Хўжаев Н. ва бошқалар. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Т.: Иқтисод-молия, 2009. – 238 б.
5. Щукин А. Методика преподавания русского языка как иностранного. Учебная пособия. – М.: Высшая школа, 2003. – 91 с.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Xodiyeva G. H., TAFU universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini oshirish, STEAM ta'lim texnologiyasining matematika darslaridagi ahamiyati, matematik bilimlarning amaliy hayotda qo'llanilishi, shuningdek, zamonaviy kasblarda matematika fanining ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM ta'lim texnologiyasi, zamonaviy kasblar, STEAM fanlari, matematik tafakkur, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, matematik masalalar.

Bugungi kunda butun dunyo raqamlashib, sun'iy intellekt hayotimizning katta qismini tashkil etmoqda. Shu sababli kelajak kasblari hozirgi zamon o'quvchilaridan maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini talab etadi. Zamonaviy kasblarni mukammal o'rganish uchun qanday yo'nalishda ta'lim olish kerak? Bolalarni qaysi fanlarga yo'naltirish ularning yangi dunyoning bir bo'lagi bo'lishiga yordam bera oladi? Bu kabi savollar bugungi kunda har bir zamonaviy o'qituvchining shoriga aylanib bormoqda. BMT prognozlariga ko'ra 2050 yilga borib kasblarining 75 foizi STEAM fanlariga aloqador bo'lishi kutilmoqda. Aynan mana shu tizim asosida ta'lim olish orqali o'quvchilar kelajak muammolariga yechim topa oladigan, yangi kashfiyotlar qila oladigan, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'sha oladigan, zabardast kadrlarga aylanishiga ishonilmoqda. Shu bilan birgalikda bugungi globallashuv jarayonlari o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda mukammal darajada foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etmoqda, bu esa STEAM ta'lim texnologiyasining qanchalik ahamiyatli ekanligini anglatadi. Binobarin, STEAM texnologiyasining asosiy ustuvorligi, shuningdek uning maqsadi olinayotgan bilimlarning amaliyotda darhol qo'llanishi va hayotga tatbiq etilishidir. Hech kimga sir emaski, matematika barcha fanlar asosidir. Aynan horigi raqamlashgan, sun'iy intellekt xizmatlari keng yoyilayotgan dunyoyimizni biz matematika, shuningdek aniq fanlarsiz also tasavvur eta olmaymiz. Matematika shunday tilki, qolgan barcha aniq va tabiiy fanlar shu tilda gaplashadilar. Biz qaysi zamonaviy kasblarning poydevorini o'rganmaylik, uning asl negizi

aynan matematika fani ekanligini guvohi bo'lamiz. Shu sababli boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilarning matematik bilimlarini mustahkamlash, ularning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish, ularda tanqidiy- tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, kreativ fikrlaydigan, jamiyat taraqqiyoti uchun hissa qo'sha oladigan yetuk kadrlarni jamiyatimizga yetkazib berish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan asosiy masalalardir. Matematika chuqur o'zlashtirgan o'quvchilar boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham katta muvaffaqiyatlarga erishishlari hech kimga sir emas, chunki matematika fani inson ongini charxlaydigan, fikrini teranlashtiradigan, aqliy shu bilan bir qatorda ijodiy tafakkurni rivojlantiradigan fandır. Shu sababli boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilarga matematika fanini mukammal o'rgatish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir.

STEAM ta'lim texnologiyasini tahlil qiladigan bo'lsak, texnologiya, muhandislik va matematika fanlarini o'z ichiga oladi va bu fanlarni yaxlit tarzda o'qitishni anglatadi va fan tili ingliz tilidir. STEAM ta'limi boshlang'ich sinfdanoq boshlanishi kerak. Biz dunyoning qaysi bir rivojlangan davlati ta'lim tizimini o'rganmaylik, ular aynan STEAM ta'lim tizimidan foydalanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ta'lim asosida o'quvchi dunyoda yuz berayotgan muammolarga yechim topishni o'rganadi. Ilm-fanni yaxshi o'zlashtirish o'quvchiga o'zini o'rab turgan atrof-muhitni yaxshi anglashga yordam beradi. Texnologiya fani asosida insoniyat kelajagi bo'lgan raqamli dunyoga moslashuvchan qiladi. Muhandislik bilan o'quvchi muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'rgangan bilimlarini yangi loyihalar yaratish uchun qo'llay oladi. Ushbu loyihalar esa jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Matematika esa ma'lumotlarni tahlil qilish, xatolarni tuzatish, to'g'ri yechimlar topish uchun kerak. Shu bilan birgalikda muhandislik, texnologiya fanlarining shuningdek, ular asosidagi loyihalarning poydavorini ham aynan matematika fani tashkil etadi. Chunki har bir loyiha yoki kashfiyot aynan aniq hisob-kitoblarga aoslangan bo'lishi kerak. STEM mana shu 4 ta yo'nalishni bir tizimga soladi va jamiyatga innovatsiyalar yarata oladigan, muammolarga barqaror yechimlar topa oladigan kadrlarni tayyorlab beradi. Bu fanlarni integratsiyalab o'qitilganda, o'quvchilarning "matematika" fani deganda faqatgina misol va masalalar yechadigan fan sifatida qarash tushunchalari o'rnini, endilikda, matematik bilimlar bilan qanday loyihalar va dizaynlarni amalga oshirish mumkin ekanligini shu bilan birgalikda matematik bilimlarni kundalik hayotga qanday tatbiq etish haqidagi tasavvurlar egallaydi. Bugungi raqamlashgan dunyoda raqamli texnologiyalarda matematika fanining ahamiyati haqida turli g'oyalarga ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida bo'lajak interyer dizaynerlari, zamonaviy IT hamda qurilish muhandislari, raqamli texnologiyalarning zamonaviy kashfiyotchilari uchun pillapoya vazifasini bajarib beradi. STEAM ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikani bir-biriga bog'liq holda yaxshi o'zlashtirgan, o'rganganlarini amaliyotda qo'llay oladigan, kompyuterda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, ham jamoaviy yaxshi ishlashni, ham mustaqil tashabbuslarni qoyillata oladigan kadrlar tayyorlaydi.

STEAM fanlarining ahamiyati shundaki, hozir bizga tegishli kasblarning ko'pi yaqin kelajakda avtomatik tarzda ishlaydigan robotlar tomonidan bajarilishi yoki butunlay keraksiz bo'lib qolishi mumkin. STEAM esa mana shu kelajakka mos kadrlar tayyorlab beradi. STEAM yo'nalishidagi kasblarda har bir fanni o'zlashtirish ahamiyatli. Masalan, arxitektor 10 qavatli bino loyihasini tayyorlash uchun matematik hisob-kitoblar va ilm-fanni yaxshi bilishi lozim. So'ng binoning maketini yaratish uchun muhandislik va texnologiyani ishlatishi kerak bo'ladi. Shu sababli STEAM ta'lim texnologiyasida o'qituvchi bu sohalarida chuqur zamonaviy bilimlarga ega bo'lishlari talab etiladi. O'quvchilar yangi matematik bilimlarni egallashlari bilan uni amaliy hayotda qanday sohalarida foydalanish mumkinligi haqida aniq tasavvurlarga ega bo'ladilar. Shu sababli matematika darslarida STEAM ta'lim texnologiyasidan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi yangi mavzuni o'qitish jarayonida ushbu bilimlar qaysi sohalarida ishlatilishi hamda bu bilimlarni jamiyatning qaysi yo'nalishlarida foydalanish mumkinligi haqida aniq va puxta bilimlar berilishi lozim. Matematika fanini boshqa STEAM fanlari bilan integratsiyalab o'rgatish jarayonida matematik masalalarni amaliy hayot bilan

bog'langan holda, 3D maketlaridan foydalanish yuqori dars samaradorligini ta'minlaydi. Bunda o'quvchilar masala sharti hamda unda qatnashgan detallar haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar.

Matematika darslarida o'quvchilarning matematik fikrlash tezliklari nihoyatda muhimdir. Chunki bir dars davomida o'quvchi mavzu bo'yicha berilgan matreallarni to'liq o'zlashtirmasa, keying mavzularni chuqur o'rganishda qiyinchiliklarga duch keladi. Matematika tizimli fan bo'lganligi sababli undagi mavzular bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Shu tufayli bugungi zamonaviy o'qituvchilar dars jarayonida turli zamonaviy metodlar va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bilan birgalikda o'quvchilarning matematik tezliklarini oshirishga ham katta e'tibor berishlari lozim. Ayniqsa, matematika darslarida o'quvchilar ikki amalli masalalar yechishda qiyinchilikka duch kelishmoqda va bu masalalar uchun o'quvchilar ko'p vaqt sarflashmoqda. Bu murakkab masallarni yechishda o'qituvchilar STEAM ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarni guruhlarga shakllantirib, ularni masalani birga tahlil qilgan holda yechishlarini ta'minlab berishi yuqori samaradorlikka ega. Bundan tashqari o'qituvchi boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar shartiga mos bo'lgan 3D maketlar hamda rasmi hikoyalar asosida o'quvchilar bilan birgalikda ishlasa, bu o'quvchilarning matematika fani hayotning qaysi sohalarida ishlatilishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khakimov S.R. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. - № 1(2). – P. 5-10.

2. Yunusova D.I. Oliy ta'limda matematika fanlarini o'qitish metodikasi moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T., 2016. – 397 b.

3. Ijtimoiy axborot ta'lim portal. <http://www.ziyonet.uz>

4. <http://inted.uz>

5. Ziyonet.

THE STRUCTURE OF A LINGUOCULTURAL CONCEPT

Turakulova D.M., UzSWLU

Annotation. Current article gives information about a concept in linguistics and it provides an overview of the structure of a linguocultural concept and introduces modern approaches to structure the concept which is becoming widespread in modern linguistics. Moreover, associative, figurative, value, etymological, value components are introduced.

Key words: concept, lexico-semantic field, linguoculturology, cultural concept, associative, figurative, etymological, value, component.

At present time, there is not clear and precise definition of the term “concept” as it covers wide range of areas at the same time such as cognitive science, semantics and linguoculturology. Many linguistics have been trying to have a research on this and define it more clearly. The well-known linguist A. Askoldov called the concept as mental formation which replaces for us in the process of thought and he considers that the concept can be a substitute for some aspects of the subject. He gave the word “justice” as an example for this which can be a substitute various kinds of mental functions like mathematical concept [1]. Russian linguist Arutyunova considers concept as a mental unit, an element of consciousness because human consciousness is accepted as the mediator between the real world and language. Any kind of cultural information enters the consciousness to be filtered, systemized and processed, as a consequence concepts form a kind of cultural layer which mediates between a person and the world [2].

Yu.E.Prokhorov highlights several approaches in defining concept in his monograph "In search of a concept". He clearly states the answers of linguists to the question what the concept is:

linguocognitive phenomenon (Kubryakova, 1996);
psycholinguistic phenomenon (Zalevskaya, 2001);
abstract scientific concept (Solomonik, 1995);
basic unit of culture (Stepanov, 1997);
linguistic and cultural phenomenon (Slyshkin, 2000; Karasik et al., 2001)" [6].

Regarding the concept as a linguocultural phenomenon within the framework of a new scientific discipline - linguocognitology - is defined in the works of several linguists such as V.A.Maslova, V.I.Karasika, G.G.Slyshkina, S.G.Vorkachev and others. According to them concept is a semantic formation which is marked by linguistic and cultural specificity. Besides that it characterized the carriers of a certain ethnic culture. As M.Heidegger stated the concept marks the ethnic linguistic picture of the world and it is a brick for the construction of the "house of being" [5].

Coming to the structure of the linguistic concept, there are wide range of research areas that defines this structure differently. Some scholars such as N.N Boldirev, Z.D.Popova, I.A.Sternin believe that the concept does not have a concrete structure to define and analyse whereas Yu.Stepanov, V.I.Karasik, S.G.Vorkachev, I.A.Sternin consider that the concept has certain components and structure. Due to the lack of agreement in the concept's definition, there is also a lack of consensus about the concept's organisational structure. Others point to the idea's complicated multi-level structure, while certain scientists generally dispute the presence of a structure in the Z.D.Popova and I.A.Sternin discuss the three fundamental structural idea elements of image, information content, and interpretation field.

The perspective that the concept is represented by semantic structures (of varying levels of complexity and abstractness) and units of the lexical system of the language forms the basis of the majority of contemporary linguistics' methods for determining the concept's structure. The existence of numerous qualitatively distinct components (layers, dimensions, components, levels, etc.) in the concept's structure is what gives it its multi-layered nature; the opinions of scholars merely differ in this respect as to the quantity and kind of the latter. One of the structural ideas of concept is described by Yu.S.Stepanov as having several layers since it includes:

1. The actual layer of the concept
2. Aspects that are already passive and historical
3. The inner form of the concept or an etymological feature

Another model was suggested by Russian linguist G.G.Slyshkin and according to his associative model of the concept, there is a constant nomination and renomination of objects, the introduction of new ones, and the loss of previous associative ties between linguistic units and nominated objects throughout the course of its functioning. With this method, the nominative density of the idea serves as the primary characteristic of the intra zone of the concept (the set of associations contained in the concept), while the primary characteristic of the extrazone (the set of incoming connections) serves as metaphorical diffuseness. Moreover V.I.Karasik also characterized the structure concepts of spritual values, conceptual and value components. The figurative component is interpreted by the author as "a trace of sensory representation in memory in unity with metaphorical transfers" ; conceptual component - as a "set of essential features of an object or situation and the result of their knowledge". As dominant with linguoculturological point of view of V.I.Karasik defines the value component, since it is more all culturally significant [3].

Next approach to modeling the structure of a linguocultural concept involves figurative, associative, conceptual, value, historical and etymological components. The internal form of the word, which serves as the primary representation of the concept, determines the

etymological component (or "etymological layer" in Yu.S.Stepanov's terminology) of the concept. The concept's etymological component acts as an extra source of inspiration for its value component. Next, thematic, paradigmatic, and syntagmatic dominating associative relations, in which idea language representations participate, make up the associative component of a concept. Since the conceptual and associative parts of a concept meet in some places, it is not possible to incorporate interpretations that are derived from the concept's dominating associative connections; nonetheless, its content does contain certain general aspects.

A mixture of conceptual metaphors obtained by a native speaker from the compatibility of the term that objects the idea in the language may also be included in the concept's figurative component. Lastly, the most important characteristics of the associative components of the concept, which are included in its structure on earlier stages of existence in the concept sphere of an ethnos and heavily influence its synchronous state, are contained in the historical component of the linguocultural concept. The figurative, value, and associative aspects of the linguocultural concept represent the national identity and are strongly influenced by its etymological component [4]. To conclude, Images, associations, notations, evaluations, etymologies, and historical elements are all considered to be part of the structure of a cultural concept. The evaluative and associative aspects of a cultural notion that are most indicative of its national distinctiveness are also heavily influenced by its etymological component. A cultural concept's primary associative relations-thematic, paradigmatic, and syntagmatic – between its linguistic representations make up its associative component.

Reference:

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология / Под ред В.П. Нерознака. – М., 1997.
2. Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка. Ментальные действия. – М.: Наука, 1993. С. 3–6.
3. Karasik V.I. Kulturnye kontsepty: problema tsennostey [Cultural Concepts: the Problem of Values]. Yazykovaya lichnost: kulturnye kontsepty [Language Personality: Cultural Concepts]. Volgograd, Peremena Publ., 1996, pp. 3-16.
4. Kononova I.V. Struktura i yazykovaya reprezentatsiya britanskoй natsionalnoy moralnoeticheskoy kontseptosfery (v sinkhronii i diakhronii). Dis. ... d-ra filol. nauk [The Structure and Language Representation of the British National Moral and Ethical Conceptual Sphere. Dr. philol. sci. diss.]. – Saint Petersburg, 2010. 361 p.
5. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – М., 2007
6. Прохоров Ю.Е. В поисках концепта. – М., 2008.

ХОРИЖЛИК ТАЛАБАЛАР МОСЛАШИШ МУАММОСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Аваязова Д.Ш., Урганч ДУ мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Ушбу мақолада хорижлик талабаларнинг янги муҳитга, университетдаги таълим жараёнига мослашишида учрайдиган муаммоли ҳолатлар, ижтимоий-маданий ва психологик тўсиқлар, бу борада олиб борилган тадқиқот ишларидан намуналар келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: таълим, педагогик тизим, ташқи муҳит, талаба, ижтимоий-маданий мослашув, жамият, ҳуқ-атвор меъёрлари.

Бугунги кунда ҳар бир замонавий университетларнинг олдида турган муҳим вазифалардан бири, таълим олиш учун хорижлик талабаларни кўпроқ жалб қилиш ва бу борада кўп маданиятли таълим тамойилларига мурожаат қилиш, хорижлик

талабаларни ижтимоий-психологик, педагогик қўллаб қувватлашда халқаро тажрибадан фойдаланишдир.

Хорижлик талабаларнинг университетдаги ахборот ва таълим муҳитига мослашишларида бошдан кечирадиган қийинчиликлари маҳаллий талабалар мослашуvidан мазмунан фарқ қилади. Мослашиш деганда кўп омилларни ўз ичига олган жараён тушунилиб, талабанинг ҳаётнинг ўзгарувчан шароитларига, таълим муҳитига, уни қабул қилаётган жамиятнинг талаблари ва шартларига кўникиши, мослашиш учун ўз устида ишлаш амалиётини тушунишимиз мумкин. Талабанинг таълимдаги муваффақияти мослашиш жараёнининг қанчалик яхши ўтишига боғлиқдир.

Бу борада амалга оширилган тадқиқотларни таҳлил қиладиган бўлсак, хорижий тадқиқотчиларнинг асарларида асосан АҚШ, Россия, Англия, Австралия, Ҳиндистон, Германиядаги хорижлик талабаларнинг ижтимоий-маданий фарқларга нисбатан мослашуvidаги муаммолар очиб беришга ҳаракат қилинганлигини кўришимиз мумкин. Чунки хорижий талабаларнинг асосий оқими шу давлатлар ҳиссасига тўғри келади.

Т.Т.Капезинанинг тадқиқотларида Россия олийгоҳларида хорижлик талабаларнинг таълим олишларидаги муаммолар [1; 130-б.], М.А.Иванова, Н.А.Титкова, В.П.Трусова, Н.Д.Шаглина хорижлик талабаларни ўқув гуруҳига мослаштириш муаммолари ва гуруҳнинг психологик иқлимини ўрганиш [2; 22-б.], О.А.Ямшикова хорижлик талабаларни ўқитишнинг педагогик-психологик жиҳатлари [3; 91-б.], М.А.Иванова ва Л.П.Цоколь хорижлик талабаларни миллий-психологик хусусиятлари ва уларни педагогик мулоқотда инобатга олиш бўйича [4; 12-б.] ўз тадқиқот ишларини олиб борганлар. Талабалардаги мослашиш жараёнини шартли равишда уч босқичга бўлиш мумкин.

Биринчи босқич профилактика босқичи бўлиб, бунда талаба мамлакатга келишдан олдин амалга оширилади ва асосан мамлакат ҳақида маълумот олинади. Шунингдек, абитуриент томонидан университет жойлашган мамлакат, жамиятнинг меъёрлари, қадриятлари ҳақида маълумотлар тўпланиб, янги тил, ижтимоий-маданий ҳаёт, ахборот-таълим муҳитига киришиб кетиш учун вазиятни тўғри баҳолай олиш ва мақбул хулқ-атвор тактикаси ишлаб чиқиш каби вазифалар амалга оширилади. Мослашув манбаи бўлиб, талабанинг ўзида ёки у билан муносабатлар фониди юзага келган муайян ижтимоий-маданий ва таълим муҳити ўзгариши билан боғлиқ янги эҳтиёжлар хизмат қилади. Иккинчиси бошланғич босқич бўлиб, мамлакатда бўлишнинг дастлабки биринчи оғи билан боғлиқ бўлса, учинчи асосий босқич мамлакатда қолиш ва таълим олишнинг кейинги барча вақтларини ўз ичига олади [5; 29-б].

Хорижлик талабаларни ўқув фаолиятига мослаштиришда профессор-ўқитувчиларнинг роли катта бўлиб, дарсни ташкил қиладиган ўқитувчи, хорижлик талабани ўқув жараёнига тез ва қулай киришиб кетиши учун ўз вақтида педагогик ёрдам кўрсатиши даркор [6; 212-б.]. Ўқитувчи янги келган талабаларга ўқув жараёнида ҳам, кундалик ҳаётда ҳам юзага келадиган муваффақият ва муваффақиятсизликлар сабабини тушунишга, мавжуд маданий ва тарихий тажриба туфайли, уларга ўз имкониятларини тўғри баҳолай олишларига имкон беради.

Шунингдек, хорижлик талабаларнинг ўқув жараёнига мослашиш даражаси, ўқув фаолиятида юзага келадиган муаммоли вазият, қийинчиликлар, талабанинг ўқув предметига нисбатан қизиқиши ва мотивацияси каби омиллар билан белгиланади. Хорижлик талабалар таълим олиш фаолиятида дуч келадиган ва ўқув жараёнига салбий таъсир қиладиган тилни тушунмаслик, академик, ижтимоий, психологик тўсиқларни келтириш мумкин. И.И.Проколова ва А.В.Федосеева тадқиқотларида келтирилишича, Россия университетларида таълим олаётган хорижлик талабалар мослашиш жараёнидаги асосий муаммо сифатида тил тўсиқини тан олишади ва олийгоҳларга ўқишга келган талабаларнинг аксарияти ўзлари ўқийдиган тилни умуман билишмайди.

Лекин амалиёт шуни кўрсатганки, хорижлик талабалар ўқиш охиригача рус тилидан талаб даражасида билимларга эга бўлишади [7; 128-б.].

Академик мослашув хорижий талабаларнинг билимларни тақдим этишнинг янги ёндашувларига, ўқув жараёнини ташкил этишга, чет тилида ўқув маълумотларини идрок эта олиш қобилиятига мослашиш билан боғлиқ қийинчиликларни белгилайди. Талабалардаги психологик қийинчиликлар бир қатор ноқулай ҳиссиётлар билан биргаликда келади, бу талабаларнинг ўқув фаолиятига ҳам, маҳаллий талабалар билан бўладиган муносабатларига ҳам халақит беради. Шунингдек, хорижлик талабалар ўз ватанларини тарк этиб, олдин уларда мавжуд бўлмаган хаддан ташқари эркинликка дуч келишади. Ҳаддан ташқари бўлган эркинлик ҳам талабанинг хатти-ҳаракати ва фаолиятига салбий таъсир қилиши мумкин. Хорижлик талабалар мослашишда дуч келадиган ижтимоий қийинчиликлар унинг иродавий фазилатлари, атроф-муҳитдаги воқеликни идрок этиш қобилиятига боғлиқ. Агар талаба янги тажриба, ҳар қандай вазиятни, чет эл маданияти ва хулқ-атвор қоидаларини қабул қилишга тайёрлик, мустақил ишлай олиш каби хусусиятларга эга бўлса, ижтимоий мослашиш жараёни осонлик билан содир бўлади [8; 9-б.].

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, хорижлик талабаларнинг университет таълим муҳитида муваффақиятли ижтимоий-маданий ва академик мослашувида асосий кўмак берувчи профессор ўқитувчилар учун хорижлик талабалар билан зарур ижтимоий муносабатларни шакллантиришга қаратилган мулоқот бўйича услубий тавсиялар ишлаб чиқиш лозим. Хорижий тилда таълим олиш талабадан ўша давлат тилини ўзлаштириш, қабул қилувчи мамлакат турмуш тарзи ҳаётий қоидаларини қабул қилиш ва тушунишга мослашишни талаб қилади ва бу ўз навбатида истиқомат қилаётган мамлакат воқелигига нисбатан адекват фикрлаш тарзини шакллантиришнинг энг муҳим шарти ҳисобланади. Шу боисдан, хорижлик талабаларни қабул қилувчи университетларда тилни осон ўрганиш бўйича тил дастурларини ҳам яратиш асосий масала ҳисобланиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Капезина Т.Т. Проблемы обучения иностранных студентов в российском вузе // Наука. Общество. Государство. 2014. № 1(5). С. 129–138. URL: <https://e.lanbook.com/reader/journalArticle/309740/#1> (дата обращения: 07.12.2017).
2. Иванова М.А., Трусков В.П., Шаглина Н.Д. Анализ описательных моделей адаптации иностранных учащихся. Деп. в НИИ ВШ 18.12.85, № 1164
3. Ямщикова О.А. Актуальные проблемы обучения иностранных студентов в России: психолого-педагогический аспект // Сибир. психол. журн. 2005. № 21. С. 89–93.
4. Иванова М.А. Социально-психологическая адаптация иностранных студентов к высшей школе России: автореф. дис. ... д-ра психол. наук. СПб, 2001. 40 с.
5. Одинокая М.А., Шередекина О.А. Проблемы адаптации иностранных студентов в условиях российского вуза. *Teaching Methodology in Higher Education*. 2019. Vol. 8. №. 30. DOI: 10.18720/HUM/ISSN 2227-8591.30.02
6. Одинокая М.А., Карпович И.А. Современное состояние проблем адаптации российских преподавателей на начальном этапе работы в вузе // *Азимут научных исследований: педагогика и психология*. 2019. Т. 8. № 1 (26). С. 211-214. DOI: 10.26140/anip-2019-0801-0053
7. Прокопова И.И., Федосеева А.В. Лингвистическая игра как форма организации общения иностранных учащихся с носителями языка на начальном и среднем этапах обучения русскому языку // *Язык, культура и профессиональная коммуникация в современном обществе: материалы VI Междунар. науч. конф. 20– 25 мая 2017 года.* – Тамбов. 2017. – С. 126–132.

8. Yuan R., Li S., Yu B. Neither “local” nor “global”: Chinese university students’ identity paradoxes in the internationalization of higher education // Higher Education. 2019. 77(6), P. 963– 978. DOI: 10.1007/s10734-018-0313-7 ISSN: 00181560.

TALABALAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TA’LIM MUHITIDAN FOYDALANISH METOD

Turayev Q.N., TerDU katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada talabalar ma’naviyatini rivojlantirishda axborot ta’lim muhitidan foydalanish metodikasini takomillashtirish haqida keng ma’lumotlar batafsil, izchil, ketma-ket yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: talaba, ijtimoiy-iqtisodiy, iste’dod, metodika, ta’lim, ma’naviyat.

XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aqlzakovati va ma’naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo’lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosidagi huquqiy, demokratik davlat erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida qabul qilinmoqda. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida ta’lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilinishi milliy g’oya fani zimmasiga juda katta ma’suliyatli ulug’vor vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma’naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklanishi ularni zamon ruhi talabi bilan uyg’unlashtirib faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb etilib qolmasdan umumjahon ma’naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ulkan hissa bo’lib qo’shilmog’da. Insonning dunyoga kelishi, faqat tug’ilishidan iborat tabiiybiologik hodisa emas, balki tug’ilgandan keyin o’z zamonasining taraqqiyoti darajasiga ko’tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o’z o’rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi, ya’ni tarbiya olishi kerak. Bu jarayonda katta avlod o’zining yashash, kurash va mehnat tajribasini, bilim va malakalarini kichik avlodlarga bera boshlaydi, ya’ni yangi tug’ilgan odam bolasining rivojlanishi, shakllanishi va voyaga yetishi jarayoniga rahbarlik qilingan, boshqarilgan. Jamiyat rivojlangan sari yetuk, barkamol shaxslarni yetishtirish ehtiyoji ham ortib borgan hamda o’zgarib, yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan. O’zbekiston Respublikamizdagi mustaqil huquqiy, demokratik erkin davlat, fuqarolik jamiyatini qurish yo’lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uni o’zligini anglashda imkoniyatlarni ro’yobga chiqarishga va ma’naviy intellektual aqliy malakaviy rivojlanishi uchun yangi shart-sharoitlar yaratib beradi.

Talabalar ma’naviyatini rivojlantirish-talabalarni iste’dodlarini shakllantirishda, pedagogik muloqotni rivojlantirish, kommunikativlik kompetensiyasini yuksaltirishda kasbiy tarbiyaning ahamiyati beqiyos o’rin tutadi [2]. Darhaqiqat, yoshlarning ilm dargohlarida o’z madaniyati, aql-zakovati, yurish-turishi, qanday xislatlarga ega ekanligi oilada olgan tarbiyasining ifodasidir. Iqtisodiyot, fan va texnika taraqqiyotida ma’naviy-axloqiy omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Inson dunyoning butun sir-asrorlarini bilishga qodir bo’lmasa-da, Haq yo’lida haqiqatni kashf etib yashashga qodir. Shaxsni o’z-o’zini anglash va o’z-o’zini bilishga bo’lgan ehtiyoj o’z-o’ziga bo’lgan ishonchni orttiradi. O’z vijdoni, oilasi va jamoasi oldida hamisha ochiq yuz bilan hisob bera oladi. Ma’naviy-axloqiy va ruhiy poklik shaxsning tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi asosiy mezon vazifasini o’taydi. Shaxslararo munosabatdagi andishasizlik, dag’allik, qo’pollik, bir-birini ko’ra olmaslik, savodsizlik, kibr, baxillik, ichi qoralik, ziqnalik, yolg’onchilik, ig’vo, adovat, g’iybat, manmanlik va hasad kechirib bo’lmaydigan umuminsoniy illat hisoblanib, uni bir gap bilan, ma’naviy-axloqiy nopoklik, deb yuritish mumkin. Milliy qadriyatlarimiz ulug’vorligining o’ziga xos belgisi sifatida ma’naviy-axloqiy yetuklikka ko’plab misollar keltirish mumkin.

Birgina mutasavvuf donishmand, yurtparvar shoir Hoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyoda ilk tasavvufiy tariqat Yassaviya»ning asoschisi, nafaqat Xuroson va Movarounahr, balki

turkiyzabon xalqlarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojiga ulkan hissa qo'shgan yetuk inson sifatida tanilgan. Ozodlik va yurtparvarlik yo'lida fidoyilik namunasini ko'rsata olgan, nafaqat o'z xalqining, balki umuminsoniy va umumbashariy qadriyatlarni e'zozlagan buyuk vatandoshlarimiz, o'zbek farzandlari - Shiroq, To'maris, Mahmud Torobiy, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Dukchi Eshon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosirlarning mustaqillik, erk va erkinlik, ma'rifat yo'lidagi ulkan jasoratlari, milliy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizning oliy namunasidir.

Talabalarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishning ma'naviy-axloqiy asoslari ana shu safarbarlikda, o'zini bag'ishlay olishda, o'z tashvishi bilan emas, o'z g'alar dardi, xalq va Vatan dardi bilan yonib yashashida. Pedagog faoliyati uning faol harakati, tashkilotchiligi bilan cheklanishi mutlaqo mumkin emas. Pedagogning kasbiy tarbiyaviy faoliyatiga xos fidoyilik, ya'ni o'z bilimi va tajribasini yoshlarning farovon hayot yo'lini belgilab berishga yo'naltira olsa, alloma G'azzoliy tabiri bilan aytganda, haqiqiy ustozlik maqomiga ega bo'ladi. Ustoz-murabbiy chinakam donishmand darajasidagi inson hisoblanadi. Demak, har qanday ilmi, bilimli, tajribali odam ham donishmand bo'la olmas ekan. Ta'kidlash joizki, qadim-qadimlardan mo'tabar zaminimizda yashab kelgan alloma va mutafakkir ajdodlarimiz ham barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi ma'naviy-axloqiy qarashlari jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirishda, shuningdek, rahbar kadrlar va yosh avlodni axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalarning mehr va ardog'iga, ko'magiga muhtoj bo'ladi. Farobiyning ta'kidlashicha: "Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi. Shuningdek, alloma aqlni ma'naviy-axloqiy kamolotga erishishning eng asosiy vositasi deb aytadi. "Har bir inson boshidan komil emas, ammo tug'ma ravishda o'ziga xos bo'lgan ichki shuuri ila bosqichma-bosqich komillikka jiddu-jahd bilan intiladi. Ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Unib-o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida mustahkam hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish maqsadida vatanparvarlik tarbiyasi sohasida mohiyat e'tiboriga ko'ra noyob tizim yaratilib, hozirgi kunda uning doirasiga mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari qamrab olinmoqda. Yoshlarimizning axborot bilan ishlash, axborot qidirish, turli yolg'on ma'lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish, do'stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishni o'rganish kabilar asosida axborot madaniyati shakllanadi. Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchi aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda axborotlarni tahlil qila olish, axborotdagi asosiy xabarni ujratishtirish, aloqaning yo'nalishini, uning yashirin ma'nosini to'g'ri tushunish, qisqa qilib aytganda, har qanday axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'limning barcha bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogikasida mediata'lim tushunchasi asosiy o'rinlardan birini egallasada, mediata'limga aniq tavsif berilmagan. Hozirgi kunda, mediata'lim resurslaridan butun dunyoda keng foydalanilmoqda YUNESKO tashkilotining 1982-yil Germaniyaning Gryunvald shahrida, 1997-yil Parijda, 2002-yil Ispaniyaning Sevilya shahrida o'tkazilgan konferensiyalari rezolyutsiya va tavsiyalarida mediata'lim masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Bugungi kunda mediasavodxonlik [3] Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilsa, Finlyandiyada 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritilgan. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik mediata'lim tushunchasi bilan almashtirildi [3]. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. 1990-yillarda Rossiyada mediata'lim bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. 2002-

yilda pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun mediata'lim ixtisosligi bo'yicha yo'nalish ochildi. Shuningdek, 2005-yil YUNESKO homiyligida «Mediata'lim darsligi yaratildi va Rossiyada kinota'lim va mediapedagogika sayti ishga tushirildi Mediasavodxonlik alohida bir fan sifatida kiritilmagan bo'lsada, Respublikamiz umumta'lim maktab-larida ham mediata'lim elementlari «Adabiyot», «Tarix», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari», «Informatika» va «Musiqqa fanlari tarkibiga singdirilgan holda o'qitilmoqda.

Umuman, ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri - yosh avlodga zamonaviy bilim berish bilan birga, ulami mustaqil fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarini e'zozlovchi, yuksak insoniy fazilatlariga ega vatanparvar inson sifatida tarbiyalash hamda yoshlar ongida turli mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning: zamonaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan, xususan, Internetdan foydalanish, axborotlarni tahlil etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish muhim masala hisoblanadi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga Internetdan foydalanish uchun ko'plab vaqt ajratar ekan. Biroq bugungi kun talabiga ko'ra esa, zarur axborot va ma'lumotlarni keraksiz va yaroqsiz, soxtalaridan ajrata olish, ya'ni mediasavodxonlikka ega ho'lish zarurati yuzaga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hoshimov O.O., Tulyaganov M.M. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. B.96
2. Фаронов В.В. Турбо Паскал 7,0 Начальный курс. Учебное пособие. – М.: Ноллидж, 1999. – С. 29
3. Urdushev X., Raximov A., Boychaqayev M., Qalandarov R. Microsoft Windows XP va Microsoft Office XP da ishlash. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamQXI, 2007. – 47 b.

МЕТАЛИНГВИСТИК КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ТИЛ МАШҚЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШ

Д.Валикулова, ТДПУ изланувчиси

Аннотация. Мазкур маколада металингвистика ва металингвистик функцияси тушунчалари, ҳамда металингвистик кўникмаларни шакллантириш асослари кискача ёритиб берилган. Металингвистик кўникмаларни ривожланитришда машқларни тавсия этилган.

Калит сўзлар: металингвистик кўникмалар, металингвистик ёндашув, металингвистик функция, чет тиллари, машқлар.

Мақтаб ўқувчиларининг билими ва кўникмаларини шакллантириш, уларни миллий ҳамда умуминсоний қадриятларга содиқлик руҳида тарбиялаш, ўқитувчи касби нуфузини ва педагогларнинг сифат таркибини ошириш, дарсликлар ва ўқув методик мажмуаларни замон талаблари асосида такомиллаштириш, мактаб таълими муассасаларининг халқаро стандартларга жавоб берадиган замонавий моделларини барпо этиш мақсадида, шунингдек, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясини «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид давлат дастурига мувофиқ Миллий дастур тасдиқланган. Педагог кадрлар ҳамда ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларини баҳолаш натижалари бўйича аниқланган бўшлиқлардан, шунингдек, ота-оналар, экспертлар ва бошқа шахсларнинг таклифларидан келиб чиқиб, Миллий ўқув дастурини доимий равишда такомиллаштириб борилиши белгиланган [1].

Ўқувчиларда металингвистик кўникмаларини ривожланитриш учун металингвистика, металингвистик кўникмалар, металингвистик ёндашув, металингвистик функция каби тушунчаларни аниқлаштириш талаб этилади.

Металингвистика тушунчаси лингвистика, психоллингвистика, когнитив психология ва ривожланиш психологияи фанларида қўлланилиб келмоқда. Психология ва психоллингвистика фанида металингвистика (масалан, металингвистик жараёнлар, металингвистик ривожланиш ва б.) тил билан боғлиқ фикрлаш, хабардорлик ва акс эттириш (мета) жараёнларини англатади. Бу тил билан боғлиқ когнитив жараёнларда қўлланилади.

Металингвистик кўникмалар – бу тилни бошқариш учун ишлатиладиган қоидаларни тушуниш ҳисобланади. Тилни ривожлантиришнинг муҳим жиҳати талабани тил ва унинг таркибий қисмлари тўғрисида хабардор қилишга қаратишдир [2].

Шу билан бирга чет тилларини информатсион, тизимли ёндашувларда ўрганиш керак. Бугунги кунда ҳар қандай ўқув фанларини ўрганишда фанлараро ёндашув қўлланилгани каби кўп тилли парадигма чет тилларини ўқитиш соҳасида долзарб бўлиб қолади. Илмий мақсадларда биз турли тил тизимларидаги фарқларни аниқлаш учун интиламиз. Чет тилини ўрганиш ёки ўқитиш жараёнида тил янги ўрганилган тилни она тили ёки бошқа чет тилига умумий ўхшашалик хусусиятларига асосланилади. Кўриниб турибдики, ўхшашлик принципага мувофиқ киритилган лексика яхши ва самарали қабул қилинади, масалан,

naturlich (нем.) – naturally (инг.) – naturalmente (итал.);
 compliziert (нем.) – complex (инг.) – complesso (итал.);
 liberty (инг.) – liberta (итал.) – libération (фран.) ва б. [6].

Тадқиқотга металингвистик ёндашув фақат тилнинг мазмун томонини ўрганиш мақсадида қўлланилади. Натижада нутқ тузилиши ҳақида тушунча пайдо бўлиб, унинг масаласи ҳиссий тажрибадан ташқарида ўрганилади [5].

Одатда тилнинг металлингвистик функцияси сўзнинг маъноси, унинг маълум бир контекстдаги маъноси талаффуз қоидаларида ишлатилади [4].

Металингвистик кўникмалар тилни тартибга солувчи бир қатор қоидаларни, шунингдек уларнинг мантиғини тушунишни талаб қилади. Мутахассис Patrik Хартвелл ўқувчилар учун ушбу қобилиятларни ривожлантириш ва хусусан, фонологик онгни ошириш муҳимлигини таъкидлайди, чунки бу саводхонликнинг муҳим омили ҳисобланади [3].

Она тили, инглиз тили ва рус тилларида металингвистик кўникмаларни ривожлантиришда машқларни тавсия этамиз.

Odd one out

Find the word where stress is placed on the wrong syllable.

- a) PArent, QUIet, SELdom, Embrace
- b) OBject, numBER, adMIT, PENcil
- c) DESTroy, BELong, aLONG, HOUse
- d) moDEL, SINger, TEAcher, CREdit
- e) BLANket, floWER, aMAZing, ACtor
- f) STUdent, DIStance, SISter, hosPItal

Matching

Match the words with their definitions.

Words

- Measure
- Determine
- Resent
- Catch
- Discount
- Ache

Definitions

- Sale on the price of a good
- Getting angry with someone for a situation
- Capture an escaping person or animal
- Bad situation felt after a coup
- To determine the specific features of a concept by explaining
- Unit used to evaluate a quantity

Accident

Filling the gaps

Fill the gaps with the adjectives

annoying, new, true, tasty, favorite, last, raw

How many food items are in a supermarket? Thousands? Millions? How many have you tried? If you're like me, probably way less than even one percent. Every time I shop, I go to the same aisles and buy the same things. Yet, for as long as I can remember, I've told others (this is called "unasked-for advice," which is universally (1) but still, universally practiced), "You should always buy a (2) food item every time you shop. Even if you don't like it, at least you're wiser for it". I don't practice what I preach because I don't want to end up eating something that's only so-so, when I could be eating an old standby that's tried and (3) — and (4)! But experimenting pays off. I recently took a chance on a new potato chip. Not much of a "chance," of course. How can you mess up Potato + Salt? I bought a bag of Grandma Utz's Handcooked Potato Chips. They're now my (5) chip, even though they're "cooked in lard," per the label on the back.

On the other hand, I can't remember the (6) time I tried any new produce. My problem with trying new produce is (1) I don't know whether it's fruit or vegetable and (2) I don't know how to prepare it, or even if you need to prepare it. Maybe you can just eat the whole thing (7). Supermarkets should have primers with color photos "explaining" their produce. Think about it: if you'd never seen anyone eat banana before, would you know what to do with it? (Try it. You like it! Electronic resource: <https://eslyes.com/blog/blog/blogs007.htm>. Access date: 04.09.23).

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. 2022-2026 йилларда мактаб таълимини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президенти ПФ-134-сон Фармони. 2022 йил 11 май.

2. Металингвистика. Электронный ресурс: Metalinguistics - Wikipedia (turbopages.org). Дата обращения: 20.06.2023.

3. Металингвистика (психология). Электронный ресурс: Металингвистика (психология) (frpedia.wiki). Дата обращения: 20.06.2023.

4. Металингвистическая функция. Электронный ресурс: 30 примеров металингвистической функции - Энциклопедия - 2023 (kouraresidence.com). Дата обращения: 20.06.2023.

5. О металингвистике. Электронный ресурс: О металингвистике | Языковая Картина Мира в обрeз | Дзен (dzen.ru). Дата обращения: 20.06.2023.

6. Панов А.В. Особенности формирования металингвистического сознания индивида при изучении нескольких иностранных языков // Преподаватель XXI век. 2019. №2-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-formirovaniya-metalingvisticheskogo-soznaniya-individa-pri-izuchenii-neskolkih-inostrannyh-yazykov>. Дата обращения: 25.06.2023)

7. Try it. You like it! Electronic resource: <https://eslyes.com/blog/blog/blogs007.htm>. Access date: 04.09.23.

БАТАН КОНЦЕПТИ ХУСУСИДА МУЛОҲАЗАЛАР

Шодиева Ш.И., ЖизДПУ ўқитувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада Ватан концепти асрлар давомида миллий ўзига хосликни сақлаб келаётган мавзу сифатида бадий адабиёт анъаналаридан ҳисобланиши хусусида фикр юритилади.

Калит сўзлар: перцептив ҳаракат, коммуникатив мақсад, тамаддун, лингвомаданий ҳамжамият, концептофера, поэзия.

Кейинги вақтларда тилшунос олимлар томонидан концепт термини кўп қўлланилмоқда. Тилшунос С.Боймирзаеванинг таъкидлашича, воқеликда кечаётган ҳодисалар, мавжуд бўлган предметларни инсон томонидан идрок этилиши ва улар ҳақидаги ахборотни бошқа шахсга узатилиши мукамал жараёндр. Ҳар бир концептда миллий хусусиятлар бўртиб туради. Бу жараённинг илк босқичида перцептив (қабул қилиш) ҳаракатлар бажарилса, кейинги босқичларида эса мантиқий таҳлил ҳаракати бошланади ва, ниҳоят, шу таҳлил асосида туғилган тушунча – концепт лисоний воқеликка кўчади. Зеро, воқелик ҳақида туғилган тушунча ва концепт даставвал тафаккурда, инсон онгида шаклланиб, кейин ижтимоий ҳодиса – матнга айланади [1]. Олиманинг фикрларини мулоҳаза қиладиган бўлсак, инсоннинг олами ўз сезгилари орқали идрок қилиши унинг тасаввурида маълум образларнинг юзага келишига замин яратади. Бу образлар лисоний қобиққа ўтиб, тушунчага, яъни концептга айланади. В.А.Маслова концептларни қуйидагича гуруҳларга бўлиш мумкин деб ҳисоблайди: 1) олам-макон, вақт, сана, ватан, туманли тонг, қишки шом; 2) офатлар ва табиат- сув, олов, дарахт, гуллар; 3) инсон ҳақидаги тасаввурлар – янги руслар, зиёли, даҳо, тентак, телба, дайди; 4) ахлоқий концептлар – виждон, уят, гуноҳ, ҳақиқат, самимийлик; 5) ижтимоий тушунча ва муносабатлар – озодлик, ирода, дўстлик, уруш ва бошқ.; 6) эмоционал концептлар– бахт, қувонч; 7) инсон меҳнати маҳсули олами– ибодатгоҳ, герблар тарихи уйи, анъанавий предметлар (қўнғироқ, шам ва бошқалар); 8) илмий билимлар концептофераси – фалсафа, филология, математика ва бошқа шу кабилар; 9) санъат концептосфераси – архитектура, мойбўёқ, мусиқа, ўйин ва шу кабилар [3]. Олимнинг фикрича, “Маданиятнинг калит концептлари деб биз унинг, алоҳида лисоний шахслар учун, шунингдек, лингвомаданий ҳамжамиятга яхлит мавжудлик аҳамиятига эга бўлган олам манзараси ядровий (таянч) бирликларини атаймиз [3]”. Олим маданиятнинг калит концептлари бўлган *виждон, тақдир, қарз, гуноҳ, қонун, озодлик, зиёлилар* каби мавҳум отлар қатори *Ватан* концептини ҳам қайд этиб ўтади [3]. Кўринадики, у ёки бу концептнинг намоён бўлишида ядро калит сўзларнинг шаклланишига хизмат қилади. Бадий адабиётда мавҳум отлар калит сўз сифатида у ёки бу маънони ифодалаш имконини яратади. Калит сўзлар қандай концепт доирасида амал қилишига қараб ўз синонимлари, антонимларига эга бўлиши ва матнда турли маъно нозикликларини англатиш вазифасини бажаради.

Ватан концепти асрлар давомида миллий ўзига хосликни сақлаб келаётган мавзу сифатида бадий адабиёт анъаналаридан ҳисобланади. Тамаддун ривожланиб боргани сари инсон борлиғи мароми тобора тезлашади ва бу ҳол унинг ўсиб бораётган поэтиклигида акс этади, чунки поэзия барча даражаларда маромга эга бўлган нутқ, мусиқа ва маънонинг қўшилиб кетишидир [5]. Алишер Навоий ижодида Ватан концепти ўзининг мукамал тавсифига эга бўлган. Навоий ўзининг “Садди Искандарий” достонида Ватан ҳақида “Ватан таркини бир нафас истама, Яна ранжи ғурбат ҳавас истама” мазмунидаги панд-насихат тарзидаги мисраларни битади [6]. Навоий фикрича, ҳеч бир зарурат, ҳавас, орзу, ҳаттоки у фотиҳлик ғалабаси бўлсин, ватанни тарк этишга арзимаиди. Навоий ватандан айрилиқда ранж ва алами кўради. Шоир фикрини давом эттириб Сафар меҳнати жовидони дурур, Нединким сақардин нишони дурур... Сафар азми дўзахқа сонидурур, Ватан ҳубби имон нишонидурур [6; 471]. -дейди. Навоий Ватандан айирадиган сафар машаққатларида дўзах азобини кўради. Шоир бу ўринда “дўзах” маъносини билдирувчи “сақар” сўзининг “сафар” сўзи билан ёзилиш нуқтаи

назаридан ҳам жуда яқинлигини назарда тутати. Шунингдек, у мазкур байтга машҳур “Ватанни севмоқ иймондандир” ҳадиси шарифнинг мазмунини сингдириб, ватанни севиш иймон нишони эканлигини эслатади [2]. “Табиийки, ҳар қандай нутқнинг асосий мақсадларидан бири тингловчи ёки ўқувчи онгига таъсир этишдан иборат. Бу мақсадни амалга оширишда эса нутқнинг муайян бир сифати эмас, балки барча коммуникатив сифатлари у ёки бу даражада иштирок этади. Зотан, тўғри ёки аниқ бўлмаган, бой ёки мантиқий бўлмаган, соф ёки жўяли бўлмаган нутқнинг таъсирчанлиги ҳақида гапириб бўлмайди. Лекин айтиш пайтда нутқнинг таъсирчанлигини таъминлашда ифодалилик сифатининг алоҳида, ҳатто ҳал қилувчи ўрин тутишини таъкидламоқ жоиз [4]”.

Бобур ижодида ҳам Ватан концепти муҳим ўрин тутати. “У адабиётимизга реал ва конкрет Ватан образини олиб кирди. Тўғри, ўзбек шеърлярида Бобургача ҳам Ватан тимсоли бор эди. Бироқ агар салафлар ижодида Ватан тушунчаси умуман тириклик, истиқомат қилиш, рўзғор тушунчаларини ифодалаган бўлса, Бобур ватан деганда, фақат Самарқанд ёки Андижонни эмас, умуман Туркистонни тушунди. Ўз асарларида унинг портретини суратлади, пировард натижада, Ватаннинг бадиий образини яратди.

Бобур идрокида диёру ёр тушунчалари ўзаро қоришиб кетади:

*Кўндин бериким, ёру **диёрим** йўқтур,*

Бир лаҳзаю бир нафас қарорим йўқтур.

Ватандан жудо бўлгач, унинг образи энди шоир шеърларида соғинч мазмуни орқали ўз ифодасини топади:

Кабутар, элтасен хаттим, не бўлғай гар қабул этсанг,

Кўнгулни боғласам ул нома янглиғ зарру болингға.

Ёки:

Қовун бирла узумнинг ҳажрида кўнглумда ғам ҳар сув,

Оқар сувнинг фироқидин кўзумдин ҳар дам оқар сув.

Шоир ватандан жудоликка чидай олмайди, кўника олмайди, бир куни яна ватанга қайтишига ишонади.

*Ўз **ерни** қўйиб Ҳинд сори юзландим,*

Ё раб, нетайин, не юз қаролиғ бўлди.

«Бобурнома» асаригаги ўнлаб қайдларда ҳам Ватан тимсоли гавдаланади:

*Бормоққа не **маскан** муяссар,*

*Турмоққа не **давлат** муқаррар [9].*

“Мусофир бўлмагунча, киши мусулмон бўлмас”. Ватанда туриб уни тасаввур қилиш, ҳис этиш, унинг тимсолини мукамал кўра билиш, туйиш даргумон. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ватандан олисда, мусофирликда унинг тимсолини яхлит тасаввур этди, кўрди, унинг меҳрини, қадрини теран ҳис этиб идрок қилди. Ватан, диёр, ёр ҳажрида, соғинч дардида кўз ёш тўккан бўлса керакки бу ҳолат унинг шеърларида яққол намоён бўлган [9]. Бобурнинг ғазал, маснавий рубоийларида Ватан, ёр-диёр мавзуси салмоқли ўрин тутати. У ўз она юртидан йироқда бўлса ҳам туғилиб-ўсган диёрига, ватанига бўлган соғинчли муҳаббат, унга етишиш орзуси доимо қалбини изтиробли туйғуларга чулғаб туради. Шунинг учун ҳам шоир ижодининг асосий мавзуси она Ватан соғинчи бўлиб қолади [8]. Ватан ҳақидаги шеърларда, аввало, шоирнинг ички кечинмалари соф ва табиий туйғулари ва муҳаббати самимий ифода этилиши лозим. Шунинг учун бўлса керак, ватан ҳақида ёзилган минглаб шеърлардан бармоқ билан санарлиги халқ орасида шуҳрат қозонган [7]. Минглаб йиллар мобайнида шеърят, асосан, инсон туйғуларига таъсир кўрсатиш воситаси саналгани учун ҳам унинг мусиқийлиги, оҳангдорлиги ва жарангдорлигига алоҳида эътибор берилган

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Боймирзаева С. Модалликнинг матнкоммуникатив мазмунига мослиги. Раҳматулла Қўнғуровнинг илмий мероси ва ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. – 104 б.
2. Зоҳидова Д. Навоий ижодида Ватан мавзусининг бадиий талқини. Филологиянинг умумназарий масалалари: Респ. илмий-амалий анжуман материал. – Тошкент, 2020. – 274 б.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений. – М.: ИЦ «Академия», 2001. – С.75-76.
4. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 163 б.
5. Михаил Эпштейн. Юксак поэзия ва алп одам. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/mihail-epshteyn-yuksak-poeziya-va-alp-odam>
6. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 11-том. Садди Искандарий. – Т.: Фан, 1993. – 468 б.
7. Пардаев З.А. Истиқлол даври шеърлятида халқона пафоснинг янгилиши: Дис. ... филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). – Тошкент, 2020. – 114 б.
8. <http://marifat-ziyo.uz/news/boburijodining>
9. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/xosiat-bekmirzayeva-bobur-va-ijodi-haqida-maqolalar.html>

КОПИНГ-ПОВЕДЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аскарова Г.У., преподаватель ТГПУ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретический анализ психологических особенностей копинг-поведения у молодежи в процессе цифровой трансформации в системе образования. Актуальность нашего изучения копинг-поведения молодежи обусловлена тем, что процесс учебы сопровождается переживанием различных стрессовых ситуаций.

Ключевые слова: копинг-поведение, адаптация, совладающее-поведение, цифровая трансформация, учебный процесс.

В течении всей жизни человек, независимо от возраста, сталкивается с различными трудностями. Эти трудности связаны не только с проблемами развития и возрастными кризисами, но и с обыденными жизненными ситуациями. Человеку требуется знание о способах и умение эти способы применять для преодоления повседневных трудных ситуаций, условиях и возможностях, необходимых для реализации своих усилий. Это знание приходит по мере взросления и накопления определенного жизненного опыта. Поведение, направленное на преодоление трудных жизненных ситуаций, в психологической науке принято обозначать как совладающее или копинг-поведение.

Понятие «копинг» происходит от английского «to cope» – («справляться, преодолевать»). Термин «копинг» (англ. coping) впервые упоминается в психологической литературе в 1962 г. при изучении преодоления детьми кризисов развития. Р. Лазарус описал копинг как стратегию совладания с тревогой и стрессом. Сегодня копинг-стратегии описываются как осознанно используемые человеком приемы совладания с кризисными ситуациями, состояниями. То есть, копинг-стратегии есть совокупность различных поведенческих приемов, меняющиеся попытки в когнитивной и поведенческой областях справиться со специфическими внешними или

внутренними требованиями, которые оцениваются как чрезмерные или превышающие ресурсы человека [1].

Student Team Learning (STL, обучение в команде) состоит в том, что педагог сначала объясняет новый материал, а потом предлагает студентам в группах его закрепить. Формируются несколько малых групп студентов, которым предоставляется определенное задание и необходимый учебный опорный материал. Задание выполняется либо по частям (каждый выполняет свою часть), либо по «верхушке» (каждое последующее задание выполняется следующим студентом). При этом выполнение любого задания объясняется вслух определенным студентом и контролируется всей группой. Успех или не успех всей группы зависит от индивидуальной ответственности каждого ее члена. После завершения задания всеми малыми группами педагог организует или общее обсуждение работы над этим заданием разными группами (если задание было одинаково для всех групп) или рассмотрение задания каждой группой, если задания были разные. После обсуждения вопросов, когда педагог убеждается, что материал усвоен всеми студентами, он дает тест на проверку понимания и усвоения нового материала. Тест студентами выполняется индивидуально вне группы. Оценки за индивидуальную работу суммируются в группе, и выставляется общая оценка. Таким образом, и сильный и слабый студент могут принести группе одинаковые баллы. Этот вариант метода обучения в сотрудничестве сводится к трем основным принципам:

а) «награды» команда получает одну на всех в виде балльной оценки, какого-то поощрения, значка отличия, похвалы или других видов оценки совместной деятельности. Для этого необходимо выполнить предложенное для всей группы одно задание;

б) индивидуальная ответственность каждого студента означает, что успех или неуспех всей группы зависит от удач или неудач каждого ее члена. Это стимулирует всех членов команды следить за деятельностью друг друга и всей командой приходить на помощь своему товарищу в усвоении и понимании материала так, чтобы каждый чувствовал себя готовым к любому виду тестирования, контрольной проверке, которые могут быть предложены педагогом любому студенту отдельно, вне группы;

в) равные возможности каждого студента в достижении успеха означают, что каждый студент приносит своей группе очки, которые он зарабатывает путем улучшения своих собственных предыдущих результатов. Это дает равные возможности продвинутым, средним и отстающим студентам в получении очков для своей команды и стимулирует желание поднимать выше свою персональную «планку».

Следующим методом обучения в сотрудничестве, которую можно использовать при изучении иностранного языка является «Ажурная пила». Организация образовательного процесса с использованием данного метода осуществляется следующим образом. Студенты делятся на малые группы по 4-6 человек для работы над учебным материалом, который заранее разбит на фрагменты (блоки, модульные элементы). Каждый член группы находит материал по своей части. Дальше студенты, изучающие один и тот же вопрос, но состоящие в разных группах, встречаются и обмениваются информацией как эксперты по данному вопросу. Это называется «встречей экспертов». Затем они возвращаются в свои малые группы и обучают всему новому, что узнали сами, других членов группы. Те, в свою очередь, предоставляют информацию по своей части задания (как зубцы одной пилы). Студенты должны быть заинтересованы, чтобы их товарищи добросовестно выполнили свою задачу, потому что это может отразиться на их итоговой оценке. Отчитывается по всей теме каждый в отдельности и вся команда в целом. На заключительном этапе педагог может попросить любого ученика команды ответить на любой вопрос по данной теме.

В конце цикла все студенты проходят индивидуальный контрольный срез, который и оценивается. Результаты студентов суммируются. Команда, сумевшая достичь наивысшей суммы баллов, поощряется. Так же при изучении иностранного языка можно использовать такой метод обучения в сотрудничестве, как «Кооп-кооп» или, как еще его называют «Учимся вместе». Обучение под девизом «Учимся вместе» (Learning Together) как метод обучения в сотрудничестве был разработан в университете Миннесота в 1987 году. По правилам данного метода студенческая группа разбивается на разнородные по уровню обученности малые группы по 3-5 человек. Каждая группа выполняет одно задание, являющееся частью одной большой темы, над которой работает вся группа. В результате интерактивной деятельности студентов происходит усвоение материала в полном объеме. Внутри группы студенты самостоятельно определяют роли каждого в выполнении общего задания. Группа имеет двойную задачу: академическую – достижение познавательной, творческой цели и социальную – осуществление в ходе выполнения задания определенной культуры общения. Таким образом, педагог контролирует не только успешность выполнения задания, но и характер общения между собой, способ оказания помощи друг другу.

Итак, методы обучения в сотрудничестве способны решать разные задачи обучения. Любые интерактивные методы сами по себе – еще не гарантия успеха. Поэтому, когда говорится об интерактивных методах обучения, надо все время иметь в виду, что применять их следует творчески, базируясь на основных принципах и положениях, характеризующих данный метод, но одновременно ориентируясь на культурную ситуацию, с которой приходится сталкиваться педагогу, а также особенности собственной личности и личностей студентов.

Библиографический список:

1. Голиш Л.В. Проектирование и планирование педагогических технологий: Учебно-методическое. Издание 3-е. – Т.: ТГЭУ, 2012. – 147 с.
2. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2003.
3. Ступина С.Б. Технологии интерактивного обучения в высшей школе. – С., 2009. – С. 9.

РЕАЛИЗАЦИЯ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ПОСРЕДСТВОМ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Исамова П.Ш., научный руководитель доцент
Рахимова П., студентка 4 курса УЗГУМЯ**

Аннотация. В этой статье раскрывается сущность личностно-ориентированного подхода в обучении посредством игровых технологий. Игровая деятельность как метод обучения и передачи социального, коммуникативного опыта, как метод активизации учебного процесса.

Ключевые слова: игровые технологии, функции игры, социализация, адаптация, мотивация учения.

В настоящее время формирование иноязычной деятельности приобретает особую значимость. Начались изменения в содержании, средствах и методах обучения школьников, применение демократического стиля общения учителя и ученика, способствующего развитию его познавательных интересов и нравственных личностных качеств. Главным становится не планирование общей, единой для всех линии обучения и развития, а осуществление подхода к каждому ученику с учётом его индивидуальных особенностей. При обучении иностранному языку это означает поиск и выявление продуктивных методов и приёмов обучения. Значительным и во многом неиспользованным средством для целенаправленного формирования учебной деятельности детей является игра.

Несомненно, что задачи обучения значительно шире, чем сообщение ученикам определённой суммы знаний и выработка умений применять эти знания. Главная задача обучения - подготовка детей к жизни. На наш взгляд, она особенно важна на этапе становления личности в младшем школьном возрасте, так как именно этот период, будучи переходным обладает глубокими потенциальными возможностями физического, духовного, социального и психологического развития ребёнка. В научной и педагогической среде часто используется термин «педагогические технологии». Его содержание разные авторы понимают не однозначно и связывают с активизацией и интенсификацией учебного процесса. Игровые технологии, обучающие, дидактические игры исследовались многими педагогами, методистами и учителями. Однако более активное включение игр в учебно-воспитательный процесс находит отражение в работах современных исследователей.

По мнению Г.К.Селевко игровая деятельность выполняет следующие функции: игротерапевтическую: преодоление различных трудностей, возникающих у ребёнка в поведении, общении, учении, и других видах жизнедеятельности. «Эффект игровой терапии определяется практикой новых социальных отношений, которые ребёнок получает в ролевой игре. Именно практика новых реальных отношений, в которые ролевая игра ставит ребёнка как со взрослым, так и со сверстниками, отношений свободы и сотрудничества, взамен отношений принуждения и агрессии, приводит в конце концов к терапевтическому эффекту» (Эльконин Д.Б.); диагностическую: выявление отклонений от нормативного поведения, самопознание в процессе игры.

Диагностическая функция игры предоставляет педагогу возможность диагностировать различные проявления ребёнка (интеллектуальные, творческие, эмоциональные и др.).

В то же время игра - «поле самовыражения», в котором ребёнок проверяет свои силы, возможности в свободных действиях, самовыражает и самоутверждает себя; функцию коррекции: внесение позитивных изменений и дополнений в структуру личностных показателей. В игре этот процесс происходит естественно, мягко. Межнациональной коммуникации: усвоение единых для всех людей социально-культурных ценностей; социализации: включение в систему общественных отношений, усвоение норм человеческого общежития.

Многие психологи считают, что именно в игре ребёнок проходит первую школу социальных отношений, когда он начинает понимать, что невозможно играть без сопереживаний другому, без уступок друг другу, без подчинения правилам, выработанным сообща. В условиях общения ребёнок сталкивается с необходимостью применять на практике усваиваемые нормы поведения по отношению к другим людям, приспособляясь к их конкретным ситуациям.

Личность ребёнка развивается в зависимости от социальных условий, а также от того, какую значимость для него приобретает та или иная социальная ситуация и какой личностный смысл имеют нравственные и другие ценности. Игрой является такое воссоздание человеческой деятельности, при котором из неё выделяется её социальная суть, т. е. её задачи и нормы отклонений между людьми.

На наш взгляд, одной из важнейших функций игры является функция социализации. Игра - сильнейшее средство включения ребёнка в систему общественных отношений, усвоения им богатств культуры. Игра способствует безболезненной адаптации к условиям социальной жизни в дальнейшем.

Игровая деятельность как метод обучения и передачи социального, коммуникативного опыта, как метод активизации учебного процесса может использоваться в следующих случаях: в качестве самостоятельных технологий для освоения понятия, темы и даже раздела учебного предмета; как элементы более обширной технологии; в качестве урока (занятия) или его части (введения, объяснения, закрепления, упражнения, контроля); как технологии внеклассной работы.

Использование игровых технологий при изучении иностранного языка можно рассматривать как ситуативно-вариативное упражнение, где создаётся возможность многократного повторения речевого образца, в условиях максимально приближенных к реальному общению с присущими ему признаками - эмоциональностью, спонтанностью, целенаправленностью речевого воздействия. Игры способствуют выполнению следующих методических задач: созданию психологической готовности детей к речевому общению; обеспечению естественной необходимости многократного повторения языкового материала; тренировке детей в выборе нужного речевого варианта, что является подготовкой к ситуативной спонтанной речи.

Самое главное заключается в том, чтобы игра органически сочеталась с серьёзным, напряжённым трудом, способствовала активизации умственной деятельности и не отвлекала от процесса учения. Не следует забывать о том, что дидактическая игра - это игра не только для ребёнка, так как её организация и проведение-задача достаточно сложная для педагога.

В настоящее время особое внимание уделяется развитию и поддержанию интереса школьников к учению, положительного к нему отношения, усиление акцентов на формирование познавательных интересов. Поскольку мотивация - развивающийся во времени сложный психологический процесс, внутренняя движущая сила действий и поступков личности, возникает острая необходимость в формировании её на начальном этапе. Мотивационная сфера младшего школьника не постоянна и не устойчива. Её

изменение непосредственно связано с развитием личности и видами деятельности. Одним из постоянно сильнодействующих мотивов детской деятельности является интерес. Включение игровых технологий в процесс изучения иностранного языка способствует формированию устойчивого интереса у младших школьников к учению. Устойчивость интереса выражается в длительности сохранения интереса к изучаемому предмету.

Психологами доказано, что игра способствует переходу с родного языка на иностранный язык. Игровая форма занятий создаётся при помощи игровых приёмов и ситуаций, которые выступают как средство побуждения, стимулирования учащихся к изучению иностранного языка. В игре языковой материал усваивается незаметно, но эффективно, снимая при этом психологический барьер употребления в речи слов иностранного языка.

На начальном этапе обучения иноязычному общению осуществляется в процессе моделирования задач на учебных занятиях, а игры предполагают следование образцу. Наиболее распространены имитационно-моделирующие игры, сюжетно-ролевые, игровые упражнения, игры-конструирования. Так, например, игровые упражнения позволяют организовать целенаправленную речевую практику обучаемых иностранному языку.

Именно использование игровых приёмов позволяет заложить основы для формирования главных компонентов учебной деятельности: умение видеть цель и действовать в соответствии с ней, умение контролировать свои действия.

Именно в игре возникает естественная потребность многократного повторения языкового материала, а также тренировка учеников в выборе нужного речевого варианта, что является подготовкой к ситуативной речи. Учитывая возрастные особенности учеников и дидактические возможности игры, рекомендуется использовать элементы игровых технологий на каждом уроке как средство развития навыков употребления грамматических структур и лексических единиц, чтения и письма.

Однако нельзя забывать, что за игрой стоит учебный процесс. Основные требования, которые должны соблюдать учителя при планировании и проведении дидактических игр: игра должна логически вытекать из учебно-воспитательного процесса. Если элементы игровых технологий будут использоваться интегрированно с традиционными элементами урока для обучения младших школьников, то, по нашему мнению, удастся выработать оптимальный подход к организации процесса обучения иностранному языку младших школьников.

Библиографический список:

1. Елагова Е.В. Игровые технологии как метод интенсификации обучения иностранному языку // Классические концепции и современные технологии преподавания иностранных языков: Материалы международ. научно-практ. конф. – Могилёв, 2003. – С. 55-58.
2. Елагова Е.В. Игровые технологии как метод формирования мотивации учения // Феномен человека в психологических исследованиях и в социальной практике: Материалы 1-й Международ. научно-практ. конф. – Смоленск: СПГУ, 2003. – С. 88-90.
3. Коптенова И.В. Игры со словами // Иностранные языки в школе. – 2003. - №1. – С. 54-56.
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.

SHAXS SOTSIAL INTELEKTINI ANIQLASH NATIJALARINI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISHDA MATEMATIK-STATISTIKA USULLARINING AHAMIYATI

Avlayev O.U., Chirchiq DPU dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs sotsial intellektini aniqlash natijalarini psixologik tahlil qilishda matematik-statistika usullarining ahamiyati tahlil qilingan. Bunda tadqiqotda olingan empirik materiallarning validligi va ishonchligini aniqlash uchun matematik-statistika metodidan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi. Sotsial intellektning psixologik determinanti sifatida o'rganish natijalari, assemetriya va ekstsess koeffitsientlari yordamida matematik va psixologik tahlil qilinadi.


Kalit so'zlar: sotsial intellekt, matematik-statistika usullar, assemetriya va ekstsess koeffitsientlar, normal taqsimot.

Matematik usullar ijtimoiy intellektni psixologik tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular ijtimoiy xulq-atvor va shaxslararo o'zaro ta'sirlar bilan bog'liq murakkab ma'lumotlardan mazmunli ma'lumotlarni tuzish, tahlil qilish va ajratib olish imkonini beradi. Sotsial intellekt nafaqat ma'lum bir ijtimoiy ma'lumotlar to'plamining mavjudligini, balki u bilan ishlash qobiliyatini ham nazarda tutadi, muhim ob'ektiv aloqalar va munosabatlarni ochib beradi. Sotsial intellekt haqida gapirganda, ular doimo uning ijtimoiy-tarixiy mohiyatini va shartlilikini anglatadi. Shunga ko'ra, sotsial intellekt va uning tashuvchisi – shaxs o'rtasida bog'lanishlar mavjudligi mutlaqo tabiiydir. Ko'pincha tadqiqotchilar bu bog'liqlikni shaxslilik shakllanishlar (motivlar, iroda, o'z-o'zini anglash va boshqalar) insonning aqliy mehnatining sharti ekanligi va shaxsning shakllanishi ijtimoiylashuvning etarlicha yuqori darajasini nazarda tutadi, deb ta'kidlaydilar. Aytish kerakki, har bir davr insonning (va butun jamiyatning) ijtimoiy rivojlanish darajasiga qarab ijtimoiy intellektning mazmunini belgilaydi.


Dj.Gilfordning "Sotsial intellektni o'rganish" metodikasi yordamida to'plangan natijalarni matematik-statistika metodlaridan foydalanildi. Ushbu matematik-statistika metodlar ahamiyati quyidagicha. Statistik tadqiqotlar amaliyotida turli xil taqsimotlarga duch kelish mumkin. Taqsimlanish zichligi egri chizig'ining assemetriya darajasini assemetriya koeffitsienti yordamida baholash mumkin. Normal taqsimot ko'plab sohalarda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tasodifiy o'zgaruvchiga ko'p sonli tasodifiy omillar ta'sir qilganda normal taqsimot qonuniga bo'ysunadi. Agar tasodifiy miqdor normal taqsimot qonuniga bo'ysunsa, u bilan tasvirlangan jarayonning statistik tahlili juda soddalashtiriladi. Shuning uchun normal taqsimot ko'plab real jarayonlar uchun yaxshi model bo'lib xizmat qiladi. Normal taqsimot fizika va texnologiyada eng keng tarqalganlardan biri hisoblanadi. Biroq, o'lchovlar ketma-ketligini apriori normal taqsimlangan deb hisoblash mumkin bo'lgan ishonch darajasi bilan savol tug'iladi.

Ko'pgina hollarda, assemetriyaning -1 dan +1 gacha bo'lgan oraliqdagi qiymatlari normal taqsimlanish hisoblanadi. Yuqori aniqlikni talab qilmaydigan tadqiqotlarda assemetriyaning moduli bo'yicha 2 dan oshmaydigan qiymatlari normal taqsimlanish hisoblanadi. Asimmetriyaning qiymati taqsimlanish qiymatlarining katta qismi o'rtachaga nisbatan qaysi yo'nalishda siljishini ko'rsatadi. Asimmetriyaning nol qiymati taqsimlanish o'rtacha qiymatga nisbatan simmetrikligini bildiradi.

Asimmetriya koeffitsientining musbat qiymati o'ng tomonlama assemetriya mavjudligi (maksimal ordinataga nisbatan taqsimlanishning o'ng shoxchasi chap shoxchasiga nisbatan cho'zilganligi) ni anglatadi (1-rasm). Asimmetriya koeffitsientining manfiy qiymati chap tomonlama assemetriya mavjudligini ko'rsatadi (2-rasm).



1-rasm. O'ng tomonlama assimetriya bilan taqsimlanish



2-rasm. Chap tomonlama assimetriya bilan taqsimlanish

Ekstsess taqsimlash grafigining cho'qqisining keskinligining ko'rsatkichidir. Simmetrik taqsimlashning ekstsessi 0 ga teng. Ekstsess koeffitsientining manfiy qyati keskinroq, musbat qyati tekisroq cho'qqini anglatadi. Boshqacha aytganda, ekstsess oddiy taqsimotga nisbatan taqsimotning nisbiy aniqligi yoki silliqqligini tavsiflaydi. Ijobiy kurtoz nisbatan taqsimlanishni bildiradi. Sotsial intellektning psixologik determinanti sifatida o'rganish natijalari, asimetriya va ekstsess koeffitsientlari yordamida matematik va psixologik tahlil qilinadi.

Asimetriya koeffitsienti, o'ng yoki chap tomonlama assimetriyaning mavjudligini va yo'nalishini ko'rsatadi. Musbat asimetriya koeffitsienti, o'ng tomonlama assimetriyani anglatadi, ya'ni taqsimlanishning o'ng tomoni maksimal ordinataga nisbatan cho'zilgan bo'lishini ifodalaydi. Manfiy asimetriya koeffitsienti esa chap tomonlama assimetriyani ko'rsatadi. Bu qiymatlar taqsimlanishning simmetrikligi va aniqlik darajasini tahlil qilishga yordam beradi.

Ekstsess koeffitsienti, taqsimlanishning keskinligi va kurtozlik darajasini ifodalaydi. Simmetrik taqsimlashning ekstsessi 0 ga teng bo'ladi. Musbat ekstsess koeffitsienti, taqsimlanishning keskinroq bo'lishini anglatadi, qo'shimcha oshishlarga yo'l qo'yadi. Manfiy ekstsess koeffitsienti esa taqsimlanishning silliqlik darajasini ko'rsatadi, ya'ni taqsimlanishning kengayishiga qarab keskinroq bo'lishini ifodalaydi. Matematik tahlil yordamida asimetriya va ekstsess koeffitsientlari hisoblanib, taqsimlanishning aniqlik darajasi, simmetrikligi, keskinligi va kurtozlik darajasi aniq tartibda o'rganiladi.

Psixologik tahlil esa bu koeffitsientlar sotsial intellekt bilan shaxs kamolotini bog'liqlik bo'yicha o'rganish natijalarini ishonchliligini ko'rsatadi. Masalan, yuqori asimetriya koeffitsientlari, yuqori aniqlik darajasini va boshqacha g'oyalar ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'riflarni ifodalayadi. Ekstsess koeffitsientlari esa taqsimlanishning silliqlik, kurtozlik va keskinligini o'rganishga yordam beradi. Bundan tashqari, psixologik tahlil sotsial intellektning boshqa xususiyatlari va o'zgarishlarini ham o'z ichiga oladi, masalan, emotsional intellekt, sosial qarshilik va tushuncha birligini baholash, konsensusga erishish va boshqalar bilan o'zaro muloqot qilish qobiliyatini o'rganish. Bular barchasi sotsial intellektning psixologik determinanti sifatida tahlil qilinadi va umumiy tahlil natijalariga qo'shiladi. Ijtimoiy intellektni tahlil qilishda matematik usullardan foydalanish murakkab ijtimoiy hodisalar va shaxslararo munosabatlarni yanada aniqroq o'rganish, tavsiflash va tushuntirishga yordam beradi. Ya'ni:

1. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish: Matematik statistik usullar ijtimoiy vaziyatlarda to'plangan katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi. Bu ijtimoiy o'zaro munosabatlardagi naqshlarni aniqlash uchun chastota, taqsimot, korrelyatsiya va regressiya tahlilini o'z ichiga olishi mumkin.

2. Faktor tahlili: Bu usul tadqiqotchilarga ijtimoiy intellektga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va qaysi biri eng muhimligini aniqlash imkonini beradi. Bu shaxslararo munosabatlar va muloqotning qaysi jihatlari ijtimoiy razvedka uchun eng muhim ekanligini tushunishga yordam beradi.

3. *Modellashtirish va simulyatsiya*: Matematik modellar turli ijtimoiy stsenariylarning simulyatsiyalarini yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Bu turli omillar odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga qanday ta'sir qilishini va turli ijtimoiy sharoitlarda qanday natijalar yuzaga kelishi mumkinligini o'rganish imkonini beradi.

4. *Tarmoq tahlili*: Tarmoq usullari tadqiqotchilarga ijtimoiy aloqalar va ta'sirlar tuzilishini tahlil qilishga yordam beradi. Ular sizga ijtimoiy tarmoqlardagi asosiy o'yinchilarni, ularning rollari va o'zaro ta'sirini aniqlash imkonini beradi, bu ijtimoiy dinamikani va ijtimoiy intellektga ta'sirini tushunish uchun foydali bo'lishi mumkin.

5. *Kognitiv jarayonlarning matematik modellari*: Matematik modellar ijtimoiy idrok, empatiya, qaror qabul qilish va ijtimoiy intellektning boshqa jihatlari bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni tavsiflash va bashorat qilishga yordam beradi.

6. *Interfaol simulyatsiyalar*: Matematik modellar va simulyatsiyalar ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni o'rganish va turli xulq-atvor strategiyalarini sinab ko'rish mumkin bo'lgan virtual muhitlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

Ijtimoiy intellektni psixologik tahlil qilishda matematik usullardan foydalanish murakkab ijtimoiy hodisalarni aniqroq va tizimli ravishda o'rganish, munosabatlar va qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi va shu orqali odamlarning ijtimoiy vaziyatlarda qanday munosabatda bo'lishini, ularning ijtimoiy intellektini qanday rivojlanishini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avlaev O.U. Gender differences of social intelligence in student development. Scientific journal "Psychology". 2021. - № 1ю – P. 34-41.

2. Avlaev O.U. (2021). TALABALAR KASBIY KAMOLOTIDA USTANOVKALARNING O'RNI. Academic research in educational sciences, 2(10), 1247-1258.

3. Drujinin V.N., Grebenyuk G.A., Samsonova, Ye.Yu. Issledovaniya psixosemanticheskoy reprezentatsii obshch umstvennykh sposobnostey // Psixol. jurnal. – 1993. – T. 14. – № 3. – S. 47-55.

ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ОИЛА ХУСУСИДАГИ ҚАРАШЛАРИ

Акрамова Ф.А., ТДПУ

Аннотация. Ушбу мақолада ёшларни оилага тайёрлашда Шарқ мутафаккирларни таълимотларидан мақсадли фойдаланишлар ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: оила, ёшлар, шарқ мутафаккирлар асарлари.

Ҳар қандай жамият тараққиётида оилаларнинг, оилалар мустақкамлигининг ўрни беқиёсдир. Чунки тирик организмнинг саломатлиги уни ташкил қилувчи ҳар бир хужайранинг соғломлигига боғлиқ бўлганидек, бутун организм ўз фаолиятини мақсадга мувофиқ амалга оширишида ҳар бир хужайранинг муносиб ўрни бўлганидек, оила ҳам давлат, жамият деб аталган бутун бир организмни ташкил этувчи хужайрадир.

Оилаларнинг мустақкамлиги жамиятнинг иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, миллий хавфсизлигини, унинг равнақи, тараққиётини белгиловчи ҳал қилувчи омил ҳисобланади. Ҳозирги вақтда жамиятимиз учун, инсоният тараққиёти учун, мустақиллигимиз истиқболлари учун жиддий хавф туғдираётган иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, экологик, ички ва ташқи омилларнинг таҳдиди ортиб бораётган айни вақтда оилалар мустақкамлигини таъминлаш ва бу масалани тўғри ҳал этилишининг асосий йўли бўлмиш ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш масаласи ҳеч кечиктириб бўлмайдиган, сусткашликка йўл қўйиб бўлмайдиган, ўта жиддий ёндошишларни талаб этувчи давлат, ҳукумат миқёсидаги долзарб масаладир. Бунинг муваффақиятли амалга ошишига жамиятимизнинг ҳар бир фуқароси, Сиз ўқувчилар, ота-оналар ҳамма бирдек

масъулдир. Бу масала ҳеч қачон кун тартибидан тушмайдиган, ўз долзарблигини ҳеч қачон йўқотмайдиган ўта нозик, ниҳоятда жиддий масаладир.

Демак, жамият учун ниҳоятда аҳамиятли ҳисобланган ота-она ва бола, эр ва хотин, оила аъзоларининг ўзаро муносабатлари билан боғлиқ бўлган муаммолар айнан оила негизида юзага келади. Шунинг учун ҳам қадим замонлардан бошлаб оила, ундаги муносабатлар масалалари ҳар бир даврнинг донишманд, олим, мутафаккирлари томонидан ўрганилиб келинганлигини ва уларнинг қарашларида бу масалаларнинг ёритилганлигини кузатамиз. Бу қарашларни, фикрларни сизнинг ҳукмингизга ҳавола этиш орқали оила, ўзаро муносабатлар муаммолари бизнинг ҳаётимизда доимо муҳим масалалар сирасига киришини қайд этамиз. Инсон ва инсоний муносабатлар, шахс ва унинг камолоти муаммолари узоқ асрлардан буён жамиятнинг энг илғор кишилари, олимлар, буюк алломалар ва донишмандларнинг диққат марказида асосий масалалардан бўлиб келган. Шарқнинг буюк алломалари ҳисобланган Абу Наср Фаробий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али Ибн Сино, Юсуф Хос Хожиб, Маҳмуд Кошғарий, Кайковус, Хотам Ибн Той, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Ризоуддин Ибн Фахриддин, Муқимий, Фурқат, Завқий, Увайсий, Нодира, Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлоний каби кўплаб олим ва ёзувчилар бу масалалар юзасидан ўзларининг дурдона фикрларини тарихда қолдириб кетганларки, улар ҳозирги замон фани учун ҳам катта ижтимоий ва мафкуравий аҳамиятга эгадир. Оилавий муносабатлар ва бу соҳага оид қарашлар тизимида Шарқ мутафаккирлари асарларида бугунги ёшлар учун керакли бўлган маълумотларимиз кўпдир. Оила мактабларида дастлаб ўзимизни аждоқларимизни угит-насиҳатлари ва буюк мутафаккирлар асарларидаги ҳикматларни чуқу ўрганиб боришимизга тўғри келади.

Ибн Синонинг педагогик ва психологик қарашлари ижтимоий асосда қурилган бўлиб, у бола тарбиясида умуминсоний тамойилнинг қўлланилишини ёқлаб чиққан ва тарбиячи ота-оналарга болани қаттиқ тана жазосидан кўра, шахсий ибрат орқали тарбиялаш маъқуллигини уқтирган. Мутафаккирнинг қаламига мансуб бўлган "Донишнома", "Рисолаи ишқ", "Тиб қонунлари", "Уй хўжалиги" каби қатор асарлари Ўрта Осиё халқлари ахлоқ-одоби, психологияси ва таъбабат оламида алоҳида ўрин тутган йирик илмий тадқиқотлар ҳисобланади.

Ахлоқий тарбия масалаларида аллома оиланинг ўрнини алоҳида таъкидлаган. Оила ва оилавий муносабатлар масаласи унинг «Тадбири манзил» асарида ўзига хос тарзда баён этилган. Оилавий муносабатларнинг турли томонларини ёритар экан, Ибн Сино, аввалом бор оила бошлиғи олдиға қатор талабларни қўяди. Оила бошлиғи, деб ёзади у, ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан оилада тарбия масалаларини мукамал ўзлаштирмоғи лозим. Агар оила бошлиғи тажрибасиз бўлса, у ўз аъзоларини яхши тарбиялай олмайди, охир оқибат у яхши ижобий натижаларга эриша олмайди, ёмон тарбия нафақат ушбу оила, балки қўшниларга, маҳалла-куйга ҳам ёмон таъсир қилиши мумкин. Оиладаги бола тарбияси ота-онанинг жамиятда тутган мавқеидан қатъий назар, уларнинг бирламчи вазифасидир, деб ҳисоблайди Ибн Сино. Ота-она давлат бошлиғими, ёки оддий фуқароми, бари-бир, у бола тарбияси борасида масъулдир. Давлат бошлиқлари, раҳбарлар бола тарбияси хусусида барчаға ибрат бўлмоқлари лозим. Турмуш қурган эр-хотинлар муносабати борасида, эса мутафаккир, «Эркак киши оила бошлиғидир, у оиланинг барча эҳтиёжларини қондирмоғи лозим, чунки бу унинг бирламчи вазифасидир», - деб ёзади. Аёл эса эркакнинг яхши, муносиб йўлдоши, у бола тарбияси борасида энг яхши ворис ва ёрдамчидир. Унинг эр-хотин муносабатлари хусусидаги фикрлари ҳам ўша давр учун ўта илғор ва аҳамиятлидир. XI асрнинг буюк мутафаккири ва шоири Юсуф Хос Хожиб ўзининг «Қутадғу билиг» - «Саодатға бошловчи билим» - китобида ва ундан кейинги қатор асарларида ўзининг этика ҳамда ҳаётға оид қарашларини баён этади.

Маълумки, сўфизм инсоний муҳаббат, севгини инкор этиб, фақат Оллоҳга нисбатан севги ва муҳаббатнинггина борлигини эътироф этган. Бундан фарқли ўлароқ, Юсуф Хос Хожиб, одамлар ўртасидаги севгимуҳаббатни тараннум этган. У севгини оилавий бахт ва ижтимоий муваффақиятларнинг гарови, деб ҳисоблаган. «Йигит уйланмасдан аввал келиннинг кимлигини, унинг келиб чиқиши, характери ва хулқ-атворини билиши керак», - дейди у. Унинг ахлоқий дидактикаси Ўрта Осиёдаги илғор фикрларнинг тараққиётига катта ҳисса қўшган, шунинг учун ҳам унинг қарашлари мусулмон халқлари ўртасида кенг тарқалган ва кўпгина шовшувларга сабаб бўлган.

Турмуш маданияти, одоб-ахлоқ, севги-муҳаббат борасида ўзига хос қайтарилмас фикрлар соҳиби буюк бобокалонимиз Алишер Навоийнинг "Маҳбуб-ул-қулуб" ёки "Қалбларнинг севгиси" деб ном қўйилиши бежиз эмас. Чунки бу асарда Навоий инсонларга қалбидаги энг керакли ўғитларини баён этиб, уларни турмушдаги, оилавий ҳаётдаги турли ҳодисалар ва вазиятлардан чиқишга имкон берувчи яхши фазилатлар, уларни тарбиялаш масалаларига диққатни қаратади.

Хулоса сифатида шуни айтиш керакки, ёшлар оилага тайёргарлик масалаларини буюк мутафаккирларнинг таълимотларидан ўрганиб боришимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Шоумаров Ғ.Б., Шоумаров Ш.Б. Муҳаббат ва оила. – Тошкент, Ибн Сино, 1994. – 120 с.
2. Акрамова Ғ.А. Юқори синф ўқувчиларида севги-муҳаббат ҳислари намоён бўлишининг ижтимоий ва этнопсихологик хусусиятлари. Дис.п.ф.н. - Т.: 1997. – 184 б.
3. Акрамова Ғ.А.Оилада муомалани ташкил этиш психологияси. – Т.: Шамс АСА, 2006. – 90 б.
4. Акрамова Ғ.А., Абдуллаева Р.М. Шарқ мутафаккирларининг оила хусусидаги қарашлари. – Т.: Шамс АСА, 2002. – 25 б.

ТОЛЕРАНТЛИК ФЕНОМЕНИНИНГ ДИФФЕРЕНЦИАЛЛАШГАН ТУШУНЧАЛАРИ

Бафоев М.М., ТДПУ мустақил изланувчиси

Аннотация: Толерантлик мураккаб ва ўзига хос ҳам ижтимоий ҳам индивидуал хусусиятларини ўзида мужассам этган воқелик ҳисобланади. Асли толерантлик инсоният тарихида ўзга дин ва миллатларга нисбатан бағрикенглик ва эҳтиромли муносабатда бўлиш мезони сифатида шаклланиб келган. Замонавий психология фанида толерантлик фақат инсоннинг ўз шахсий хусусиятларига алоқадор бўлган психологик тушунча бўлмай, балки инсонга хос бўлса ҳам ана шу ўзига хосликни бошқа инсонларга қарата ишлата олиш, қўллаш билиш кўникмаларидан иборатдир.

Таянч тушунчалар: шахс, толерантлик феномени, дифференциаллашган тушунча, толерантлик типлари, толерантлик компонентлари, толерант муносабатлар, интолерант муносабатлар.

Бошқа фан соҳаларида бўлгани каби психологияда ҳам толерантликни кундалик ва илмий тушунча сифатида фарқлаш лозим. Бироқ, ҳозирги замонавий адабиётларда бундай фарқни сезиш мушкул. Психология фанида толерантлик феномен сифатида ўрганилаётганига деярли кўп вақт бўлгани йўқ. Жумладан, А.В.Петровский, А.В.Зимбули, Ю.А.Ищенко, В.М.Золотухин, А.Г.Асмолов, Г.У.Солдатовалар томонидан сабр, чидамликнинг асосий ташкил этувчиси деб қаралади. А.А.Реан чидамлик ва толерантлик тушунчалари ўртасидаги муносабатлар бўйича юқоридаги муаллифлар келтирган фикрларига қарама-қарши фикрини баён этади. У толерантлик психофизиологик атама бўлиб, у ноҳуш омилларга жавоб қайтаришнинг сусайиши деб

билади. А.А.Реан фикрига кўра, «чидамлилиқ» умумийроқ тушунча бўлиб, турли хил фикрларга нисбатан муносабати билан боғлиқ [2].

Э.В.Магомедованинг фикрига кўра, толерантликни инсон онгининг икки даражасида рационал-мантиқий ва эмоционал-ҳиссий кўриб чиқиш мумкин [3].

Рус тадқиқотчилари толерантликнинг баҳовий табиатини таъкидлаб ўтиб, уни инсоннинг ахлоқий ривожланиши билан муносабатини кўрсатиб ўтишади. Бундан ташқари бихевиористик ёндашувда ҳам толерантликни алоҳида таҳлил қилиб, уни инсоннинг алоҳида бир хулқ-атвори сифатида қарайди.

Толерантликнинг когнитив компоненти мукамалликни дунёнинг турли-туманлигини қабул қилиш орқали намоён бўлади. Толерантликнинг эмоционал компоненти толерант муносабатларнинг таркибий қисми бўлган эмоцияни кўриб чиқади [4]. Эмоционал компонентнинг алоҳида ташкил қилувчиси сифатида Г.Кристалл томонидан эмоционал турғунликнинг асосий кўринишларидан бири «аффектив толерантлик» ни ажратилиб кўрсатилади. Унинг асосида эмоционал зўриқишни енга олиш, бошқаларнинг оғир кечинмаларига сабрли бўлиш ётади. Толерантликнинг хулқ-атвор компоненти тадқиқотчиларнинг эътиборини тортади.

Толерантликка берилган баъзи таърифлар билан танишиб чиқишни ўзи кишини шундай хулосага келишга ундайди. Хўш, бу таърифларнинг асосий мазмуни қандай? Улар қуйидаги ҳолатда намоён бўлади: «қарама-қаршилиқ шароитида ҳамкорлик қадрияти», «ўзининг шахсий мақсад ва қизиқишларидан фарқлиларини қабул қилиш», «эшитганларинг ўз дунёқарашингга қанчалиқ номутаносиб бўлмасин, сабр билан эшитиш, турли фикрлар билан ҳисоблашиш қобилияти», «тинчлик ва хотиржамликка интилиш». Юқоридаги келтирилган барча таърифлар шахсда толерантлик феноменининг таърифи бўла олади [1]. Толерантлик феноменининг дифференциаллашган тушунчаларига қуйидагилар киради:

Табиий толерантлик – ёш болаларга хос бўлган ва унинг шахсий «Мен» сифатлари ассоциялашмаган – очиқлик, меҳрибонлик, ишонувчанлик («А» типли толерантлик);

Маънавий толерантлик – инсоннинг ташқи «Мен»и билан ассоциялашган сабр, сабрлилик («В» типли толерантлик);

ахлоқий толерантлик – ички «Мен» билан ассоциялашган қабул қилиш ва ишонч туйғулари («D» типли толерантлик).

Ушбу толерантлик турларига батафсил тўхталиб ўтамыз:

«А» типдаги толерантлик – бу бошқа инсонни сўзсиз, табиий равишда, борица қабул қилиш унга нисбатан қадрли ва азиз мавжудот сифатида муносабатда бўлишдир. Бундай толерантлик ёш бола ҳаётида катта ўрин эгаллайди, чунки унинг шахс бўлиб шаклланиш жараёни ҳали индивидуал ва ижтимоий тажрибаларни ҳис этишга етиб бормаган. Толерантликнинг бу тури болалар психологияси ва психоанализида етарлича тадқиқ этилган. Гўдак ўз эҳтиёжларига нисбатан мутлақо сабрсиз – у очлик, совуқ, эмоционал «хувиллашга» нисбатан чидамсиздир. У ўзидаги базавий эҳтиёжларни қондирилишини ўзига хос бўлган қурол – йиғи билан талаб қилишга мойил. Агар унда бошқа «қурол» бўлганида эди, у албатта, ундан фойдаланган бўлар эди. Кейинчалик ота-оналар ўз фарзандларини сабрлиликка ўргатадилар, баъзида эса айрим катталар ўз эҳтиёжларини тезда қондирилишини талаб этиб, «гўдаклигича» қолиб кетадилар.

Толерантликнинг «А» типни ёш болаларнинг ўз ота-оналарини, ҳаттоки улар қаттиққўл муносабатда бўлганларида ҳам – психологик ёки жисмоний зўравонликлар жараёнида ҳам меҳрибондек қабул қилишининг асосидир. «А» типдаги толерантликнинг мавжуд бўлиши ёмон муносабатнинг намоён бўлишидан психологик, субъектив ҳимояланганлик ва ота-оналари билан ижобий муносабатни сақлашга ёрдам беради.

«В» типдаги толерантлик шахс сифатида ўзини кўрсатиш учун характерли бўлган, индивиднинг шахс бўлиб шаклланиш жараёнининг ихтиёрий қисми ҳисобланади.

Кўпинча бу тип катта ёшдагиларга хос эканлигини алоҳида қайд этиш лозим. Толерант шахс кўпроқ босиқликка ҳаракат қилади, у кўпинча ҳимоя механизмларидан фойдаланади. Бироқ баъзида ўзининг ҳаяжонларини, ҳиссиётларини айтмоқчи бўлган норозиликлари ва агрессияларини яширади. Шуни айтиш мумкинки, кўпинча «В» типдаги толерантлик ҳақиқий бўлмаган, қисман намоён бўлувчи, шартли, маданий толерантликдир. Яъни, бу типдаги толерантликка мисол келтирадиган бўлсак, қуйидагича ифодаларни кўриш мумкин: «Биз сизга сабр қиламиз, чунки.....», «Шароит шуни тақозо қиладики, биз сизга чидашга мажбурмиз, чунки», «Айни пайтда мен ўзимдек бўла олмайман ва ўзимни сабрлидек қилиб кўрсатишга мажбурман....» «Мен бошқа нарса ҳақида ўйлайман, лекин буни ошкор айтиш.....»

«В» типдаги толерантлик – бу берк, яширин ички агрессия бўлиб, бундай сабрлилик бир қарашда сабрсизликдан яхшироқ бўлиб кўринса-да, униси ҳам буниси ҳам табиатан бир хил ҳодисалар ҳисобланади. Уларнинг психологик асоси бир хил бўлиб, улар орасидаги фарқ сифат жиҳатидан эмас, фақатгина сон жиҳатидандир. Шуни айтиш мумкинки, «D» типдаги толерантлик – сабрсизликнинг тескари тескари томони бўлиб, инсон устидан турли хилдаги зўравонлик, манипуляция, унинг субъектив тавсифларининг суистеъмол қилинишидан иборатдир.

«D» типдаги толерантлик инсон томонидан атрофдагилар билан бир қаторда ўзини ҳам бир хилда қабул қилишдир. Зўравонлик ва манипуляцияга қарама-қарши бундай ўзаро таъсир этиш бошқа инсон учун қадрли бўлган ички қадриятлар, ҳаётнинг мазмунини, ҳис-ҳаяжонларига ҳурмат билан қарашни ва уларни тўғри қабул қилишни акс эттиради. Бу ҳақиқий етук, асл позитив толерантлик бўлиб, «А» ва «В» типдаги толерантликларга нисбатан инсон ҳақиқатини чуқурроқ ва тўлиқроқ англашга асосланади. Болалар ва ота-оналар ўртасидаги муносабатдаги ўзаро сабрсизлик ўз-ўзидан пайдо бўлмайди, бу катталарнинг сабрлилиги, яъни толерантлиги оқибатидир.

Шундай қилиб, толерантлик тушунчаси, кўпгина манбаларда бардошлилик тушунчаси билан тенглаштирилади [5]. Толерантлик – фаол, бошқаларнинг фикрига, дунёқарашига ва ҳаракатларига нотабий равишда бўйсунмиш эмас, балки фаол ахлоқий-маънавий дунёқараш ва этнослар орасидаги, ижтимоий гуруҳлар орасидаги бошқа маданият, миллат, динлар ва ижтимоий муҳитлар орасидаги ўзаро муносабатларда инсонни бардош билан сабр қилишга психологик жиҳатдан тайёрлигини кўрсатиб турувчи фаол позиция деган хулосага келишимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ismoilova N.Z., Abdullayeva D.U. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 168 b.
2. Реан А.А., Бордовская Н.В., Розум С.И. Психология и педагогика. – СПб.: Питер, 2002. – 432 с.
3. Магомедова Е.В. Толерантность как принцип культуры. Ростов-на-Дону, 2000. – С.46-60.
4. Волков Б.С. Психология развития человека: учебное пособие для вузов. – Москва: Академический Проект, 2020. – 224 с.
5. Bafayev M.M. Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari // Pedagogika. – № 1. – Toshkent, 2023. – В. 66-70

ONA TASAVVURLARINING FARZAND BILAN BO'LGAN MUNOSABATLARGA TA'SIRI

Abdullayeva D.U., TDPU professori v.b.

Annotatsiya. Maqolada ona individual psixologiyasi negizida ota-ona-farzand munosabatlari ko'rib chiqilgan. Onaning ayol ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlari uning

farzandi bilan bo'lgan munosabat xususiyatlarini belgilashi empirik tadqiqotlar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tasavvur, psixologik omil, ijtimoiy rol, o'smir bolalar, ota-ona - bola munosabatlari, ona munosabati.

Shaxslararo munosabatlarda odam xulq-atvorining boshqarilishi murakkab ichki mexanizmga ega bo'lgan psixologik jarayondir. Ushbu jarayonning sifat samaradorligi ko'plab ijtimoiy va individual-psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. Odamlar o'zaro ta'sirlashuv jarayonida bir-biriga nisbatan namoyish etadigan munosabat xususiyatlarini belgilab beruvchi muhim sub'yektiv omillardan biri ular egallagan ijtimoiy rollarga muvofiq talablardan iboratdir. Har qanday ijtimoiy rol bajarilishi va bajarilmasligi shart bo'lgan hamda muayyan vaziyatda bajarilishi ma'qul ko'riladigan talablar tizimidan tashkil topadi [3, 4].

Qator psixologik tadqiqotlarning natijalarida ijtimoiy rollar haqida odamda shakllangan tasavvurlar uning farzandiga bo'lgan munosabatiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga ishoralar mavjud. Biroq aynan onaning o'z ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlari uning o'smirlik yoshidagi farzandi bilan bo'lgan munosabatida qanday aks etishi mumkinligini tekshirishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar o'tkazilmagan. Bizning tadqiqotimizda aynan shu yo'nalishda, ya'ni onalarning o'smir farzand bilan bo'lgan munosabatiga ularda o'z ijtimoiy rollari haqida shakllangan tasavvur xususiyatlari qanday ta'sir o'tkazishini tekshirishga qaratilgan empirik izlanish natijalari bayon etiladi [2, 4].

O'tkazilgan empirik tadqiqot onalarning ayollarga xos ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlari bilan ularning o'smir yoshidagi farzandlariga bo'lgan munosabati xususiyatlari o'rtasida o'ziga xos aloqa-bog'lanishlar mavjudligini qayd etish uchun asos bo'ldi.

Ayollarga xos ijtimoiy rollar haqidagi tasavvur bo'yicha farqlanuvchi onalarning o'smir farzandga munosabat xususiyatiga ko'ra nisbati (% hisobida)

№	Ayol ijtimoiy rollari haqidagi tasavvur bo'yicha farqlanuvchi shartli guruhlar	Farzandga munosabat xususiyatlari				
		Emosional rad etish	Kooperatsiya	Cimbioz	Avtoritarizm	Infantilizatsiya
1.	Ayolni ko'proq "uy bekasi" rovida tasavvur qiluvchi onalar (n ₁ =38)	13,1 %	8,3 %	32,8 %	14,7 %	31,1 %
2.	Ayolni ham "uy bekasi" ham "faol ayol" rovida tasavvur qiluvchi onalar (n ₂ =24)	12,5 %	33,3 %	8,35 %	37,5 %	8,35 %

Dastlabki natijalar tahlilidan ham ma'lum bo'ldiki, ayol kishining ustuvor ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlarga ko'ra farqlanuvchi onalar o'z o'smir farzandlariga bo'lgan munosabati mezoni bo'yicha differensial ko'rsatkichlarga egadirlar. Xususan, ayolning ijtimoiy rollarini ko'proq "uy bekasi" roli bilan chegaralangan holda tasavvur qilishga moyil ayollar farzandiga munosabatda simbioz (32,8 % ayolda) hamda infantilizatsiya (31,1% ayolda) uslubiga ixtiyor berishga intilishi qayd etilmoqda. Ayolning ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlarida uning ijtimoiy-siyosiy faolligiga ham salmoqli o'rin beradigan ayollar orasida farzandga munosabatida kooperatsiya (33,3 % ayolda) hamda avtoritarizm (37,5 % ayolda) unsurlarini o'z ichiga olgan munosabatni ma'qul ko'rish namoyon bo'lmoqda.

Qayd etilgan natijalarni, bizning fikrimizcha, tasavvur mazmuni va ko'lamining inson shaxs sohasi bilan chambarchas bog'liqligi, uning kundalik xulq-atvorida anglangan yoki anglanmagan holda, albatta namoyon bo'lishi bilan tushuntirish kerak. Ushbu postulatga tayanib shuni taxmin qilish mumkinki, ayol kishini "uy bekasi" roli bilan cheklab idrok etishga moyil onalarda uning faolligi to'liq oila, uy, ro'zg'or sohasida ro'yobga chiqarilishi adekvatligi

to'g'risidagi qarash yaqqol ustun bo'ladi. O'z-o'zidan ayonki, bu sohada shaxs faolligi asosan oila a'zolarining oiladagi va undan tashqaridagi ko'rinishi, uy-joyning o'zi, undagi odamlar ehtiyojlariga xizmat qilishi uchun mavjud ashyolar va vositalardagi tartibni ta'minlashga, oilada uning a'zolari o'zlarining qandaydir asosiy faoliyatiga mukammal tayyorlanishiga sharoit yaratish bilan bog'liq bo'ladi. Bunday sharoitda, tabiiyki, oilaning o'z farzandi bilan makon va vaqt nuqtai nazaridan aloqalari chastotasi yuqori bo'ladi. Shuning uchun, nazarimizda, ular o'rtasida simbioz tipidagi, ya'ni ona o'zini farzandi bilan yakdil, bir butun his eta boshlashi, uning barcha ehtiyojlarini qondirishga, uning qiyinchiliklardan chegaralashga intilishi bilan tavsiflashuvchi munosabat ustunlik qiladi.

Yuqorida qayd etilganidek, ayollarga xos ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlarida ayol nafaqat uy bekasi, balki ijtimoiy-siyosiy faol shaxs sifatida aks etadigan onalarning o'z farzandiga bo'lgan munosabatida kooperatsiya va avtoritarizm unsurlari ustunlik qilishi aniqlandi.

Bunday natijani ham, bizning fikrimizcha, mazkur toifa onalarda zamonaviy jamiyatda ayolning o'rniga nisbatan shakllangan o'ziga xos ustanovkalar bilan tushuntirish mumkin. Ayol jamiyatning faol a'zosi sifatida ushbu ijtimoiy mavqega mos rollarni bajarishi kerak deb hisoblaydigan onalarga shaxs darajasida tashabbuskorlik, hayotda yorqin iz qoldirishga intilish, yangilik uchun ochiqlik, ijtimoiy fikrdan nisbiy avtonomiyani saqlay olish, yuqori talabgorlik darajasi xos bo'lishini kutish o'rinli. Shubhasiz, bunday sifatlar bilan onaga farzandga bo'lgan munosabatda uni o'ziga teng olishi, unda mustaqillikni rivojlantirishga intilishi, bahsli vaziyatlarda uning tomonini olishi, ya'ni kooperatsiyaga asoslangan o'zaro ta'sirlashuvga kirishi oson kechadi.

Alohida e'tiborga loyiq jihatlardan biri shundaki, ayollarning ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlari ta'kidlangan yo'nalish bilan tavsiflanuvchi onalarning natijalarida, shuningdek avtoritarizmga asoslangan munosabatga moyillik ko'rsatkichlari yuqoridir. Bizning fikrimizcha, ayollar nafaqat "uy bekasi", balki ijtimoiy-siyosiy faol shaxs rolini o'zlashtirishi mumkinligi haqida mulohaza yurituvchi onalar orasida farzandga munosabatda kooperatsiya uslubidan tashqari avtoritarizm unsurlariga ega o'zaro ta'sirlashuv modeli ustun onalarning ko'pchilikni tashkil etishi o'ziga xos psixologik bog'lanishdan darak beradi. Nazarimizda, o'zining kasbiy va ijtimoiy faolligi hisobiga oila yumushlarini bajarish uchun vaqt taqchilligiga uchrayotganda onalar o'z individual-psixologik xususiyatlari, qurshab turgan ijtimoiy muhit sifatlariga bog'liq ravishda farzandga bo'lgan munosabatda ikki qarama qarshi qutbdagi uslublardan birini tanlaydi: yoki bolasining ishlari, rejalariga yanada kattaroq qiziqishni, yordam berish uchun yanada ko'proq tayyorlikni namoyon etadilar (kooperatsiya) yoki uning qat'iy bo'ysunishini, belgilangan intizomga so'zsiz rioya etishini talab qiladilar (avtoritarizm).

Demak, onalarning ayollarga xos ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlari va ularning farzandlariga bo'lgan munosabati ustuvor xususiyatlarini o'zaro aloqadorlikda empirik jihatdan o'rganish quyidagi xulosalar uchun asos bo'ladi:

1. "Ona-bola" tizimidagi munosabatda onalarning nafaqat ega bo'lgan ijtimoiy rollari, balki ularning ayol kishi egallashi mumkin bo'lgan rollar haqidagi tasavvurlariga xos xususiyatlar aks etadi.

2. Ayolning ijtimoiy rollarini asosan "uy bekasi" roli bilan chegaralangan holda tasavvur qiluvchi onalarning farzandga munosabatida simbioz va infantilizatsiyaga asoslangan, ayol kishini ijtimoiy-siyosiy faol rollarda tasavvur qiluvchi onalar munosabatida kooperatsiya va avtoritarizmga tayanuvchi o'zaro ta'sirlashuvga moyillik qayd etiladi.

3. Ayollarga xos ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlariga ko'ra o'zaro farqlanuvchi onalarning farzandlarga munosabati xususiyatlarida aniqlanuvchi tafovut ahamiyatli darajada bo'lib, shunga ko'ra ular asosida onalarning o'ziga xos original tipologiyasini ishlab chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva D.U. Ona va o'smir farzand munosabatlarida ijobiy muhitni ta'minlashda tasavvurlar psixokorreksiyasidan foydalanish: Psixol. f. PhD... diss.avtoref. Toshkent, TDPU. 2022. - 52 b.
2. Белогай К.Н. Структурные компоненты родительского отношения личности: Автореф. дис... к.психол.н. – Кемерово: КГУ, 2006. - 24 с.
3. Грицкевич Т.И. Реформатор: социальная роль или особенности личностных черт // Вестник ВГУ. Серия «Философия». - 2009. - №2. - С.140-148.
4. Овчарова Р.В. Родительство как психологический феномен: Учебное пособие. - М.: Московский психолого-социальный институт, 2006. - 496

PSIXOLOGIYADA STRESS MUAMMOSIGA OID QARASHLARNING MOHIYATI

Ismoilova N.Z., TDPU dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda shaxs ruhiy salomatligi uchun xavf solayotgan omillardan biri bo'lgan stress tushunchasining mohiyati va kelib chiqish sabablari haqida olimlarning fikrlari tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: stress, disstress, fiziologik stress, psixologik stress, mexanizm, adaptatsion, asab zo'riqishi, emotsional qo'zg'alish, stimul, stressor.

Stress har doim inson organizmidagi fiziologik moslashish mexanizmining natijasi sifatida qaraladi, biologik mexanizmlar esa o'zining alohida tabiati va mazmuniga ega. Bu ikki mexanizm haqidagi tushunchani aniqlashtirib olmasdan turib, stressli ta'sirlarga nisbatan inson tomonidan bildiriladigan murakkab va qarama-qarshi xarakterga ega bo'lgan reaksiyalarni tushuntirib bo'lmaydi. Stress so'zini ilmiy atama sifatida G.Sele fanga kiritgan. U 1936 yilda «Nature» jurnalida birinchi marta bu atamani ishlatgan. Muallif tomonidan asosan stress holatini adaptatsion (fiziologik va biologik) jihatdan o'rganish borasida tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, unda asosan stressning fiziologik jihatlarini talqin qilishga harakat qilingan. G.Selening ko'p yillik kuzatishlarini o'z ichiga olgan «Hayot stresslari» nomli asari bu sohadagi dastlabki eng yirik asarlardan biri sifatida maydonga kelgan. Muallifning fikricha «stress» so'zi xuddi «omad», «muvaffaqiyat», «baxt» so'zlari kabi har bir shaxs uchun o'ziga xos ma'noni anglatadi. «Shuning uchun, garchi stress bizning hayotimizga kirib kelayotgan bo'lsada, uni aniq ifodalovchi mazmunini berishning imkoni yo'q, - deydi muallif, ta'kidlab va shu o'rinda «Stress - balki disstressning sinonimi emasmi?», - degan savolni qo'yadi. Disstress - inglizcha qayg'u, baxtsizlik, lohaslik, ozib ketish, ehtiyoj ma'nolarini bildirsa, stress - inglizcha kuchlanish, bosim, zo'riqish ma'nolarini anglatadi.

Shularni hisobga olgan holda, Selening yuqoridagi fikriga qo'shilish ham, qo'shilmalik ham mumkin. Sanalgan holatlardan istalgani stressni chaqirishi mumkin, lekin ulardan aynan bittasini tanlab olib «mana shu stress, deb ayta olmaymiz». Hozirgacha ham mazkur atamaning mohiyatini tushuntirish yuzasidan bir qancha olimlar o'z qarashlarini bildirgan bo'lsada, biroq hali ham aniq bir mazmunni aks ettiruvchi ma'lum bir to'xtamga kelinmagan. Shuning uchun stress nima ekanligi emas, nimalar stress emasligi haqida gapirish foydalidir. Bunda ham G.Selening fikrlari o'rinlidir:

Stress - bu shunchaki asabiy zo'riqish emas (garchi asab zo'riqishi - stress bo'lsada). Bu faktni alohida ta'kidlash lozim. Ko'pchilik mutaxassislar va hatto ba'zi olimlar ham biologik stressni kuchli emotsional qo'zg'alish bilan aynan bir narsa deb hisoblaydilar. Insonda uning oliy nerv tizimiga ta'sir etuvchi emotsional qo'zg'atuvchilar amalda eng ko'p uchraydigan stressorlar hisoblanadi. Stress - har doim ham shikastlanish natijasi bo'lmaydi. Stressorning yoqimli yoki yoqimsizligi unchalik ahamiyatga ega emas. Har qanday me'yoriy faoliyat - shaxmat o'yini va hatto, birovning mahkam quchishi ham hech qanday zarar keltirmaydigan ma'lum darajadagi stressni chaqirishi mumkin.

Stressdan qochish kerak emas - bu mumkin ham emas. Odatda inson «stressni boshidan kechiryapti» deganda kuchli stress yoki disstress nazarda tutiladi, aslida bu xuddi «uning temperaturasi yuqori» degandek ma'noni beradi, chunki uxlab yotgan odam ham bir qancha stress belgilarini boshdan kechiradi: yurak qonni haydab chiqarishda davom etadi, oshqozon-ichak tizimi kechki ovqatni hazm qiladi, nafas olish organlari ko'krak qafasi harakatini ta'minlaydi. Hatto miya ham to'lig'icha dam olmaydi. Shunday ekan G.Sele ta'biri bilan aytganda "Stressdan butunlay ozod bo'lishning birdan-bir yo'li - o'limdir, degan xulosa to'g'riroq bo'lar edi» [3, 75-b].

Stress borasidagi ishlarda tadqiqotchilar stressni yuzaga keltiruvchi sabablarga ham batafsil to'xtaladilar. Jumladan, K.V.Sudakov quyidagi tahlillarni keltiradi: agar fiziologik stress bevosita fiziologik ta'sirlar natijasida yuzaga kelsa, emotsional stress paytida psixik stressorlar bevosita murakkab psixik jarayonlar bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Bu jarayonlar stimulni baholashga va unga nisbatan qarshilik bildirishda avvalgi tajribalarga tayanishga asos bo'ladi. Agar stimurning psixologik jihatdan bunday qayta ishlanishi natijasida shaxsda xavf-xatarga berilish paydo bo'lsa, u holda stimul stressorning xarakterini belgilovchi omil bo'la oladi. Odatda bunday hol sub'ektga atrof-muhit tomonidan qo'yilayotgan talablarni qondirish jarayonida uning ehtiyojlari va qo'yilayotgan talablar o'rtasida yoki uning psixik va fiziologik resurslari o'rtasida mos kelmaslik holatidagi psixologik bahoni ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

R.Lazarusning fikriga ko'ra, bir qancha hayotiy voqealar sub'ekt tomonidan xavf tug'diruvchi vaziyat sifatida baholanar ekan. Muallif bunday vaziyatlar qatoriga kasalliklar, konfliktlar, ijtimoiy statusga nisbatan tahdid, yaqinlarining o'limi, yaqin kishilar bilan munosabatlarning buzilishi kabi yo'qotishlarni kiritadi. Kishining ijtimoiy moslashuviga tahdid soluvchi bunday "sinov" vaziyatlari yangi kuch va zaxiralarni talab etadi va o'ziga xos zo'riqishlarga olib keladi. Hatto inson orzusiga yetishishi ham, masalan, yangi ishga joylashish, turmush qurish, OO'Yuga kirish ham stressogen voqea sifatida qaralishi mumkin

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib, xulosa qilinsa, stress muammosi haligacha o'z dolzarbligi, qiziqarliligini yo'qotgani yo'q va ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazidagi asosiy muammoligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лазарус Р. Теория стресса и психофизиологические исследования. – М., 2007. – 178 с.
2. Судаков К.В. Системные механизмы эмоционального стресса. – М.: Медицина, 2002. – 230 с.
3. Селье Г. Стресс жизни. – М.: Изд. Прогресс, 2010. – 124 с.

XORIJIY TILNI O'ZLASHTIRISH MOTIVATSIYASI PSIXOLOGIK TADQIQODLAR PREDMETI SIFATIDA

Miliyeva M.G., O'zDJTU katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolda xorijiy tilni o'zlashtirish uchun motivatsiya bo'yicha turli yondashuvlar yoritib berilgan. Xorijiy tilni o'zlashtirish uchun kasbiy tayyorgarlik jarayonida xorijiy tilni o'zlashtirish motivatsiyasini o'rganish va shakllantirish masalalari ochib berilgan.

Kalir so'zlar: motiv, motivatsiya, muloqat, nutq, xorijiy til, kommunikativ motiv, lingvistika, ehtiyoj.

Psixologik tadqiqot mavzusi sifatida xorijiy tilni o'zlashtirish uchun motivatsiyani o'rganishda ko'plab yondashuvlar va nuqtayi nazarlar mavjud. Shunday qilib, I.F.Komkov xorijiy tilni o'rganish motivlarini uch guruhga bo'ladi:

- a) ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga asoslangan motivlar;
- b) xorijiy tilni o'rganish faoliyati yoki jarayoni bilan bog'liq motivlar;

c) majburlashga asoslangan motivlar (I. F.Komkov, 1972).

P.Ya. Kozik xorijiy tilni o'rganish uchun barcha motivlarni to'rt guruhga birlashtiradi:

a) o'rganilayotgan predmetning ahamiyatiga asoslangan motivlar;

b) xorijiy til va nutq faoliyatining ma'lum bir turi bilan bog'liq motivlar;

c) ijtimoiy-determinizmga asoslangan motivlar;

d) shaxsiy motivlardan tashqari xorijiy tilni o'rganishning ongli ehtiyojiga asoslangan motivlar.

S.T.Grigoryan xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonini rag'batlantiradigan motivlarning ikki turini aniqlaydi. Bir tomondan, bu shaxsning psixologik modelidan kelib chiqadigan ehtiyojlar (maqsadlar, so'rovlar, istiqbollar), boshqa tomondan, ular ta'lim faoliyatining ichki modelidan kelib chiqadigan bilim orttirishga bo'lgan qiziqishlardir. Xorijiy tilga xos bo'lgan motivatsiyaning yana bir muhim turi, ya'ni muloqotga bo'lgan ehtiyojga asoslangan ijtimoiy motivatsiyaning ishlashi mavjud (S.T.Grigoryan, 1970).

Xorijiy tillarni intensiv o'qitishning psixologik, pedagogik va uslubiy tamoyillarini tahlil qilish (G.A.Kitaygorodskaya, L.Sh.Gegechkori, I.A.Zimnaya, A.A.Leontiyev) o'qitishning boshqa, yanada samarali uslubiy tizimiga o'tish birinchi navbatda talabalarning motivatsion sohasini tubdan qayta qurish bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Talabaning predmetga bo'lgan munosabati o'zgaradi, bu uning uchun nafaqat va hatto bilim obyekti sifatida emas, balki qo'shma "o'yinlarda", guruh a'zolari bilan muayyan munosabatlarda muammolarni birgalikda hal qilish ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida ishlaydi.

Xorijiy tilni o'zlashtirish uchun kasbiy tayyorgarlik jarayonida xorijiy tilni o'zlashtirish uchun motivatsiyani o'rganish va shakllantirish masalalari (kengroq aytganda, faoliyatning kasbiy motivatsiyasi) bu nafaqat bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqarish, balki mutaxassisni tarbiyalash, uning shaxsini shakllantirish, kasbiy faoliyatning faol subyekti va odamlar bilan muloqot ishtirokchisi masalasidir. Shu sababli, xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonini qanday motivlar boshqarishi, talabalarning til materiallari ustida ishlashi bilan qanday maqsadlar bog'liqligi va kelajakdagi mutaxassislar va professionallar sifatida ushbu faoliyatning shaxsiy ma'nosiga ega ekanligi e'tiborsiz emas. Ma'lumki, bir xil ta'lim faoliyati turli talabalar uchun turli ma'noga ega bo'ladi. Bu, eng umumiy shaklda, ularning o'rganish uchun motivatsiyasini belgilaydi. Ammo bu, shuningdek, mutaxassisning kasbiy faoliyati va muloqoti uchun chuqurroq motivatsiyani shakllantirishning bir usulidir.

O'quv faoliyatini motivatsiyasiga bag'ishlangan ko'plab ishlar orasida xorijiy tilni o'zlashtirish uchun motivatsiya tuzilishi bo'yicha tadqiqotlar juda kam va deyarli yo'q. Shu bilan birga, ushbu turdagi tadqiqotning amaliy ahamiyati juda yuqori, chunki xorijiy tilni o'zlashtirish uchun maqbul motivatsiya tizimini shakllantirish uni takomillashtirish va intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, mutaxassisning kasbiy motivatsiyasini va oxir-oqibat kommunikativ professionallikni shakllantirish bo'lib bizning fikrimiz dialogizatsii mutaxassisning shaxsiyatini dialoglashtirishdan iboratdir. Psixologik adabiyotlarda o'quv faoliyati uchun motivatsiya tizimini tashkil etuvchi motivlarning bir nechta guruhlari tasvirlangan (B.V.Belyaev, 1965; A.K.Markova, 1990; M.Fumadel, 1976; G.V.Rogova, 1977 va boshqalar). Ushbu tizim ikkita katta guruhni o'z ichiga oladi:

1) o'quv faoliyatining mazmuni va uni amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq bilim orttirish uchun xizmat qiladigan motivlar;

2) shaxsning boshqa odamlar bilan turli xil ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liq ijtimoiy motivlar.

Ushbu guruhlarning har birida motivlarning kichik guruhlarga bo'linadi. Shunday qilib, o'quv faoliyatining bilim orttirish motivlari orasida A.K.Markova (1990) keng bilim orttirish motivlari, o'quv va bilim orttirish motivlarni va o'z-o'zini tarbiyalash motivlarini belgiladi. Ularning barchasi talabalarning o'quv ishidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishni ta'minlaydi, bilim orttirish faoliyatini keltirib chiqaradi, insonning bilimdan bo'lish istagi, "asr darajasida" bo'lish istagi, vaqt ehtiyojlari va hokazolarni shakllantiradi. Ijtimoiy motivlar orasida burch, mas'uliyat

hissi bilan bog'liq keng ijtimoiy motivlar va shu tor ijtimoiy (yoki pozitsion) motivlar mavjud bo'lib, ular ma'lum bir pozitsiyani egallash, boshqalar bilan munosabatlarda o'rin egallash istagidan iborat bo'lib, ko'plab o'ziga xos shakllarda, ijtimoiy hamkorlik motivlarida ifodalanadi. Ta'kidlanishicha, bilim orttirish va ijtimoiy motivlar turli yo'nalishlarga ega bo'lishi mumkin va aynan ularning sifati talaba uchun ta'lim faoliyatining ma'nosini belgilaydi.

Xorijiy tilni o'zlashtirish motivlarini o'rganishda xorijiy tilning o'zi o'quv predmeti sifatida o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqishi kerak. Xorijiy tilning o'quv predmeti sifatida o'ziga xos xususiyatlari va uni o'zlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini ona tilini o'zlashtirish jarayoni bilan taqqoslaganda tahlil qilib, I.A.Zimnaya (2001), L.S.Vgotskiy (1982), "ona tili, birinchi navbatda, insonning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va shundan keyingina uni egallash vositasidir, ushbu funktsiyani bajarish bilan birga, bu o'z fikrlarini ifoda etish vositasidir". Ona tilini o'zlashtirishda, inson haqiqatni bilish vositasini o'zlashtiradi. Ushbu jarayonda insonning o'ziga xos bilim orttirish, kommunikativ va boshqa ijtimoiy ehtiyojlari qondiriladi va shakllanadi. Ko'pgina mualliflar ta'kidlaganidek, ona tilini o'zlashtirish ichki sabab yuz beradigan jarayondir. Inson bu tilni ongli ravishda tilni bilish istagi tufayli emas, balki ontogeneza ta'kidlaganidek, insonning rivojlanishi sababli o'zlashtiradi. I.A.Zimnaya ta'kidlaganidek, xorijiy tilni o'zlashtirish bilan bog'liq vaziyat biroz boshqacha (I.A.Zimnaya, 2001), bu endi ona tili bilan bir xil darajada tajriba orttirish vositasi, haqiqatni bilish vositasi bo'lib xizmat qila olmaydi. Ko'pincha, uni o'zlashtirish ta'lim va bilim orttirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish yoki o'z fikrlarini ifoda etish shaklini anglash va boshqa odamlar bilan muloqot qilish va tushunish uchun ushbu shaklni o'zlashtirish zarurati bilan belgilanadi.

Xorijiy tilni o'zlashtirish odamga haqiqat to'g'risida bevosita bilim bermaydi. U, ona tili kabi, qonunlari boshqa fanlarning predmeti bo'lgan obyektiv voqelik haqidagi fikrlarni ifodalash vositasidir. Shu ma'noda, I.A.Zimnaya, o'quv predmeti "xorijiy til" "predmetsiz" deb yozadi. Xorijiy tilning o'quv predmeti sifatida ikkinchi o'ziga xos xususiyati uning cheksizligi va o'lchovsizligi, "hamma narsani" bilmasdan, faqat ba'zi bo'limlarni bilgan holda "xorijiy tilni yaxshi bilish" mumkin emasligidir. Bu "hamma" nima ekanligini hech kim bilmaydi. Bu ma'noda til cheksizdir. Va nihoyat, uchinchi, tilning hodisa va ta'lim predmeti sifatida bir xil bo'lmagani qayd etilgan. L.V.Sherba asarlarida tasvirlanganidek til so'zning keng ma'nosida, "lingvistik hodisalar" tizimi sifatida, birinchidan, gapirish va tushunish jarayonlari, ya'ni "nutq faoliyati" deb belgilangan hamma narsani, ikkinchidan til tizimi yoki lug'at va grammatika bilan belgilangan haqiqiy tilni, uchinchi, ma'lum darajada aniq bir vaziyatda nutq faoliyatida til vositalaridan foydalanish natijasi bo'lgan narsa "til material" matni o'z ichiga oladi.

Tilning o'rganish predmeti sifatida har xil turdagi va turli aspektligi barcha til hodisalarining asosini tashkil etuvchi manbani izlashni talab qiladi. L.V.Sherbaning ushbu masala bo'yicha qarashlarini tahlil qilib, I.A.Zimnaya ta'kidlashicha, u "tajribada berilgan yagona nutq faoliyati" bo'lgan ushbu umumiy asosni ham ochib bergan (I.A.Zimnaya, 2001).

Bizning fikrimizcha, xorijiy tilning o'quv predmeti sifatida barcha o'ziga xos xususiyatlariga qaramay, I.A.Zimnaya tomonidan taklif qilingan xorijiy tildagi nutq faoliyatini o'qitish obyekti sifatida ko'rib chiqish ushbu fan uchun o'quv faoliyati uchun yetarli motivatsiya tizimini o'rganishga istiqbolli hisoblanadi. Nutq faoliyati, birinchi navbatda, odamlar o'rtasidagi muloqot usuli bo'lib, unda odamlar o'zaro muloqot qilishadi, fikr, his-tuyg'ular va tajriba almashadilar. Shu bilan birga, xorijiy tilni o'qitishda "biz biron bir noaniq bir xil bo'lmagan nutq faoliyatini lingvistik hodisa sifatida o'rgatmaymiz, balki xorijiy tilda mustaqil nutq faoliyatini shakllantiramiz" (I.A.Zimnaya, 2001).

Shu munosabat bilan, ushbu predmetga mos keladigan faoliyat motivi, birinchi navbatda, xorijiy tildagi nutq faoliyatini o'zlashtirish uchun boshqa motivlar tizimida qo'zg'atuvchi mexanizm vazifasini bajaradigan kommunikativ ehtiyoj deb taxmin qilishimiz mumkin. Shu bilan birga, xorijiy tilni o'qitishda kommunikativ motivatsiya masalasini ko'rib chiqish bilan bog'liq holda ta'kidlash kerakki, o'qitish predmeti xorijiy til va nutq faoliyati (xorijiy til orqali muloqot qilish) so'zning to'liq ma'nosida xorijiy til orqali ta'lim muloqoti hisoblanadi. Bu ta'lim

esa ma'lum ma'noda nuqsonli xarakter ko'proq darajada namoyon bo'ladi, talabalar xorijiy til kamroq o'zlashtiradi. Xuddi shu bilan, bu muloqot ko'proq ta'lim xarakteriga ega bo'lsa, uning haqiqiy ichki kommunikativ motivatsiyasi shuncha kam bo'ladi (V.V.Ryfov, 2001, 2003).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гусаенова Г.А. Чет тилини ўрганиш учун психологик шартлари // Образование и воспитани. – 2020. - № 3 (29). – С. 84-85.
2. Глухов В.П. Основы психолингвистики: учеб. пособие для студентов педвузов. – М: АСТ: Астрель, 2005. – 351 с.
3. Жалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси: Чет тиллар ўқув юртлари (факультетлар) талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 432 б.

О'QISH MOTIVLARI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ADABIYOTLARDA O'RGANILGANLIGI

Yuldashova D.Sh., TDPU o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talabalarda o'quv faoliyatining motivatsion sifatlari to'g'risida qomusiy olimlarning ilmiy qarashlari, ular ilgari surgan g'oyalar mazkur muammoni yanada chuqurroq tadqiq qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. O'quv motivatsion sohasining tashkil etish darajasini, tuzilish xususiyatlarini o'rganish shaxs psixologiyasiga muntazam yondashish kabi sifatlari bilan to'ldirib borish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: motiv, motivatsiya, o'quv motivatsiyasi.

Sharqning qomusiy olimlari o'zlarining asarlarida ta'lim-tarbiya, shaxs kamoloti borasidagi fikrlari bilan birga bilimlarni egallash, ilm olish yo'llari xususida qator ilmiy ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, Imom al Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Burxoniddin Zarnujiy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Umar Xayyom, Abu Hamid Fazzoliy, Alisher Navoiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Abdulla Avloniy kabi olim va mutafakkirlarning asarlarida yuqoridagi muammo yuzasidan atroflicha ma'lumotlar keltiriladi.

Qomusiy olim Imom al Buxoriy ham ilm o'rganishni yuqori darajaga ko'tarib, o'z asarlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: "Kishi ilm bobida nafaqat o'zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o'zidan past bo'lganlardan hadis olmaganuncha, yetuk muhaddis bo'la olmaydi"[1; 48-b.]. Imom Buxoriy ushbu fikri bilan o'quv faoliyatining ijobiy motivlari ustozmuallim tomonidan shakllantirilishiga urg'u berayotganday bo'ladi.

Abu Nasr Farobiy esa ko'plab asarlarida bilish masalasiga katta e'tibor beradi. U bilishda ikki bosqichni - hissiy va aqliy bilishni farqlaydi va bilishda inson aqlining rolga ahamiyat beradi. Farobiy insonlarni ilmi bo'lishga chaqirib o'quvchining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, o'quvchiga ta'lim berish, uni ilmi qilish uchun o'qituvchi tinmasdan mashaqqatli mehnat qilsagina o'quvchi o'qishga, ta'lim olishga, bilimli bo'lishga intilishi mumkinligini ta'kidlaydi. O'qituvchi o'quvchiga bilim beraman desa, o'quvchi oldida haqiqatgo'y bo'lishi kerak, o'zi fahm-farosatli bo'lib, or-nomusini qadrlashi lozim, shogirdlariga nisbatan adolatli bo'lishi, ko'zlagan maqsadiga erishishida qat'iylik ko'rsata bilishi va o'rnak bo'lmog'i joiz, deya ta'kidlaydi. Farobiy tushunishni, bilimning mohiyatini uqib, anglab olishni quruq yodlashdan ustun qo'yadi va o'quvchiga umumiy qonun va qoidalarni o'zlashtirishni tavsiya etadi, chunki qonun-qoidalarni anglash, uning e'tirofiga ko'ra, juda katta ahamiyatga ega. Allomaning mulohazasiga binoan har qanday o'quvchi o'z xatti-harakatidan xabardor bo'lmog'i, ya'ni o'zini anglagani, zamonaviy psixologiya fani terminologiyasiga ko'ra o'zini refleksiya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi va shu sayi-harakatlari tufayli baxtga erisha oluvchi insonligini anglamog'i lozimdir. Farobiy o'quvchining shaxsiga xos qator fazilatlarga xolisona sharh bergan olimdir.

Qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning [2; 48-b.] fikricha, inson tafakkuri, aqlining kuchi bir necha bosqichdan iborat. Aqliy kuchlar dastlab mutlaq tinch, sokin holatda bo'ladi. Bolalardagi yozishni, o'qishni o'rganishdagi potensial kuchlar shunga misol bo'la oladi. Abu Ali ibn Sino bu kuchlarni moddiy kuchlar deb nomlagan, ya'ni mazkur kuchlarni tashqi motivlar deb tushunsa bo'ladi. Sekin-astalik bilan bu kuchlar harakatga aylanadi, bular mehnat quroli samarasidir, ya'ni mehnat quroli orqali harakatga keladi va namoyon bo'ladi. Bu holatni bola yozishni xohlab turibdi-yu, ammo yozish quroli bo'lgan qalamning yo'qligi bilan izohlash mumkin. Bu ikki kuchni Ibn Sino ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan kuch deb atagan. Nihoyat, uchinchi kuch esa irodaning yetishmasligi bilan tushuntirib beriladi. Ya'ni shunday holatning kuchi bor, ammo uni ishlatishga, ruyobga chiqarishga bolada iroda yetishmaydi. Alloma nazarida shu kabi uch holat bilan aql, bilim olish izohlanadi. "Tayr" asarida esa insonlarni do'stlikka, bilim o'rganishga chaqiradi [50].

Ibn Sinoning "Xayy ibn Yaqzon" qissasida fe'l-atvorini, ruhiyatini tushunish uchun mantiq ilmini o'rganishga chorlaydi. Bu fan inson tafakkur doirasini kengayishiga katta yordam beradi. Insonlarni fe'l-atvorini bilish uchun o'qish, o'tkir bo'lish uchun farosat ilmidan xabardor bo'lish kerak. Darhaqiqat, ilm o'rganishga Farobiy musiqiy, falsafiy ilm bilan da'vat etgan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino mantiq ilmi orqali da'vat etgan.

Abu Ali ibn Sino bolalarning o'qish, ta'lim olishlariga ma'suliyat bilan qarash tarafdorlaridan bo'lgan. U bolaning 6 yoshga yetgach muallimga bilim olish uchun topshirilishini aytib o'tadi. Hozirda ham bolalarni 6,7 yoshdan boshlang'ich sinflarga qabul qilinishi Ibn Sinoning o'sha davrdagi g'oyalarining naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi, zotan ushbu hollar bolani o'qishga bo'lgan muhabbatini kuchaytirishi mumkin. Uning fikricha, bolaga ta'lim asta-sekinlik bilan berilishi joiz. Uni birdaniga kitobga bog'lab qo'ymaslik lozim, deydi. Ibn Sino kishilarni yashashga qobiliyatli bo'lishi uchun va bekorga jabr ko'rmasligi uchun ularga ehtiyot bo'lib ta'lim berish kerakligini uqtiradi. Ya'ni ularning o'qishga bo'lgan ijobiy motivlarni so'ndirmaslikka undaydi [3; 464-b].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Sharq mutafakkirlarining buyuk xazinasini, bolalarga ta'lim, tarbiya berishdagi ilg'or fikrlari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogika tarixi: (Pedagogika oliy o'quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun o'quv qo'llanma) K.Hoshimov, Z.Nishonova, M.Inomova va boshq. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 48 b.
2. Ibn Sino. Falsafiy qissalar. – Toshkent: O'qituvchi, 1963. - 48 b.
3. O'zbek pedagogikasi antologiyasi: Ikki jildlik. J.1. (Tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil; Tahrir hayati: M. Xayrullaev va boshq.)– Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 464 b.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA YOZMA SAVODXONLIGINI RIVOJLANTRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Xolboyev A., O'z DJTU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan unumli foydalanish va uning ahamiyati, "Chiroyli maktub", "Xatolarni topaman" usullarini tashkil etish, qo'llanilish ahamiyati, usulning tahlili natijasida o'quvchilarning fikr va g'oyalarini erkin bildirishi to'qrisida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Yozma savodxonlik, ta'lim texnologiyasi, usullarning ahamiyati, erkin fikrlash, leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis,

Ta'limning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi jamiyatning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga boq'liq. Bugungi kunda ta'limning sifat samaradorligini

oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Barchamizga ma'lumki, Milliy o'quv dasturi ta'lim tizimini keng isloh qilish, fanga doir bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirish, ta'lim mazmunini tubdan yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfdan taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish ham nazarda tutilgan. 2020 yil 20 oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi farmonda o'zbek tili nufuzini oshirish va yozma savodxonlikni oshirish bo'yicha alohida e'tibor qaratilgan. Ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgarlar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirishdan iborat. "Ona tili" nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi.

Aynan nutqiy kompetensiyani shakllantirishda yozma nutq malakasini oshirishda quyidagilar:

o'z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma'lumotni belgilangan hajm talabiga ko'ra yoza olish;

turli maqsad va har xil o'quvchiga mo'ljallangan matnlarni yoza olish,

xususan, ma'lum narsa-hodisa haqida yozma ma'lumot yetkaza olish;

materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan

asoslab yoza olish;

yoza nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni

o'rinli qo'llay olish;

matnning izchilligi ta'minlash va saviyasini oshirish uchun so'z va

grammatik vositalarni to'g'ri qo'llay olish;

imlo, uslub va punktuatsion me'yorlarga rioya qilish ta'kidlab o'tilgan.

Ona tilining jamiyatdagi o'z qadri, mavqeyi hamda maqomiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish maqsadida o'rganish va o'rgatishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj yanada oshirildi. Natijada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning diqqati kerak-kerak emas mavzular bilan chalg'itish emas balki, ona tili ta'limining hayotiy zaruratni oshirish va uni targ'ib qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu bois o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatli jihatlarini yoritishni maqsad qildik.

Ta'lim texnologiyaga asoslangan darslarining an'anaviy darslardan farqi nimadaq Bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib, unga o'z fikrini erkin bayon etish va yozishga imkoniyat berishdir. Bu imkoniyat qanday yaratiladiq Dastlab, boshlang'ich sinf o'quvchilariga yozma savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhiti yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish. – T., 1970.
2. G'ulomov M. Chiroyli yozuvni shakllantirish. – T., 1992.

ПРОФЕССОР-ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ КАМОЛОТ МЕЗОНЛАРИ

А.Бозоров, ЎзДЖТУ

Ўқитувчилик касбининг хусусияти уларнинг ўз билимлари, салоҳияти ва кўникмаларини узлуксиз ривожлантириб боришларини тақозо этади. Шунинг учун “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да мактаб ўқитувчиларнинг малакасини оширишга мактабдаги таълим жараёнининг ажралмас қисми сифатида қараш зарурлиги алоҳида таъкидланган. Бунинг учун ўқитувчилар малакасини оширишнинг қулай шакл ва воситаларини топиш, уларнинг ижодий ишлари учун кенг имконият яратиш лозим.

Мустақиллик йилларида таълим соҳасида эришилган ютуқлар, баркамол шахсни шакллантириш ва малакали мутахассисларнинг малакасини оширишга янги мазмун ва йўналишда ёндашилди. Узлуксиз таълим тизими шакллантирилиши борасида қатор ишлар амалга оширилди:

ўқитувчиларни касбий тайёрлаш даражасига қўйиладиган талабларни тартибга солувчи такомиллаштирилган ДТС;

таълим ва ўқитувчилар билимлари сифатини назорат қилувчи кўрсаткичлар, назорат тизими;

янги ўқув дастурлари, дарсликлар ишлаб чиқилди ва амалиётга татбиқ этилди, таълим мазмуни янгиланмоқда, таълим жараёнини ташкил этишга психологик-педагогик шарт-шароит яратилмоқда, уни бошқаришнинг самарали усуллари татбиқ этилмоқда.

“Илгари бирор бир мамлакатнинг тараққиёти ва куч-қудратини ифодалаш ва баҳолаш учун унинг мавжуд бўлган табиий бойликлари ва иқтисодий салоҳияти ҳақида сўз юритилар эди. Бугун дунё тараққиётнинг шундай босқичига қадам қўйдики, ҳар қандай миллат ва давлат имкониятларининг ҳал қилувчи белгиси – бу маърифат, инсонларнинг интеллектуал, касбий ва маънавий салоҳиятидир”. Шиддат билан илгарилаб бораётган давр таълим соҳасида ҳам ўзгаришлар бўлишини, ўқитувчидан эса ўз фаолиятини ўзгартиришни талаб этади. Яратилган шароитларга жавобан ўқитувчи ўз касбининг устаси бўлиши лозимлиги талаб қилинмоқда. Бугунги кун ўқитувчисининг асосий вазифаси фақат билим бериш эмас, балки бошқарувчилик фаолиятини ҳам амалга оширишни талаб қилмоқда. Таълим жараёни ташкилотчиларига таълим жараёнини тўғри ташкил қилиш, аниқ тизимга асосланган ҳолда лойиҳалаш ва бошқаришга эътиборни кучайтириш таъкидланмоқда.

Маълумки, шахснинг хислат ва фазилатлари фаолият кўрсатиш жараёнида шаклланади ва фаолиятнинг натижаси ҳисобланади.

Ўқитувчи кадрларни тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2004-2009 йилларда мактаб таълимини ривожлантириш Давлат умуммиллий дастури”да асосий йўналишлардан бири эканлиги алоҳида кўрсатиб ўтилган.

Малака ошириш жараёнида таълим сифати ва курс самарадорлигини ошириш педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишнинг асосий мақсадидир. Бунинг учун ўқув-мавзу режалар, профессор-ўқитувчилар салоҳиятини кўтариш, уларда машғулотларни замонавий таълим технологиялари асосида ташкил этиш, ўқув жараёнида тингловчилар фаоллигини ошириш, уларнинг илғор тажрибаларига суяниш, ўз устида тинимсиз ишлаб, касб маҳоратини ошириш кўникмасини ҳосил қилиш, машғулот олиб бориладиган аудиторияларни ДТС ва Давлат талаблари асосида жиҳозлаш, индивидуал ишлашни, электрон қўлланма, ахборот технологияларидан машғулотларда кенг ва унумли фойдаланишни ташкил қилиш зарурдир.

Педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишдан асосий мақсад ҳам таълим ходимларини ўқиш, ўрганиш, меҳнатига бўлган масъулиятини ошириш орқали таълим сифатига эришишдан иборат. “Шуни унутмаслигингиз керакки, келажагимиз пойдевори билим даргоҳларида яратилади, бошқача айтганда, халқимизнинг эртанги куни қандай бўлиши фарзандларимизнинг бугун қандай таълим ва тарбия олишига боғлиқ. Бунинг учун ҳар қайси ота-она, устоз ва мураббий ҳар бир бола тимсолида аввало шахсни кўриши зарур. Ана шу оддий талабдан келиб чиққан ҳолда, фарзандларимизни мустақил ва кенг фикрлаш қобилиятига эга бўлган, онгли яшайдиган комил инсонлар этиб вояга етказиш-таълим-тарбия соҳасининг асосий мақсади ва вазифаси бўлиши лозим, деб қабул қилишимиз керак. Бу эса таълим-тарбия ишини уйғун ҳолда олиб боришни талаб этади.

Таълимни тарбиядан, тарбияни эса таълимдан ажратиб бўлмайди-бу шарқона қараш, шарқона ҳаёт фалсафаси”. Умумий ўрта таълим мактаблари адабиёт ўқитувчилари малакасини оширишнинг ҳозирги ҳолатини таҳлил қилиш шуни кўрсатмоқдаки, бу жараён ўқитувчи савиясини аниқ ҳисобга олиш асосида эмас, балки ўқитувчининг меҳнатига, унинг ўз савиясини оширишга, малака оширишнинг ҳамма бўғинларига ўртача, ялпи, шахсига умумлашган ҳолда ёндашишига асосланган. Курсларда берилаётган билимлар ўқитувчининг бор билимларини такрорлаш ва қисман янгиликларга олиб киришдан иборат бўлиб қолмоқда. Чунки ўқитувчининг уч йил аввал олиб кетган янги билимларини яна уч йилда рўй берган янги ахборотлар билан бойитиш таълим берувчида ҳам таълим олувчида ҳам қийинчиликларни юзага келтирмоқда.

Ўқитувчи малакасини ошириш мактабдаги таълим жараёнининг ажралмас қисми. Ўқитувчиларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш масаласида таълим муассасаларининг аниқ эҳтиёжларини мунтазам ўрганиш зарур. Айниқса, бу борада кенг қамровли ўлчов ва баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш, мониторинг ишларини олиб бориш, ўқитувчиларни малакасини ошириш ҳудудий режаларини илмий асосланган ҳолда тузиш ва уларни самарали амалга ошириш лозим.

Ўқитувчиларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишдан мақсад уларнинг ижодий имкониятларини ривожлантириш сифатларини, касбий билимлари ва умумий савиясини такомиллаштириш, пировардда, ўқувчиларни ўқитиш ва тарбиялаш мазмуни ва сифатини оширишдан иборат. Таълим-тарбия ишларининг мураккаблашиб бориши ўқитувчилар олдида турган вазифалар кўламини кенгайтirmoқда. Шунга кўра ўқитувчилар малакасини ошириш тизимида уларни ижодий изланишга одатлантириш, ижодкорлик фаолиятини рағбатлантириш, мақсадга мувофиқ ишини оммалашттириш муҳим аҳамиятга эга.

Узлуксиз таълимнинг малака ошириш тизимида ва мавжуд адабиётларда асосий урғу малака оширишнинг умумий ҳолатига, адабиёт ўқитиш жараёнида эса фаннинг методик-ўқитилиш жиҳатларига бағишланган

Бу муаммони ҳал қилишнинг бирдан бир йўли, адабиёт ўқитувчилари малакасини ошириш жараёнида узвийлик, узлуксизликка эришиш, уларнинг касбий фаолиятини оширишга қўйиладиган талабларни такомиллаштириш, таълим технологияларидан фойдаланишнинг самарадорлигини оширишга илмий тавсиялар яратиш, адабиёт ўқитувчиси учун касбий тайёргарликни ривожлантириш, маҳоратини ошириш ҳамда малака ошириш жараёни узлуксизлигининг технологик тизимини ишлаб чиқишдан иборатдир.

Ўқитувчиларнинг малакасини ошириш жараёни, энг аввало, миллий шарт-шароитлар ҳамда республика, вилоят, туман таълим муассасаларидаги барча имкониятлардан келиб чиқиб ўзига хос хусусиятларни ҳисобга олишни ҳам назарда тутди.

Ж.Ғ.Йўлдошев “ўз-ўзига таълим бериш” муаммоларидан бирини технологик муаммо деб атаб, у “қандай воситалар ва йўллар билан билан ўқитувчи касбий ва инсоний нуқтаи назардан ўзини шакллантириши ва ривожлантириши мумкин?” деган саволни кўяди ва унга қуйидагича жавоб беради: “Бунда ўқитувчини ҳар хил методик материаллар, китоблар, журналлар билан таъминлашдан тортиб, семинарлар, ўқув машғулоти ва анжуманларгача сафарбар этиш зарур”. Муаллиф фаолияти ўрганилган 4000 дан ортиқ ўқитувчидан 18,3 фоизи ўз иш фаолиятида илмий-педагогик, илмий методик адабиётлардан фойдаланиши, қолган 81,7 фоиз тингловчилар методик қўлланмаларга мурожаат қилмаслигини кўрсатиб, унинг иккита сабабини айтиб ўтади:

тавсия этилган илмий-методик қўлланмалар савиясининг пастлиги;

ўқитувчининг юқори савияда, замонавий дарс ўтиши учун ўқув муассасалари раҳбарларида талабчанликнинг йўқлиги.

Юқоридагилардан кўришиб турибдики, педагог ходимлар, айниқса, адабиёт ўқитувчиларининг малакасини оширишдаги муаммоларни тадқиқ қилиш муҳим ва долзарб масала. Адабиётнинг инсоншунослик деб, шоир ва ёзувчиларнинг эса инсон руҳининг муҳандислари, деб таърифланиши бежиз эмас, албатта.

Айниқса, адабиёт ўқитувчисидан бошқа фан ўқитувчиларига қараганда кўпроқ талаб қилинадиган ижодкорлик, “инсон кўнгли, руҳияти билан иш кўриши таълим жараёнини таълимий, тарбиявий, ривожлантирувчи мақсадлардан оғишмай, ҳиссиётларга берилмай ташкил этишни талаб қилади. Шу сабабли ўқитувчилар руҳиятига янгиликка интилувчанликни, янгиликларни “чўчимасдан”, “хавфсирамасдан” таълим жараёнига тарғиб этиш ва мустақил мутолаа қилишга доимо зарурият сезишни сингдириш лозим. Чунки янгиликни ижодкорона тўғри тарғиб этиш ўқитувчига улуғворлик билан бирга завқ бағишлайди. “ўқувчиларда барқарор ғоявий, маънавий-ахлоқий ва эстетик ишонч-эътиқодларнинг шаклланиши, уларнинг энг муҳим ҳаётий тушунчалар мағзини чақа олиши маълум маъноларда адабиёт ўқитувчиси маҳоратига боғлиқдир”.

Айни ўринда шуни ҳам таъкидлаб ўтиш жоизки, адабий таълим жараёни бошқарувчиларига бериладиган малака оширишдаги таълимнинг дидактик ва ташкилий жиҳатдан тўғри ташкил этилиши касбий маҳорат самарадорлигини таъминлашда муҳим омил сифатида намоён бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. – М.: Просвещение, 1984. – 208 с.
2. Маҳмудов Н.Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 163 б.
3. Крюкова Т.Л. Человек как субъект совладающего поведения. – М.: Ин-т психологии РАН, 2008. – С. 55-65.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH JARAYONLARI RIVOJLANISHIDA TASVIRIY SAN'ATNING AHAMIYATI

Salaxidinova X.X., TDPU tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari (diqqati, xotirasi, tafakkuri, tasavvuri)ni rivojlanishida tasviriy sanatning ahamiyati to'g'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, bilish jarayonlari, tasviriy san'at, estetik ehtiyojlar, motiv, qiziqish.

Bugungi zamonaviy psixologiyaning eng muhim va dolzarb muammolaridan biri sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish masalasi ustivor ahamiyat kasb etmoqda [5]. Natijada maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik ehtiyojlarini qondirish mexanizmlarini yaratish orqali, ularning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini shakllanishi, rivojlanishini o'rganish, taxlil qilish jarayoni asosida tavsiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. "Go'zallik tuyg'usini singdirmay turib, to'laqonli barkamol insonni voyaga yetkazish mumkin emas" [1] deya ta'kidlaganda R.Tagor bag'oyat haq edi. Ma'lumki, maktabgacha yosh - bu bolaning turli xil qobiliyatlarini rivojlantirishning "oltin vaqti", shu jumladan shaxsning estetik "eshitish" davri bo'lib, u inson ruhi xazinasi bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Maktabgacha yoshda boladagi qiziqishlarning shakllanishini taxlil qilish asosida bolani bolalikning turli bosqichlarida hayotiy vazifalarni hal etishga qodir, ijodkor, tashabbuskor va mustaqil tarbiyalash imkonini beradi. Maktabgacha yosh - bu tasavvurning jadal rivojlanishi, tafakkurning obrazli shakllari, qiziquvchanlik, faol orentatsiya va kognitiv jarayonlar - bolalik davrida olingan bilim, ko'nikma, tajriba va barcha shaxsiy xususiyatlar bolaga atrof olamni anglash imkoniyatini taqdim etib, bu xususiyatlar jadallik bilan rivojlanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy san'atga qiziqishlar shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, bu sohada tarbiyachi-pedagoglarimiz oldida turgan hayotiy vazifalardan biri bizningcha, quyidagi psixologik jarayonlarga yo'naltirilishi shart:

maktabgacha yoshdagi bolalarda mashg'ulotlar jarayonida tasvirlashga ongli munosabatni tarkib toptirish (chunki, bola shunchaki rasm chizadi, boladagi rasm chizishga bo'lgan motivlar asosan anglanilmagan hisoblanadi);

bolalarda tasviriy san'atga ko'nikma va malakalarni shakllantirish (muntazam va ketma-ket tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayoni orqaligina yuqoridagi maqsadga erishish mumkin) [7];

bolalar qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish, ularda rasm chizishni kundalik ehtiyojga aylantirish va boshqalar (tarbiyachi tomonidan amalga oshiriladigan e'tibor bolalarni ruxlantiradi) [6].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy san'atga nisbatan qiziqishlarni vujudga keltiruvchi asosiy omil ularning estetik ehtiyojlari hisoblanib, bu ehtiyojlarni qondirish g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalardagi ijodiy jarayonning eng zarur sharti esa ulardagi qiziqishlarning mavjudligida namoyon bo'ladi hamda aynan rasm chizish jarayoni orqali ularning diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, hayol, ijodiy fikrlash kabi psixologik xususiyatlari shakllantirilishiga zamin yaratiladi.

Psixolog olim E.Klapared "Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika" kitobida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari to'g'risida mulohaza yuritib, qiziqishga quyidagicha ta'rif bergan edi [7]. - Qiziqish - shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayan narsa va hodisaga munosabati. Bunda insonning o'ziga xos xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan xolda o'zlashtirishda, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishda qo'l keladi, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga yordam beradi. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai vazifasini bajaradi. Qiziqish shaxsning borliqqa tanlab munosabatda bo'lishida, o'ziga xos qaror qabul qilishida, o'zini-o'zi nazorat eta bilishida, maqsadga intiluvchanligida yuzaga kelgan to'siqlarda ifodalanadi. Qiziqishlar shaxsiy va ijtimoiy, bevosita va bilvosita, keng va tor, beqaror va barqaror bo'ladi. Qiziqish sinchkovlik, qiziquvchanlik, bilishni o'z ichiga oladi.

Bugungi kun psixologiya muammolari orasida yetakchi va intensiv ravishda o'rganilayotganlardan biri iqtidor va ijodkorlik muammosidir. Ijodkor shaxsni maqsadli rivojlantirish g'oyalari jahonning ko'plab olimlari tomonidan ilgari surilgan. Ijodiy jarayon va ijodning psixologik jihatlari B.G.Anan'ev, R.Arnxeym, D.B.Bogoyavlenskiy, M.A.Vollach, J.S.Vigotskiy, J.Gilford, V.N.Drujinin, N.Kagan, A.Yu.Kazirev, A.N.Leontev, A.N.Luk, A.Maslou,

S.Mednik, Ya.A.Panomarev, K.Rojers, I.M.Roseta, S.L.Rubinshteyn, R.Stenberg, E.P.Torrens, V.S. Yurkevich va boshqalarning asarlarida yoritilgan [2].

Yuqorida aytilgan asarlarda har xil qarashlarga xayrixohlik, ijtimoiy muhitning ahamiyatiga e'tiborsizlik ko'zga tashlanadi. Ularda insonning oliy darajadagi ijtimoiy mavjudodligi tan olininadi, unga ilmiy-nazariy nuqtai nazardan yondoshiladi, ammo insondagi psixologik, fiziologik va biologik jihatlar, tarkibiy qismlar tabaqalanmasdan, tashqi muhit bosh omil deya uqtiriladi [6]. Ammo, bolalardagi tasviriy san'atga qiziqishlar tashqi muhitdan ko'ra, o'zini-o'zi nomoyon etishga bo'lgan extiyoj ya'ni tashqi omil asosidagi anglanilmagan motivlar asosida rivojlanar ekan [4].

Qiziqishni vizual faoliyat uchun motivatsiya sifatida Ye.A.Flerina, N.P.Sakulina, T.S.Komarova, T.G.Kazakova, G.G.Grigorevalar o'zgaruvchan faoliyatga qodir bo'lgan barkamol, ijodiy shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Va bu vazifani amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, bolada ijodkorlik uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish kerak, degan xulosaga keladilar. Bolalarning faoliyatga qiziqishini uyg'otishga yordam beradigan, bunday faoliyatga ijobiy hissiy munosabatni keltirib chiqaradigan bunday usul va usullarga amal qilish kerakligini ta'kidlaydilar. Bolada tasvirlashga qiziqish bo'lsa, o'z ishini baholash, ulardagi shakllarning xilma-xilligini, ranglar kombinatsiyasining yorqinligini sezish istagi kuchli bo'lib, bularning barchasini bola o'zi qiziqqan holatda ko'rish va tasvirlashi mumkin bo'ladi. Psixologlar qiziqish-keyingi faoliyat uchun motiv bo'lishi kerakligini uqtiradilar.

Bolalarni vizual faoliyatga tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishda olimlar maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasi sifatida- qiziqishni shakllantirishni ajratib ko'rsatishadi va bu yangi avlod dasturlarida ham o'z aksini topgan. Olimlar, pedagoglar va psixologlar bola nimagadir qiziqmasa, uning hayotida quvonch keltiradigan ijodiy va hissiy faoliyat yo'qligini ta'kidlaydilar. Qiziqishning markazida motivlar yotadi. Motiv - bu ehtiyojga javoban harakat qilish uchun turtki bo'lib, bolaning motivatsion sohasi maktabgacha yoshning boshida rivojlana boshlaydi. Biroq, kichik maktabgacha yoshdagi bolaning xatti-harakati hali ham yosh bolalarning xatti-harakatlaridan unchalik farq qilmaydi: u asosan turli sabablar asosidagi situatsion his-tuyg'ular va istaklar ta'siri ostida harakat qiladi.

Vizual faoliyat erta yoshda boshlanadi va maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanishda davom etadi. N.P. Sakulinaning ta'kidlashicha, birinchi chizmalar kattalar bolaga qog'oz va qalam bergan vaqtda paydo bo'ladi, xuddi shu narsa modellashtirish uchun ham amal qiladi. Bolalarda rasm chizishga qiziqishning namoyon bo'lishi va rivojlanishi uchun o'z vaqtida sharoitlar yaratilsa, u bolaning o'zini namoyon qilish va rivojlanishining yorqin va unumdor vositasiga aylanadi. Faoliyatning rivojlanishi orqali bolaning o'zi o'sadi, shakllanadi va rivojlanadi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, kattalarning bola bilan to'g'ri o'zaro munosabati bilan kognitiv qiziqish paydo bo'ladi.

Psixologlar aniqlaganidek, kognitiv qiziqish bolaning yangi narsalarni o'rganish istagida, ob'ektlarning fazilatlarini, xususiyatlarini, voqelik hodisalari haqida tushunarsiz narsalarni bilish, ularning mohiyatini o'rganish, aloqalar va munosabatlarni topish istagida namoyon bo'ladi. ular orasida. Kognitiv qiziqishning asosini faol aqliy faoliyat tashkil etishi isbotlangan. Kognitiv qiziqish ta'siri ostida bola diqqatni uzogroq va barqarorroq jamlashga qodir, aqliy yoki amaliy muammolarni hal qilishda mustaqillikni namoyon qiladi.

G.G.Grigoreva dastlabki bosqichlarda bolaning vizual faoliyatiga qiziqishning rivojlanish bosqichlarini ajratib ko'rsatdi:

1. Chaqaloqning tasviriy materialga aniq qiziqishi va u bilan kognitiv harakatlar. Bu bosqich, olimning fikriga ko'ra , birinchi navbatda, chaqaloqning turli xil materiallar bilan harakat qilish yerkinligini ta'minlashi, uning ushbu materiallar bilan "tajriba qilish" qiziqishini saqlab turishi kerak.

2. Materiallar bilan kattalarning harakatlariga bolaning qiziqishi. Kattalarga taqlid qilish, ular bilan muloqot qilish zarurati asosida, materiallar bilan harakatlarga qiziqish.

3. Bolaning qog'ozda qolgan izga qiziqishi va assotsiativ tasvirning paydo bo'lishi. Ushbu bosqich bolalar bilan oldingi ishlarni o'z ichiga oladi: bular boshqalar bilan tanishish, kuzatishlar, rasmlarga, ob'ektlarga qarash.

4. Birinchi g'oyalarning paydo bo'lishi, bolaning biror narsani chizish, qoliplash, naqsh solish uchun mustaqil qaror qabul qilishi.

5. Bolalarning ob'ektiv dunyoga qiziqishning rassomchilik faoliyati mazmunida namoyon bo'lishi.

Bola hayotining uchinchi yili oxiriga kelib, vizual faoliyatga katta qiziqish bildiradi, rasm chizishda, modellashtirish, shakllarni qo'yish orqali u har qanday tarkibni o'zida mujassamlashtira olishini tushunadi. Materialdan muntazam foydalanish sharti bilan, u kattalar rahbarligida qalam, cho'tka, bo'yoq, loy va plastilin bilan ishlashning elementar texnikasini o'zlashtiradi. Bolaning materiallar bilan harakatlari juda erkin, jasur, ishonchli va eng muximi bu jarayon bola uchun quvonchli hisoblanadi. U men zo'r ish qilyapman, uddalayapman degan ishonch bilan o'zi xohlagan narsani dadil va mustaqil ravishda chiza oladi. Boladagi bunday tuyg'uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish zarur hisoblanib, bu ko'proq mustaqillikni shakllantirishning muhim sharti, rasm chizish faoliyatida bolani o'zini ijodiy namoyon etish imkoniyatidir [15].

Pedagog va psixologlarning olib brogan turli tadqiqotlari jarayonidan ma'lum bo'lishicha, maktabgacha yoshda vizual faoliyat motivlar majmuasini boshqaradi: materiallarga qiziqish, ayniqsa materiallar yangilangan bo'lsa; tengdoshlar va kattalarga taqlid qilish; ularning faoliyatiga qiziqish va hokazo. Bu barcha motivlar maktabgacha yoshdagi bolaning rasm chizishi uchun rag'batga aylanib, ularning har biri muayyan vaziyatlarda yangilanadi va ba'zida yetakchi o'rinni egallaydi.

Ammo, yetakchi, asosiy motiv asta-sekin bola tasvirlamoqchi bo'lgan narsalar va hodisalarga qiziqish uyg'otib, bu davrda psixologlar va o'qituvchilar (E.A. Flerina, V.S. Vigotskiy, N.P. Sakulina, G.G. Grigorieva va boshqalar) fikriga ko'ra, o'yin motivi va vizual faoliyat birlashtiriladi. Bu "faoliyatning o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan tomonlari bilan yashash", oddiy hayotda bolani hayratda qoldiradigan, qiziqtiradigan, hayratga soladigan narsalar, hodisalarga yana bir bor qaytish zarurati yuzaga keltiradi. Ushbu motivni amalga oshirish jarayonida bola qo'shimcha vositalardan foydalanadi: nutq, o'yin va boshqalar; bu mazmunni oson va hissiy tarzda yetkazadi. Agar bola faoliyatning o'ziga qiziqsa, bunday barqaror motivlar shakllanishi mumkin. Shunday qilib, qiziqish bolaning motivlarini shakllantirish uchun asos bo'lib, u qaysi faoliyatda namoyon bo'lishidan qat'i nazar, kelajakdagi motivatsiya sifatida katta ahamiyatga ega.

Kichik maktabgacha yoshdagi bola yorqin, rang-barang, kutilmagan narsalarga qiziqadi. Va bundan foydalanish kerak, bolada qiziqish yangi, noma'lum narsaga nisbatan tezroq uyg'onadi. Agar bolaning roli faqat atrof-muhit haqida passiv fikr yuritish bilan cheklangan bo'lsa, bunday o'tish sodir bo'lmasligi mumkin. Tajriba bolaning faoliyatdagi biror narsani o'zgartirish, qayta qurish istagiga hissa qo'shadi, bu vizual faoliyatda eng aniq namoyon bo'ladi. Vizual faoliyatda bola tajriba orqali yangi tasvirlar va materiallarni yaratishi mumkin. Bularning barchasi bolalar ijodiyoti, tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi. V.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, ijodkorlik qiziqishni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan universal qobiliyat bo'lib, faoliyatning turli shakllarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi [3].

Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyat xususiyatlarining tadqiqotchilari tomonidan ta'kidlangan oxirgi xususiyat - bu ishtiyoq muhiti va bolalarning taqlid qilishga moyilligidir. Bolalar bog'chasida kattalar, oila a'zolari, tarbiyachilarning muayyan faoliyatga bo'lgan ishtiyoqi bolaning xuddi shu faoliyatga qiziqishiga yordam beradi. Ko'pincha bolalar bog'chasidagi bolalar tarbiyachi bilan bir xil ish tutishlarini kuzatish kerak: tarbiyachi doimo rasm chizadi, haykaltaroshlik qiladi, kesadi, biror narsa yasaydi - va bolalar bunga intiladi, ular bo'yoq, qog'oz, plastilin talab qiladi va tarbiyachi bilan bir xil harakat qiladi; tarbiyachi

qo'shiq aytadi, bolalar qo'shiq aytadi, tarbiyachi raqsga tushadi va bolalar raqsga tushadi. Xuddi shu narsa oilalarga ham tegishli.

Tarbiyachilar va ota-onalarning qiziqishlari asosida tabiatidan bolalarda muayyan faoliyat turiga qiziqish shakllanadi. Qiziqishning shakllanishi bolaning muhitiga ham bog'liq: bular, birinchi navbatda, tarbiyachi guruhda yaratadigan sharoitlar: zarur material, bolalarni tasviriy san'at bilan tanishtirish, to'garak ishlarini olib borish asosida kichik guruxlarda ishlash imkoniyatlari kengaytirilib, kichik guruxlar, bolalar bilan individual ish, mustaqil badiiy faoliyatni tashkil etish bolaning ushbu faoliyat bilan shug'ullanish istagi asosida shakllantirib borilishi zarur hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, ular o'yin, o'qish, mehnat faoliyatida, ota-onalar, tengdoshlar, begonalar va boshqalar bilan o'zaro aloqada o'zini namoyon etadi. Bu esa bolaga ma'lum bir ijtimoiy tajribaga ega bo'lishga yordam berib, bola rivojlanishning har-bir bosqichida asosiy yetakchiga aylanib, bir faoliyat turi boshqasi bilan almashtiriladi, ammo har-bir faoliyat turi biri ikkinchisini to'ldirgan xolda rivojlanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy san'atga qiziqishlar shakllanishi ularni har tomonlama rivojlantirishga hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziev E.G'. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: Noshir, 2014. – 105 b.
2. G'oziev E.G'. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. – T.: Universitet, 2003. – 47 b.
3. Rahimova K.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy tasavvurlari shakllanishida rolli o'yinlar ijtimoiy psixologik xususiyatlarining ta'siri.: Dis. ... ped. fan. – Toshkent, 2000. – 195 b.
4. Salaxidinova X.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy san'at motivlari shakllanishining psixologik jihatlari // O'zmu habarlari. – Toshkent, 2022. - № 1/11/1. – B.164-168.
5. <http://staff.tiame.uz/storage/users/83/books/EXjjAoSzXSR7ookm9KcoqXp0LjbovfUy7jnmSSQ;pdf>
6. <https://elibrary.ru/item.asp?id=28764531>
7. <https://www.hr-director.ru>

ZAMONAVIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**N.Shomurotova-psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.,
Sh.Baxranov- tarix fanlari bo'yicha (PhD)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'limni raqamlashtirish jarayoni tahlil qilgan. Inson salohiyatining sifatini ta'lim bilan aloqadorligi, ijtimoiy islohotlardagi o'zgarishlarni shaxs ruhiyatidagi, tafakkuridagi ifodasiga to'xtalangan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, innovatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, masofali o'qitish, elektron ta'lim, psixologiya, ta'lim jarayoni, raqamlashtirish.

Ta'lim jarayonining sifati kelajakda davlatning mutaxassislar bilan ta'minlanishiga muqarrar ravishda ta'sir qiladi va shuning uchun bu muammolarga alohida e'tibor qaratish lozim. Milliy ta'limni takomillashtirish jarayonida har yili zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda, ularning joriy etilishi ta'limni modernizatsiya va rivojlantirish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va ta'limni fanga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Muroja'atnomasida ham mamlakatimizda raqamli iqtisodning rivojlanishi bo'yicha quyidagilarni aytib o'tdi: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak

ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida men yurtimizda 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb nom berishni taklif etaman" [2].

Hozirgi vaqtda ko'plab universitetlar oliy ta'lim muassasasining o'quv jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish bo'yicha aniq raqamli strategiyalarni ishlab chiqmoqda. Shuning uchun ham ta'lim jarayonini raqamli tashkil etish va talabalar va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, jamiyatni raqamlashtirishni pedagogik tadqiqotlarning asosiy mavzulari sifatida belgilash zarur. Elektron "aqlli" qurilmalar va sensorlar, bulutli texnologiyalar, ilg'or tahliliy vositalar kabi rivojlangan texnologiyalar oliy ta'lim mazmunini o'zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalar o'quv jarayonini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Shu bilan birga, o'qituvchining raqamli savodxonligi muhim ahamiyatga ega, bu "o'qituvchining kerakli natijalarga erishish uchun mavjud texnologiya va qurilmalardan foydalangan holda bilim va ko'nikmalarini" rivojlantiradi. Sivilizatsiya rivojlanishining zamonaviy bosqichining keng tarqalgan xususiyatlaridan biri bu jamiyatning yangi turini shakllantirishga mos keladigan axborot deb ataladigan jarayondir, uning o'ziga xos xususiyati bilimlarni yaratish, qayta ishlash texnologiyasining xususiyatlarida yotadi.

Yurtimizning barcha sohalarida keng qamrovda raqamlashtirish sari qadam qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash, ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlari va raqamli texnologiyalarni o'qitish markazlari negizida davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul rahbarlarini o'qitish va malakasini oshirishni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar belgilangan [1].

Raqamlashtirish va kompyuterlashtirish ijtimoiy hayotga tobora ko'proq kiritilmoqda. Natijada, shaxs bu jarayonga shunchalik aralashadiki, kompyuter va uning individual shaxsiy ko'rsatkichlari, individual fazilatlarini texnik shartlarga mos keladi va hissiy soha zaiflashadi. Bundan tashqari, koronavirus pandemiyasining dunyoda keng tarqalishi o'qituvchilar va talabalarni bu izolyatsiyadan chiqishi uchun ta'limni raqamlashtirish, ayniqsa, rivojlantirish uchun universitetlarni kompyuterlashtirishning global jarayonini boshladilar. Ta'lim va ta'lim sohasida juda qisqa vaqt ichida hamma narsa tubdan o'zgardi. Talabalar orasida asosiy ustuvorlik va qadriyatlarini belgilay boshlagan "Covid-19" ta'lim tizimi integrallashuvini tezlashtirib berdi. Natijada ishtirokchilar o'rganish, yangi raqamli ta'lim maydonini yaratish uchun tezda onlayn rejimga o'tishdi. Bu epidemiya tufayli o'qituvchilar va talabalar bir tomondan, bir-biridan uzoqlashgan pedagogik jarayon, izolyatsiyada edilar, lekin boshqa tomondan, o'zaro muloqot qilish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratildi. Ijtimoiy tarmoqlar, chatlar va forumlardagi munosabatlarda doimo aloqada bo'lib, bir-birlarini masofaviy qo'llab-quvvatladilar. Elektron va onlayn ta'lim yetakchiga aylandi. O'qitish faoliyatida internet esa ta'lim ma'lumotlarini qabul qilish va ta'minlashda ustuvor vosita hisoblandi. Har bir talaba va o'qituvchi elektron gadget sotib olishga majbur bo'ldi, ular uchun "hayot chizig'i" yoki "aloqa"ga aylangan kompyuter yoki noutbuk "tashqi dunyo, qarindoshlar, do'stlar va tanishlar bilan bog'lanish", shuningdek, hal qilishda yordam berdi. Natijada, ularning turmush tarzi virtualga qarab faol ravishda o'zgarib boshladi. Sun'iy intellekt alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Hozirgi vaqtda masofaviy ta'lim o'quv jarayonining etakchi va asosiy turiga aylandi. Bu o'zgarishlar va yangiliklar nafaqat insonning hayotiga oddiy ta'sir qildi, balki shaxs, uning boshqa odamlar bilan o'ziga xos munosabati, avtomatik ravishda ta'lim faoliyati, o'qitish, ta'lim jarayonini tashkillashtirilishiga imkon yaratib berdi.

Hozirda o'qituvchi ilmiy va pedagogik tajriba tashuvchisi sifatida harakat qilishni to'xtatdi. Bu talabalarning pedagogik o'zaro ta'siri, ijtimoiy rollari, tafakkurning o'ziga xosligi

va hissiy sohasidagi psixologik xususiyatlarining o'zgarishiga olib keldi. Pedagogik faoliyatning psixologik-pedagogik xususiyatlari o'zgardi va mas'uliyatni to'la ijro qilinishini taqazo eta boshladi. O'qituvchilik kasbining o'ziga xos modernizatsiyasi amalga oshirilmoqda, bu eksklyuziv bilim va professional tajribaga ega o'qituvchining ijtimoiy mavqeini va unga bo'lgan munosabatini o'zgartirishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy yoshlar raqamli avlod vakillari sifatida allaqachon mavjud elektron gadjet, smartfon, kompyutersiz mavjud bo'lolmaydi. Internetdan foydalanib, to'g'ridan-to'g'ri alohida va real shaxs bilan elektron-raqamli tizimda boshqa odamlar bilan muloqot qilish ancha oson va qulayroqdir. Ijtimoiy tarmoqlar va internetning axborot resurslari axborot, aloqa, rivojlanish va ta'limning ustuvor manbalaridan biriga aylanib bormoqda. Zamonaviy ta'limni raqamlashtirishning psixologik xususiyatlari shundan iboratki, avvalo monelik jihatlariga e'tibor qaratsak, etakchi ta'lim jarayonida o'qituvchilarning roli sezilarli darajada kamayadi va o'zgartiriladi. Beriladigan ma'lumotlar asosan vizul ko'rinishda bo'lishi esa og'zaki ma'lumotlarni tushuntirishni cheklanganligi talabalarning faol kognitiv pozitsiya o'rniga, axborot mazmunidan passiv foydalanuvchi rolini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga idrokning yuzakiligi, axborot bilan ishlashda past tahliliy va tanqidiy ko'nikmalarni, ijodiy fikrlash darajasini kamaytiradi. Natijada, yoshlarni har qanday faollik, o'ziga xoslik va mustaqillikni ko'rsatishni to'xtatishga moyilligi ortadi.

Ta'limni raqamlashtirish tajribasini tavsiflab, D.Kross ta'kidicha: "Biz o'qituvchilarni o'quv jarayonidan olib tashlashimiz va o'quvchilarning mustaqil harakat qilishiga imkon berishimiz mumkin deb oyladik. Biz xato qildik. Elektron ta'lim tizimlarining birinchi avlodi muvaffaqiyatsiz yakunlandi" [3]. Jamiyat uchun raqamlashtirishning xavf-xatarlari ta'lim, keyin esa boshqa barcha ijtimoiy munosabatlarning insoniylashuvi, odamlarning intellektual madaniyati inqirozining mumkin bo'lgan chuqurlashishi, ularning yaratish qobiliyati, shaxsiy qadriyatlarga asoslangan pragmatizm va individualizmning kuchayishi bilan bog'liq. konfor va xudbin iste'mol. Mahalliy ta'lim tizimida raqamlashtirishni rivojlantirishning yaqin istiqbollari uchta belgilovchi yo'nalishni o'z ichiga oladi: birinchidan, ta'lim muassasalarini yuqori sifatli dasturiy ta'minot, ta'lim resurslaridan foydalanish imkonini beruvchi axborot tizimlari bilan jihozlash; ikkinchidan, talaba va o'qituvchining bilvosita o'zaro hamkorligini nazarda tutuvchi axborot (masofaviy) texnologiyalarni joriy etish; uchinchidan, ta'lim faoliyatini tashkil etish va o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi onlayn muloqotni tashkil etish imkonini beruvchi onlayn ta'lim (e-learning). Albatta, raqamlashtirishning rivojlanishi pedagoglar va talabalarga qo'yiladigan talablarni o'zgartiradi, yangi tashkiliy ta'lim tuzilmalarini shakllantirishni rag'batlantiradi. Raqamli ta'lim formatlarini joriy etish, shu bilan birga, ta'lim arxitekturasida murakkab o'zgarishlarni, o'qitishning odatiy shakllari va usullarida muqarrar o'zgarishlarni nazarda tutadi [8].

Aksariyat yoshlar ta'lim jarayonida elektronikadan foydalanishning ahamiyati va zarurligini tan olib, sizning hayotingiz, atrofingizdagi dunyo va odamlarning ijobiy idrokiga ta'siri, muloqot, o'qitish va ta'lim kompyuter, smartfon va internet orqali tez amalga oshirilishini ma'qullaydilar. Zamonaviy ta'limni raqamlashtirish orqali ta'limdagi mavjud ma'lumotlarni qisqa va aniq raqamli texnologiyalar orqali tayyorlash bilan birgalikda uni to'liq tushuntirish, o'z ijodiy, tahliliy yondoshuvlarini ham ifodalashni tashkil etilishiga ahamiyat berish orqali mantiqiy fikrlash, ma'lumotni idrok qilish ta'minlanadi. Kasbiy ta'limda qo'llanila boshlangan raqamli o'yinlar orqali o'qitish shakllari zamonaviy mutaxassisning muhim shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ijobiy ahamiyatga ega. O'yin simulyatsiyasi sizga o'quv profiliga muvofiq sinflarda haqiqiy hayotiy vaziyatlarni takrorlash imkonini beradi. Albatta, ta'lim jarayoniga joriy etilgan raqamli texnologiyalar axborotni samarali qidirish va qayta ishlash, "masofaviy" aloqaning yangi shakllari, o'rganilayotgan yoki o'rganilayotgan narsa va jarayonlarni vizuallashtirish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Vaqt imkoniyatini tejash, ma'lumotlarni tahliliy o'rganish, raqamli texnologiyalar bilan ishlay olish

kompetensiyalarini o'zlashtirish shaxsni intellektual rivojlanishini, mediakontentda ishlash malakalarini, mediasavodxonlik darajasini ortishiga xizmat qiladi.

Demak, zamonaviy ta'limni raqamlashtirishning ijobiy psixologik xususiyatlarini ta'minlanishida avvalo mediaaxborotlar bilan ishlash, mediakompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ko'nikmalarni shakllantirishga erishishimiz zarur bo'ladi. Raqamli texnologiyalar ta'lim muassasasini katta darajada o'zgartirdi va ta'lim sohasida ijtimoiylashuvning yangi shakllarini talab qiladi [6]. Ular ta'lim olish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, shu bilan birga jamiyat oldiga yangi vazifalarni qo'yadi, ularni qabul qilmasdan turib, mamlakatimiz jahon miqyosida raqobatbardosh bo'la olmaydi. Butun dunyo global tarzda ta'limni raqamlashtirishga intilayotgan paytda raqamli texnologiyalarning ahamiyatli va muhim jihatlardan samarali foydalanish inson kapitalini cheksiz imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni. 2020 yil 5 oktabr.
2. <http://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkatamirziyeev-25-01-2020>.
3. Буданов В.Г. Новые технологии цифровой жизни – перспективы и риски изменений антропосферы // Философские науки. – 2016. - № 6. – С. 47-55.

TALABA-QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK JIHATLARI

Ishmuratova M.R., Xalqaro Nordik Universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba-yoshlarning ijtimoiy oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlari hamda shu orqali oilalarda ma'naviy muhit, axloq-odob masalalariga ahamiyat berish bilan birgalikda, inson o'z millati an'analari va umumbashariy qadriyatlar asosida kamolotga erishish yo'llari va o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila va jamiyat, turmush saboqlari, milliy qadriyatlar, milliy ma'naviy madaniyat, ma'naviy meros, urf-odat, Islom dini, muqaddas manbalar, Qur'oni Karim, hadisi sharif.

Mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlari fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan oilaning yahlit tizimi bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, mafkuraviy asoslariga xam ta'sir qiladi. Bizga ma'lumki hozirda mamlakatimizda talaba yoshlarga ularni ilm olish va kasb hunar egasi bo'lishiga kata e'tibor berilmoqda. Har bir talaba qizning ta'lim maskanlarida o'qib biror mutaxassislikni egalashi dolzarb bo'lishi bilan birgalikda uningb yosh jihatdan oila qurishi inkor etilmaydigan qadryatdir. Bizning fikrimizcha oila muammosini tadqiq qilishda avvalo bugungi qizlarning oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga aloxida e'tobor qaratish lozim. Chunki ko'p xollarda turmush qurgan qizlar o'zaro munosabatlarning nozik jihatlari haqida yetarli bilim zaruriy ko'nikma va malakaga ega bo'lmaslik talaba qizlarimizga ijtimoiy hayotda ko'p muammolarga duch kelishiga sabab bo'lmoqda. Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bog'liq tushuncha bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila esa o'z o'rnida jamiyat bag'rida vujudga keladi, rivojlanadi. Jamiyatda oilaning o'z vazifalari mavjud bo'lib uning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oiladagi vazifalarni bajarish jarayonlari har bir xalqda alohida, o'ziga xos xususiyatga egadir. Har bir xalq yaxlit dunyoninig bir bo'lagidir, inson-insonga, xalqlar-xalqlarga o'xshamaydi, bir-birini aynan takrorlamaydi, Har bir millat va elatning o'ziga xos

jihatlarini mavjud bo'lib, har bir xalqning o'z ma'naviyati, milliy qadriyatlari va boy tarixiga egadir.

Hozirgi davrda oila, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi psixologig muhit, ta'lim-tarbiya va uning etnopsixologig xususiyatlarini tatqiq etish muhim muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Jamiyatimizda oilaning mustahkamlash, yoshlarimizni har tomonlama yetuk, sog'lom va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, oilani jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari kabi yurtimizdagi ma'naviy o'zgarishlar bilan uyg'un tarzida rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim yo'nalishi sifatida doimiy e'tibor berib kelinayapti.

Ma'lumki, sog'lom oilaning asoslariga oilada er-xotinning o'zaro munosabati, ularning farzandlariga, farzandlarining ota-onalari, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlari, jamiyatga nisbatan burch va ma'sulyatlari kiradi. Aynan oilaviy hayotga qadam qo'yish arafsida turganlar kimlar?: ular kollej, litseyini tamomlab oliy o'quv yurtiga qadam qo'ygan yosh yigit va qizlar kiradi. Yoshlarning ko'pchiligi aynan talabalik yillarida yoki uning yakunida oila qurganliklari tufayli ham oila-nikoh munosabatlarida, oila a'zolari bilan munosabatda yo'qori darajadagi ma'naviy-axloqiy va pedagogik-psixologik, turmush madaniyatiga ega bo'lishlari talab qilinadi. Kuzatishlarimiz natijalari shuni ko'rsatadiki ko'pchilik talaba yoshlar bunday munosabatga kirishishga tayyor emaslar. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talaba qizlarimizni oilaviy hayotga ijtimoiy va psixologik jihatdan tayyorlash uchun avvalo ularning oilaviy muhitini va ota-ona, kattalarning oilaviy hayot haqida bergan tushunchalarini va tarbiyalarini e'tiborga olish kerak. Hozirgi vaqtda yoshlarning ko'pchiligi oilaviy hayotga tayyorman deb turmush qurishmoqda, natijada esa oilada bo'ladigan arzimagan kelishmovchiliklar, tushunmovchiliklar, qiyinchiliklarga moslasha olmasliklari natijasida oilaviy ajrimlar soni ortib bormoqda. Mana shunday hali oila nimaligini bilmasdan hayotga yengil qarab, oilani boqa olaman deb o'ylab yigitlarni ham, oilaga tayyorman deb o'ylab turmushga chiqayotgan qizlarni ham oila qurishlaridan oldin ularni oilaga psixologik tomondan tayyorlash, ana o'sha oliy ta'limda faoliyat yuritayotgan pedagog-psixologlarning vazifasiga kiradi. Biz talaba qizlarning oilaviy hayotga qanday tayyorlaymiz? Ularga birinchi navbatda oilaning muqaddasligi, oila hozir yoqib keyin yoqmadi deb tashlab ketadigan narsa emasligini, oilada erning, qaynona-qaynotaning o'ziga yarasha hurmati, o'rni borligini, arzimagan narsalardan janjal qilib turmush o'rtog'iga aytib ko'ngildan qolmasligini takidlash lozim.

Zamonaviy sharoitda respublikamizda qator badiiy-ma'rifiy asarlar yaratilib, mazkur asarlar o'sib kelayotgan avlodni turli ma'naviy tahdidlardan asrab avaylash bilan birga ularni har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalashda muhim vosita vazifasini bajaradi. Mana shu kabi talaba qizlarimizni oilaga ijtimoiy psixologig jihatdan tayyorlash, bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lib qoladi.

Ma'lumki, azaldan sharq mamlakat xalqlari ongida oilaning muqaddasligi, farzand tarbiyasida oilaning beqiyos ro'li asrlar davomida shakllanib kelgan. Oilaga nisbatan millatning urf odat va an'analarini saqlash va davom etturuvchi dargoh sifatida qaralgan. Shunga ko'ra oilani mustahkamlashga astoydil kirishgan va o'z naslini pok saqlashga, ta'lim-tarbiya ishlariga jiddiy e'tibor qaratib kelingan. Shaxs tarbiyasi haqida to'xtalinar ekan, avvalo tarbiya oila o'chog'idan boshlanadi, shuning uchun bugungi kunda oila qurish arafasida turgan yoshlarimizga oilaviy hayotga o'z munosabatlarini adekvat tasavvurlarini shakllantirish, ularga Islom dinining muqaddas manbalari Qur'oni karim va hadisi shariflarda oila muqaddasligi to'g'risidagi chaqiruvlarga islom manbalarida oilani mustahkamlashga qanchalik chaqirilgan bo'lsa, uni buzilishidan shunchalik qaytarilganligini uqdirilib borishilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilish lozim.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda talaba yoshlarning ijtimoiy oilaviy hayotga tayyorlashda psixologik xususiyatlarini o'rgatib borish va ularni oilaviy hayotga tayyorlash juda muhimdir. Chunki bola shaxsini shakllantirish uning tug'ilishidan boshlanadi. Shuning uchun ularni oila muqaddas ekanligi bola tarbiyasida ota-onaning o'rni va vazifalari haqidagi

ma'lumotlar bilan boyitib borish zarur. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan oila qurish yoshidagi talabalarga oilaviy munosabatlar harakteri, ota-onaning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi, hamda ularning pedagogik madaniyati va oilaviy hayotning tashkil etilishi ahamiyat kasb etadi.

Oiladagi tarbiyani yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olish, bolani axloqiy jihatdan tarbiyalashda, milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyatiga, uning o'ziga xosligi va ahamiyatini tahlil qilishga yordam beradi. Buning uchun ota – onalarning o'zida milliy qadriyatlarga nisbatan munosabati o'zgarmog'i lozim. Milliy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashda, xalqning ma'naviy merosidan, ota-bobolarimizning pand-nasihatlarini, tajribalari asosida eng yaxshi va olijanob an'analar ruhida tarbiyalash, ularning dono fikrlari, turmush saboqlari davrlar g'alviridan o'tib, saralanib bizgacha etib kelgan o'gitlarini ongiga, dunyoqarashi va shuuriga sindirib borilmog'i darkor. Shu bilan birga bolalarni xalq an'analariga o'rgatishi ota-onalarining majburiy vazifasidir. Yana bir tomoni yoshlarning psixologik jihatdan rijoqlanganlik darajasi ham muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 192 b.
2. Mahkamov S. Islom dini va oila tarbiyasi. Mas'ul muharrir Abdulaziz Mansur. – Toshkent: "G'.G'ulom nomidagi" nomidagi Adabiyot va san'at, 2000. – 32 b.
3. Андреева Т.А. Семенной психология. – М., 2004. – 242 с.

OILAVIY MUNOSABATLARNING BOLA INTELEKTINI RIVOJLANISHIGA O'ZARO ALOQADORLIGINI IJTIMOY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Oymatova D.R., Shahrizabz DPI o'qituvchisi

Annotatsiya. Darhaqiqat, kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, avvalo, oilada shakllanadi. Shaxsga xos bo'lgan xarakter xislatlari, shuningdek, millatimizga xos bo'lgan etnik xususiyatlarimizdan, kattalarni e'zozlash, kichiklarni izzat qilish, Vatanni sevish va burch kabi hislatlarning barchasi oilada shakllanadi. Aynan bolalar o'rtasida sodir etilayotgan deviant xulq-atvor ko'rinishlari jumladan, jinoyatchilik, giyohvandlik, agressivlik, suitsid kabi turli jamiyatimiz uchun yot bo'lgan illatlar oilada shaxslararo munosabatlarning to'g'ri tashkil etilmaganligi oqibatida kelib chiqmoqda. Yosh oilalarimizda bolalar, o'smirlar, katta kishilar va boshqa shaxslarga nisbatan kommunikativ shaxslar aro muloqat qoniqarli emasligi hozirga vaqtda ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatish orqali amalga oshirilishi, shuningdek, «biz» tushunchasi va unga munosabat yetarlicha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: shaxs, an'ana, urf-odat, munosabat, ota-ona, xarakter, muhit, tarbiya, nuklear oila.

Bolaning oilada shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir etuvchi omillarning asosiysi bevosita muhit va mikromuhitdir. Avvalo, bu bolaning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, xarakterini shakllantiruvchi jamoa, uning ota-onasi, qarindoshlari, tengdoshlari, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari, maktab pedagoglar jamoasi va boshqalardir. Mikromuhit insonga ikki yoqlama ta'sir ko'rsatadi:

jamiyat tomonidan tashkil etilgan stereotiplar ya'ni, an'analar, qoidalar, me'yor va kundalik hayotdagi odatiy sharoitlar orqali;

yaqin muhitning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari natijasida bolalarda xarakter xususiyatlarining shakllanishiga eng muhim omil sifatida birinchi navbatda oila muhiti eng kata tasir ko'rsatadi.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Oila hayotining abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz darkor. Bola tug'ilganidan boshlab oila muhitida yashaydi, ulg'ayadi, oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar o'smir zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi".

Darhaqiqat, kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, avvalo, oilada shakllanadi. Shaxsga xos bo'lgan xarakter xislatlari, shuningdek, millatimizga xos bo'lgan etnik xususiyatlarimizdan, kattalarni e'zozlash, kichiklarni izzat qilish, Vatanni sevish va burch kabi hislatlarning barchasi oilada shakllanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bolalarda xarakter xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi bir qator komponentlari oilada shakllanib borishi bilan birgalikda, nosog'lom bo'lgan oila sharoitida tarbiya topayotgan farzandlar xulqatvorida o'ziga xos bo'lgan salbiy individual psixologik xususiyatlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqdadir.

Bir guruh psixologlarning aniqlashicha, xarakterning yangi sifatlarini yuzaga kelishi va ularning mustahkamlanishi real vaziyatni taqozo etadi. Shuning uchun ham xatti-harakat odatni, odat esa xarakterni va xarakter taqdirni yaratadi, degan fikr mavjud. Xarakter qandaydir turg'un va o'zgarmas xususiyat emas. Jumladan, bolalik yoshida xarakterning xususiyatlari odatda "jiddiylashish", "boshqacharoq bo'lib qolish" tarzida ko'rinadiki, bu hol ijtimoiy omillardan ya'ni, atrofdagilarga nisbatan munosabatning murakkablashuvi, gormonal yetilish natijasida namoyon bo'la boshlaydi. Shaxs xarakterdagi o'zgarishlarni yetarlicha hisobga olmaslik ziddiyatli va nizoli munosabatlarni vujudga keltiradi. Ayni shu davrda bola xarakterida aktsentuatsiya xususiyatlari, jumladan, emansipatsiya reaksiyasi kattalar qaramog'idan "ozod" bo'lishlik, tengqurlari bilan guruhlashish reaksiyasi, ishtiyoq reaksiya, xobbi reaksiyasi kabilar ustivorlik qiladi.

Aynan bolalar o'rtasida sodir etilayotgan deviant (xulqi og'ishgan) xulq-atvor ko'rinishlari jumladan, jinoyatchilik, giyohvandlik, agressivlik, suitsid kabi turli jamiyatimiz uchun yot bo'lgan illatlar oilada shaxslararo munosabatlarning to'g'ri tashkil etilmaganligidan kelib chiqmoqda. Bunda, ota-onalar farzandlari tarbiyasiga befarq, loqayd munosabatda bo'lishi, oilada sog'lom turmush tarzini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, ota-onalarni farzandlarining yoshiga xos bo'lgan psixologiyasini, ularga xos bo'lgan shaxslararo munosabatlar to'g'risidagi bilimlarini yetishmasligi tufayli jamiyatimiz uchun zid bo'lgan xatti-harakatlarning yuzaga kelayotganligi, natijada, ilmiy asoslangan ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini ochib berishligini taqozo etadi.

Birinchidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar insonning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi.

Ikkknchidan, tashqi ijtimoiy muhit ta'sirining chuqurroq va mustahkamroq bo'lishiga odamning o'zi yordam beradi. Ma'lumki, bolalar o'z tabiatlariga ko'ra, yoshlik chog'laridan boshlab, nihoyat darajada taqlidchan bo'ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha hattiharakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu hattiharakatlarni, yaxshi-yomon fazilatlarini o'zlariga singdirib boradilar. Bolalar oilada, ko'cha-ko'yda, katta odamlarning har bir harakatlarini, o'zaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar.

To'g'ri, hozirgi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi munosabati bilan oilaning etnopsixologik xususiyatlaridagi milliy barqarorlik susayib, zamonaviylashish tendentsiyasi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu fikrga V.V.Boyko ham qo'shilib, bolalarda xarakter shakllanishiga ta'sir etuvchi zamonaviy oilalarning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ajratib ko'rsatadi:

birinchidan, oilaning nuklearlashib borishi oqibatida yani oilada er-xotin va farzandlardan iboratligi zamonaviy kam farzandli nuklear oilalarning ko'p avlodli oilalardan farqli ravishda bola xarakterining shakllanishida o'ziga xos ijtimoiypsixologik muhitni tashkil etadi. Bunday oilalarda ko'pincha shaxslararo munosabatlarning qisqa zanjiri ustunlik qiladi,

oila a'zolarining o'zaro bir-biriga ta'sir etish vositalari chegaralangan, shuningdek, taqlid qilish uchun namuna va vaziyatlar ham kam shakllanganligi bilan farqlanadi.

Ikkinchidan, oiladagi o'ta bog'liq va bir xildagi munosabatlar oqibatida bolalarning ota-onaga xulqi namunalarini mustahkam egallashlari ehtimolligini oshiradi. Ota-onalar xulq-atvoridan tanlab olish chegaralangan bo'lganligi sabab, bolalar ijtimoiy-tipik xususiyatlarni egallashi, qaysiki, o'zida ham mikromuhit, ham individual xususiyatlarining aks etishi ehtimolidan holi emasdir.

Keltirilgan turli ilmiy ma'lumotlardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, zamonaviy oilaning o'ziga xos xususiyati o'sib kelayotgan yosh avlod uchun insonparvarlik tajribasining cheklanganligi bilan ifodalanadi. Ba'zi yosh oilalarimizda bolalar, o'smirlar, katta kishilar va boshqa shaxslarga nisbatan kommunikativ tolerantlik (bag'rikenglik) sifatleri yetarlicha o'z aksini topmaganligi, oila a'zolari o'rtasida yetarlicha ma'lumot almashinish chegaralangan, to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, bori ham hozirgi vaqtda ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatish orqali amalga oshirilishi, shuningdek, «biz» tushunchasi va unga munosabat yetarlicha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. Ko'pgina holatlar oqibati sifatida yuqori darajada bolalarning «personifikatsiyasi», ya'ni oila davrasida bolalarning o'z «men» ini ko'rsatishi hisoblanib, bu o'zining haqligini ta'kidlash, o'zini ota-onalarga qarama-qarshi qo'yish, ularga qarshi harakatlar qilish, ularning qadrini, obro'sini ni inkor etish, ular berayotgan maslahatlardan to'liq foydalanmaslik orqali namoyon bo'lmoqda.

Bu esa bola xarakter xususiyatlariga xos bo'lmagan begonalashishning ayrim shakllarini yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ayni vaqtda oilada shakllangan oila a'zolarining begonalashishi bolalarning boshqa doiralarda ya'ni, turli guruhlar va soatlab axborot vositalari bilan band bo'lishiga olib kelmoqda. Oila a'zolari o'rtasidagi kommunikativ aloqalarning cheklanganligi, qondirilmagan shaxslararo munosabatlarnatijasida bolalar o'zining ehtiyojini, endi norasmiy guruhlarga qo'shilish, noan'anaviy mashg'ulotlar bilan shug'ullanayotganini kuzatishimiz mumkin. Bunday bolalar va ota – onalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir munosabati jarayonidagi ayrim negativ holatlarni yuzaga kelishini V.V.Boyko quyidagicha talqin etadi.

Oiladagi o'ta qat'iy chegaralangan oila a'zolarining munosabatlari, bunda, ota – onalarning o'ta talabchanligi, bolalarda ning xarakter xususiyatlarida nuqsonli xislatlarini keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida ota-onalarning bolaga nisbatan munosabatida yanada qat'iy holatlarning xosil bo'lishiga olib keladi. O'zaro munosabatlarning agressiv holati natijasida esa bir biriga nisbatan bemehrlilik, qo'pollik va ota-onalarning qo'rsiligi bolalarda agressivlik reaksiyasini uyg'otadi va o'zaro munosabatlar jarayonida ziddiyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishini kuchaytiradi.

Munosabatlarning kelishuvchanlik holati. Bu holatda ota-onalar kompleksi bolalar kompleksini hayotga yo'naltiradi. Masalan, ota-onaning doimiy ravishda boladan noroziligi, bolasini tanqid qilishi, urishishi, xaqorat qilishi, tahqirlashi boladada o'z navbatida aybdorlik hissini shakllantirib, uni maktabda, maktabdan tashqari jamoalarda himoya reaksiyalarining yetishmasligiga, muloqotda o'zini chetga tortishiga, o'z-o'zini himoya qila olmaslikga, biror ta'sirga tezda javob qaytara olmaslik holatiga va o'zini tezda yo'qotib qo'yish holatiga olib keladi. Bolalarning bunday xulq atvori ota-onalari va atrofdagilar uni boshqarishiga, boshqalarga tobe bo'lib qolishga, bog'lanib qolishiga, mustaqil bo'la olmasligiga sabab bo'ladi. Ketma-ket bo'lmagan munosabatlar. Bunda ota-onalarning bola tarbiyasidagi ehtiyotsizligi, loqaydligi vabolaga nisbatan talabchan bo'lmasligi bilan ajralib turadi. Bolalarga nisbatan qo'yilgan noto'g'ri talablar yo o'zini oqlamagan yoki o'ta yumshoq ko'rinishda bo'lib, muayyan bir harakati uchun bir safar jazolasalar, keyingi safar e'tiborsiz qoldirishining natijasiadir. Bunday holatlarda bolalar hulq-atvor normalarida, burch, ma'suliyat hissi kabi tushunchalar haqida o'ylamaydi va muayyan tasavvurlarga ega bo'lmaydi.

Yuqorida keltirilgan tarbiya usullari, shakllariga bola tarbiyasida quyidagi xususiyatlarini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi:

«*Tarbiyasi qiyin*» bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S.Vigotskiy fikricha, «*qiyin*» bola hayotining noto'g'ri munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning ma'lum bir qismi intizomsiz, qo'pol bolalardir. Ularning faolligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi huquqlarni berish yo'li bilan ularga ta'sir o'tkazish mumkin. Psixologiyada " *tarbiyasi qiyin*" bolalarning bir qancha klassifikatsiyalari mavjud.

Birinchi guruh - ijtimoiy salbiy, mustahkam qarashlarga ega bolalar;

Ikkinchi guruh - qonunbuzarlarga taqlid qiluvchi bolalar;

Uchinchi guruh - ijobiy va salbiy xulq - atvor stereotiplari o'rtasida ikkilanuvchi, o'z xatolarini tushunuvchi bolalar.

To'rtinchi guruh - irodali bolalarga bo'ysunuvchi bolalar.

Beshinchi guruh - qonunbuzarlik yo'liga tasodifan kirib qolganlar.

Shuni aytish lozimki, tarbiyasi og'ir bolalar uchun, ular yashayotgan muhit, oila, ular o'qiyotgan jamoa, sinfning roli juda kattadir. Demak, Xulosa qilib aytish mumkinki, oiladagi turli tuman tarbiya usullarini qo'llash tarbiyalanuvchining xarakter xususiyatlariga mos kelishi, ya'ni ota-onalar, tarbiyachilar bolalarning individual psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib tarbiya usullarini va shakllarini qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Aks holda, bolaning xarakter xususiyatlarida tarbiyasi o'g'ishish kabi nomaqbul ko'rinishlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Бойко В.В. Трудный характер подростков. – СПб.: Издательство «Союз», 2002.
3. Shoumarov G.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2008.

TA'LIM TIZIMDA INTELLEKTUAL MULK EGALARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TUSHUNCHALARI

**J.K.Shamshetov, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
"Intellectual mulk markazi" davlat muassasasi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimda olib borilayotgan islohotlar va pedagog kadrlarda intellektual mulk tushunchalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, ta'lim, ilmiy tadqiqotlar.

Iqtisodiy islohotlar davrida, inson salohiyati, tafakkuri mahsuli sifatida intellektual mulk ob'ektlarining o'rni va vazifasi muhim ahamiyatga ega. Zero, intellektual mulk ob'ektlari ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri bo'lib, ulardan tijorat muomalasida foydalanishning samaradorligi dunyoning rivojlangan mamlakatlari amaliyotida o'z isbotini topgan. Intellektual faoliyat natijalari va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining individuallashtirish vositalarini tijorat muomalasiga jalb etish, ulardan samarali foydalanish hamda xavfsizligini ta'minlash bugungi kunning muhim masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Intellektual mulk ob'ektlari xavfsizligini ta'minlash, avvalo, bu jarayonni to'g'ri tashkiliy-iqtisodiy tartibga solish va huquqiy muhofaza qilishni talab etadi. Intellektual mulk ob'ektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilish va ularni tijorat maqsadlarida majburiyat va boshqa fuqarolik-huquqiy shakllarda foydalanish butun dunyo bo'ylab har yili yuz milliard dollarlar aylanmasiga xizmat qiladi.

Intellektual mulk bu ijodiy aqliy faoliyat mahsuli. Ixtirochilik va mualliflik obyektini huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san'at sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san'ati, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma'lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamallari aqliy mulk obyektlariga kiradi. Hozirgi davrda Intellektual mulkni muhofaza qilish muhim vazifa hisoblanadi.

Ilmiy nuqtai nazardan ta'rifshaganda, "intelektual mulk" huquki o'z mohiyatiga ko'ra - inson ijodiy faoliyati mahsullarini yaratish, ulardan foydalanish, farqlash belgilarining muomalada bo'lishi bilan bog'lik munosabatlarni, shuningdek, intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqparni muhofaza qilishni tartibga soluvchi normalar yig'indisi majmui hisoblanadi. "Intellekt" iborasi lotincha bo'lib, "aql" ma'nosini anglatadi. Insoniyat boshqa tirik mavjudotlardan o'ening aqli bilan tubdan ajralib turadi. Negaki, boshqa mavjudotlar faqat biologik nuqtai nazardan "instinkt" orqali hayot kechirsa, insoniyat aqli tufayli o'z turmush tarzini, kelajagini avvaldan o'ylab, rejalaigirib ongli, maqsadli hayot kechiradi. Bugungi kunda fuqarolik huquqi tarkibida ilmiy-texnika taraqqiyoti, inson ijodiy faoliyati va uning mahsullaridan foydalanish hamda mutlaq huxuklarni muhofaza qilish masalalarini tartibga soluvchi intellexgual mulk huquki sohasi vujudga keldi va jadal sur'atlar bilan rivojlana boshpandi Intellektual mulk ququqi - o'z mohiyatiga ko'ra, inson ijodiy faoliyati mahsullarini yaratish, upardan foydalanish, farklash belgilarining muomalada bo'lishi bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek, ingellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlarni muhofaza qilishni tartibga soluvchi normalar yig'indisi, majmui hisoblanadi. Intellektual mulk huquqi har qanday boshqa mulk huquqlari singari bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Binobarin, intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy muammolarini o'rganish va tadqiq qilish huquqshunoslik fanidagi muhim ilmiy muammodir.

Ta'lim tizimida ham pedagog kadrlar o'z mas'uliyatidan kelib chiqib bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi. Lekin shunday bo'lsada ba'zi pedagoglarimizda intellektual mulk tushunchalari va o'z ilmiy ishlarini himoya qila olish ko'nikmalari sayozdir. Respublikamizda Fan va texnika taraqqiyoti, chuqur bilim talab qiladigan yuqori texnologiyalarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish, zamonaviy axborot texnologiyalarini takomillashib borayotgan bir davrda intellektual mulkning yangi ob'ektlarivujudga kelmoqda va fuqarolik-huquqiy munosabatlari haqida o'quv qo'llanmalarni va shu saho bo'yicha ilmiy ishlarni olib borishni taqoza yetmoqda. Xulosa sifatida shuni aytib o'tish kerakki, intellektual mulk huquqi xususida so'z borganda mulk huquqining o'ziga xos turi nazarda tutiladi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida "Intellektual mulk huquqi" o'quv kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002.
2. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006.
3. Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi. O'zbekiston Respublikasi FA I. Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti. - T.: Falsafa va hukuk instituti, 2018.

EKOLOGIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Bo`ronov Sh.Sh., Qo`qon DPI tyutori

Anotatsiya. Ushbu maqolada ekologik rivojlanishda dastlabki amalga oshiriladigan ishlar, e'tibor qaratishimiz zarur bo'ladigan jarayonlar keltirilgan. Insonlardagi ekologik tarbiyani, ekologik dunyoqarashni o'stirishni yosh ulg'aygandan keyin emas balki, dastlabki yoshlik davrlardanoq singdirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birgalikda kutilgan natijani berishi mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar uchun ekologik ta'limning ahamiyati haqida fikr yuritilib, uni amalga oshirishda nimalarga etibor qaratishimiz zarurligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tabiatga muhabbat, atrof-muhi, yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, kuzatish, ekologik idrok, mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash.

Inson dunyoga kelar ekan, ma'lum bir hayot sharoitida bo'ladi va u bilan har doim o'zaro atrofdagilar bilan ta'sirga kirishadi. Ammo mutlaqo aniq bo'lishi uchun aytish kerakki, individning individual mavjudligi embrionlik paytidan boshlanadi. Shuning uchun insonni o'rab turuvchi ilk yashash muhiti – ona vujudi deb hisoblash mumkin. U inson naslini to'laqonli rivojlanishiga imkon yaratib, nafaqat qon orqali ozuqa bilan ta'minlaydi, balki insoniyat individualligining betakror dasturini shakllantiruvchi ilk tashkiliy muhit sanaladi. Avvalo tarbiyaning har qanday turini eng avval yoshlikdan, bolalik chog'idanoq berilishi zarurligiga ko'p bor amin bo'lganmiz. Darhaqiqat "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir", albatta bu so'zlar zamirida olam-olam ma'no bordir. Ota-onalar, tarbiyachilar yosh farzandlarining eng ko'p e'tibor beradigan jihatlari farzandining toza-ozoda yurishlariga e'tibor qilishadi. Farzandining kiyimidan tortib har bir yosh bolalaracha o'ynaydigan o'yinchoqlarigacha toza-pokiza bo'lishiga da'vat qilishadi. Yashash joyini, pokiza tutishi, uni iflos qilmasliklari, iste'mol qilayotgan meva-sabzavotlarni yuvilgan pokiza holda tanavvul qilishlari, taom yeyishdan oldin va keyin qo'llarini yuvishliklarigacha ko'pchilik ota-onalar qunt bilan o'rgatishadi.

Bolalarni ekologik dunyoqarashini shakllanishi ham ana shu soddagina, lekin yuksak ahamiyatga ega bo'ladigan tarbiya jarayoniga bog'liqdir. Bular esa kelajakdagi yuqori darajadagi ekologik ma'naviyatli shaxsning voyaga yetishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladigan masalalar ham talaygina. *"Ayni paytda farzandlarimiz tarbiyasida hal qiluvchi bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining zamon talablariga mos kelmasligi ham sir emas. Ushbu sohaga bir paytlar e'tiborimizni susaytirib yuborganimiz oqibatida ko'pgina muammolar yig'ilib qolganini ochiq aytish lozim. Bog'cha tarbiyasini ko'rgan bolaning ongi, dunyoqarashi qanday yuqori bo'lishini bugun kimgadir isbotlab o'tirishning, o'ylaymanki, hech qanday hojati yo'q"* [1; 28-b.].

Ekologik dunyoqarashni shakllantirishda xalqizning juda mohirona urf-odatlarini, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tarbiya usullariga juda ham boy. Har bir jarayonni hikoyalar, hadislar, maqollar, matallar, she'r yoki boshqa bir turdagi hal og'zaki ijodi namunalaridan foydalanadilar. Bu esa ekologik dunyoqarashni rang-barang jozibador bo'lishini ta'minlaydigan jihatdir. Dastlabki beriladigan ekologik ta'lim yosh avlodning keyingi rivojlanish uchun muhimdir, bola hayotning dastlabki yetti yilida bolaning shaxsiyati rivojlanadi, uning aqliy va jismoniy ko'rsatkichlari doimiy ravishda takomillashib boradi va to'laqonli shaxs shakllanadi. 10 yoshgacha bo'lgan davrda bolaga tirik dunyo bilan o'zaro munosabatlarning poydevori qo'yiladi. Bu yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash tirik dunyo qiymatini shakllantirishni nazarda tutadi, bu vazifani bolalar bog'chasi o'qituvchisi va ota-onalarning e'tibori muhim o'rin egallaydi.

Tabiatga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lishni oldini olish uchun, dastlabki yillardan boshlab ekologik madaniyatni rivojlantirishga kirishish kerak. Shu bois, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim dolzarbligi ortib bormoqda. Yosh bolaning tabiatga nisbatan asosi bo'ladigan eng munosib vaqtdir. Erta yoshdagi bolalar juda hissiy, samimiy va rahm-shafqatli bo'lib, tabiatni tirik organizm deb his qilishadi. Tabiatga muhabbat – juda keng qamrovli va murakkab his-tuyg'udir. U yuksak ruhiy va aqliy qatlamlarni o'z ichiga oladigan murakkab bir butunlikni tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga doir tadqiqot ishlarini olib borgan M.Umarovning fikricha, bu hissiyotni tarbiyalashni bolalikning erta yoshidan boshlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Har bir bolada o'zi yashab turgan mahalliy o'lka va O'zbekiston tabiatiga muhabbat bilan qarash, unga ko'ngil qo'yish ishtiyoqi o'sib boradi [3; 6-b.]

"Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va

jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz [2; 14-b.]. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ushbu fikrlarida yoshlarimizning mamlakatimiz kelajagida tutgan o`rni yukak darajada ekanligiga yana bir bor amin bo`lamiz. Yoshlarning g`oyaviy-siyosiy ongini shakllantirish, ularda atrof-muhitga, jamiyatga ongli munosabatda bo`lish, jonajon Vatanini cheksiz sadoqat bilan sevishtirish, xalqimizning milliy qadriyatlarini e`zozlash hissini tarkib toptirish - vatanparvarlik tarbiyasining mag`zi bo`lmog`i lozim.

Atrof-muhit haqida ma'lumotlar bolalar tomonidan eng oddiy kuzatuvlar, xulosalar, tajribalar davomida olingan, bolalarga tirik va jonsiz dunyoning xilma-xilligini tushunishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi fiziologik, psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda ekologik yo`nalish darslari bolalarga tabiat hodisalari bilan tanishish, ularning ahamiyati, maqsadini tushunishga yordam beradi. Yoshligidan tabiatni sevishtirishga, qadrlashga odatlangan bola hech qachon daraxt va butalarni kesmaydi, hayvonlarni qiynamaydi va gullarni yirtmaydi. Ekologik ta`lim maktabgacha ta`limning muhim qismidir. Bolalar psixologlari va ekologlari tomonidan ishlab chiqilgan turli xil texnikalar kelajakda birinchi sinf o`quvchilariga daraxtlar, gullar, qushlar, hayvonlar, baliqlarni sevishtirishga yordam beradi. Ekologik ta`lim uchun ko`plab maktabgacha ta`lim muassasalarida o`zlarining yashash burchaklarini yaratdilar. Ularning aholisiga g`amxo`rlik ekologik madaniyatni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O`zbekiston, 2018. – 512 b.
2. Mirziyoyev S. Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalkda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagitangan Oliy Majlis palatalarining ko`shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: O`zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Ibroimov Sh.I., Fathullayeva M.M. Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish // Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-1148-1157
4. Mavlonova O`. Maktabgacha ta`lim yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni shakllantirish. – Samarqand, 2013. – 57 b.
5. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o`qitish metodikasi. – Toshkent: Cho`lpon, 2005. – 240 b.

